

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

S.F.ABDIRASILOV

TASVIRIY SAN‘AT O‘QITISH METODIKASI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan «5141600 – Boshlang‘ich ta‘lim va sport tarbiyaviy ish»
bakalavr ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan

TOSHKENT – 2012

UDK: 75.03 (075)

KBK 74.268.51

A15

A15 S.F.Abdirasilov. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi.
– T.: «Fan va texnologiya», 2012, 232 bet.

ISBN 978–9943–10–731–1

Mazkur darslikda tasviriy san'at o'qitish metodikasi fanini maqsad va vazifalari, boshlang'ich sinflarda tasviriy san'at ta'lim mazmuni va uni o'qitish metodikasi, boshlang'ich tasviriy san'at asoslari, natyurmort, rangshunoslik, badiiy bezak grafikasi, haykaltaroshlik, tasvirlarning metodik asoslari kabi masalalar o'z aksini topgan. Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktabining tasviriy san'at dasturini o'rganish va uni rejalashtirish, har bir mashg'ulot turlariga dars bayonini va ishlanmasini tayyorlash hamda ularning har biriga ko'rgazmali qurollar tayyorlash, namunaviy darslarni tashkil etish va o'tkazish, keyin ularni tahlil qilish, pedagogik tasvirlar ishlash uslublari, tasviriy san'at asarlarini badiiy tahlil qilish haqida metodik tavsiyalar bayon etilgan.

Darslik oliy o'quv pedagogika instituti va universitetining boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish - 5141600 bakalavr yo'nalishining talabalari uchun mo'ljallangan, shuningdek, pedagogika kolleji talabalari ham foydalanishi mumkin.

UDK: 75.03 (075)

KBK 74.268.51

Taqrizchilar: N.ABDULLAYEV–K.Behzod nomidagi Milliy rasomlik va dizayn instituti professori;
S.BULATOV–Amaliy san'at va uni o'qitish metodikasi kafedrası professori, p.f.doktori;
O'.NURTOYEV–Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi kafedrası dotsenti, p.f.nomzodi.

ISBN 978–9943–10–731–1

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2012.

KIRISH

Ushbu darslik boshlang'ich ta'lim va tarbiyaviy ish bakalavr ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, bugungi kun talablarini hisobga olib tuzildi. Unda bo'lajak boshiang'ich ta'lim o'qituvchilarini barkamol inson etib tarbiyalashda tasviriy va amaliy san'atimizning tutgan o'rni, badiiy ta'limni rivojlantirish, madaniy merosimizni mukammal bilish yo'lidagi olib borilayotgan ta'lim-tarbiyaviy ishlarning mohiyatini ochib berish nazarda tutilgan. Darslik bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi tasviriy san'atning tur va janrlari, tasviriy san'at nazariyasi va tarixi, boshiang'ich sinflarda tasviriy san'at o'qitish metodikasi kabilardan nazariy bilim asoslari va amaliy ko'nikmalarini egallashga qaratilgan.

I bob. TASVIRIY SAN'AT O'QITISH METODIKASI FANINING NAZARIY MAZMUNI

1.1. Tasviriy san'at o'quv fani, uning maqsadi va vazifalari

Ma'lumki, Oliy va o'rta maxsus pedagogika o'quv yurtlarida ta'lim mazmuni kunning eng dolzarb vazifalaridan biri bo'lib turibdi. Bu vazifani hal etish hozirgi davr o'qituvchisini o'z fani doirasida chuqur va keng bitimli, shuningdek, ijodkor va izlanuvchan bo'lishini talab qiladi.

Shu maqsadda boshlang'ich ta'lim va tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishida «Tasviriy san'at o'qitish metodikasi» fani o'qitiladi. Bu fanning asosiy maqsadi talabalarni boshlang'ich sinflardagi «Tasviriy san'at» darslarini o'qitishga tayyorlash, tabiatdagi hamda tasviriy san'at asarlaridagi go'zallikni ko'ra bilish va idrok etish, badiiy did, ko'rish xotirasi, rangni sezish, fazoviy tasavvur, kuzatuvchanlik va badiiy ijodiy qobiliyatlarni o'stirishdan iborat.

«Tasviriy san'at o'qitish metodikasi» kursining asosiy vazifalari quyidagilar:

– bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tasviriy san'at metodikasi bo'yicha bilim va malakalarni hosil qilish va o'stirish;


– bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga tasviriy san'atning nazariy va amaliy asoslari (yorug', soya, perspektiva, kompozitsiya) haqidagi bilimlarni puxta egallashga yordam berish;

– bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida rasm ishlash va badiiy ijod bo'yicha ko'nikma va malaka hosil qilish;

– o'zbek va jahon xalqlari tasviriy, amaliy va me'morchilik san'ati bilan yaqindan tanishtirish va chuqur o'rgatish;

– tasviriy san'at o'qitish metodikasining o'ziga xos rivojlanishi tarixi, maqsad va vazifalari, nazariy asoslari haqida ma'lumot berish;

– talabalarni zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'llari bilan tanishtirish.



Bosqichli natyurmort.

Tasviriy san'at o'qitish metodikasi mashg'ulotlarida fanning nazariyasi va o'qitish usullari, shuningdek, tasviriy san'at asoslari hamda uning tarixi masalalariga alohida e'tibor berilgan. «Tasviriy san'at o'qitish metodikasi» kitobi ketma-ketlik bosqichlari asosida tasvirlar chizish, mustaqil ravishda tasviriy va amaliy mavzularga kompozitsiyalar ishlash, loy va plastilindan har xil narsalar haykalchalarini yasash, rang xususiyatlari bilan yaqindan tanishtirish, tasviriy san'at tarixi asoslarini o'rganish hamda umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida tasviriy san'at o'qitish metodikasiga oid materiallarni o'z ichiga oladi. Talabalarga ta'lim berishning asosiy shakllari: ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar ishlari va mustaqil tayyorlanish. Talabalar ma'ruzalarda tasviriy san'at fani va uni o'qitish metodikasining nazariy asoslari, metodlari va uning tarixiy rivojlanishini o'rganadilar, tasvirlashning nazariy asoslari, san'at tarixidan qisqacha ma'lumotlar hamda umumta'lim boshlang'ich maktablarining tasviriy san'at bo'yicha dasturlari mazmuni bilan tanishadilar.

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar qalam yordamida tasvirlashning oddiy asoslaridan boshlab murakkab narsalarni tasvirlashgacha bo'lgan chuqur bilim va amaliy malakalarni o'zlashtiradi, rangtasvir va kompozitsiya bo'limlarida rang bilan ishlash xususiyatlarini amalda bajarish, badiiy asarlarga esa illyustratsiyalar ishlashni o'rganadilar. Shuningdek, umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf dasturlariga muvofiq talabalar mavzuli-tasvirli rejalar, dars turlariga ishlanmalar tuzadi, ularga didaktik materiallar tayyorlaydi hamda badiiy bezak

san'ati va amaliy grafik ishlar, haykaltaroshlik bilan shug'ullanish nazarda tutilgan.

Rasm chiza bilish va hamma masalalarga ijodiy yondashish barcha sohalarda zarurdir. Ijodiy yondashish butunlay yangi g'oyalar va tasavvurlarni vujudga keltiradi, shaxsni badiiy rivojlantirishda muhim o'rinni egallaydi.

Metodika ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining o'quvchilar bilan ishlash usullarining mazmunining xususiyatlariga qarab chiqadi. Ma'lumki, maktabda o'qitishning xilma-xil metodlari qo'llaniladi. Bu yerda ta'lim usuli, o'quv materiallarining joylashishi (o'quv, reja, dastur), ta'lim prinsiplari va yana (so'ngida), o'quv tarbiyaviy ishlarning umumiy maqsad va vazifalari eng muhim ahamiyatga egadir.

«Metod» so'zi grekcha bo'lib, «Tadqiqot yo'li» «billish usuli» ma'nosini anglatadi. Pedagogik o'qitish metodlari deganda, maktab o'quvchilarning bilim, mahorat va malakalarini egallashida, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda va dunyoqarashini tarkib toptirishda o'qituvchilarning qo'llagan ish usullari tushuniladi.



M.Nabiyev. Amir Temur portreti.

Metodika soʻzi avvalo taʼlim va tarbiyaning samarali usullarini majmui maʼnosini bildiradi, mazkur darslik umumtaʼlim maktablarining boshlangʻich sinflarda tasviriy sanʼatni oʻqitish metodikasining bir qator jihatlari koʻrib chiqiladi.

Tasviriy sanʼat oʻqitish metodlari deganda oʻqituvchining oʻquvchilar bilan ishlash usullari natijasida oʻquv materiallarini yaxshi bilib olish darajasiga erishish va oʻzlashtirish darajasini oshirilishi nazarda tutiladi. Har bir oʻqitish metodlari oʻquvchilar egallashi lozim boʻlgan bilimlarining mazmuni (hajmi)ga monand tarzida taʼlim maqsadiga, oʻquvchilarning yosh va fiziologik xususiyatlariga bogʻliq. «Usul» iborasi pedagogik adabiyotlarida tez-tez uchrab turadi. Oʻqitish usuli – bu taʼlim-tarbiyada alohida qismi hisoblanadi, ularning yigʻindisi oʻqitish metodlariga kiradi.

Umumiy yoʻnalishga qaratilgan maʼlum bir oʻqitish metodlari va usullarining majmuasidan oʻqitish tizimi tuziladi.

Tasviriy sanʼat oʻqitish metodikasi pedagogik ilmiy fan sifatida tajribada sinalgan ishlarning nazariy qismlarini umumlashtirib, amaliyotda samarali natijalar bergan oʻqitish metodlarini taqdim etadi. Metodika, asosan, pedagogika, psixologiya, estetika va sanʼatshunoslikning tadqiqot natijalariga asoslanadi. U tasviriy sanʼatni oʻrgatish qonun qoidalarini taʼriflab beradi, kelajak avlodni tarbiyalashning zamonaviy metodlarini belgilaydi.

Amaliy metodika, taʼlim va tarbiyaning rivojlanish jarayonini oʻrganadi. Pedagogik mahorat koʻnikmalarini oʻrganish uni egallashga qaratilgan maʼlum isteʼdod, qobiliyatlar va ishtiyoqlar (moyilliklar) mavjud boʻlishini talab etadi, chunki metodika fani sanʼat pedagogikasining mashaqqatli murakkab va juda masʼuliyatli sohasidir.

Demak, tasviriy sanʼatni oʻqitish metodikasi fani pedagogika ilmining oʻquvchilarni tasviriy sanʼatga oʻrgatish mazmuni, vazifalari va metodlarini oʻqitishning mazmuni, vazifalarini va metodlarini aniqlovchi, ijodiy ishlardagi oqilona usullarini oʻrganuvchi, taʼlim va tarbiyaning maqsad va vazifalariga tayangan holda samarali oʻquv jarayonini tashkil etuvchi, shakl va yoʻllarini tadqiq etuvchi sohasidir.

Tasviriy sanʼat metodikasi metodika fanining boshqa sohalari kabi umumiy va xususiy turlarga ajratiladi.

Umumiy metodika – oʻquv fanning nazariy qismini asoslariga qarashli savollarni va koʻpchilik fanlarga tegishli oʻqitish usul va uslublarini qoʻllanishlarini koʻrib chiqadi. Bular quyidagilar:

– tasviriy sanʼat fanining maqsad va vazifalari;

- tasviriy san’at fani dasturlarining tuzilishi va mazmuni;
- o’qitishning tashkiliy shakllari va metodlarini ishlab chiqishi;
- ko’rgazmali metodik vositalarni tadqiq qilish va tanlash (o’quv ko’rgazmali qurollar va texnik vositalari);
- tasviriy san’atning boshqa fanlar bilan bog’liqligi (adabiyot, musiqa, biologiya, tarix);
- tushunchalarni, iboralarni ta’riflash va boshqalar.

Xususiy metodika – biron-bir o’quv fanining o’qitish uslubi nazarda tutiladi.

- ko’rgazmali qurollardan foydalanish bo’yicha tavsiyalar beriladi;
- amaliy va ijodiy ishlarning mazmunlari aniqlanadi va h.k.

Hozirgi kundagi rasm o’rgatish metodikasi birdaniga kelib, shakllangan emas, bunga qadar mazkur metodika shakllanishi va murakkab taraqqiyot yo’lini bosib o’tdi. Respublikamizda tasviriy san’atni o’rgatish metodikasining shakllanishida mahalliy olimlar, metodistlarning qator izlanishlari, o’quv qo’llanmalarining ahamiyati juda katta o’rin tutadi. Badiiy pedagogika metodika sohasidagi so’nggi yutuqlari ko’rsatilgan va talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash, ularni metodik bilim va mahoratlar bilan qurollantirish, o’qitish san’atini egallashga yordam berishni o’ziga asosiy maqsad qilib qo’ygan.



A. Hamdamov.
Kulol H. Pahimova portreti.



A. Perov.
Buxorolik zardo’zchi qizlar.

O'qituvchi tasviriy san'at darslarining tashkilotchisi, rahbari va ilhomchisi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan o'quv-tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishga dastur asosida o'qitiladigan tasviriy san'at mashg'ulotlari narsaning asliga qarab tasvir chizish; xotira va mavzu asosida tasvir chizish; dekorativ amaliy san'at va haykaltaroshlik; san'atni idrok qilish kabi turlarda olib boriladi. Quyida biz tasviriy san'at fanning turlarini ko'rib chiqamiz.

O'qituvchi tasviriy san'at darslarida o'quvchilarni dars mavzusiga aktivlashtirish uchun dars mavzusining mazmuni, hayotdagi ahamiyati va uni chizish qoidalarini tushuntirishi zarur. Ba'zida o'qituvchilar tasviriy san'at darslarini tashkil etish uchun o'quvchilarga dars mavzusi yuzasidan savollar berib, unga berilgan javoblarni to'ldirish kabi vositalardan foydalaniladi.

O'quvchilar dars va darsdan tashqari vaqtlarda mustaqil ravishda bajarayotgan ishlari vositasi bilimga, malakaga, ijodiy ko'nikmaga ega bo'ldilar, o'qituvchining vazifasi o'quvchilarning mustaqil ishlariga yordam berishi, rag'batlantirish metodi asosida ilhomlantirish, yutuq va kamchiliklarini o'z vaqtida ko'rsatish, ularni o'z kuchiga ishonchini mustahkamlashida rahbarlik qiladi.

1.2. Shaxsning badiiy madaniyati va ma'naviyatini rivojlanishida tasviriy san'atning o'rni

Insomiyat ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi san'atdir. U musiqa, teatr, kino, badiiy adabiyot, xoreografiya, tasviriy va amaliy bezak san'ati kabi boshqa turlarini o'z ichiga oladi. San'atning har bir turi o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni aks ettirishda har xil vositalardan foydalanadi, masalan, adabiyot – so'zdan, musiqa – tovushlardan, tasviriy san'at – rang va chiziqlardan va hokazo. Shu bilan birga, har bir san'at turi o'z ichida yana xillarga va janrlarga bo'linadi.

San'atni tushunish, uning kishilar hayotidagi rolini aniqlash masalasi butun madaniyat tarixi davomida keskin bahs, tortishuvlarga sabab bo'lib kelgan.

San'atning eng qadimiy va keng tarqalgan turlaridan biri – tasviriy san'atdir. Odatda real borliqni badiiy obrazlarda, mavjud predmetlarni tabiiy shaklimi o'ziga o'xshatib umumlashtirib ifodalaydi hamda predmetlarning hajmi, o'zaro fazoviy joylashuvini va hokazolarda aks ettiradi.



S.Rahmetov. Istirohat bog'ida kuz.

San'atkor o'z asarida voqea, hodisa, holatning ma'lum bir zumdagi ko'rinishini ifodalab, u tasvir orqali rivojini, mohiyatini ochib berishga intiladi, kishilarning ma'naviy qiyofasi, psixologik holati va boshqa fikrlarni ilgari suradi va tasavvur qiladi.

Rassom biror shaxsni rasmini ishlar ekan, u hech vaqt uni faqat o'ziga o'xshatishga ishtilish bilan chegaralanmaydi. Rassom shu ishlayotgan tasvir orqali avvalo o'zining fikr va tuyg'ularini tomoshabinga yetkazishga harakat qiladi. Ishlamoqchi bo'lgan tasvirida avvalom bor g'oyasiga mos mavzu, syujet tanlaydi, voqea kompozitsiyasini quradi, shu yo'lda izlanadi, dastlab hayotni o'rganib, naturani kuzatib, eskizlar chizadi, etyudlar yaratadi. Rassomlik san'atida predmetlarning shakli, hajmi, rangi, ularning o'zaro muvozanatini to'g'ri ko'rsatishda rasmni aniq va to'g'ri ishlashning juda muhim ahamiyati bor.

San'atkor o'z asarida real borliqda uchraydigan, balki inson fantaziyasi mahsuloti bo'lgan voqea va predmetlar ham aks ettirilishi, hayotda mavjud bo'lgan hodisalarning ayrim jihatlari o'zgartilib,

bo'rttirib ko'rsatishi ham mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, tasviriy san'at asarlari – insondagi ajoyib fazilat – borliqni bilish, uni o'rganish va sirlarini ochishga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga ta'sir ko'rsatadi.

Tasviriy san'at inson ongiga tezda ta'sir etib, unda ezgu hislar uyg'otadigan, kishini ruhlantirib, ma'naviy olamini boyitadigan san'at turlaridan biridir. Shu bilan birga, tasviriy san'at inson shaxsining shakllanishiga va kamolatiga yordam beradigan tarbiyachi hamdir.

Pedagogika instituti va universitetlarining pedagogika va boshlang'ich ta'lim metodikasi fakultetlarida ta'lim oluvchi talabalar tasviriy san'atdan maxsus bilim va malakalarga ega bo'lishi o'quvchilarni badiiy-ijodiy qobiliyatlarini, badiiy didni, rang sezishni, fazoviy tasavvurini, buyuk rassomlar asarlarini go'zalliklarini ko'ra bilishga va ularni hissiy idrok etishga olib keladi.

Tasviriy san'at o'qitish metodikasi bo'yicha to'la bilimlarga ega bo'lish, ayniqsa, O'zbekistonda va chet ellarda fanning o'qitish tarixi, o'quv fanning maqsad va vazifalari, ta'limning mazmuni, shakllar, usullari haqida chuqur bilimlarga ega bo'lish tasviriy san'at o'qituvchi faoliyatida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, bugungi o'quvchi kelajakda ishchi, xizmatchi, dizayn-konstruktor, muhandis, shifokor, o'qituvchi, yurist yoki harbiy mutaxassis yoki biron bir sohani yaratuvchisi bo'ladi. Ularni har biri uchun rasm chizish, undan foydalanish lozim bo'ladi. Hatto uy bekasi ham rasmni ko'ra olishi, tushunishi, bu zamonning eng zarur faoliyatidir. Hozirgi davrda har bir erkak zoti mashina haydashni, texnika bilan shug'ullanishiga, uy bekalarini esa dazmol, tikuv mashinasi, radio, televizor, kir yuvish mashinalari, muzlatgich, elektr plita, sut, qaymoq olish mashinalari kabi yuzlab texnik buyumlar bilan shug'ullanadilar. Ularga bu asbob-texnika vositalarini ishlatish va ularni sozlash uchun grafik bilim va malakalar darkor. Shu boisdan har bir kishi rasm chizishni, grafik tasvirlarini bilishi maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda har bir shaxsni grafik bilimga ega bo'lishi uning o'ziga ham, jamiyatga ham suvdek zarur. Shunga ko'ra fransuz faylasufi Didro, bundan qariyb 300 yillar avvaldanoq, - «Qaysi bir mamlakatda rasm chizishni o'qish-yozish kabi bilsalar edi, bu mamlakat barcha sohalarda har qanday mamlakatni quvib yetadi va ortda qoldiradi» - degan edi.¹

¹ Sitata N.Rostotsevnig «Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi» kitobidan olindi. M., 1980-y. 12-bet.

Tarix shohidkim, jahonga mashhur geograflar, tarixchi, adabiyotchi, shoir, yozuvchilar, konstruktor va boshqa soha allomalari rasm chizishni juda yaxshi bilganlar. Shunga ko'ra Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Gyote, Gyugo, Anderson, Pushkin, Tagor, Mikluxo-Maklay, Mendeleev, B.Zokirov kabi turli soha ijodkorlari rasm chizish bilan jiddiy shug'ullanib kelganlar.

Xullas, har bir sohani ijodkori uchun rasm chizishni bilish unga katta ijodiy imkoniyat va ozuqa beradi.



N.Qo'ziboyev. Al-Xorazmiy.

Agar har bir o'qituvchi rasm chizishni bilganda edi, ular dars berishda yuksak samaralarga erishardi, dars mashg'ulotlarini o'zlashtirish ham o'quvchi uchun juda oson va yengil bo'lardi, hatto o'zlashtirmovchi o'quvchini bo'llishi ancha qiyin bo'lardi. Shularga ko'ra bugungi maktab o'quvchilariga badiiy bilim va malaka berishga katta e'tibor berilmoqda.



V.Fadiyev. Beruniy.

Rasm chizishni o'rganish uchun alohida iqtidor, iste'dod kerakmi?! Agar astoydil istasa, har kim, qobiliyatidan qat'i nazar savodli chizishga o'rgana oladi. Chizishni o'rganish, savodli yozish yoki maktab matematika kursini o'zlashtirishga qaraganda murakkab emas. Faqat intilish va asosiysi – yaxshi iroda, rasm istalgan kash, istalgan mashg'ulot egasiga zarurligini tushunish kerak.

Chizishni bilgan san'atning barcha turlarini tushunadi, unga avval odatiy ko'ringanlarning barchasida go'zallikni ko'ra biladi: uning fikrlash doirasi keng, ma'naviy dunyosi boy, u qiziqarli va shodon hayot kechiradi.

Chizishni billsh ko'pchilikka: geograf, botanik, geolog, arxitektor, uchuvchi va boshqalarga amaliy jihatdan ham kerak. Masalan, II jahon urushi qahramonlaridan biri - 62 fashist samolyotini urib tushirgan (o'zi biror marta hatto yaralanmagan uchuvchi Ivan Nikitovich Kojedub havo jangi texnikasida unga rasm chizish malakalari ko'maklashganini ta'kidlagan. Rasm chizish tufayli unda snaypercha ko'z o'tkirligi, idrok tezligi va reaksiya tezligi rivojlangan. Axir rassom harakatlanayotgan predmetni nafaqat tez ilg'aydi, balki uni tez chizadi ham. Kojedub dushmanlaridan reaksiya tezligi va aniqligida ustun va shu sababli g'alaba qilar edi.

Muhandis, pedagog, jarroh, astronom ishida rasm chizish foyda bermaydimi.

Buyuk olim, adib va san'at arboblari (Lomonosov, Lermontov, Shevchenko, Siolkovskiy, Timiryazev) tasviriy vositalarni egallaganliklari muhim kashfiyotlarda, durdona badiiy asarlar yaratishda ko'maklashgan. San'at barcha kasb egalari (do'st va hamkor) bo'la oladi.

Rassomlarning ko'zi o'tkirligi, idrok va reaksiya tezligi yaxshi ma'lum:

– rassom N. Jukov bilyardda doim g'olib bo'lishi bilan faxrlangan;

– ertakchi rassom Viktor Vasnetsov gorodkini yuqori mahorat bilan o'ynashi ko'pchilikni lol qoldirgan;

– manzarachi I. Levitan miltiqdan Vilgelm Telldek otgan - «o'qni o'qqa» joylagan;

– XVI asr italyan zargar va haykaltaroshi Benvenuto Chellini artlleriya sifatida janglarda qatnashgan. «Mening rasm chizishim va ajoyib mashg'ulotlarim yozadi u, – va musiqa chalish go'zalligi. barchasi shu qurollarda «chalishimda» ketdi». Darhaqiqat, ko'z o'tkirligi talab etiladigan o'rinlarda rassomlar oson g'olib bo'lishadi. Mikelandjelo aytganidek, san'at ularning ko'zlarida sirkul va chizg'ichni bir paytning o'zida joylashtirishga o'rgatgan.

Ram chizish nafaqat ko'rish idroki tezligini, balki yaxshi ko'rish xotirasini ham shakllantiradi. Razvedkasi Iogann Vays (Sasha Belov) maxfiy hujjatlarning ko'plab sahifalarini bir ko'rishda eslab qolgani ko'pchilikka ma'lum. Mo'jizami. Yo'q mo'jiza emas, mashq qilishi.

Rassomlar hamisha ko'rish xotirasi kuchlligi bilan shuhrat qozonib kelgan.

1. Levitan o'rtoqlarini lol qoldirgan. Qish tunida bir guruh rassomlar o'rmonga sayrga o'tlanishadi. Ular ertaklardagidek go'zal manzaraga guvoh bo'lishadi - moviy, oy shu'lasini yoritib turgan qorda kul rang-pushti jernovlar va ular uzra qorga o'rangan qarag'aylar. Hamma manzaradan bahra olib, uy-uyiga tarqaydi. Oradan bir necha kun o'tib, rassomlardan biri Levitan ustaxonasida kartmani ko'radi: xuddi o'sha tungi manzara – moviy qordagi kul rang-pushti jernovli manzara. Levitan uni, razvedkachi Vays maxfiy hujjatlarni eslab qolgani kabi eslab qolgan va xotiradan chizgan.

Rassom Ayvazovskiy shunday ko'rish xotirasiga ega ediki, dengiz ko'rinishlarini o'z ustaxonasiga qamalib olib tasavvuri bo'yicha chizardi. Hikoya qilisharicha, u Peterburgdagi bir kvartiradan ketayotib, devorda kiyim ilgich ostiga o'z po'stinini shunday chizib qo'yganki, uy egasi ijarachi po'stinini unutib qoldiribdi, degan xayolga borgan. Faqat yaqinroq kelganidagina, po'stim chizib qo'yilganini fahmlagan.

Shunday qilib, barchaning san'at va go'zallik olamini bilish ta'limning barcha sohalarida jadal rivojlanishga olib keladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda tasviriy san'at o'qitish metodikasi asosiy predmetlardan biri hisoblanadi va o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

1. Talabalarga tasvirlash asoslarini o'rgatish, ya'ni badiiy ijodning psixologik asoslari bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar – qiziqish, diqqat, idrok va sezish, xotira va tasavvurni yaxshi bilishi bolalar badiiy ijodini faollashtirishda foydalanishga o'rgatish.

2. Talabalarning badiiy ijodiy qobiliyatlarini o'stirish, ularning badiiy didini tarbiyalash, borliqdagi va san'atdagi go'zalliklarni ko'ra bilishga o'rgatish.

3. Bo'lajak o'qituvchilarni tasviriy san'at darslarini olib borishga tayyorlash va shu bilan birga mashg'ulotlarni hayot bilan bog'lab o'tishga o'rgatish.

4. Sharq mumtoz san'ati, hozirgi zamon o'zbek tasviriy san'ati, sharq xalqlari va xorijiy mamlakatlar san'atlari haqida qisqacha ma'lumot berish.



R.Choriyev. Ahmad.

II bob. TASVIRIY SAN'ATNI O'QITISHINING QISQACHA TARIXI

2.1. Chet ellarda rasm chizishni o'rgatish tarixidan


Mazmuni: Tasviriy san'at o'qitishiga doir eng qadimgi va o'rta asr boshlaridagi (Misr, Yunon, Qadimgi Rim) ma'lumotlar. Tasviriy san'at o'qitish metodikasini rivojlantirishda Uyg'onish davri rassomlarining xizmatlari (Chennino Chennini, Leon Alberti, Leonardo da Vinchi, Albrext Dyurer). XVII–XIX asrlarda G'arbiy Yevropada rasm chizishni o'rgatish metodikasiga bo'lgan turli qarashlar.

XVIII–XIX asrlarda Rossiyaning pedagogika o'quv yurtlarida tasviriy san'at fanining o'rni. I.D. Preysler, A.G. Sapojnikov, G.A. Gipiyslarning tasviriy san'at o'qitish metodlarining rivojlanishidagi o'rni. P.P. Chistyakov, D.N. Kardovskiylarning pedagogik qarashlari va tasviriy san'at o'qitish uslublari.

Misr. Yunoniston. Rim. Jahonda tasviriy san'atni o'qitilishiga dastlabki ma'lumotlar qadimgi Misr va Yunonistonda eramizdan avvalgi III asrlarga doir materiallar mavjud. Qadimgi Misrda tog' qoyalariga o'yib ishlangan haykallar, shuningdek, rangtasvir asarlari o'zining yuksak badiiyligi va ishlanish texnikasi jihatidan kishilarni hayratga solib kelmoqda. Kishilar o'z tajribalarini keyingi avlodlarga turli yo'llar bilan ibtidoiy jamoa davridan boshlab o'tkazib kelganlar. Bunga eng qadimgi Misrda rasm chizishga o'rgatishga doir tarixiy manbalar guvohlik beradi.


Tasviriy san'atni o'qitish ishi bilan odamlar qadimdan shug'ullanib kelganliklari ko'proq qadimgi Misr manbalarida saqlanib qolgan. Misr maktablarida rasm ishlashga o'rgatish munozam ravishda chizmachilik bilan bog'liq holda amalga oshirilgan. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda maktabni tugallab chiqayotgan yoshlar ma'lum maydon yuzasini o'lchash va uni qog'ozga tushura oladigan, bino planini chizma oladigan, ariq va kanallarning sxemasini tasvirlay oladigan bo'lishlari talab etilgan.

y-7326




Rasm bolalarni yozish savodini chiqarishda ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Masalan, harfni o'rgatish uchun narsalarning tasviri chizdirilgan.

Bolalarni rasm chizishga o'rgatishda qo'lni erkin harakat qilishiga alohida e'tibor berilgan. Erkin, yengil, ravon chiziqlar chizish doskada yoki papirus qog'ozlarda bajarilgan.



**Qadimiy Misr.
Odam tanasining
kanoni.**



Misrdagi rasm chizishga o'rgatish maktabi.

Shuni ham alohida qayd qilish lozimki, bu davr maktablarida faqat bolalar o'qiganligi sababli ularga nihoyatda yuqori talablar qo'yilgan. Shuning uchun ham talab va ko'rsatmalarga rioya qilinmaganda bolalar qattiq jazolangan, hattoki, yog'och bilan kaltaklangan.

Misr maktablarida rasm chizishga o'rgatish nazariyasi bor-yo'qligi ma'lum bo'lmasa-da, ayrim rasm chizish qoidalari qo'llanilgan. O'qituvchilar rasm chizishni (shakl, rang, o'lcham, tuzilishi v.b.) tabiatni kuzatish asosida emas, ko'proq namunadan, sxemadan ko'chirish orqali o'rgatganlar.

Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, Misrda rasm chizishga o'rgatish qadimgi Yunonistondan ancha avval boshlangan. Itallyalik XV asr me'mori, artisti, yozuvchisi va olimi L.B.Alberti shunday deb yozadi: «Misrliklarning yozishicha, rangtasvir ishlash ularda Yunonistondan 6 ming yil avval mavjud bo'lgan»¹.

¹ Альберти Л. Три книги о живописи. М., 1933. стр. 40.

Rasm chizishga o'rgatish qadimgi Yunonistonda ham o'ziga xos yo'nalishda amalga oshirilgan. Ularda rasm ishlashga o'rgatishda tabiatni, butun borliqni o'rganishga, unda go'zalliklarni idrok etishga alohida e'tibor berilgan. Rasm ishlash uchun yog'och taxta ustiga asalari mo'mi surtilgan va uning ustini bo'yoq bilan sidirg'a bo'yalgan. Rasm ana shu yuza ustiga o'tkir metall yoki suyak bilan chizilgan. Noto'g'ri chizilgan rasm qo'l bilan ishqalanib, chiziqlar o'rni to'ldirib o'chirilgan. So'ngra tekis yuzaga yangi rasm ishlangan.

Eramizdan avvalgi 432-yilda yunon haykaltaroshi Poliklet inson tanasi a'zolari o'rtasidagi mutanosiblik, proporsionallikka doir namuna sifatida «Dorifor» haykalini yaratdi. Keyinchalik u barcha maxsus badiiy va badiiy bo'lmagan maktablarda o'rgatildi.


Yunon rassomlari borliqni va turmushdagi go'zalliklarni kuzatish asosida tasvirlashni qonun va qoidalarini ishlab chiqqanlar. Ularning fikricha

go'zallik, ko'proq xushbichim, tartib, ritm va simmetriya, bo'laklar o'rtasidagi mutanosiblik, to'g'ri matematik munosabatlarda ifodalanadi.

Keyinchalik Yunonistonda rasm ishlashning bir necha o'ziga xos maktablari paydo bo'lgan. Ular orasida tasviriy san'at va uni o'qitish taraqqiyotida Sikion maktabi katta rol o'ynagan. Bu maktabda o'qitish ishlari ilmiy asosda tashkil etilgan bo'lib, bolalar ko'proq tabiatga, uning qonuniyatlarini bilishga qaratilgan.

Bu maktabni bitirganlar orasida Pamfildek mashhur rassomlar ham bo'lgan. Pamfil rasm chizishning ta'lim va tarbiyaviy ahamiyatini ko'rsatib bergan. Bu haqda uning zamonadoshi Pliniy shunday deb yozgan edi: «Uning sa'y-harakati bilan avval Sikionda, so'ngra Yunonistonda hamma bolalarga rasm chizishni o'rgatish lozimligi belgilab qo'yilgan. Boshlang'ich ta'lim rasm chizishdan boshlanishi qayd qilingan edi».

Uyg'onish davri. Uyg'onish davrida Italiya tasviriy san'ati va uni o'qitish metodi katta rol o'ynagan. Bu davrda rasm chizish umumiy ta'lim beradigan o'quv predmetlari qatoriga kiritildi. Mashhur




**Qadimiy Yunon.
Poliklet. Inson
tanasining
mutanosibligi.**

rassomlardan Chennino Chennini, Leon Batista Alberti, Leonardo da Vinchilar bu borada e'tiborga loyiq ishlarni amalga oshirganlar. Ularning asarlarida fan va san'at o'rtasidagi aloqalar, proporsiya, perspektiva, anatomiya masalalari asosiy o'rinni egalladi. Ularning fikrlariga ko'ra naturaga qarab rasm ishlash o'qitishning asosini tashkil etish lozim hisoblangan.

Ayniqsa, Leonardo da Vinchi tasviriy san'atni o'qitish metodikasi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. U o'zining «Книга о живописи» nomli ishida rassomlikni jiddiy ilmiy fan sohasi deb qaraydi. U ko'p yillar davomida anatomiya, rang, kishi a'zolari o'rtasidagi mutanosiblik qonuniyatlarini ishlab chiqqan.

Tasviriy san'atni o'qitishni takomillashtirishda Uyg'onish davrining nemis rassomlaridan A.Dyurerning xizmatlari katta bo'ldi. U birinchi bo'lib rasm ishlashni yengillashtirish uchun geometrik metodni o'ylab topdi. Uning fikricha, har qanday buyum, narsalar asosida geometrik jism shakli yotadi. Shuning uchun u yoki bu narsalarni tasvirlashda avval geometrik jism shaklini chizib olinishi lozim, keyin ular umumlashtirilib, haqiqiy tasvir hosil qilinadi. Keyinchalik uning bu metodi Dyupyui, Ashbe, Chistyakov kabilarning pedagogik faoliyatlarida keng qo'llanila boshlangan. Hozirgi kunlarda ham bu metod o'z kuchini yo'qotganicha yo'q.



A.Dyurer. Apparat yordamida perspektivada tasvirlash.
Setka orqali perspektivada tasvirlash.

Uygʻonish davri rassomlarining katta xizmatlari shundan iborat boʻldiki, ular tasviriy sanʼatda anatomiya, perspektiva, yorugʻ-soyaning benihoyatda katta ahamiyatini asoslab berdilar. Natijada sanʼat asarlari oʻzining yuksak hadiyligi va haqqoniyligi bilan tomoshabinlarni lol qoldiradigan boʻldi.




A.Dyurer. Bosh konstruksiyasini tasviri.




Shon. Qalamtasvir.


Shunga qaramasdan tasviriy sanʼatni oʻqitish tizimini yaratish ularga nasib etmadi. Bu muammolar, asosan, XVI asrdan boshlab yechimini topa boshlagan. Bir qator akademiyalar tashkil etilishi ishni yengillashtiradi. Bunday akademiyalar Florensiya, Rim, Balon kabi shaharlarda ochildi. Avvalgi vaqtlarda bunday maktablar xususiy shaxslar tomonidan tashkil etilgan boʻlsa, endi davlat va jamoalar ham bunga oʻz ulushlarini qoʻshaboshlagan edilar. Bu oʻquv yurtlari orasida mashhur rassom, haykaltarosh va muallim aka-uka Karrachilar hamda uning amakivachchalari Agostino va Annibale tomonidan ochilgan badiiy Akademiya koʻproq iz qoldirdi. Ular yaratgan oʻqitish tizimida oʻquv materiallarini qisqa vaqtda oʻzlashtirish, oʻquvchilarni ilmiy bilimlar, muntazam mashq, qonun va qoidalar asosida rasm ishlash malakalarini hosil qilish asosiy oʻrinni egalladi.



S.Botticelli.
Nisbat kanoni.



G.Golbeyn. Qoramalar.



F.Dyupyui modellari.

Bu rassom-o'qituvchilar o'zlaridan avval o'tgan rassomlarning tajribalari va yutuqlarini umumlashirib, talabalarni shu asosda o'qitishga harakat qildilar. Ular o'z faoliyatlarida yorug'-soya, kolorit, rang, konstruksiya, anatomiya, perspektiva masalalariga alohida e'tibor berdilar. Ayrim tarixiy va san'atshunoslik ma'lumotlariga qaraganda A.Dyurer tomonidan bir qator nazariy va amaliy qo'llanmalar yaratilgan. Lekin ulardan ayrimlari saqlanib qolgan, xolos.

Akademik tizimiga ko'ra jiddiy ilmiy bilimlarsiz rasm ishlashni o'rganib bo'lmaydi. Bolalar rasm chizish orqali borliqni bilib boradilar. Bu sifat har bir shaxs uchun, u qaysi sobaning mutaxassisi ekanligidan qat'i nazar zarur deb hisoblandi.

XVII-XIX asrlarda G'arbiy Yevropa. Keyinchalik Baloni akademiyasi ta'sirida Parijda, Venada, Berlinda, Madridda, Peterburgda, Londonda ana shunday akademiyalar ochildi.

Tasviriy san'atni hamma umumiy ta'lim maktablarida o'qitilishining foydali ekanligi buyuk chex pedagogi Ya.A.Komenskiy tomonidan uning «Buyuk didaktika» asarida rivojlantirildi.

Umumiy ta'lim tizimida rasm ishiashni takomillashtirishda fransuz olimi J.J.Russoning fikrlari diqqatga sazovordir. U o'zining «Емил или воспитание» nomli kitobida borliqni bilishda naturaga qarab rasm ishiashning ahamiyati katta ekanligini isbotlab bergan. Uning fikricha rasm chizishni ko'proq tabiat qo'ynida amalga oshirish samaralidir. Chunki, bolalar tabiat qo'ynida narsalarni haqiqiy rangi, perspektiv qisqarishlarini ko'rgazmali ravishda o'z ko'zlari bilan ko'radilar, uning qonunlarini ongli ravishda tushunib yetadilar.

Yevropa pedagoglari orasida rasm chizishni umumiy ta'lim maktablarida alohida o'quv predmeti sifatida o'qitilishi va uni takomillashtirishda I.V.Gyote (Germaniya), I.G.Pestalotssi, I.Shmidt va P. Shmidt (Shvetsariya), A. Dyupyui va F. Dyupyuilar (Fransiya) katta hissa qo'shdilar.


Umumiy ta'lim maktablarida rasm ishlashda natural metoddan ko'ra geometrik metodlarni afzalliklarini N.Pestalotssi, P.Shmidt va I.Shmidt kabl pedagoglar yoqlab chiqdilar. Natijada, maktablarda rasm chizishga o'rgatishda ikkita qarama-qarshi natural va geometrik metodga asoslangan ikki oqim paydo bo'ldi. Naturaga asoslangan rasm chizishni ustunliklarini Ya.A.Komenskiy, J.J.Russo, I.V.Gyotelar yoqlagan bo'lsalar, geometrik metodni ko'proq I.G.Pestalotssi, I.Shmidt va P.Shmidt, F.Dyupyuilar asoslashga harakat qildilar.

Lekin XIX asrning ikkinchi yarmidan geometrik metod Yevropaning ko'p mamlakatlarida qo'llanila boshlandi. Shunday qilib, XIX asr o'rtalariga kelib, Yevropada rasm chizish fan tarzida umumiy ta'lim maktablarida o'qitilishi ancha rivoj topdi. Bu sohada rassom va muallimlardan tashqari san'atshunoslar, pedagog, psixologlar, shifokorlar shug'ullana boshladilar. Rasm chizishni o'qitishi metodologiyasiga doir bir qator adabiyotlar nashr etila boshlandi. Bu borada Kulman, Prang, Elsner, Baumgart, Ausberg, Braunshvig, Tedd kabilar jonbozlik ko'rsatdilar. Bular tomonidan yaratilgan adabiyotlarda rasm chizish qoidalari, uning metodikasida qarama-qarshi fikrlar bo'lsa-da, biroq natural metod borasida bunday qarama-qarshi fikrlar ro'y bermadi.

XVIII–XIX asrlarda Rossiya. Rasm chizish Rossiya maktablarida umumiy ta'lim o'quv predmeti sifatida XVIII asrning boshlarida paydo bo'ldi. Bu davrda rasm chizish Dengiz akademiyasi, xirurgiya maktabi,



kadetlar maktabida, fanlar akademiyasi qoshidagi gimnaziya, qizlar tarbiya bilim yurtida o'qitilgan.

Bu o'quv yurtlarida rasm chizishga o'rgatish rassomlar tayyorlash uchun emas, balki yoshlarni kasbiy faoliyati va kelajak hayotlarida foydalanishlari uchun kerak bo'ladigan soha deb qaralar edi.



A.Sapojnikov. Boshning simli modeli.

1934-yilda rus rassomi A. Sapojnikov birinchi bor umumiy ta'lim maktablari uchun «Rasm chizish kursi» nomli darslikni yaratdi. Mazkur darslik naturaga qarab rasm chizishga asoslangan edi. Darslik realistik rasm ishlash asosida qurilgan bo'lib, unda perspektiva, yorug'-soya qonunlari ham o'z aksini topgan edi. Shu bilan bir qatorda Sapojnikov sim, karton, gips kabi materiallardan narsalar tuzilishi, perspektiv qisqarishi, hajmiga doir metodik ko'rgazmali qurollar majmuasini ham yaratdi. Muallifning tavsiyalariga ko'ra har qanday natura asosiga turli hajmli va yuzali geometrik shakllar yotishi, shuning uchun ham rasm chizishda geometrik metoddan foydalanish maqsadga muvofiqligi bayon etilgan.



I.D.Preysler qo'llanmasi.

Rossiyada tasviriy san'atni umumiy ta'lim maktablarida o'qitilishiga doir yirik fundamental asar yaratganlardan biri G. A. Gippius bo'ldi. Uning «Очерки теории рисования как общего учебного предмета» nomli asarida o'sha davrdagi rasm chizishga o'rgatishdagi eng ilg'or g'oyalar o'z aksini topgan edi.

Rossiya maktablarida rasm chizish ommaviy tarzda o'qitila boshlangach rassom-o'qituvchilarning yetishmasligi muammosi paydo bo'ladi.

Maxsus o'qituvchilar tayyorlash maqsadida 1825-yilda Moskvada Stroganov nomidagi texnikaviy rasm bilim yurtida yangi bo'lim ochilib, unda rasm o'qituvchilari tayyorlana boshladi. 1879-yildan esa Sank-Peterburg badiiy akademiyasi qoshida rasm o'qituvchilari tayyorlovchi kurs ochildi. Bu kurslar uchun dastur, metodik materiallar tayyorlashda badiiy akademiya professori P. Chistyakov faoliyat ko'rsatdi. Bu davrda tuzilgan dastur va qo'llanmalarda A.Sapojnikovning geometrik ko'chirish metodlari amaliyotdan chiqarilib, maktabda rasm darsi faqat natural metod asosida rasm ishlashdan iborat ekanligi qayd qilindi. Mazkur dastur va qo'llanmalarda bolalar tasviriy faoliyatlariga erkinlik berish lozimligi ham belgilab qo'yildi. Rasm chizish muammolarini hal qilishda XIX asr boshlarida Moskva va Peterburg shaharlarida tashkil etilgan «Rasm o'qituvchilari jamiyati» e'tiborga loyiq ishlarni amalga oshirdi. Bu davrda mutaxassislar orasida rasm chizishga o'rgatish

masalalari katta qiziqish uyg'otgan bo'lishiga qaramasdan, bu sohada qarama-qarshi g'oyalar ham kuchaydi. Ana shundaylardan biri formalistik oqim edi. Bu oqimning vakillaridan Kershenshteyner va Dyupyui g'oyalarini Rossiyada tashviqot qilishda Bakushinskiy katta rol o'ynadi. Uning fikricha badiiy tarbiyada «Maktab» kerak emas, bolalarni o'qitish ham kerak emas, ular xohlagan ishlarini bajarsinlar, o'qituvchi faqat kuzatib turishi lozim. 1918-yilda Peterburgda nashr etilgan V.I.Beyer va A.K.Voskresenskiylarning «Рисование на начальной ступени обучения в связи с лепкою и черчением» nomli qo'llanmalarida naturaga qarab rasm ishlash, illyustrativ rasm ishlash, dekorativ rasm ishlash va suratlarini kuzatish bo'limlari mavjud edi.

1931-yil 5-sentabrdagi «О начальной и средней школе» nomli davlat qarori asosida maktab dasturlarida bu o'quv predmetining maqsad va vazifalari qayta ko'rib chiqildi. Rus sovet badiiy ta'limining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatganlardan biri **D.N.Kardovskiy** edi. Bu badiiy ta'lim tizimi realistik san'at prinsiplariga asoslangan bo'lib, D.N.Kardovskiyning tashabbusi va sa'y-harakati bilan 1942-yili Moskva pedagogika instituti qoshida badiiy-grafika fakulteti ochildi.



D.Kardovskiy. Rasm chizish qo'llanmasidan.

Rossiyada rasm chizish metodikasini takomillashtirishda 1933- yilda tashkil topgan «Bolalar badiiy tarbiyasi markaziy uylari» muhim ahamiyat kasb etdi. Bu markaz faoliyati bilan bog'liq holda P.Ya.Pavlinovning «Графическая грамота», N.Radlovning «Рисование с натуры», «Сборник заданий по рисованию», Ya.Bashilov va E.Kondaxchanlarning «Детский рисунок» va boshqa qo'llanmalari chop etildi.

Rossiyada, shuningdek, sobiq Respublikalarda rasm chizishni rivojlanishida 1943-yilda tashkil topgan Rossiya pedagogika fanlari akademiyasi katta rol o'ynadi.

Keyinchalik bu akademiya asosida 1967-yilda sobiq pedagogika fanlari Akademiyasi tashkil topib, uning tarkibida badiiy tarbiya ilmiy tadqiqot instituti ochildi. Bu institut umumiy o'rtta ta'lim maktablarida estetik tarbiyaga doir ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borishda asosiy markaz bo'lib qoldi. Bu borada Rossiya Maorif vazirligi tasarrufida tashkil etilgan maktablar ilmiy tadqiqot instituti va uning tasviriy san'atni o'qitishga oid laboratoriyasi diqqatga sazovor ishlarni olib bordi.

Rossiyada ikkinchi jahon urushidan so'ng samarali faoliyat ko'rsatganlardan biri **E.Kondaxchan** edi. U o'zining «Методика преподавания рисунка в средней школе» nomli qo'llanmasida bu boradagi ilg'or tajribalarga asoslanib realistik san'at va rasm chizishga



V.E.Savinskiy.
Qalamtasvir.

o'rgatishning asosini naturaga qarab rasm ishlash egallashi lozim deb yozdi. U Rossiyada 1925–50-yillarda keng tashviqot qilib kelingan Bakushinskiyning «Erkin tarbiya» nazariyasiga qarshi chiqib, ta'lim va tarbiyada o'qituvchining katta rahbarlik faoliyatini qattiq turib himoya qildi. U «Erkin tarbiya» nazariyasi o'qituvchi rolini kamaytiruvchi va o'qitishda tartibsizlikni vujudga keltiruvchi «metod» deb o'z g'oyalarini asoslashga harakat qildi.


XX asrning ikkinchi yarmida o'qitish metodikasiga doir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. Natijada, rasm chizish bo'yicha 1963–70-yillarda I–VI sinflar

uchun sinov darsliklari tayyorlanib, nashr etildi.

Bu darsliklar V.V.Kolokolnikov (1 va 2-sinflar), S.A.Fyodrov, M.N.Semyonova (3 va 4-sinflar), E.E.Rojkova, E.L.Xersonskaya (5-sinf), L.L.Makoed (6-sinf)lar muallifligida tayyorlandi.

Rossiya maktablarida ta'lim mazmunini isloh qilish borasida hukumat qarorlari asosida rasm chizish o'quv predmetini maqsad va vazifalari va ta'lim mazmuni bir necha bor qayta ko'rib chiqildi. Natijada, 1970-yilda «Рисование» o'quv predmetining nomi «Tasviriy san'at» deb o'zgartirildi. Bu nomda tayyorlangan dasturda estetik tarbiya vazifalari hamda rassomlar asarlarini o'rganitishiga doir qismlar kengaytirilgan edi.

Rossiyada XX asrning ikkinchi yarmida «Tasviriy san'at» o'quv predmetini o'qitilishini yaxshilashda bir qator pedagog olim va metodistlar faollik ko'rsatdilar. Natijada «Рисование» darsliklaridan tashqari ko'plab ilmiy-metodik va metodik adabiyotlar nashr etildi. Bunda G.V.Labunskaya, V.V.Alekseeva, V.S.Sherbakov, A.G. Shimanskaya, A.V.Karlson, G.I.Orlovskiy, R.I. Korguzalova, A.S. Brajnikova, N.N.Rostovtsev, V.S.Kuzin, E.V.Shoroxov, T.Ya. Shpikalova, B.P.Yusov kabilar samarali mehnat qildilar.



**Bosh tasvirining metodik bosqichi. A.Solovyev,
G.Smirnov, E.Alekseyeva. «O'quv qalamtasvir»
qo'llanmasidan.**

Rossiyada tasviriy san'atni o'qitishning psixologik asoslari haqida ham ilmiy tadqiqotlar olib borilib, bu haqda bir qator adabiyotlar nashr etildi.

Rossiyada 1970-yillarga kelib, umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'atni o'qitish mazmunini to'g'ri belgilash va uni takomillashtirish borasida bir qator olim va rassomlar guruhi paydo

bo'ldi. Bulardan biri badiiy tarbiya ilmiy tadqiqot instituti tasviriy san'at laboratoriyasining mudiri, professor B.P.Yusov, ikkinchisi Rossiya maktablar ilmiy tadqiqot institutining tasviriy san'at laboratoriyasining mudiri, professor V.S.Kuzin, uchinchisi sobiq Ittifoq rassomlar Uyushmasining kotibi, uyushma qoshidagi estetik tarbiya komissiyasining raisi rassom B.M.Nemenskiy edi.

Ular mustaqil ravishda alohida-alohida olim va metodistlar guruhini tashkil etib, tasviriy san'atdan sinov dasturlarini yaratdilar.

Birinchi va uchinchi guruh olimlari tomonidan tuzilgan dastur «Tasviriy san'at va badiiy mehnat» deb nomlanib, u I-X sinflarda o'qitish uchun mo'ljallangan edi. B.P.Yusov rahbarligida tuzilgan dastur har bir sinfda bu o'quv predmetini ikki soatdan o'qitilishini nazarda tutgan edi.

V.S.Kuzin rahbarligida tuzilgan dastur esa I-7-sinflarda haftasiga I soatga mo'ljallangan edi. Bu dasturlar 1985-yillarga qadar sobiq ittifoqining o'ndan ortiq maktablarida sinovdan o'tkazildi. Bu dasturlar katta ijobiy natijalar berganligiga qaramasdan amaliyotga joriy etilmadi. Biroq, undagi ayrim ilg'or g'oyalar yangi tuzilgan dasturlarda o'z ifodasini topdi.

Rossiyada 1970–2000-yillar davomida olib borilgan ishlar mazmuni turli-tuman bo'ldi. U estetik va badiiy tarbiyaga doir xalqaro, federatsiya miqyosida ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazish, ilmiy-metodik to'plamlar nashr etish, o'quvchilarning ijodiy ko'rgazmalarini tashkil etish yo'nalishlarida amalga oshirildi.

Savollar:

1. Misr, Yunon, Qadimgi Rimda tasviriy san'at o'qitishiga doir ma'lumotlar haqida gapirib bering.

2. Tasviriy san'at o'qitish metodikasini rivojlanishida Uyg'omish davri rassomlarining xizmatlari nimadan iborat ?

3. XVII–XIX asrlarda G'arbiy Yevropada rasm chizishni o'rgatish metodikasiga bo'lgan qanday qarashlarini bilasiz?

4. XVIII–XIX asrlarda Rossiyaning pedagogika o'quv yurtlarida tasviriy san'atning o'rni.

5. I.D. Preysler, A.G. Sapojnikov, G.A. Gippius, P.P. Chistyakov, D.N. Kardovskiylarning qo'shgan hissalarini nimadan iborat ?

2.2. O'rta Osiyo va O'zbekistonda tasviriy san'atni o'qitilishi

Mazmuni: Sharq miniatyura maktablarining rivojlanishi va ularning uslublari. O'rta Osiyo, Eron, Hind, Misr miniatyurası. Kitoblarga bezak ishlash maktabi (K.Behzod). Samarqand, Shoxruxiya, Buxoro maktablari. O'zbekistonda tasviriy san'atni o'qitilishga doir dastlabki ma'lumotlar. O'zbekis-tonda XX asr boshlarida tasviriy san'atni o'qitilishi va shakllanishi. Tasviriy san'at o'qituvchilarini o'quv-metodik majmualar bilan ta'minlanishi.

O'zbekiston hududida eramizdan avval ham tasviriy san'atning rangtasvir, haykaltaroshlik, me'morchilik turlari nihoyatda rivojlangan bo'lib, ularning namunalari Varaxsha, Afrasiyob, Qalchayon, Tuproq qal'a, Bolalik tepa, Ayrtom, Dalvarzin tepa, Fayoz tepa, Qo'yqirilgan qal'a, Ajina tepa, Teshik qal'a va boshqa bir qator joylardan topilgan. Bu asarlar eramizdan avvalgi IV-I asrlarda yaratilgan bo'lib, ularning yoshi 5-6 ming yilga to'g'ri keladi. Bu asarlarning badiiyligi hozirgi zamon rassomlari va haykaltaroshlarining asarlaridan qolishmaydi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bunday yuksak badiiy saviyadagi asarlarni o'sha davrda to'plangan ilg'or tajriba, tasviriy san'at maktablarisiz yaratish mumkin emas. Ma'lumki, san'at bir necha avlodning ko'p yillar davomida shakllangan an'analari, ustaning shogirdga o'tkazgan bilimlari asosidagina taraqqiy topadi. Bu esa so'zsiz umumiy badiiy ta'lim yo'nalishida bo'lmasa ham, kasbiy badiiy ta'lim shaklida rivojlanganligidan dalolat beradi. Ma'lum davrlarda O'zbekiston hududidagi san'at taraqqiyotida uzilishlar ro'y berganligining sabablari, Iskandar Zulqaynar, mo'g'iliar, arab, rus istilollariga borib taqaladi. Amir Temur mustaqil davlat tuzgan davrda tasviriy san'atning miniatyura turini gullab-yashnagani ham buning yaqqol dalilidir. Amir Temur davrida miniatyura va ktob grafikasi shunchalik tez rivojlandiki, u nafaqat Sharq, hattoki Yevropa mamlakatlari san'atiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Natijada, Samarqand, Buxoro, Hirot miniatyura maktablari bilan bir qatorda Bag'dod, Tabriz, Sheroz, Ozarbayjon, Hind, Isfaxon, Turk miniatyura maktablari ham shakllandi va rivojlandi.

Mazkur miniatyura maktablarida, xususan, umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun tayyorlangan dasturlarida san'atshunoslik asoslari, rangtasvir va qalamtasvir ishlash, naturaga qarab tasvirlash, borliqni idrok etish bo'limlari mavjud bo'lib, kasbiy badiiy va umumiy badiiy

ta'lim tizimlari o'rtasiga qat'iy chegara qo'yib bo'lmaydi. Tasviriy san'atning nazariy asoslari hisoblangan rang, hajm, perspektiva, kompozitsiya asoslari kabllar, ham kasbiy, ham umumiy ta'lim tizimida o'rganiladi. Faqat tasviriy san'atni o'qitilishida talaba va bolalarning yoshlari, idroki, psixologik xususiyatlari, tasviriy malakalari hisobga olinishi lozim, xolos.

Tasviriy san'at tarixida buyuk naqqosh va musavvir Kamoliddin Behzodga Hirotlik Mirak naqqosh ustozlik qilgani, unga miniatyura rangtasviri sirlarini o'rgatgani haqida ma'lumotlar bor. Shuningdek, ustoz Mirak naqqoshning Hirot «Nigoristoni» (San'at akademiyasi) bo'lganligi va unda Kamoliddin Behzod tarbiya olganligi ham ma'lum.

Professor Orif Usmonov o'zining «Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi» nomli kitobida Behzod Tabrizda yashagan vaqtda nafis tasviriy san'at maktabini yaratganini qayd qiladi. U yerda musavvir o'z atrofiga eng iste'dodli yoshlarni to'plagani, ularga san'atining sir-asrorlarini o'rgatgani va Tabrizda Sulton Muhammad, Mirzo Amir, Oqo Mirak, Muzaffar Ali, Sulton Muhammad Nur, Shomuhammad Nishopuriy, Yusuf Mullo, Mir Ali, Rizo Abbosiy, Mahmud Muzahhib, Mavlono Yoriy, Hasan Bag'dodiy, Abdulla Sheroziy, Darvesh Muhammad, Mir Said Ali, Qosim Ali singari o'nlab iste'dodli musavvirlarni tarbiyalaganligini yozadi. Uning shogirdlari Behzodning tasviriy san'at uslubini davom ettirganlari ham rasmiy ma'lumotlardan ayon.

O'zbekistonda hozirgi zamon ta'lim tizimining paydo bo'lishi XX asrning birinchi choragiga to'g'ri keladi. Bir guruh fan va madaniyat vakillari Sankt-Peterburg va Moskvalik rassomlar Turkistonga yuboriladi. Bu rassomlar Turkistonning yirik shaharlarida badiiy studiyalar tashkil etdilar, o'z asarlarining ko'rgazmalarini o'tkazdilar.

1918-yilda Toshkentda badiiy kommuna ochiladi, bir yildan keyin Samarqandda Turkiston o'lka badiiy xalq maktabi ishga tushadi. 1920-yilda Andijonda rangtasvir maktabi, yangi Buxoroda san'at to'garagi tashkil etildi, musulmonlar uchun tasviriy san'at kurslari ochildi. Bir yildan so'ng respublikada badiiy maktab va studiyalar soni 29 taga yetdi va unda shug'ullanuvchilar soni 500 kishidan oshib ketdi. 1921-yili ochilgan badiiy politexnikumda 170 o'quvchidan 150 tasi o'zbeklar edi.

1924-yilda Toshkent tasviriy san'at muzeyi qoshida badiiy studiya ochildi. Unda M.Kupriyanov (Mashhur Kukrnikslar guruhidan), S.Chuykov, mahalliy yosh rassomlardan O'. Tansiqboyevlar yoshlar bilan mashg'ulotlar olib bordilar. 1927-yilga kelib, Toshkent va 1929-

yilda O'zbekiston poytaxti hisoblangan Samarqandda badiiy bilim yurti tashkil etildi. Bu bilim yurtlariga ko'proq mahalliy yoshlar qabul qilindi. Bu bilim yurtlarining asosiy maqsadi rassomlar tayyorlash bo'lsa-da, umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun o'qituvchilar tayyorlash borasida ham ma'lum rol o'ynadi.

Shu bilan birga ta'lim tizimida estetik va badiiy ta'lim masalalariga ham e'tibor qaratila boshlandi.

Natijada maktab dasturlari qayta ko'rib chiqildi. Rasm darslarining asosini naturaga qarab rasm ishlash, mavzu asosida rasm ishlash, dekorativ rasm ishlash, san'at haqida suhbat o'tkazish mashg'ulotlari tashkil etdi. Bu dasturlarda o'lkashunoslik materiallari ko'p bo'lmasada, har qalay o'z aksini topdi, eng muhimi bu dasturda darsdagi o'qituvchilarning yetakchilik rollari katta ekanligi belgilab qo'yildi.

1924-yilga kelib, maktab o'quv rejalarida rasm darslari o'z o'rnini topmagan bo'lsa-da, ayrim rassomlar bolalar tasviriy ijodini rivojlantirishga harakat qildilar. Ana shunday iqtidorli yosh grafik rassomlardan biri Iskandar Ikromov edi. U 1925-yilda «Maorif va o'qituvchi», keyin «Alanga» jurnallarida rasm chizishga doir maqolalar e'lon qildi. 1932-yilga kelib, uning «Rasm chizishni o'rganish qo'llanmasi», 1933-yilda esa «Kitob va jurnallar qanday nashr etiladi» albomi nashr etildi. 1935-yilda rassomning «Harf yozishni o'rgan» kitobi ham chop etildi. Bu maqola va kitoblar yagona mehnat va politexnika maktablari talablarini asosida yaratilgan «Rasm» predmeti dasturlariga mos edi. Mazkur ishlar faqat umumiy ta'lim maktablari uchungina emas, balki tasviriy san'at studiyalari, klublar, havaskorlik to'garaklari, grafikani mustaqil o'rganuvchilar uchun ham ahamiyatli bo'ldi.

1920-yilgi o'quv rejalarida san'atga doir o'quv predmetlariga tegishli o'rin ajratilmagan bo'lsa-da, 1929-yilga kelib, bu kamchilik bartaraf etila boshlandi. Maktablarda maxsus rasm o'quv predmetlari o'qitila boshlandi. Lekin O'zbekiston maktablari Rossiya maktablari uchun yaratilgan dasturlar asosida ishlay boshladi. Bu dasturlar ma'lum miqdorda O'zbekiston sharoitiga moslab lokalizatsiyalashgan edi. Shu munosabat bilan O'zbekiston xalq morifi kommissarligi tegishli joylarga yuborilgan xatida shunday deyilgan edi: «Majmuaning maqsadi unga tegishli material mazmuni, majmua bilan ishlash metodlari lokalizatsiya qilinadi. O'qituvchi oldindan o'lkashunoslik materiallarini to'plab olgan holda, o'z tumani hayotiga oid eng xarakterli jihatlarni dasturga kiritadi».

Shu munosabat bilan boshlang'ich sinf «Rasm va loy ishi» dasturiga o'lkalari materiallari kiritila boshlandi. Ular tevarak-atrof tabiatiga doir narsalar, O'zbekiston xalq amaliy san'atiga doir materiallar edi.

Respublikamiz uchun tayyorlangan va nashr etilgan dasturlar mazmuni va vazifasi jihatidan Rossiya maktablari uchun tayyorlangan dasturdan deyarli farq qilmagan, lekin uning hamma bo'limlarida mahalliy sharoit va materiallar ma'lum miqdorda hisobga olingan edi. Xususan, narsaga qarab rasm chizish darslarida Respublikamizga xos bo'lgan predmetlar va tabiat mahsulotlari, dekorativ ishlar bo'limida o'zbek amaliy san'at namunalarini chizdirish tavsiya etilgan edi.

1939-yillarda maktablarda rasm darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarda tasviriy malakalarni o'stirish, ko'proq rasm chizishga o'rgatishdan iborat bo'lishi lozim deb topildi. Shuning uchun ham rasm darslarida tarbiyaviy tomonlarga yetarlicha e'tibor berilmadi.

Ikkinchi jahon urushl yillarida va qisman undan keyingi yillarda ham rasm darslarining vazifalari o'zgardi, uning mazmunida ta'limdan ko'ra tarbiyaviy jihati kuchaytirilgan bo'lib, unda asosiy e'tibor vatanparvarlik va baynalmilal tarbiyaga qaratildi. Shu maqsadda rasm darslari vatanparvarlik va baynalmilal mazmundagi tasviriy san'at asarlari bilan boyitildi.



O'zbekiston ganchkorlari.



**Xalq ustasi Q. Jalilov
portreti.**

1947–48-o'quv yili uchun tuzilgan o'quv rejada «Rasm» uchun haftasiga I sinfda 1 soat, II sinfda 1 soat, III-IV sinflarda 0,5 soat, V sinfda 1 soat vaqt ajratilgan bo'lib, natijada umumiy haftalik soatlar 4 soatni tashkil etdi.

1950–60-yillar davomida tayyorlangan va nashr etilgan dasturlarda «Rasm» o‘quv predmetining vazifasi oldin tuzilgan dasturlardan farq qildi.

1953-yilda nashr etilgan dastur «Rasm solish» deb nomlanib, u o‘quvchilarni tarbiyalashda katta rol o‘ynashi ta’kidlangan bo‘lsa, 1956-yilda nashr etilgan «Rasm» dasturida esa bu predmetning vazifasi o‘quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalash vazifasiga xizmat qiladigan va o‘quvchilarni har tomonlama kamol toptirishga yordam beradigan o‘quv predmetlaridan biri deb ko‘rsatildi.

1958–59-o‘quv yiliga kelib, o‘quv rejasida rasm chizishga ajratilgan soatlar oshdi va I–VI-sinflarda haftasiga 1 soatdan o‘qitila boshlandi.

Umuman olganda, 50-yillarda Respublika hukumati tomonidan maktablarda rasm predmetining o‘qitilishiga bo‘lgan e’tibor kuchaydi. Bu avvalo maktablar uchun o‘qituvchi kadrlar tayyorlashda o‘z aksini topdi. Ma’lumki, maktabda badiiy ta’limni rivojlantirish ko‘p jihatdan pedagogik kadrlar tayyorlashga bog‘liq edi. 1950-yillarda bu masala bilan Samarqand va Toshkent badiiy bilim yurtlarini birlashtirish natijasida tashkil topgan P.P. Benkov nomidagi badiiy bilim yurti shug‘ullana boshladi. Bu badiiy bilim yurti maktablarda rasm o‘quv predmetlarning o‘qitilishini sifat jihatidan yaxshilashga ma’lum miqdorda ta’sir ko‘rsatdi. Bu ta’sir maktablar bilan bir qatorda, maktabdan tashqari olib boriladigan seminar, konferensiya, yig‘ilishlarda ham o‘z ifodasini topdi. Shuningdek, badiiy bilim yurtini bitiruvchilar maktablarda tashkil etilgan ko‘rgazmalarda ham ishtirok etdilar.



**O‘zbekiston rassomlari: V.Qaydalov, A.Volkov,
O‘.Tansiqboyev va boshq.**

Tasviriy san'atning o'qitilishini takomillashtirishda 1955-yilda Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika institutida tashkil etilgan badiiy-grafika fakulteti katta rol o'ynadi. Mazkur fakultetda kunduzgi, kechki va sirtqi bo'limlar orqali yuqori malakali kadrlar tayyorlana boshlandi. Fakultetda dastlabki yillarda kadrlarni kasbiy tayyorgarligi bo'yicha mashg'ulotlarni Respublikamizning yirik rassomlari olib bordilar. Masalan, O'zbekiston xalq rassomi A.Abdullayev, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan rassomlar Yu.Elizarov, M.Saidov, A.Yurovskiy, T.Oganesov, shuningdek, Leningrad badiiy akademiyasini va Moskva badiiy institutini endi bitirib kelgan yosh, lekin iste'dodli rassomlar R.Choriyev, N.Kovininina va boshqalar shular jumlasidandir.

1964–70-yillarda kadrlar tayyorlash boshqa yo'nalishlarda amalga oshirildi. Bu davrda boshlang'ich ta'lim metodikasi fakultetlarida «Boshlang'ich sinf va tasviriy san'at o'qituvchisi» mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlandi. Bunday yo'nalishlardagi mutaxassislar Toshkent, Urganch, Qarshi, Namangan pedagogika institutlarida tayyorlandi. Keyinchalik yana Toshkent va Buxoro pedagogika institutlarida badiiy-grafika fakultetlari ochildi.

1970-yilda tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchisi mutaxassisligi bo'yicha Toshkent va Buxoro pedagogika institutlari bilan bir qatorda Andijon, Kattaqo'rg'on, Samarqand, Angor, Xiva, Xo'jayli, Shahrixon pedagogika bilim yurtlarida ham kadrlar tayyorlana boshlandi

1980-yil boshlarida tasviriy san'at o'qituvchisi ixtisosligi bo'yicha yiliga tayyorlangan kadrlar soni 800 kishidan ortdi. Bu faqat O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarining tasviriy san'at o'qituvchilariga bo'lgan ehtiyojlarini yaqin yillarda qondirish mumkinligini bildirar edi.

Tasviriy san'atning o'qitilishini yaxshilashda A.Shohamidov, M. Nabiyevlarning 1964-yilda nashr etilgan «I-IV sinflarda rasm darslari» metodik qo'llanmasi, O. Apuxtingning 1965-yilda nashr etilgan «San'at haqida suhbatlar» nomli qo'llanmalari o'qituvchilar tomonidan iliq kutib olindi.

1965-yildan boshlab tasviriy san'at o'qitish metodikasi bo'yicha darslik yaratishga kirishildi. 1969-yilda I sinf uchun «Tasviriy san'at» (A.Jiltsova, R.Hasanov); 1974-yilda II sinf uchun, 1976-yilda III sinf uchun «Tasviriy san'at» (R.Hasanov, A.Jiltsova); 1977-yilda IV sinf uchun «Tasviriy san'at» (R.Hasanov, B.Oripov va boshqalar) nashr

etildi. 1-3-sinflar uchun nashr etilgan darsliklar keyingi yillarda bir necha bor qayta chop etildi.

Tasviriy san'at o'qituvchilarining yetishmasligi natijasida O'zbekiston maorif vazirligi kollegiyasining 1974-yil 26-avgustda «Pedagogika o'quv yurtlarida musiqa va ashula, tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchilarini tayyorlash va bu predmetlarning Respublika umumta'lim maktablari va pedagogika o'quv yurtlarida o'qitilishini yanada yaxshilash haqida»gi qaror qabul qilindi.

Tasviriy san'atning o'qitilishini yaxshilash borasida qabul qilingan O'zbekiston maorif vazirligi kollegiyasining O'zbekiston rassomlar uyushmasi boshqarmasi bilan hamkorlikdagi 1979-yil 27-iyunda «Maktabgacha tarbiya muassasalarining tarbiyalanuvchilari, o'qituvchilar va pedagogika o'quv yurtlarining o'quvchi-yoshlari badiiy tarbiyasini yanada yaxshilash choralari haqida» qabul qilgan qarori salmoqli o'ringa ega bo'ldi.

2.3. Mustaqillik yillaridagi tasviriy san'atni o'qitilishi

Mazmuni: Tasviriy san'at ta'limi konsepsiyasi. Umumta'lim maktablarda tasviriy san'at davlat ta'limi standarti va uning mohiyati. Maktabda tasviriy san'atdan o'quvchilar bilimiga qo'yiladigan minimal talablar. O'qituvchilarni o'quv-metodik majmualar bilan ta'minlanishi. Mustaqillik yillarida tasviriy san'at o'qitish metodikasidan olib borilgan tadqiqotlar.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab Respublikamizda xalq ta'limini tubdan isloh qilish, uni jahonning rivojlangan mamlakatlari darajasiga olib chiqish masalasi kun tartibiga qo'yildi. Shu maqsadda 1992-iyulda «Ta'lim to'g'risida»gi qonun e'lon qilindi. Bu hujjatda ko'rsatilgan reja va tadbirlarni amaliyotga joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb qaraldi.

Natijada umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi barcha o'quv fanlari qatori «Umumta'lim maktablarida tasviriy san'at ta'limi konsepsiyasi» ham tayyorlandi va u O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi kollegiyasining 5-may 1993-yilgi 5-5-sonli qarori bilan tasdiqlandi. Mazkur konsepsiyada qayd qilinganidek, uni tayyorlashda quyidagi omillar hisobga olingan edi:

– mustaqil O'zbekiston sharoitidagi o'zbek bolasini shakllantirishga bo'lgan zamonaviy talablar;

– ta’lim-tarbiyani milliy madaniyat va san’at asosida amalga oshirishni kuchaytirish;

– ta’lim-tarbiyani amalga oshirishda O‘zbekiston Sharq mamlakati ekanligini hisobga olish va shu asosda badiiy ta’lim mazmuniga tegishli o‘zgartirishlar kiritish;

– maktabdagi badiiy ta’limni amalga oshirishda bolalarni fikrlashga, ishga ijodiy munosabatda bo‘lishlikni kuchaytirish, ularni yuksak did va madaniyatli qilib shakllantirishga qaratish;

– maktabda bolalarni tasviriy san’atdan bilim va malakalarni puxta egallashlariga qaratish, shu asosda tabaqalashtirilgan badiiy ta’limni joriy etish;



N.Kashina. Doirachi qiz.

– O‘zbekiston maktablarida tasviriy san’at ta’limi mazmunini dunyo standartlari darajasiga olib chiqish.

Bu g‘oyalar so‘zsiz barkamol komil insonni shakllantirishga zamin bo‘lib, unda tasviriy san’atni o‘qitishning yaqin va uzoq yillarda rivojlantirishga mo‘ljallangan yo‘nalishlari bayon etildi.

Konsepsiyadan tegishli xulosalar chiqargan holda tasviriy san’atdan davlat ta’lim standarti va variativ dasturlarni ishlab chiqish ishlari

boshlab yuborildi. Natijada 1-4-sinflar uchun 270 soatga mo‘ljallangan «Tasviriy san’at va badiiy mehnat», 1-7-sinflar uchun 245 soatga mo‘ljallangan «Tasviriy san’at» dasturlari tayyorlandi. Shuningdek, 1-8-sinflar uchun mo‘ljallangan 560 soatli «Tasviriy san’at» dasturi ham ishlab chiqildi. Bu dasturlar ko‘p nusxada nashr etilib, amaliyotga joriy etildi.

Yangi dastur milliy mustaqillik mafkurasi asosida tayyorlangan bo‘lib, u tasviriy san’at o‘quv predmetining maqsad va vazifalari, ta’lim



F.Berdiyev. Akademik M.Nabiyev portreti.

mazmuni, moddiy-texnikaviy asoslarda o'z ifodasini topdi. Tasviriy san'at darsliklarini yaratish bilan bir qatorda o'qituvchilar uchun o'quv-metodik adabiyotlar ham tayyorlandi. Natijada R.Hasanov va X.Egamovlarning birinchi sinf o'qituvchilari uchun «Tasviriy san'at va badiiy mehnat darslari» (Toshkent: O'qituvchi, 1997), R.Hasanovning 5-sinf o'qituvchilari uchun «Tasviriy san'at darslari» (Toshkent: O'qituvchi, 1997.) nomli qo'llanmalari chop etildi.

1996–1998-yillar davomida 1–4-sinflar uchun «Tasviriy san'at va badiiy mehnat» darsliklari yaratildi, biroq ulardan 1998-yilda faqat birinchi sinf darsligi chop etildi, xolos. Mazkur darslik O'zbekiston maktablari uchun rus, qozoq, qirg'iz, turkman, tojik, qoraqalpoq tillarida ham nashr etildi. Boshqa sinflari esa 1999-yilda yangi o'quv rejaları va ta'limning davlat standartlari ishlab chiqilishi munosabati bilan nashr etilmay qoldi. Ta'limning davlat standartida bu o'quv predmetiga har bir sinfda haftasiga bir soatdan vaqt ajratilgan edi.

1997-yilda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi yangi tahrirdagi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» hujjatlarining e'lon qilinishi katta tarixiy voqea bo'ldi. Unda ta'lim sohasini 1997–2006 va undan keyingi yillar uchun ish rejasi va taraqqiyoti belgilab berilgan edi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da estetik turkumdagi fanlarni o'qitilishiga alohida e'tibor berilgan bo'lib, xususan, uning «Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari» qismida uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish prinsiplaridan biri ta'limning ijtimoiylashuvi deb qaraldi. Unda ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish lozimligi qayd etiladi¹.

Ushbu hujjat asosida barcha fanlar qatori «Tasviriy san'at» o'quv predmetidan ta'limning davlat standarti ham tayyorlandi. Mazkur standartda o'quvchilarni 1-7-sinflarda tasviriy san'atdan o'zlashtirishlari lozim bo'lgan bilim va malakalar belgilab berilgan edi. Unda tasviriy san'at o'quv predmetining maqsad va vazifalari, faoliyat turlariga doir ko'rsatmalar ham bayon etilgan bo'lib, tasviriy san'at mashg'ulotlarining turlari sifatida borliqni idrok etish (1-4-sinflar), badiiy qurish-yasash (1-4-sinflar), naturaga qarab tasvirlash (1-7-sinflar), san'atshunoslik asoslari (1-7-sinflar), kompozitsiya (1-7-sinflar) bo'limlari qayd qilindi.

¹ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. //Barkamel avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: «Sharq», 1997. bet. 44.

Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan davlat ta'lim standarti bo'yicha 1999-yilda o'quv rejalariga o'zgartirishlar kiritildi. Unga ko'ra tasviriy san'at o'quv predmeti 1-7-simflarda o'qitilib, uning nomi hamma simflarda «Tasviriy san'at» bo'lib qoldi. Bu o'zgarishlar asosida yangi darsliklar 2001-yilda R.Hasanov tomonidan 1-3-sinflar uchun tayyorlandi. Bulardan birinchi sinf darsligi 2001–2002-yillarda chop etildi.

Mustaqillik yillarida tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashga alohida e'tibor berila boshlandi. Xususan, 2002-yilga kelib Toshkent, Buxoro, Namangan, Guliston, Andijon davlat universitetlarida, Nukus, Angren, Jizzax davlat pedagogika institutlarida maxsus fakultet va bo'limlar faoliyat ko'rsata boshladi. Tasviriy san'at o'qituvchilari Xiva, Denov, Shahrisabz, Qarshi, Samarqand, Kattaqo'rg'on, Jizzax, Andijon pedagogika bilim yurtlari qoshida ham tayyorlandi.

Xullas, bugungi kunda maktab tasviriy san'atini o'qitilishi, mashg'ulotlarini takomillashtirib borilishi va jarlar samaradorligiga erishishning qator metodik asoslari ishlab chiqilgan bo'lib, ular asosida



N.Oripova. Bahor.

maktab tasviriy san'at o'qituvchilari o'zlarining tasviriy san'at darslari samaradorligi uchun qator metodik imkoniyatlarga egadirlar.

Mustaqillik yilari o'zgarishlar asosida yangi darsliklar 2001-yilda R.Hasanov tomonidan 1-3-sinflar uchun tayyorlandi. Bulardan birinchi sinf darsligi 2001–2002-yillarda chop etildi. Tasviriy san'atni o'qitilishi, mashg'ulotlarni takomillashtirib borilishi sababli 2-3-sinflar uchun darslik M.Isoqova, R.Hasanov, B.Haydarov, A.Sulaymanov, S.Jumaniyozova, B.Azimovlar tomonidan 2009–2010-yilari chop etildi. 2011-yilli yangi darsliklar yaratish bo'yicha 4-5-sinflar uchun tendr e'lon qilindi. 4-sinf darsligini A.Sulaymonov, I.Rahmonov, Z.Sulaymonovalar tomonidan tayyorlanmoqda. 5-sinf darsligi T.Qo'ziyev, S.Abdirasilov, O' Nurtayevlar tomonidan nashrga chop etish uchun tayyorlanmoqda.

III bob. BOSHLANG'ICH SINFLARDA TASVIRIY SAN'AT TA'LIMI MAZMUNI VA UNI O'QITISH METODIKASI

Mazmuni: 1. Tasviriy san'at davlat ta'lim standarti, mohiyati. 2. Standartda tasviriy san'at fanining maqsad va vazifalarining belgilanishi. 3. Tasviriy san'at mashg'ulotlari mazmunini davlat ta'lim standarti bilan bog'liqligi. 4. Tasviriy san'at mashg'ulotlarining turlari va ularning vazifasi va mazmuni. 5. 1-4-sinflarda tasviriy san'at mashg'ulotlarining o'zaro farqi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 16-avgust qaroriga ko'ra 1999–2000 o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim maktablarida barcha fanlar qatori tasviriy san'at ta'limi bo'yicha ham davlat standartlari joriy etildi. Davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqilishi avvalo O'zbekistonning mustaqilligi, uning jahon hamjamiyatiga faol kirib borayotganligi bilan bog'lanadi.

Mazkur standartlar O'zbekiston tarixida birinchi bor yaratilishi bo'lib, u respublikamiz maktablarida ta'limni yuqori ilmiy-metodik asosda tashkil etish hamda uni jahon standartlari darajasiga olib chiqishga sharoit yaratadi.

Davlat standartiga ko'ra tasviriy san'at ta'limi mazmuni boshlang'ich sinflarda quyidagi to'rt yo'nalishda bayon etilgan:

1. Borliqni idrok etish.
2. San'atni idrok etish.
3. Naturaga qarab tasvirlash.
4. Kompozitsiya.

Tasviriy san'at o'quv predmetining maqsadi o'quvchilarda ma'naviy madaniyatning ajralmas qismi hisoblangan badiiy madaniyatni, tasviriy savodxonlikni shakllantirishdan iborat.

Mazkur yo'nalishlar bo'yicha tasviriy san'at o'quv predmetini o'qitishda har bir o'qituvchi asosiy e'tiborni mimalarga qaratilishini bilib olishi kerak bo'ladi. Tasviriy san'atni o'qitishda o'qituvchining e'tibor berishi lozim bo'lgan asosiy jihatiar quyidagilardan iborat:

– borliqdagi va san'atdagi go'zalliklarni ko'ra bilish, idrok etish va qadrlashga o'rgatish;



I. Jabborov. «Amir Temur».
Samarqand.

- badiiy - ijodiy qobiliyatni o‘stirish;
- tasviriy san‘at qonun-qoidalarining oddiy nazariy asoslarini o‘rgatish;
- tasviriy malaka (rasm ishlash, haykal yasash v.b.)larni rivojlantirish;
- estetik va badiiy didni o‘stirish;
- bolalarning badiiy fikr doirasini kengaytirish;
- bolalarga tasviriy, amaliy va me‘morlik san‘ati yuzasidan asosiy tushunchalar berish (san‘atning turlari, janrlari, oqimlar, atama va iboralar v.b.);
- san‘atga qiziqishni o‘stirish va unga nisbatan muhabbatni tarbiyalash;
- tasviriy, amaliy san‘at asarlarini badiiy idrok etishni va undan estetik zavqlanish hissini tarbiyalash;
- bolalarda badiiy kasb-hunarlar haqida tasavvurlarni shakllantirish.

Bu vazifalar maktabda tasviriy san‘at darsini olib boruvchi har bir o‘qituvchini mutaxassis bo‘lishligini talab etadi. Chunki, standart mazmuni mutaxassis o‘qituvchilar uchun mo‘ljallab tuzilgan.

Tasviriy san‘at ta‘limi davlat standarti san‘atning uch turi – tasviriy, amaliy va me‘morlik san‘atlari mazmunini aks ettirgan bo‘lib, u avvalo milliy o‘zbek san‘atini, uning badiiy an‘analarini, ayrim



J. Mirtojiyev. Xalq yozuvchisi
Oybek. Toshkent.

mashhur o'zbek tasviriy, amaliy, me'morchilik san'atlari ustalarining hayoti va ijodini, O'zbekistonda san'atning bu turlari rivoj topgan markazlarni, O'zbekistondagi yirik san'at muzeylarini bilish tasviriy san'at o'quv predmetini vazifalaridan biri ekanligini qayd qiladi. Bundan maqsad milliy san'at vositasida o'quvchilarga badiiy ta'lim berish bilan bir qatorda ularda shaxsni estetik, axloqiy va mehnat tarbiyasini amalga oshirishdan iboratdir. Milliy o'zbek san'atini chet el va jahonning hozirgi zamon ilg'or san'atiga qaraganda kengroq va chuqurroq o'rgatishdan maqsad har bir o'zbek o'quvchisi o'z xalqining tarixini, adabiyotini bilishi shart ekanligi kabi, uning san'atini ham nisbatan kengroq bilishiga erishishdir. Milliy san'at ta'lim mazmunida poydevor bo'lishi lozim.



**R.Ahmedov. Nabi
Rahimov portreti.**



O.Qozoqov. Chorvoq.

Ularni o'rganmasdan turib, yoshlarimiz badiiy madaniyatli shaxs bo'la olmaydi. Aks holda milliy qobiqqa o'ralashib qolish oqibatida ular jahon standartlari darajasiga chiqaolmaydilar. Ayniqsa, yoshlarimiz qadimgi Misr, Yunoniston, Hindiston me'morchiligi, Afg'oniston, Iroq, Turkiya miniatyura rangtasvir asarlari, Yevropada Uyg'onish davri tasviriy san'ati, rivojlangan G'arb mamlakatlarining hozirgi zamon tasviriy va me'morchilik san'ati namunalarini o'rganmasdan va bilmasdan turib madaniylashgan shaxs bo'lish mumkin emas.

Tasviriy, amaliy, me'morchilik san'atlari bo'yicha atama va iboralar, tushuncha va ma'lumotlar o'zlashtirilishi lozim bo'lgan malakalarni o'z ichiga oladi. Bu materillarni bolalar tomonidan

o'zlashtirilishini nazorat qilish esa ularning bilimlarini tekshirishga doir test materiallarini, bolalar tomonidan bajarilgan tasviriy ishlarni baholash mezonlari va boshqa materiallar tayyorlash alohida ahamiyat kasb etadi. Ular o'z o'rnida o'quvchilarning bilim va malakalarini tez va oson baholash imkonini beradi.

Davlat ta'lim standartlari bo'yicha boshlang'ich maktablarning to'rtinchi sinfini bitiruvchi o'quvchilar bevosita quyidagilarni bilishlari lozim:

Tasviriy san'at darslarida ishlatiladigan ish qurollari va materiallarni – albom, qalam, mo'yqalam, stek, bo'yoq, palitra, guash, akvarel;

– rang nomlarini;

– kishilar hayotida tasviriy san'atning tutgan o'rnini, uning asosiy tur va janrlarini;

– rasm ishlash jarayonlarining o'ziga xos go'zalliklarini;

– avvalgi sinfdagiga nisbatan qo'shimcha bir qator rassomlar va haykaltaroshlarning ismi-familiyasini, ularning asarlari nomlarini;

– bu asarlarda tasvirlangan voqea-hodisalardagi go'zalliklarni ko'ra bilish va asar mazmunini so'zlab berishni;

– tasviriy san'at iboralarini (iliq, sovuq, axromatik va xromatik rang nomlarini);

– dekorativ haykaltaroshlikda qo'llaniladigan dekorativ elementlarning nomini;

– tabiiy materiallarning nomlari va ularni mashg'ulotga tayyorlashni.

Boshlang'ich maktablarning to'rtinchi sinflarini bitiruvchi o'quvchilar quyidagi malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirishlari lozim:

Ko'nikmalar:

– o'z ish joyini mashg'ulotga tayyorlash;

– qalam va mo'yqalamni to'g'ri ushlay olish;

– to'g'ri va qiya ko'rinishdagi chiziqlarni qiynalmasdan o'tkaza olish;

– borliqni idrok etishdan olgan taassurotlarini ishlagan rasmlarida aks ettira olish;

– rasm chizib bo'lingach, qog'oz sirtini suv bilan yuvib bo'yash jarayoniga tayyorlash;

– suv bo'yoq (akvarel) bilan ishlash tartibini (suvbo'yoq bilan ishlashdan oldin unga suv tomizib chiqish, mo'yqalamni bo'yoqqa tez-tez hotirib turishni);

– ranglarning murakkab tuslarini hosil qila olish (masalan, ko'kish, yashil, qizg'ish, jigarrang, qoramtir va h.k.);

- mo‘yqalamni ish tugagandan so‘ng tozalab yuvib qo‘yish;
- o‘z ish joyini yig‘ishtirib qo‘yish;

Malakalar:

- haykaltaroshlikdan 2-3 ta figurali yaxlit kompozitsiya tuza olishni;
- loydan yoki plastilindan haykallar ishlashda alohida-alohida, «yaxlit» va «aralash» ishlov berish usullaridan foydalana olishni;
- ranglarning murakkab tuslarini hosil qilish (masalan, ko‘kish yashil, qizg‘ish, jigarrang, qoramtir va h.k.);
- rasmda narsalarni kompozitsiya qonuniyatlariga bog‘liq ravishda joylashtirishni;
- dekorativ ishlarda asimmetrik tasvirlarni ifodalashda muvozanatni saqlay olishni;
- o‘simliksimon naqsh elementlaridan mustaqil naqsh kompozitsiyasini tuza olishni;
- tabriknoma kompozitsiyalarini ishlay olishni.

Tasviriy san‘at darslarining mazmuni

«Tasviriy san‘at» o‘quv predmeti ma‘naviy madaniyatning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan badiiy madaniyatni uyg‘un rivojlanishga xizmat qiladi va shaxs uchun muhim bo‘lgan qator sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa o‘quvchilarni milliy merosni o‘zlashtirish hamda umuminsoniy qadriyatlar bilan yaqindan tanishishlari uchun imkoniyat yaratadi.

Maktabda tasviriy san‘at darslarida mashg‘ulotlarning quyidagi turlari bo‘yicha ishlar olib boriladi: Borliqni idrok etish; San‘atni idrok etish; Naturaga qarab tasvirlash: A) Naturadan rasm ishlash. B) Naturadan haykal ishlash. Kompozitsiya: A) Rangtasvir kompozitsiyasi. B) Dekorativ kompozitsiya. V) Haykaltaroshlik kompozitsiyasi.

Mazkur o‘quv predmetidagi ta‘lim va tarbiya asosan ikki bo‘limdan (amaliy va nazariy) tashkil topadi:



O'.Tansiqboyev. Kenglik.



Dj.Lepesov. Uchlik.

Amaliy ishlar birinchi sinfdan to'rtinchi sinfgacha, asosan, to'rtta o'quv masalalarini hal qilishga qaratiladi:

1. Kompozitsion faoliyat.
2. Rang va bo'yoqlar.
3. Shakl, proporsiya, konstruksiya.
4. Fazo (makon).

Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan amaliy mashg'ulotlar jarayonida bolalarda qatilylik, faollik, o'z kuchiga ishonch hosil qilinadi, shuningdek, ijodkorlik, mustaqil fikr yuritish va ishlash qobiliyatlarini tarbiyalash yetakchi o'rinni egallaydi. Bu o'rinda o'quvchilar vazifani ko'rgazmali tarzda, obrazlar orqali idrok etishlari talab etiladi.

Boshlang'ich sinflarda bo'yoq bilan ishlash mashg'ulotlarida ranglarning turli tus va och-to'qligini farqlay bilishga, kerakli ranglarni tanlay olishga o'rgatish asosiy vazifadir. Bu sinflarda ko'proq guash, akvarel bo'yog'idan foydalaniladi va ularni esa aralashtirib ham ishlatish mumkin.

Dasturda qadimgi va hozirgi zamon o'zbek tasviriy san'atini o'rganishga alohida e'tibor berilgan bo'lib, u birinchi sinfdan boshlab oxirgi sinfgacha katta o'rinni egallaydi. Bunda har bir mashg'ulotlarda o'zbek xalq amaliy san'ati, O'rta Osiyo va o'zbek tasviriy san'ati asarlari, hozirgi o'zbek tasviriy va amaliy san'ati namunalari keng foydalaniladi.

O'quv predmetining, amaliy san'at, xususan xalq amaliy san'atiga katta o'rin beriladi. Birinchi sinfdan boshlab turli naqsh namunalari chizdiriladi. O'qituvchi tomonidan tavsiya etilgan naqsh sxemalari va

elementlari asosida bolalar turli predmetlar uchun naqsh ishiydilar. Mustaqil ravishda butunlay ijodiy naqshlar tuzadilar, dekorativ bezak ishlarini bajaradilar. Bu vazifalarni bajarishda bolalar asosiy e'tiborni dekorativ kompozitsiyalarni chiroyli ko'rinishda tuzish va rang tuslarini to'g'ri tanlashga qaratadilar.

Borliqni idrok etish

Borliqni idrok etish o'quvchilarning estetik didini, mazkur sohaga doir tushunchalari, tasavvur va xotiralarini o'stirishda muhim rol o'ynaydi. Borliqni idrok etish mashg'ulotlari odatda mavzuli kompozitsiyalarni bajarishdan oldin o'tkaziladi. Bunda mavzuga oid kompozitsiyaga tegishli muhim obyektlarni yaxshilab kuzatadilar.

Dasturda borliqni idrok etish mashg'uloti uchun maxsus o'quv soatlari ham ajratilgan. O'qituvchi o'z imkoniyati va sharoitidan kelib chiqib, darsni suhbat tarzida yoki amaliy mashg'ulot bilan qo'shib o'tkazishi mumkin.

Tabiat qo'yniga qilingan sayohat tarzidagi mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilar ayrim obyektlarning xomaki rasmini oddiy qalamda yoki bo'yoqda ishlashlari mumkin. Mavzuli kompozitsiyalar ishlashda esa ana shu xomaki rasmlardan ham foydalaniladi.


Borliqni to'laqonli idrok etish, tevarak-atrofnii, hayotdagi voqea va hodisalarni bevosita kuzatish asosida olingan taassurotlar, tushunchalar hamda atrof-muhitga nisbatan estetik munosabatda bo'lish singarilar bilan bog'liqdir.

Boshlang'ich sinflarda bolalar o'simliklar, hayvonlar, qushlar, baliqlarni kuzatadilar, tabiatning turli fasllardagi ko'rinishlari, kayfiyati (quvonchli, g'amgin, o'ychan va hokazo) haqida tasavvurga ega bo'ladilar va ularni tasvirleydilar. Boshlang'ich sinflarda borliq haqida suhbatlar o'tkazish o'quvchilarga hayotdagi ba'zi bir hodisalarni kengroq bilib olishlariga yordam beradi. Narsalarning shakli, tuzilishi, rangi kabilarni ma'lum miqdorda tahlil qilish va umumlashtirishdek muhim sifatlarni o'stirishga imkon yaratadi.

San'atni idrok etish

San'atni idrok etish o'quv predmetining muhim qismlaridan biridir. Mazkur bo'limning maqsadi o'quvchilar tomonidan san'at asarlarini ongli idrok etish va haholash, uning jamiyat va odamlar hayotidagi

ahamiyatini tushunishga yordam berishdan iborat. Shuningdek, dars jarayonida olingan bilimlardan ijodiy ishlarni bajarishda samarali foydalanish ham nazarda tutiladi.



V.Ziyyoyev. Baxmallik gillandozlar.

Badiiy obrazni idrok etish malakalarini rivojlantirish – san’at asarlarini o’rganishning asosidir. O’quvchilar asar haqida mulohaza yuritib, idrok etishni, uning mazmunini maxsus iboralarni qo’llagan holda so’zlab berishni, shuningdek, asarda qo’llangan tasviriy vositalarni payqab olish va uni ta’kidlab o’tishni bilishlari lozim.

San’atni idrok etishga boshlang’ich sinflarda maxsus soatlar ajratilmaydi. U rangtasvir kompozitsiyasi, naturaga qarab tasvirlash mashg’ulotlarida amalga oshiriladi.

Boshlang’ich sinflarda tasviriy san’at asarlarini idrok etishga oid o’quv materiallari o’quvchilarning amaliy ishlari bilan bog’liqdir. San’at asarlarining nusxalarini ko’rsatish va ular haqida so’zlab berish bolalarda san’atga qiziqishni orttiradi va shu sohada shug’ullanishga yo’llaydi. Asarlarni namoyish etishda bolalar unda ifodalangan asosiy fikr va qo’llanilgan badiiy-tasviriy vositalar bilan tanishtiriladi.

Dasturda o’quvchilarga namoyish etiladigan san’at asarlarining namunaviy ro’yxati mo’ljaldan ko’proq berilgan. Bundan maqsad o’qituvchilarning sharoitidan kelib chiqqan holda ularga san’at asarlarini tanlab olishlariga imkoniyatlarni kengaytirish.


Naturaga qarab tasvirlash

Naturaga qarab tasvirlash ikki turga bo'linadi:

- a) naturaga qarab rasm ishlash;
- b) naturaga qarab haykal ishlash.

a) Naturaga qarab rasm ishlash o'quvchilarda narsa va hodisalarning hajmi va fazoda joylashuvi, ularning birmuncha tipik belgilari haqida tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi, tasvirlash malakalarini o'stiradi.

Dars jarayonida o'quvchilar ishlayotgan rasmning, tasvirlanayotgan narsaning mazmuniga mos kelishini e'tiborga olishlari, rasmda narsalarning o'lchov nisbatini, shaklini, rangini ko'ra bilish va to'g'ri aks ettira olishga, tasvirning estetik ifodaliligini his eta olishni o'rganib olishlari lozim. O'quvchilar rejaga qarab turli badiiy materiallardan foydalanishni bilishlari ham zarur.



Naturaga qarab tasvirlash. Natyurmort.

Boshlang'ich sintlarda asosiy vazifa o'quvchilarda narsalarning nisbati, tuzilishi, shakli, rang jihatdan tahlil qilish va tasvirlash malakasini hosil qilishdan iborat. Shuningdek, o'quvchilar avval tasvirlanayotgan narsaning umumiy va estetik jihatdan ahamiyatli tomonlarini aniqlab oladilar, keyin esa narsaning qismlari va detallarini aks ettirishni o'rganadilar.

Naturaga qarab rasm chizish vazifalari 1-2 dars davomida va qisqa muddatli (5-15 daqiqa davomida bajaradigan lavha va chizgilar) bo'lishi mumkin. Xomaki ish va chizgilar darsning muayyan mavzusidan kelib chiqib, darsning boshlanish qismi, o'rtasi yoki oxirida bajarilishi mumkin. O'quvchilarning ko'rib, eslab qolish qobiliyatini, makon

haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish uchun ularga eslab va tasavvur qilib rasm chizish bo'yicha ko'proq vazifa berish kerak bo'ladi.

Naturaga qarab chizilgan rasmlarni bo'yash (ya'ni rangtasvir ishlash) mashg'ulotlarida bolalar e'tibori ranglar uyg'unligini idrok qilishni rivojlantirishga, akvarel yoki guash bo'yoqlari bilan asliga qarab, eslab qolib va tasavvur qilib chizishga qaratilgan. Rangtasvir mashg'ulotlari o'quvchilarga idrok qilish orqali atrof-muhitning ranglarda ifodalangan go'zalligini bilish imkoniyatini berib, ularning ruhan o'sishiga ko'maklashadi, bolalarning estetik didini o'stiradi.

Naturaga qarab rasm ishlash mashg'ulotlarida o'qituvchi bolalar e'tiborini tasvirlanayotgan obyektlarning nafis va go'zalligi, ranglarning hamohangligi, shakl mutanosibligiga, tasvirlanayotgan buyumlar orasidagi o'zaro mantiqiy bog'liqlik kabilarga qaratadi.

b) Naturaga qarab haykal ishlash o'quvchilar uchun qiziqarli mashg'ulot turi bo'lib, naturani ko'ra bilish, uning shaklini, hajmini, tuzilishi va o'lchov nisbatlarini to'g'ri olishga o'rgatadi. Shuningdek, bunday mashg'ulotlarda haykaltaroshlikda qo'llaniladigan material va asboblardan ishlash yuzasidan muayyan bilim va malaka hosil qilinadi. Bulardan tashqari o'quvchilar tuzilishi jihatidan unchalik murakkab bo'lmagan haykallarni alohida-alohida va yaxlit loy bo'laklaridan ishlash yo'llarini ham o'rganadilar.

Bunday darslarda bolalar hajmli va relefli haykallar ishlaydilar. Natura uchun narsaning tuzilishi, rangi, proporsiyalari aniq ko'rinib turadiganlari tanlab olinadi. Natura chizish uchun qo'yilgach, uni har tomonlama diqqat bilan kuzatish, qismlarning o'zaro bog'liqligini va farqini taqqoslash orqali aniqlab olish zarur bo'ladi.

Haykaltaroshlik ishlarida natura hajmdor qilib tasvirlanayotganligi tufayli ish jarayonida turli tomonlarga aylantirib turiladi. Mashg'ulot o'tkazilayotgan xonada yorug'lik chap tomondan tushishi va naturaning shakli yaqqol ko'rinib turishi maqsadga muvofiqdir.

Dars uchun kerakli natura topilmagan yoki uni sinfga olib kirish imkoni bo'lmagan taqdirda ularning rasmini ishlash, tashqarida kuzatish yoki rasmiga qarab amalga oshiriladi.

Kompozitsion faoliyat

Kompozitsiya bo'limi dasturda yetakchi o'rinni egallaydi va quyidagi qismlardan tashkil toradi:


a) rangtasvir kompozitsiyasi;

- b) dekorativ kompozitsiya;
- d) haykaltaroshlik kompozitsiyasi.

a) Rangtasvir kompozitsiyasi mavzu asosida, xotira va tasavvurdan rasmlar ishlash jarayonida o'z aksini topadi. Bunda tanlangan mavzuga ko'ra, uning elementlari qog'oz yuzasida bir-biriga bog'liq holda joylashib, yaxlit kompozitsiyani hosil qiladi. Mavzuli kompozitsiyalar tuzishda detallarning o'rmini almashtirish, qo'shimcha detallar kiritish orqali kompozitsiya mazmunini boyitish kabilar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazmunni ifodalashda kompozitsiyaning asosiy qonuniyatlariga rioya qilish lozim. Bular kompozitsiyaning bir butunligi, detallarni, shakllarni, ranglarni xillashtirish orqali hamma tasviriy vositalarni bosh g'oyaga bo'ysundirishdan iborat.

Kompozitsiyada asar yaratishning muayyan qoidasini simmetriya, nosimmetriya, muvozanat, detallarning o'lchovi, shakli, rangi kabilarga rioya qilinadi.

Rangtasvir kompozitsiyasi mashg'ulotlari asosan tevarak-atrofdagi hayotni aks ettiruvchi mavzularda rasm ishlashga asoslanadi. O'quvchilar mashg'ulotning bu turida rasmni naturadan emas, balki xayoldar va tasavvurdan ishlaydilar. Xayoldan va tasavvurdan ishlangan kompozitsiya narsaning o'ziga qarab rasm ishlashga qaraganda ancha murakkab bo'lib, u o'quvchidan ham, o'qituvchidan ham katta mas'uliyat talab etadi.



B. Boboyev. Do'stlik iplari.

Mavzuli kompozitsiya mashg'ulotlarida, bolalar rasmda tasvirlanishi kerak bo'lgan obyekt bilan tanishtirilishi, undagi ba'zi bir narsalarning xomaki chizmalarini ishlashlari lozim bo'ladi.

Odatda o'qituvchi bolalarga bir yoki bir necha mavzuni tavsiya etadi. O'quvchilar esa mavzulardan birini tanlab, shu asosda kompozitsiya ishlaydilar. Mavzu asosida rasm chizishda o'quvchilar narsalarning asliga qarab rasm ishlash, dekorativ rasm ishlash, san'atni va borliqni idrok etish darslarida olgan bilim va malakalariga tayanadilar. Mavzu asosida rasm ishlash darslarida bolalarning fantaziyasi va tasavvurlari faollashadi.

Rangtasvir kompozitsiyasi mashg'ulotlarining asosiy vazifalari bolalarga narsalarning shakli, rangi, ularning tuzilishi haqida tushunchalar berish, eng qiziq mavzu tanlay olish, qog'ozda rasmni to'g'ri joylashtirishga o'rgatish kabilardan iboratdir. Bulardan tashqari perspektivaning elementar qoidalari haqida tushuncha berish (yaqindagi narsalarning kattaroq, uzoqdagilarning kichikroq ko'rinishi), mavzu asosida rasm chizishda, obraz va narsalarning o'zaro munosabatlarini to'g'ri tasvirlashga o'rgatish ham kompozitsiyaning vazifasiga kiradi.

Tasviriy san'at asarlaridagi kompozitsiyaning prinsipi va qonunlari bilan o'quvchilarning mazmunli rasm ishlash usuli o'rtasida muayyan umumiylik bor. Shuning uchun tasviriy san'atdagi kompozitsiyaning hamma qonunlarini umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'tiladigan tasviriy san'at predmetidagi kompozitsiyaga yoppasiga tatbiq etish mumkin.

Rangtasvir kompozitsiyasi mashg'ulotlarining asosiy maqsadi o'quvchilarda ijodiy tafakkur, tasavvur va fantaziyani kerakli darajada rivojlantirishdir. Kompozitsiya qonuniyatlarini o'quvchilar ongiga yetkazishda tasviriy san'at asarlarining reproduksiyalaridan foydalanish va ularni tahlil qilishning ahamiyati katta.

Mavzu asosida kompozitsiyalar ishlashda bo'yoqlardan foydalanish murakkab vazifalardan hisoblanadi. Chunki bunda ko'rgazmali vosita va metodik usullardan to'g'ri foydalanilgan holdagina rangshunoslikka oid bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirishga erishiladi. Bulardan tashqari rangtasvir kompozitsiyasi mashg'ulotlarida bolalarni rangli qog'ozlar bilan ishlashga o'rgatish ijodiy ishlarning yanada qiziqarli bo'lishiga yordam beradi.

b) Dekorativ kompozitsiya turli shakldagi naqshlarning namunasidan ko'chirish, mustaqil ijodiy naqsh ishlash hamda dekorativ-bezak ishlari singarilarni qamrab oladi.

U o'quvchilarga turmushda uchraydigan narsalarning vazifalari, ularning shakli, bezak elementlarining o'zaro bog'liqligi haqida tushuncha berishni hamda yuksak mahorat bilan tasvirlangan narsalarni didsiz, pala-partish ishlangan narsalardan farq qila bilishga o'rgatishni, shuningdek, ularning badiiy didini tarbiyalashni maqsad qilib qo'yadi.

Dekorativ kompozitsiya darslarida bolalarga har qanday naqshlarning elementlarini tevarak-atrofdagi narsa va hodisalardan olingani haqida tushuncha beriladi. Binobarin, naqsh ishlash mashg'ulotlarida rasm ishlovchi real shaklni o'zgartirishi, uni soddalashtirish, unga yangi detallar qo'shishi mumkinligi qayd qilinadi.

Boshing'ich sinflarda dekorativ tarzda qayta ishlangan tabiiy va geometrik shakllarga asoslangan yo'lsimon, kvadrat, doira, to'rtburchak shakllardagi naqshlar chizdiriladi.



Adabiy asarga illyustratsiya ishlash.

Dekorativ kompozitsiya ishlaridan avval naqsh tuzishda ishlatiladigan elementlarni o'ziga qarab rasmini chizish lozim. Shuningdek, o'quvchilarga tabiiy shaklni stillashtirish bo'yicha mashqlarni bajarib borish foydaliidir. Stillashtirish dekorativ tarzda qayta ifodalanadigan shakllarning tuzilishi, silueti, rangiga taalluqlidir.

O'quvchilar naqsh namunalaridan ko'chirish darslarida naqsh chizishning o'ziga xos xususiyatlari, ritm, simmetriya va uning ahamiyati bilan tanishadilar, ranglarning nomlarini o'rganadilar, bo'yoq va ularni omuxta qilib ishlatish ustida ish olib boradilar.

Naqsh namunalaridan ko'chirish va mustaqil naqsh ishlash darslarida o'quvchilar ko'z bilan chamalashni o'rganadilar, qalam, akvarel, mo'yqalam, rangli qog'ozlar, tabiiy materiallar bilan ishlash usullarini o'zlashtiradilar.

Mustaqil ravishda ijodiy naqsh ishlash orqali bolalarning ijodiy qobiliyati, fantaziya va tafakkuri o'stiriladi.

Dekorativ-amaliy san'at asarlari xalqning go'zallik, yaxshilik haqidagi tasavvurlarini bolalarga yetkazib, mehnatni va xalq ustalari mahoratini ardoqlashga o'rgatadi.

Adabiy asarlarga illyustratsiyalar ishlash esa o'quvchilarning eng qiziqarli mashg'ulotlaridan bo'lib, unda bolalar ertak, hikoya, masaldagi qahramonlarning obrazlarini o'z rasmlarida ifodalashga harakat qiladilar.

Zamonaviy mavzulardagi asarlarga yoki dostonlarga hamda ertaklarga kompozitsiya ishlash uchun avvalo, bolalar mavzuga oid odam, hayvon rasmlari va ba'zi bir narsalarning o'ziga qarab rasmini chizib oladilar. Adabiy asarlarga illyustratsiya ishlash mashg'ulotlarida o'quvchilarga asarlardagi voqea sodir bo'layotgan mamlakat yoki davrning madaniyati, xalqlar turmushining o'ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy-kechaklari, me'morchiligi va ularning xarakterli tomonlari haqida so'zlab berish, unga oid narsalar ko'rsatish kerak bo'ladi.

Rangshunoslik bo'yicha beriladigan nazariy bilimlar o'quvchilarga ranglar va uning nomlari, tuslari hamda ularning kishilar hayotidagi ahamiyati haqida bilimlar berishni vazifa qilib qo'yadi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar asosan akvarel, guash bo'yoqlar bilan rasm ishlaydilar. Rangtasvir, dekorativ ishlarni bajarish jarayonida esa asosiy va hosila ranglar, ularning tuslaridan foydalangan holda ish olib borishlariga to'g'ri keladi.

Avvalo, o'quvchilar «Asosiy va hosila ranglar» bilan tanishadilar. Ularning nomlarini bilib oladilar. Bo'yoqlarni o'zaro aralashtirish orqali yangi rang tuslarini hosil qilish bilan amaliy ravishda shug'ullanadilar. Asosiy (qizil, sariq va ko'k) ranglar va ularning o'zaro aralashuvidan hosil bo'lgan hosila (yashil, binafsha va zarg'aldoq) ranglardan o'z ish faoliyatlarida to'g'ri foydalana olishni o'rganadilar. O'quvchilar keyin «Iliq va sovuq ranglar», «Rang tuslari va ularning nomlari» kabi mavzularda nazariy bilimlarni ham egallab boradilar. Shuningdek, o'quvchilar «Ranglar halqasi» bilan yaqindan tanishadilar va tevarak-atrofdan ana shunday rang tuslarini topishni o'rganadilar.

Mavjud bo'yoq tarkibiga suvni oz yoki ko'proq qo'shish orqali rang tuslari hosil qilinadi. Bunda ma'lum bir (masalan qizil) rangning to'qdan och ko'rinishgacha bo'lgan bir talay tuslari hosil bo'ladi. O'quvchilar dars jarayonida amaliy tarzda rang tuslarini hosil qilishni bajarib ko'radilar.

O'quvchilarda atrof-muhitdagi, borliqdagi rang tuslarining boyligi va xilma-xilligi haqida tushuncha hosil qilish uchun «Tabiatda rang» mavzusi kiritilgan. O'quvchilar sayohat paytida darsda o'rgangan ranglarni va ularning tuslarini tabiat qo'ynidan topishga harakat qiladilar.

Rangshunoslik bo'yicha beriladigan nazariy bilimlar kundalik turmushda uchraydigan ranglar va ularning inson his-tuyg'ulariga, kayfiyatlari ta'siriga ham bog'liq bo'ladi.

Bulardan tashqari, o'quvchilar o'zlari yashab turgan joyda mavjud bo'lgan idish-tovoqlar, kiyim-kechaklar, yog'och buyumlarining qanday rangda va nima uchun ana shu rangga bo'yalganligi haqida tushunchaga ega bo'ladilar. Chunki ranglar inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lib, ayrimlari ko'zni quvontirib, kayfiyatni chog' qiladilar, ba'zi birlari esa kishi ko'nglida g'ashlik, g'amguzorlik uyg'otadi. Ana shunda kishi didini o'stiradigan, ko'zni quvontiradigan ochiq ranglardan foydalanish lozimligi o'quvchilarga uqtiliradi.

d) Haykaltaroshlik kompozitsiyasi real haykaltaroshlik va dekorativ haykaltaroshliklarga bo'linadi.

Real haykaltaroshlikda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan tavsiya etilgan mavzularda haykallarni asliga o'xshatib ishlaydilar. Bunda o'quvchilar tasviriy san'at mashg'ulotlarining boshqa turlarida orttirgan bilim, ko'nikma va malakalarga tayanadilar.



Haykaltaroshlik bosqichlari.

Haykaltaroshlik mashg'ulotlarida o'quvchilar loy yoki plastilindan dumaloqlash, bosib yalpaytirish, siqimlab cho'zish, ortiqcha qismlarini maxsus sidirgich yordami bilan olib tashlash, stek bilan ishlash usullari bilan tanishadilar.

Haykaltaroshlik mashg'ulotlarida ikki xil ish uslubi mavjud bo'lib, ular yaxlit, alohida-alohida loy yoki plastilin bo'laklariga ishlov berish orqali amalga oshadi.

Dekorativ haykaltaroshlik haykaltaroshlikning turlaridan biri bo'lib, u o'quvchilarda turli dekorativ bezakli releflar va o'yinchoqlar ishlash orqali maxsus bilim hamda malakalar hosil qiladi.

Dekorativ haykaltaroshlikda ishlov berish usullarining soddaligi, shakllarning oddiyligi o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Dekorativ haykaltaroshlik mashg'ulotlarida o'zbek xalq kulol ustalarining dekorativ haykaliaridan (mayda plastika) keng foydalanish bolalarni ijodiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Loydan ishlangan haykallarga bezak berilganidan so'ng ular guash bo'yog'ida bo'yaliq, ustidan lok qoplanadi. Lekin ayrim ishlar bo'yoqsiz ishlanishi ham mumkin.



Haykaltarosh A.Boymatov ijodiy ish ustida.

Tasviriy san'at darklarida o'quvchilarning qiziqishlari va ijodkorliklarini oshirish maqsadida turli badiiy, tabiiy materiallardan foydalanish ham nazarda tutilgan. Bundan maqsad o'quvchilarga berilgan o'quv topshiriqlarini turli materiallar va texnologiya yordamida bajarishga o'rgatishdir. Odatda, bu mashg'ulot turi boshqa faoliyat turlari (rangtasvir kompozitsiyasi, dekorativ kompozitsiya, naturaga qarab rasm ishlash) tarkibiga singdirib yuborilgan bo'lib, u yoki bu mashg'ulot turi yuzasidan beriladigan o'quv topshirig'i mazmunini yanada samarali va qiziqarli qilib o'tkazilishini ta'minlaydi. Shunga ko'ra, mazkur mashg'ulot turiga alohida namunaviy topshiriqlar bo'limi ajratilmagan.

Tabiiy materiallar - mayda toshchalar, chiroyli ko'rinishdagi daraxt shoxchalari, ildizlar, quritilgan barglar va gullar, archa bo'qog'lari, sabzavot va mevalarning urug'lari, po'stloqlar, bug'doy, arpa poyalari va shu kabilardan iborat. O'quvchilar ana shu tabiiy materiallardan foydalangan holda ayrim o'quv topshiriqlarini bajarishni o'rganadilar. Bu o'z navbatida ularning ijodiy faoliyatlari ko'lamini yanada kengaytirishga yordam beradi.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TASVIRIY SAN'ATNI O'QITISH METODIKASI

Mazmuni: 1. Boshlang'ich sinflarda borliqni idrok etish mashg'ulotlari metodikasining o'ziga xos xususiyatlari. 2. Naturaga qarab rasm ishlash mashg'ulotlari metodikasi. 3. Boshlang'ich sinflarda o'ziga qarab haykal ishlash metodikasi. 4. Boshlang'ich sinflarda rangtasvir kompozitsiyasi mashg'ulotlari metodikasi. 5. Boshlang'ich sinflarda dekorativ kompozitsiya mashg'ulotlari metodikasi. 6. Boshlang'ich sinflarda haykaltaroshlik kompozitsiyasi mashg'ulotlari metodikasi.

Boshlang'ich sinflarda tasviriy san'atni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari, avvalo bu sinflardagi ta'lim mazmuni kichik maktab yoshidagi bolalarning yoshlik xususiyatlari va psixologiyasi, qiziqishi, ulardagi mavjud bilim va qobiliyat hamda layoqatlariga qarab belgilanadi.

Ma'lumki, bolalarda tasviriy faoliyatga, xususan rasm chizishga ishtiyok nihoyatda erta boshlanadi. Uni 2-3 yoshlardan boshlanishi

tarixdan ma'lum. Shunisi xarakterliki, bolalar o'qish va yozishdan ko'ra rasm chizishni juda yoqtiradilar. Biroq ular chizadigan rasmlarning davomiyligi juda qisqa bo'ladi, 1-2 daqiqa, ko'pi bilan 4-5 daqiqada har qanday rasmni tugallab qo'yadilar. Bolalar tomonidan chizilgan rasmlar savodli bo'lmasa-da, biroq mazmunan biron-bir ko'rinishni, voqeani yoki buyumni o'z iqtidorlariga yarasha, ularning xarakterli belgilarini tasvirlay oladilar. Bo'yoqlar bilan ishlash ularga ma'lum qiyinchiliklar tug'dirishi sababli ulardan foydalanishni aytarlik xush ko'rmaydilar. Lekin turli yorqin ranglar bilan bo'yalgan buyumlar bolalarda katta qiziqish uyg'otadi. Rasmlari yaxshi chiqmagan holda o'z ishlaridan ixloslari tez qaytadi. Bunday sharoitda o'qituvchining bolalarga tez yordam ko'rsatishi va kayfiyatini ko'tarishga harakat qilishi foydadan holi bo'lmaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tasviriy faoliyatlarining xarakterli jihatlaridan yana biri, ularning chizadigan rasmlarini soddalashtirishga bo'lgan harakatlaridir. Ular ayrim narsalarning oldi ko'rinishini (uy, odam, kitob, soat, portfel) ayrimlarini yon tomonidan (mashina, hayvonlar, qushlar, baliqlar, bayroqcha v.b.), yana boshqalarini ustki tomonidan (kapalak, barg, ninachi, qo'ng'iz v.b.) tasvirlaydilar. Bunga asosiy sabab bu yoshdagi bolalar hali narsalarni yorug'-soya, perspektiv qisqarishi va ularning qoidalarini uncha tushunib yetmaganliklaridir.

Bolalar ijodiga xos yana bir jihat bor, u ham bo'lsa tasvirlarni (buyumlarni) bir-birlarini to'sib turgan (yoki qisqin) holda tasvirlanmasligidir. Chunki bolalar narsalarni doimo butun holda idrok etadilar.

Yuqorida qayd qilingan tasviriy faoliyatlarning bu xususiyatlari bolalar tafakkurining aniq, obrazli va emotsional tarzda bo'lishligi bilan bog'lanadi.

Boshlang'ich sinflarda tasviriy san'at darslarini o'tkazish metodikasining o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, uning quyidagi to'rt turi qayd qilinadi:

1. Borliqni idrok etish. 2. San'atni idrok etish. 3. Naturaga qarab tasvirlash. 4. Kompozitsiya.

Borliqni idrok etish mashg'ulotlari 1-4-sinf dasturida aks etgan bo'lib, uning maqsadi bolalarni o'rab olgan borliq haqida, ulardagi narsa va hodisalarning tuzilish, shakli, rangi, o'lchamlari, o'lcham nisbatlari haqida tasavvur hosil qilishdir. Chunki, bolalar tevarak-atrofni, ya'ni

tabiat, hayvonlar va qushlar olami, hasharotlar va baliqlar, odamlar, obihavo, predmet va buyumlar, qurilish va transport vositalari haqida yaxshi tasavvurga ega bo'lganliklari taqdiridagina ularning rasmlarini aniq-ravshan tasvirlaydilar. Borliqni idrok etish mashg'ulotlarining mazmunidan kelib chiqqan holda amaliyotda ularni o'rganishi kerak bo'lgan quyidagi yo'llar qo'llaniladi:

1. Buyumni, tabiatni o'ziga qarab kuzatish orqali o'rganish.
2. Borliq haqida o'qituvchining suhbatlari orqali o'rganish.
3. Savol-javob orqali o'rganish.
4. Borliqni rasmni chizish orqali o'rganish.
5. O'qituvchining pedagogik rasmi orqali o'rganish v.b.

O'qituvchilar uchun namoyish etiladigan narsalar va tasvirlar avvalo mashg'ulot mavzusi bilan bog'liq holda bo'lib, ular o'z tuzilishi, shakli, rangi, o'lchamlari bilan sodda, tushunarli, bolalarda his-hayajon uyg'otadigan bo'lishligi maqsadga muvofiqdir. Eng muhimi, bunday materiallar o'quvchilarni o'ylashga majbur etadigan, bolalarni yangi tushunchalar bilan boyitadigan bo'lishligi muhim.

Namoyish etiladigan narsalar, ularning tasvirlari haqidagi ma'lumotlarni bolalarga og'zaki yetkazishda ularning tahlili muhim ahamiya: kasb etadi. Bu tahlil bevosita narsalarning tuzilishi, shakli, rangi, o'lchamlari, ularning mohiyati haqida savol-javob tarzida o'tkazilish maqsadga muvofiqdir.

Borliqni idrok etish mavzusiga doir mashg'ulot ishlanmasi beriladi.

Darsning mavzusi: Kuzgi tabiat manzarasini idrok etish.

Darsning vazifalari: Kuzatuvchanlik, sinchkovlik, diqqat va xotirani o'stirish. Tabiatdagi go'zallikni ko'ra bilishga va qadrlay olishga o'rgatish. Kuzgi tabiat manzarasining o'ziga xos xususiyatlari va kuzgi ishlar bilan tanishtirish.

Darsning jihozlanishi: Kuz fasli tasvirlangan rasm. Kuzgi ishlarga doir manzara tasviri. Tabiat qo'yniga sayohat. Uni tashkil etishning imkoni bo'lmagani taqdirda san'at asarlarining reproduksiyalaridan foydalanish mumkin. Masalan: O'.Tansiqboyevning «Tog'da kuz», Z.Inog'omovning «Kuz», N.Karaxanning «Oltin kuz», I.Haydarovning «Oltin kuz», Q.Basnarovning «O'zbek kuzi», «Shaftolilar», G.Chernuxinning «Farzandlar va nabiralar», Usta Mo'minning «Xirmonda» va boshqalar.

Bu asarlarning hammasi bilan o'quvchilarni tanishtirish shart emas. Ulardan ayrimlari (o'z xohishiga ko'ra) tanlab olinadi.

Darsning mazmuni. Mashg'ulot asosan ikki yo'nalishda olib boriladi. Birinchisi, kuzgi tabiat manzarasining xarakterli xususiyatlarini estetik idrok etish, ikkinchisi kuzgi ishlarning o'ziga xos tomonlari bilan tanishtirish. Bu vazifalarni amalga oshirish maqsadida o'qituvchi shunday obyektни tanlashi lozimki, bu obyekt ham kuz, ham kuzgi ishlar uchun xarakterli ko'rinishda bo'lsin.

Dars o'quvchilarni maktab bog'i yoki dalaga sayohatga olib chiqish va u yerda amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishtirishdan boshlanadi. Sayohat jarayonida o'qituvchi bolalar e'tiborini chiroyli kuz manzarasiga jalb etadi. Ularga kuz fasli va bu vaqtdagi o'zgarishlar haqida so'zlab beradi: «Bolalar, mana hozir kuz fasli. U nihoyatda chiroyli, chunki, kuzda havo soviy boshlaydi, natijada daraxtlarning barglari o'z rangini o'zgartiradi. Ba'zi barglar qizg'ish tusga kiradi. O't-maysalar sarg'aygan bo'ladi, qisqasi, ular oltin rangga burkanadilar. Osmonda yengil parcha-parcha bulutlar paydo bo'ladi. Ertalab kuzgi ekin va o'tlarning usti oppoq qirov bilan qoplanadi. Yerga to'kilgan daraxt barglari oyoq ostida shitirilydi. Oktabr oyida kech pishar mevalar terib olinadi va tokdagi shirin-shakar uzumlar uziladi. Yong'oq qoqiladi. Kechki kartoshka, sabzi, piyoz, lavlagi kabi savzavotlar yig'ishtirib olinadi. Bunday ishlarni amalga oshirishda o'quvchilar ota-onalariga, maktab bog'ida esa maktab jamoasiga yordam beradilar. Kuzda shahar va qishloqlarda ko'chat o'tkazish oyligi boshlanadi. Bu ishlarda ham bolalar kattalar bilan bir qatorda qatnashadilar. Kuzgi yig'im-terim ishlari nihoyatda zavqlidir. Sayohat jarayonida o'qituvchi emotsional-estetik vaziyat hosil qilish maqsadida bolalarga kuz va kuzgi ishlar haqidagi she'rlardan namunalar o'qib beradi.

She'r o'qib bo'lingandan so'ng, tabiatning ko'rinishi bolalar bilan birgalikda tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida kuzatilayotgan manzara yuzasidan bolalarga savollar beriladi. Bu savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

- kuzda tabiatda qanday o'zgarishlar ro'y beradi?
- qarshingizdagi manzarada qanday daraxt turlarini ko'ryapsiz?
- daraxtlarning o'lchami bir xilmi?
- daraxtlarning shakli bir-biridan qanday farq qilib turibdi?
- e'tibor bering, daraxt shoxlarining yo'g'onligi bir xilmi?
- daraxtlarning tanasi va shox-shabbalarining tuzilishi qanday?
- osmonga ham razm soling, uning rangi qanday?
- osmondagi bulutlarning shakli yoki rangi qanday (bulutlar bor bo'lsa)?


- o‘t va daraxtlarning rangida farq bormi?
- tabiatni kuzatish jarayonida yaxshi taassurot qoldirgan narsa nima?

Tabiatni kuzatish jarayonida bolalar ba’zi bir tabiiy materiallarni (urug‘lar, barglar, mayda hasharotlar, ildizlar) tasviriy ishlar uchun yig‘ishlari mumkin.

Kuzatilayotgan obyekt yuzasidan savol-javob tugagach, o‘qituvchi suhbatga yakun yasab, bolalarning javoblarini aniqlashtiradi, kamchiliklarini to‘ldiradi, xatolarini tuzatadi.

Agar dars sinfda o‘tkaziladigan bo‘lsa, o‘qituvchi yuqorida nomlari qayd qilingan tasviriy san’at asarlarining reproduksiyalari, slaydlarini bolalarga ko‘rsatib, sinfda o‘quvchilar bilan birga tahlil qiladi. Lekin shuni ham qayd qilish lozimki, dars sinfda qanchalik ilg‘or metodlar bilan olib borilmasin, baribir u aynan tabiat qo‘yniga qilingan sayohatning o‘rnini bosa olmaydi. Shuning uchun o‘qituvchi darsni iloji boricha tabiat qo‘ynida o‘tkazishga harakat qilishi lozim.

Uyga bolalarni yashash joylaridagi biron ta oltin rangga kirgan tabiat manzarasini kuzatish vazifa qilib topshiriladi.



Tabiat ko‘rinishini tasvirlash usuli.

Naturaga qarab tasvirlash boshlang‘ich sinflarda yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. U bolalarga rasm va haykal ishlashning elementar qonun-qoidalarini o‘rgatadi.

Naturaga qarab tasvirlash ikki qismdan tashkil topadi. 1. Narsaning o‘ziga qarab rasm ishlash. 2. Narsaga qarab haykal ishlash.

Naturaga qarab rasm ishlash bolalarning yoshlik xususiyatlarini hisobga olgan narsalarni o'ziga qarab rasmni ishlashni nazarda tutadi.

Naturaga qarab rasm ishlash, naturani kuzatish, uning tuzilishi, shakli, rangi, o'lchamlari, o'lcham nisbatlarini tahlil qilish, rasmlarni natura bilan solishtirish kabi metodlar asosida olib boriladi. Naturaning o'lchamiga qarab ularni chizish uchun yiriklarini sinfda 2-3 joyga, maydalarini har bir partaga bittadan qo'yib chiqish kerak bo'ladi.

Mayda o'lchamdagi naturani, aytaylik bargni natura sifatida hamma joyda bir xil bo'lishi shart emas, ularni bolalarni rasm ishlash layoqatiga qarab har xil murakkablikdaxisini qo'ysa bo'ladi.

Naturaga qarab rasm ishlashda bolalarni bosqichlar asosida rasm ishlashga o'rgatish muhim. Bunda bolalar, birinchi galda rasmni o'lcham jihatidan to'g'ri belgilash, ikkinchidan rasmni qog'oz yuzasida to'g'ri joylashtirishga o'rgatiladi. Keyinchalik naturaning tasvirini ishlashga o'tiladi. Bunda rasm ishlashni ikki xil metodikasi qo'llaniladi: 1). Naturani yordamchi chiziqlar asosida belgilab olib rasmini ishlash. 2). Naturani bir yo'la bo'laklar shaklining rasmini ishlashdan boshlanib, so'ngra ular umumlashtiriladi va bo'yaladi.

Naturaga qarab rasm ishlashda yordamchi chiziqlardan foydalanish bilan bir qatorda o'q chiziq, simmetriya o'qidan foydalaniladi. Shuningdek, narsalar tasvirini bironta geometrik shaklga tushirib olib ham ishlanadi. Xususan, ninachi rasmini ishlaganda avval uning qanotlarini to'rtburchak shakllida, soatni aylana shaklida chizib olinadi, keyinchalik uning tasvirini aniqlashtiriladi.

Boshlang'ich sinflarda rasm ishlash malakalarini hosil qilish ko'proq naturaga qarab rasm ishlash bo'limiga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham bunday mashg'ulotlarda o'quvchilarning o'quv qurollari (qalam, o'chirg'ich, bo'yoq, daftar v.b.) bilan to'g'ri munosabatda bo'lishga, ularni to'g'ri ishlatishga o'rgatish muhimdir. Rasm ishlash malakalarini shakllantirish esa ma'lum tizimda amalga oshirilgani ma'qul. Ayniqsa, to'g'ri-tik, to'g'ri-yotiq, to'g'ri-og'ma, egri kabi chiziqlarni chizdirish, ularni teng yoki teng bo'lmagan bo'laklarga bo'lishga o'rgatish ma'lum ketma-ketlikda amalga oshirilishi lozim. Shuningdek, shakllar, bo'yoqlar bilan yuzani qalam yoki bo'yoq bilan bir tekisda bo'yash yuzasidan bilim va malakalar hosil qilishda ham shu tartibga rioya qilinadi.

Yana shuni ham qayd qilish lozimki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining hali rasm ishlash layoqatlarining pastligini hisobga olib, ularga ortiqcha, murakkab vazifalar berib bo'lmaydi. Narsalar

rasmini ishlashda ularning hajmini yorug'-soya, perspektiva qoidalari asosida tasvirlash ham talab etilmaydi. Shuningdek, ular tomonidan chizilgan rasmga ortiqcha talablar ham qo'yib bo'lmaydi.

Quyida naturaga qarab rasm ishlash bo'limiga doir mashg'ulot ishlanmasi berilgan.

Darsning mavzusi: Kapalakning o'ziga qarab rasmini ishlash.

Darsning vazifalari: O'quvchilarni murakkab va simmetrik shakldagi narsalarning tuzilishi, shaklini ko'ra bilishga o'rgatish, ularning tasviriy malakalarini rivojlantirish. Tabiatga nisbatan mehr uyg'otish.

Darsning jihazlanishi: Kapalak kolleksiyasi. Katta o'lchamda ishiangan kapalak rasmi va tengdosh o'quvchilarining shu mavzuda ishlagan rasmlaridan namunalar.

Darsning mazmuni: Yangi mavzuni bayon qilishni o'qituvchi kapalak haqida qisqacha suhbat bilan boshlaydi:

Bolalar, yozgi ta'til vaqtida siz har xil kapalak, ninachi, tillaqo'ng'iz kabi hasharotlarni ko'rgan va ulardan kolleksiya to'plagan bo'lsangiz kerak. Ma'lumki, kapalak shakli, tuzilishi, rangi, bezagi, o'lchami jihatdan nihoyatda xilma-xil bo'ladi. Shunga qaramasdan, ularning bir-biriga o'xshash tomonlari ko'p. Kapalakni o'xshash va umumiy tomonlarini solishtirib ko'rish orqali bilib olish qiyin emas. Kapalaklar o'zlarining shakli, rangi va yengil parvozi bilan kishilarga nihoyatda zavq bag'ishlaydi. Shuning uchun ham ko'pchilik bolalar ularni sevishadi. Ularni tutib kolleksiya to'playdilar.


Kapalaklar haqidagi umumiy suhbat tugagach, katta o'lchamdagi bironta kapalak rasmi doskaga osib qo'yiladi va u bolalar bilan birgalikda tahlil qilinadi.

Tahlil quyidagicha savollar yordamida amalga oshiriladi:

- Kapalak qanday bo'laklardan tashkil topgan?
- Kapalakning qanoti qanday ko'rinishda?
- Kapalakning bosh qismi va tanasining shakli?
- Kapalakning tanasi va qanotlarida qanday ranglar bor?
- Kapalak simmetrik shakldami yoki yo'qmi?
- Nima sababdan kapalakni simmetrik shaklda deymiz?
- Kapalakning qanoti, tanasi, boshi o'zaro qanday tutashgan?

O'qituvchi kapalaklarni namunalarini ko'rsatadi va ularni rasmini chizish usulini doskada ko'rsatadi. Bu ishni u birinchi galda rasmini qog'oz yuzasida kompozitsiya jihatdan to'g'ri joylashtirishni tushuntirishdan boshlaydi. Shu maqsadda u o'zi ishlagan namunaviy

rasmni va tengqosh o'quvchilarining ishlagan rasmlaridan namunalarni bolalarga ko'rsatadi.



Kapalak turlari.

Rasm chizish simmetriya o'qini belgilash va kapalakning umumiy balandligini yotiq chiziq bilan, enini og'ma chiziqlar bilan belgilab olishdan boshlanadi. So'ngra simmetriya o'qi ustida kapalakning boshi, tanasining tasviri ishlanadi. Oxirida esa belgilangan yotiq va og'ma chiziqlar orasida kapalak qanotlarining rasmi tasvirlanadi. Rasm chizishdagi bosqichlarni o'qituvchi ba'zi o'quvchilarga og'zaki takrorlatganidan so'ng uni doskadan o'chirib tashlaydi. So'ngra bolalar partalarga qo'yilgan kapalaklarni kuzatadilar va ularning o'ziga qarab rasmini (qalamda va bo'yoq bilan) ishlaydilar. Dars oxirida sinfda ishlangan bolalar ishlaridan namunalar ajratib olinib, tahlil qilinadi. Yaxshi ishlangan rasmlarning egalari rag'batlantiriladi, bo'sh ishlangan rasmlardagi xato va kamchiliklar qayd etiladi.

Yana bir boshqa kapalakning o'ziga qarab rasmini chizish uyga vazifa qilib topshiriladi.

Yuqorida qayd qilinganidek, naturaga qarab tasvirlash, *naturaga qarab haykal ishlashni* ham nazarda tutiladi.

Bu mashg'ulotlarning yana o'ziga xos jihatlaridan biri bolalarda plastilin, loy, stek bilan to'g'ri munosabatda bo'lish, loy (plastilin) parchalarini o'zaro qo'shish orqali haykal ishlash, shuningdek, birgina yirik loy bo'lagidan ortiqcha joylarini olib tashlash orqali haykal hosil qilish metodikasini to'g'ri o'zlashtirib olishga qaratilganligidir.

O'quvchilar tomonidan topshiriqlarni bajarishda naturani barchaga to'liq ko'rinishiga erishish muhimdir. Shuningdek, naturani bolalar ishtirokida savol-javob orqali tahlil qilish, u haqda to'liq tasavvur hosil qilishga imkon beradi.

Boshlang'ich sinflarda bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olib, o'zbek xalqiga xos bo'lgan mayda haykalchalar yasashga oid ishlardan namunalar ko'chirtirish, bu san'at turining milliy badiiy an'analarini o'rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kompozitsiya mashg'ulotlari boshlang'ich sinflarda rangtasvir kompozitsiyasi, dekorativ kompozitsiya va haykaltaroshlik kompozitsiyasi kabi qismlardan tashkil topadi.

Rangtasvir kompozitsiyasi mashg'ulotlarida bolalar ko'proq yil fasillari, bayramlar, ommaviy tomoshalar, qishloq va shahar mehnatkashlarining kundalik mehnati, qush va hayvonlar hayoti kabilarga doir mavzularda rasm ishlaydilar. Bunday mashg'ulotlarda o'qituvchi o'zining asosiy e'tiborini bolalar rasmlarida aks etadigan g'oya, rasm mazmuni, rasm elementlarini qog'oz yuzasida kompozitsiya jihatdan to'g'ri savodli qilib tasvirlanishiga qaratishi lozim. Boshlang'ich sinflarda tasvirlanayotgan jarayon yoki narsalarning hajmini yorug'-soya, perspektiva yordamida tasvirlash talab etilmaydi. Perspektiva qoidalariga rioya qilish talab etilmasa-da, biroq, yaqindagi narsalarni yirikroq, uzoqdagisini kichikroq tasvirlanishi lozim. Rangtasvir kompozitsiyasida tasvirlangan hayvonlar, qushlar, odamlar o'rtasidagi bir-birlari bilan bog'liqlikni, aloqadorlikni ham aks ettirish kerak bo'ladi. Kompozitsiyadagi barcha elementlar o'zaro bog'liqlikda tasvirlanishi shart. Bolalar rangtasvir kompozitsiyasini xarakterli xususiyatlaridan biri, ularning rasmlaridagi soddalik, jo'nlik, dunyoni o'zlaricha idrok etishlari va tasvirlashlari hisoblanadi. Ulardagi bu xususiyatlar bolalar rasmlarida saqlanishi lozim. O'qituvchining bu masaladagi asosiy vazifasi bolalarning ijodiy faolligini oshirishga, rasmdagi g'oyani to'liq ifodalay olishga, rasmini emotsional ta'sirini kuchaytirishga ta'sir ko'rsatishdan iborat.

Boshlang'ich sinflarda **dekorativ kompozitsiya** mashg'ulotlari naqsh ishlash, ertak va hikoyalar asosida illyustratsiyalar ishlash kabilarni nazarda tutadi. Bu borada naqsh ishlash mashg'ulotlari katta o'rinni egallaydi. Ayniqsa, yo'lsimon, kvadrat, to'rtburchak, aylana shaklidagi naqsh namunalaridan ko'chirib o'rganishga, o'zbek xalq amaliy san'ati namunalarini o'zlashtirishga alohida e'tibor beriladi. Bunda ko'proq naqsh kompozitsiyasi, rang, elementlarni to'g'ri

tasvirlash, ularni ijodiy xarakterda bo'lishligiga, naqsh foni bilan uning elementlarining ranglari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, stilizatsiya masalalari o'qituvchining diqqat markazida bo'lishi hisoblanadi. Shuningdek, naqsh gulining nomlarini ham o'quvchilarga ko'rgazmali tarzda tushuntirib borish talab etiladi. Dastlabki mashg'ulotlarda bolalar yo'lsimon naqsh namunalaridan ko'chirsalar, keyingisida naqsh sxemalari va elementlari asosida, oxirida butunlay ijodiy naqsh chizadilar.

Dekorativ kompozitsiya mashg'ulotlarida illyustrativ rasm ishlashga alohida e'tibor beriladi va u ertak, hikoya, masal, she'r kabi badiiy asarlar asosida amalga oshiriladi. Bunday mashg'ulotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan uni to'g'ri tashkil etishga bog'liq. Buning uchun avvalo bolalar yoshiga mos, qiziqarli, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan adabiy asar tanlash lozim. Qolaversa, asar mazmunini to'liq bolalar ongiga yetkazish, undagi eng qiziqarli joylarni topish, asar bilan bog'liq yoki unga yaqin illyustratsiyalarni bolalarga namoyish etish, ularni g'oya, mazmun, kompozitsiya, rang jihatidan tahlil qilish kerak bo'ladi.


Illyustrativ rasm ishlash mashg'ulotlarida o'qituvchi o'z e'tiborini bolalar rasmlarini ijodiy xarakterda bo'lishiga, asardagi personajlarni obrazli, o'zlariga xos xarakterli holatda tasvirlanishiga, ularni va tevarak-atrofdagi boshqa tasviriy detallarni o'zaro aloqadorlikda tasvirlashlariga qaratishi lozim. Shuningdek, ular kompozitsiya qoidalariga rioya qilish, obraz va voqealarga mos ranglar tanlash, rasmda old va orqa ko'rinishlarni e'tibordan qochirmasliklari lozim. Imkoni boricha yaqindagi obraz va narsalarni yiriqroq, uzoqdagilarni kichikroq qilib tasvirlash lozimligini bolalar ongiga yetkazish va uni o'z rasmlariga tatbiq qilishlariga yordam berish muhim.

Illyustrativ rasm ishlash mashg'ulotlarining yana bir muhim xususiyati bolalarda fantaziya, obrazli tasavvurlarni o'stirishga qaratilganligidir. Bu sifatlarni rivojlantirishga 3-4-sinflarda ko'proq e'tibor beriladi. Illyustrativ rasm ishlash, asosan ertak, hikoya, masal kabi adabiy asarlar bilan bog'liq bo'lganligi sababli bolalar asardagi hayvonlarni odamlar qiyofasida tasvirlashlariga ruxsat etiladi. Ular kiyimlar kiygan, odamlar yashaydigan uylarda yashayotgan, ular o'zaro gaplashayotgan va mehnat qilayotgan hollarda tasvirlanishi mumkin. Bu o'z o'zida bolalarni hayajonlantiradi, ijodiy ishlarini faollashtiradi.

Ma'lumki, illyustrativ rasm ishlash mashg'ulotlari odam, hayvon, qush va boshqa murakkab tuzilishdagi narsalarni tasvirlash bilan

bog'liq. Ularni o'ziga o'xshatib savodli tasvirlash bolalarga ma'lum qiyinchiliklarni tug'diradi. Shuni hisobga olib bu materiallarga doir ko'rgazmali qurollarni (odam, hayvon, qush tasvirlangan) namoyish etish kerak bo'ladi.

Illyustrativ rasm ishlash mavzusiga doir dars ishlanmasi beriladi.



Ertaklarga illyustratsiya kompozitsiyasini ishlash.
(Ur to'qmoq).

Haykaltaroshlik kompozitsiyasi mashg'ulotlariga boshlang'ich simflarda alohida o'rin ajartilgan. Ularga hayotiy mavzularda, shuningdek, ertak, hikoya, masal mavzulari asos qilib olinadi. Shuningdek, haykaltaroshlik kompozitsiyasi mashg'ulotlari uchun foydan yasalgan o'zbek xalq o'yinchoqlari an'analari asosida mazmunli haykalchalar ishlash mavzulari ham beriladi. Bunday mavzular qatoriga «Tuya va bo'taloq», «Ikki echki», «Poyga» kabilarni kiritish mumkin. Mazmunli haykalchalar bolalar uchun qiyimlik qilganligi uchun topshiriqlar jamoa bo'lib bajariladi, bunda kompozitsiyada ishtirok etuvchilar, shuningdek, ijodiy guruhlar soni va har bir o'quvchining vazifasi belgilanadi. Masalan, «Tuyalar karvoni» mavzusida haykaltaroshlikdan kompozitsiya ishlanadigan bo'lsa, mavzuga doir karvonboshi, 5-6 tuya (yuklari bilan) haykalchalarini ishlash kerak bo'ladi. Ularning har birini bittadan o'quvchiga topshiriladi.

Ishlar tayyor bo'lgach, avvaldan kelishib olingan kompozitsiya loyihasi bo'yicha haykalchalar joy-joyiga qo'yiladi. Bunda karvonning eng oldida ot minib olgan karvonboshi, oxirida yuklangan 5-6 tuya ketma-ket qo'yiladi va kompozitsiya tayyor bo'ladi.

Haykaltaroshlik kompozitsiyasi mashg'ulotlarida o'qituvchi o'z e'tiborini quyidagi jihatlariga qaratishi lozim. Bolalar kuchi va qiziqishiga mos mazmun va kompozitsiyani topish, kompozitsiyada

ishtirok etuvchi detallarni aniqlash, kompozitsiyadagi detallar o'rtasidagi aloqadorlikka bolalar e'tiborini qaratish, kompozitsiya detallarini to'g'ri tasvirlash talab etiladi.

Vazifani talablar darajasida bajarilishi uchun o'qituvchi mavzuga doir illyustrativ materiallarni namoyish va tahlil etishi muhim. Shu bilan birga vazifani bajarishga qiynalayotgan o'quvchilar yoki guruhlariga amaliy yordam ko'rsatiladi.

Haykaltaroshlik kompozitsiyasiga doir dars ishlanma keltiriladi.

Darsning mavzusi. «Tuyalar karvoni» mavzusida haykal ishlash.

Darsning vazifalari: O'quvchilarni loydan haykal ishlash malakalarini o'stirish. Badiiy fikr doirasini kengaytirish. Shakl, o'lcham, mutanosiblik orqali estetik tarbiyalash. Jamoa tarbiyasini amalga oshirish. Bolalarni badiiy fikrlashga o'rgatish, ularni ijodiy qobiliyatlarini o'stirish.

Darsning jihozlanishi. Haykaltaroshlik darslari uchun kerak bo'ladigan o'quv qurollar, badiiy ashyolar, dars mavzusiga aloqador bo'lgan san'at asarlarining reproduksiyalari. O'yinchoq tuyalar. Katta o'lchamdagi tuya rasmi.

Darsning mazmuni. Darsda avvalo o'qituvchi sahro zonalarining tabiatl va iqlimi, hayvon va qushlari haqida to'xtaladi. O'quvchilarga buni cho'lda o'suvchi o'simliklardan – saksovul, tikan, sahro jonivorlaridan tuya, echki, ilon kabilar haqida atroflicha so'zlab beradi va ularning rasmlarini ko'rsatadi. Tuyalarning hayoti haqida alohida to'xtaladi. Tuyani sahroning kemasi deb ham ataydilar. Tuyalar juda chidamli hayvon bo'lib, bir oygacha suv ichmasdan va ovqatlanmasdan yura oladi. Bunday paytlarda ular o'z o'rkachlaridagi yog'laridan foydalanadilar. Tuyalar haqida gap borganda, o'qituvchi bolalar e'tiborini ularning tuzilishi, shakli, o'lchamlari, o'lcham nisbatlariga qaratadi. Buning uchun u katta o'lchamdagi odam, eshak, tuya tasvirini, shu mavzudagi suratlarining reproduksiyalarini ko'rsatadi. Ana shu xildagi tushuntirishlardan so'ng o'qituvchi tuyalar shaklini loydan ishlashni amaliy tarzda bajarib ko'rsatadi.

Tuya shakli alohida loy bo'laklaridan ishlanadi. Buning uchun tuyaning tanasi, orqa va old oyoqlari hamda bosh qismlari uchun loy bo'laklaridan tayyorlab olinadi. Ularga kerakli ko'rinishlar berilgach, o'z o'rinlariga yopishtirib chiqiladi. Odatda tuyalarning o'rkachlari bitta yoki ikkita bo'lishi mumkin. O'quvchilar o'z xohishlariga ko'ra ularni bir yoki ikki o'rkachli qilib ishlaydilar. Tuyaning sirtidagi mayda detallar steklar yoki barmoqlar bilan silliqlab chiqiladi.

Bolalar «Tuyalar karvoni» kompozitsiyasini ishlashlari uchun sinfda alohida 3-4 ijodiy guruh tashkil etiladi va ularga guruh boshlig'i tayinlanadi. Bu boshliqlar guruh ishi uchun javob beradilar.

Guruh a'zolari o'rtasida vazifalar taqsimlanadi. Har bir kompozitsiya uchun bir karvonboshi, ot, it, 5-10 tagacha yuklar ortilgan tuyalar, tuya ustida o'tirib ketadigan 2-3 ta odam haykallarini yasash kerak bo'ladi. Ularning haykalini yasash guruh a'zolari orasida bo'lishib olinadi. Har bir bolaga bittadan haykalni yasash tavsiya etiladi. Har bir o'quvchi o'z vazifasini bajarib bo'lganidan so'ng, har bir guruh a'zosi kompozitsiya ustida ishlaydi. Kompozitsiya uchun taxminan 30-40 sm kattalikdagi fanercha kerak bo'ladi. Fanerning ustiga har bir figura quyidagi tartibda joylashtirib chiqiladi. Karvonning eng oldida it, so'ngra ot mingan karvonboshi, tuyalar tasvirlanadilar. Tuyalarning ba'zilarida odamlar o'tirib olgan bo'lishlari mumkin. Karvonboshi kompozitsiyada otni yetaklab ketayotgan holda tasvirlanishi ham mumkin.

Mazkur mavzu ikki darsga mo'jallangan bo'lib, birinchi darsning ko'proq qismi o'qituvchining karvon haqida suhbat, shuningdek, it, tuya, odamlarning shakli, o'lchami, tuzilishi haqida bo'ladi. Shu bilan birga topshiriq mazmuni, guruh a'zolarining o'z vazifalarini belgilab olishlari va kompozitsiya mazmunining o'zaro kelishib olishlari haqida bo'ladi. Ikkinchi dars to'raligicha o'quvchilarning mustaqil ishlariga bag'ishlanadi. Ish yakuni ikkinchi dars oxirida amalga oshiriladi. Bunda ijodiy guruhlar tomonidan tayyorlangan ishlar muhokama etilib, yaxshi ko'rsatkichga erishgan bolalar rag'batlantiriladi.

Dars sinfda bajarilgan haykallardan eng xarakterlilarini ko'rgazmaga ajratish va tahlil qilish bilan yakunlanadi.

Uyga «Tuya va bo'taloq» mavzusida haykal ishlash vazifa qilib topshiriladi.



Turli holatdagi tuya ko'rinishi.

IV bob. TASVIRIY SAN'AT TARIXI

Mazmuni: 1 Tasviriy san'at va uning mohiyati. 2. Tasviriy san'atning tur va janrlari. 3. O'zbek xalq amaliy san'ati va ularning turlari. 4. Qadimgi chet el va Yevropa Uyg'onish davri san'ati. 5. XIX asr Rus tasviriy san'ati. 6. Qadimgi tasviriy san'at (Zarautsoy, Varaxsha, Afrosiyob va O'rta Osiyo xalqlari san'at. 7. Mustaqillik yillardagi tasviriy san'at.

Tasviriy san'at va uning mohiyati, tur va janrlari

Tasviriy san'at – eng qadimiy va keng tarqalgan san'at turlaridan biridir. Aslida san'atning turlari juda ko'p. Ular badiiy adabiyot, musiqa, tasviriy san'at, teatr, kino, xoreografiya, me'morchilik, amaliy bezak kabi boshqa san'at turlari ham mavjuddir.

Odatda, haqqoniy borliqni tasviriy obrazlarda, shakllarda fazoviy kenglikda yoki tekislikda (qog'oz yuzasida) aks ettiradigan san'at **tasviriy san'at** deb ataladi.



R.Ahmedov. Onalik o'ylari.

Tasviriy san'at tushunchasi keng ma'noga ega. XIX asrgacha me'morchilik, haykaltaroshlik va rangtasvir tasviriy san'atning turlari bo'lib hisoblangan. Asrning oxirlarida esa grafika tasviriy san'atning eng muhim va hozirjavob turlaridan biriga aylandi. So'nggi 20 yil ichida san'atning dizayn kabi turi ham o'z o'rnini topdi.

Tasviriy san'atning hamma turlari bir-biriga juda yaqin va ularning bir qator o'xshashliklari bor. Lekin har birining o'ziga xos tasvirlash uslubi va texnikasi mavjud. Bundan tashqari, ularning har biri ishlatilish o'rnini, tasvirlaydigan mavzusi, ishlanish uslubiga qarab bir qator turlarga va janrlarga bo'linadi.

Grafika. Grafika yunoncha «**grapho**» so'zidan olingan bo'lib. «yozaman», «chizaman» degan ma'noni anglatadi. Grafikaga oddiy qora qalam, tushda chizilgan surat, mavzuli kompozitsiyalar kitobning ichki va tashqi tomoniga ishlangan turli rasmlar, illyustratsiya, plakat, hajviy, sharj, etiketka, marka, ekslibris va boshqalar kiradi. Grafika san'ati asosan chiziq, shakl va oq qora ranglar orqali tasvirlanadi. San'atning ayrim turlarida bo'yoqlardan ham foydalaniladi, lekin asar mazmunini ochib berishda asosiy vazifani o'tamaydi, faqat kishilarni jalb qilishi yoki chaqiriq vazifasini bajarishi mumkin. Shuning uchun ham bu sohada ikki uch xildan ortiq bo'yoq deyarli ishlatilmaydi. Grafika asarlari o'zining bajaradigan vazifasi va mazmuniga qarab quyidagi turlarga bo'linadi: dastgohli grafika, kitob va gazeta jurnal grafikasi hamda amaliy grafika.

Dastgohli grafika san'ati ijodkorning mustaqil badiiy faoliyatini anglatadigan, yangi fikr va g'oyalarni ilgari suradigan grafika asarlariga aytiladi. Dastgohli grafika san'ati asarlarining ko'rinishlaridan biri estampdir. **Estamp** (estampe) – rassom tomonidan tayyorlangan asarni maxsus asbobda ko'paytirilgan nusxasi, ya'ni qog'ozga bosma yo'li bilan tushirilgan tasvir.



G.Sultonova. Masxaraboz.

Asosan san'at asarlarida biron bir mazmun, odamlarning xatti-harakati, tabiat ko'rinishi yoritiladi.

Kitob, gazeta jurnal grafikasi san'ati bevosita kitob va jurnal mazmuni bilan bog'liq bo'ladi hamda ularning maqsad va mazmunining to'laroq ochilishi uchun xizmat qiladi. Kitob grafikasi san'atida kitobning turiga qarab muqova, titul muqova, illyustratsiya kabilar hisobga olinadi.

Ilyustratsiya biron bir badiiy asar bilan bog'liq bo'lib, shu asarda tasvirlangan lavhaning tasvirini aks ettiradigan tasvirga aytiladi. Ilyustratsiyalar turli ko'rinishda bo'lib badiiy asarda ishtirok etuvchi shaxs portreti, muhim voqealar tasvirlanishi mumkin.

Grafika san'atining yana bir turlaridan biri plakatdir. **Plakat** lotincha so'zdan olingan bo'lib, «e'lon» degan ma'noni anglatadi. Plakat san'ati - qisqa matnli ko'rgazmali tashviqot maqsadlariga xizmat qiladigan san'at turi. Plakat vazifasiga ko'ra chaqiriq, hajviy asarlar, reklama (tijorat), tashviqot, ta'lim-tarbiya turlariga bo'linadi. Plakatlar ma'lum bir mavzuga (tinchlik, terrorizmga qarshi, ekologiya kabilar) qaratilgan bo'ladi.



Grafika san'atining nihoyatda keng tarqalgan turlaridan biri **sanoat grafika san'atidir**. Turli xildagi etiketkalar, diplom, marka, afisha, buklet, taklifnomalar grafikaning shu turiga mansub. Sanoat grafikasiga esa yorliq, ramz va boshqalar kiradi.

N.Ten.
Qutqaring. Orol.

Amaliy grafika san'ati ijtimoiy hayotda, bo'layotgan yangiliklar bilan ommani tanishtiradi. Grafika bajarish texnikasi jihatdan ikki qismga – rasm va bosma grafikaga bo'linadi.

Bosma grafika(gravyura) ko'p hadda nashr qilinadi: Gravyura frans: «graver» so'zi bo'lib o'yish degan ma'noni anglatadi. Bu turi rasmning bosma shaklidan iborat bo'lib, u metall yoki yog'och taxtaga o'yish va o'yuvchi modda yordamida rasm ishlashdir. Gravyura ham o'z o'rnida quyidagi turlarga bo'linadi:

Litografiya – asosan toshga, linogravyura – linoleumga, ksilografiya – yog‘ochga va ofort esa – aluminiy va boshqa metallarga o‘yib ishlanadi.

Grafika san‘atining mashhur ustalari Sulton Ali Mashhadiy, Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinchi o‘z zamonasida samarali ijod qilishgan. O‘zbekistonning XX asr grafikachi rassomlaridan Iskandar Ikromov, Qutlug‘ Basharov, Telman Muhamedov, Vladimir Qaydalov, Medet Kagapov, Nikolay Ten, Ne‘mat Hakimov va boshqalar ijodi e‘tiborga molik.

Rangtasvir. Tasviriy san‘atning bu turi asosan bo‘yoqlar vositasida matoga, devorga shuningdek, tekislik va yuzalarga ishlanadigan san‘atdir. Tasvir mazmuni, xarakteri va boshqa barcha xususiyatlari bo‘yoqlar orqali ifodalab berilsa, rangtasvir san‘ati deb ataladi.

Tasviriy san‘atning bu turida ijodkor o‘z ichki kechinmalarini ranglar orqali tasvirlaydi, fazoning cheksizligi, undagi narsalarning rang- barangligi, moddiylikini mohirona ko‘rsatadi. Masalan, qizil va qora bo‘yoqlarda fojaviylik aks ettirilsa, och moviy va yashil ranglarda tinch va osoyishta holatlar tasvirlanishi mumkin. Rangtasvir san‘ati jozibali va qiziqarliligi bilan nafaqat o‘zlashtirishda, hatto uni idrok qila bilishda ham o‘quvchidan muayyan tayyorgarlikni talab etadi.

Rangtasvir asarlari yana o‘zining vazifasi va ishlanish uslubiga ko‘ra monumental, dastgohli va dekorativ turlarga bo‘linadi.

Monumental rangtasvir me‘morlik bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib bu turdagi asarlar mustaqil mazmuniga ega hamda ularda jamiyat hayotidan olingan muhim voqealar aks ettiriladi. Bunday asarlar odatda uzoq masofadan ko‘rishga mo‘ljallanadi va obrazlarni iloji boricha umumlashtirilgan holda tasvirlanadi.

Ranglar ham birmuncha shartli olinadi, shunga qaramasdan u borliq to‘g‘risida haqqoniy tasavvur berishi kerak. Monumental rangtasvir me‘morchilikda ma‘lum miqdorda bezash vazifasini o‘taydi, shuning uchun uni ba‘zan monumental-dekorativ rangtasvir deb ham yuritiladi.

Monumental rangtasvir asarlari bajarilish usuliga qarab o‘z navbatida bir necha turlarga bo‘linadi. Bular: freska, mozaika va pannodir. **Freska** odatda devorga to‘g‘ridan-to‘g‘ri suvoq ustiga ishlanadi. **Mozaika** rangli tosh, shisha, bo‘yalgan oyna, sirli sopol parchalardan ishlanadi. Devorga ishlangan surat yoki o‘yma naqshlar ba‘zan har xil shakldagi ramkalar (kvadrat, beshburchak va hokazolar)

ilan chegaralangan bo'ladi – bu **pannodir**. Panno dastlab alohida yuzada (matoda, ganchda, yog'ochda) ishlab olinib, so'ng devorlarga o'rnatiladi. Ba'zi hollarda panno dastlab matoga moybo'yoq bilan ishlanib, keyin zarur o'ringa mahkamlanadi.

Dekorativ rangtasvir me'morchilik va amaliy san'at bilan bog'liq bo'lib, asosiy bezash vazifasini o'taydi. Dekorativ rangtasvirga naqqoshlik san'ati, teatr, kino dekoratsiyalari va qisman monumental rassomchilik ham kiradi.

Dastgohli rangtasvir hozirgi zamon tasviriy san'atida yetakchi



T. Qo'ziyev. Boysunqur Mirzo.

o'rinni egallovchi san'at turlaridan biri hisoblanadi. Odatda, u maxsus romkaga tortilgan matolar ustiga ishlanadi. Bunday asarlar molbert deb ataladigan maxsus moslamada ishlangani uchun ham ularni dastgohli asarlar deyiladi.

Bunday rassomchilik asarlari jamiyatda bo'layotgan muhim voqea va hodisalarni aks ettirishidan tashqari, shaxsning alohida xislatlari, ichki kechinmalari, hls-tuyg'ularini ko'rsatish imkoniyatiga egadir. Shuningdek, ularda tabiatda bo'layotgan o'zgarishlar o'zining yorqin ifodasini topadi.

Dastgohli rangtasvir monumental va dekorativ rang tasvirdan farqli o'laroq mustaqil ahamiyatga ega, u boshqa biron san'atga bog'lanmaydi.

Dastgohli rangtasvir birmuncha kech paydo bo'lgan bo'lib, uning rivojlanish jarayoni uyg'onish davriga to'g'ri keladi. Hozirgi kunda esa tasviriy san'at turlari ichida uning keng tarqalgan turlaridan biri hisoblanadi.



K. Behzod. Shayboniyxon portreti.

O'zbekistonda rassomchilikning bu turi asosan XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab paydo bo'lgan. Hozirgi kunda u o'zbek tasviriy san'atida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi.

XX asr o'zbek rangtasvir san'ati ustalaridan O'rol Tansiqboyev, Abdulhaq Abdullayev, Rahim Ahmedov, Malik Nabiyeu, Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov, Alisher Mirzayev, Akmal Ikromjonovlar ijodi diqqat-e'tiborga molik.

Miniatyura. Tasviriy san'atning miniatyura yo'nalishi o'z xarakteri va uslublari bilan alohida ajralib turadi. Miniatyura san'atidagi asarlar to'g'ri uch o'lchamli chiziqli perspektivaga asoslangan tasviriy san'at turlaridan ma'lum darajada va nafis ishlanganligi, nozikligi bilan farqlanadi. Miniatyurachi rassomlarning tasvirlaydigan asosiy obyekti portret hisoblangan. Tarixda muhim o'rinni egallagan Mirak Naqqosh, Xalil Mirzo Shohruhiy, Sultonali Mashhadiy, Kamoliddin Behzod va boshqalar mumtoz musavvirlar sirasiga mansub.

Haykaltaroshlik

Tasviriy san'atning turlaridan biri bo'lgan haykaltaroshlik



I.Jabborov, K.Jabborov. Nizomiy Ganjaviy buyusti. Toshkent.

asarlarida odatda, voqelik uch o'lchamli hajmda bo'lgan shakllar makonda tasvirlanadi. Haykalchalar, yodgorliklar, binc'larning devorlariga, tanga, medal kabi buyumlarning yuzasidagi bo'rtma tasvirlar haykaltaroshlik san'atining turli ko'rinishi hisoblanadi.

Haykaltaroshlik – eng qadimgi san'atlardan biridir. Qadimgi misrliklarning fir'avn Tutanxamon, go'zal va aqli malika Nefertiti siymosi, yunonlarning «Milos Afrodita»si, Mironning «Disk otuvchi» asari haykali alohida diqqatga

sazovor. Eng qadimgi xalqlardan hisoblangan hindlar o'zlarining diniy e'tiqodi bo'lmish buddaga oid minglab haykallar yaratishgan.

O'lkamizning Surxondaryo viloyatidan qadim kushonlar davriga oid buddizmga xos haykaltaroshlik namunalarini ham ko'plab uchratish mumkin. O'zbekiston hududidagi qadimgi Samarqandning o'rmi – Afrosiyobdan bir qancha haykalchalar topilgan. Bu haykalchalarda go'zallik, sadoqat, insoniylik va diniy e'tiqodlar aks ettirilgan.

Haykaltaroshlik – tasviriy san'atning bir turi bo'lib, lotincha «*skulpo*» so'zidan olingan, qattiq materiallarga «qirqish, kesish, o'yish, tarashlash» orqali ishlov berish ma'nosini anglatadi.

Haykaltaroshlik san'ati ko'rinishiga qarab, dumaloq va qabariq (relief) haykallar yaratish turiga bo'linadi.

Dumaloq haykallarni hamma tomondan ko'rish mumkin. Agar bu san'atda inson obrazining bosh qismi yoki beligacha tasvirlansa, bunday haykallar **byust** deb ataladi. Relief (qabariq) haykallar esa yuzaga bo'rttirib ishlangani uchun faqat bir tomondan ko'rishga mo'ljallangan bo'ladi. Releflar o'z o'rnida **Gorelef** va **Barelef** guruhiga bo'linadi. **Gorelef** – yuzaga yopishgan holda nisbatan bo'rtib ko'rinadi. Goho biror bir bo'lagi dumaloq haykal darajasida ham bo'ladi. **Bareleflar** yuzaga nisbatan kam bo'rtib tasvirlanadi, bu o'rinda tanga va taqinchoqlarni misol keltirish mumkin. Haykaltaroshlik asarlari asosan qattiq jismlardan – tosh, yog'och, marmar, granit, bronza, gips va boshqa shu kabi materiallardan tayyorlanadi.

Bu materiallar haykalga turli xarakter va mazmun berishda xizmat qiladi. Masalan, tosh-granitdan ishlangan haykallar kishida ulug'vorlik, abadiylik baxsh etsa, aksincha marmardan ishlangan haykallar nozik, ko'rkam ko'rinadi. Shuning uchun haykallar o'zining mazmuni va o'rnatiladigan joyiga qarab har xil materiallardan ishlanadi. Haykaltaroshlik materiallari ko'p. Bu plastilln, loy, yog'och, metall, marmar, granit, suyak, sement, gips va hokazolardir. Qimmatli metallar – oltin, kumush, nikellar ham haykaltaroshlikda qo'llaniladi. Har bir materialning o'z vazifasi va maxsus ishlatilish texnikasi mavjud. Haykaltarosh uchun eng qulay material loydir. Ijodkor undan asarni asl nusxasini yasaydi. Haykaltaroshlikda deyarli rang ishlatilmaydi. Xalq haykaltaroshligida haykallarni bo'yash hollari uchraydi. Bunga O'zbekiston hududidan topilgan qator haykaltaroshlik asarlari misol bo'la oladi.

Haykaltaroshlik asarini ham tasviriy san'atning boshqa turlari kabi o'zining bajaradigan vazifasi, mazmuniga qarab qator tur va janrlarga

bo'lmadi. Haykaltaroshlik turlari deganda biz **monumental dekorativ va dastgohli haykaltaroshligini** tushunamiz. Monumental haykaltaroshlikka muhim tarixiy voqealar, atqli shiaxslar xotirasini abadiylashtirish maqsadida o'rnatilgan yirik o'lchamdagi, turli yodgorliklar, haykaltaroshlik ansambllari kiradi. Odatda monumental haykaltaroshlik asarlari o'zida katta mazmuni anglatib mustaqil xarakterga ega bo'ladi. Lekin shu bilan birga u bevosita muhit bilan bog'liq bo'lib, me'morchilik binolari hamda tabiat bilan uyg'unlikda bo'lishi



**J.Mirtojiev. Shoir G'. G'ulom.
Toshkent.**

lozim. Bu unga yanada ulug'vorlik va ta'sirchanlik baxsh etadi. Monumental haykaltaroshlik asarlariga mos bo'lgan xususiyatlardan biri bu tasvirlanayotgan qahramonlarni ko'tarinki ruhda tasvirlashdir. Monumental haykaltaroshlik asarlari ochiq joyda turishi uchun mo'ljallanadi va katta-katta yaxlit shakllardan keng foydalaniladi. Odam yuzidagi mayda bo'laklar, kiyimdagi nozik buklanishlar va undagi mayda bo'laklar ko'rsatilmaydi.

Toshkent shahridagi sohibqiron Amir Temur, Alisher Navoiy haykallari shu turga mansub.

Istirohat bog'lari, xiyobonlar, ko'chalar, shuningdek, me'morchilik binolarining devorlarini bezash uchun ishlatiladigan haykallarning hamma turlari dekorativ haykaltaroshlik san'atiga kiradi. Dekorativ haykaltaroshlik asarlarida obrazlar biroz hajviy tarzda talqin etilib bo'rttiriladi. Haykaltaroshlikning bu turida turli hayvon va qushlar shakli keng ishlatiladi.

Binolarning devoriga ishlanadigan turli bo'rtma tasvirlar, amaliy san'at buyumlarining yuzasiga ishlangan tasvirlar ham dekorativ haykaltaroshlikka kiradi. Turli favvoralar, panjaralar, badiiy darvozalar ham dekorativ haykaltaroshlik namunalari sifatida qaraladi. Chinnidan yasalgan turli haykalchalar, loydan ishlangan o'yinchoqlar ham shu haykaltaroshlikning ko'rinishi hisoblanadi. O'zbekistonda dekorativ

haykaltaroshlik sohasida rassomlardan U.Jo‘raqulov, X.Rahimboyeva, A.Hoshimov va boshqalar barakali ijod qilmoqdalar.

Dastgohli haykaltaroshlikka o‘zida mustaqil mazmuni anglatadigan san’atning boshqa turlariga tobe bo‘lmagan asarlar kiradi. Bunday asarlar ko‘rgazmalarga, uylarga qo‘yish uchun mo‘ljallangan bo‘ladi.

Haykaltaroshlikning bu turida voqelik o‘zining butun borligi bilan aks etadi. Haykaltaroshlik san’atining bu turi inson ruhiyatidagi nozik o‘zgarishlar, uning ichki ruhiy kechinmalari, kayfiyatini ochib berish imkoniyatiga ega. Dastgohli haykaltaroshlikning ko‘rinishiaridan biri byust bo‘lib, u odam gavdasini aks ettiruvchi dumaloq haykal hamda o‘zida bir qator obrazlarni inujassamlashtirgan haykallar guruhi (kompozitsiya) tarzida bo‘ladi.

Haykaltaroshlik san’atining yana bir ko‘rinishi **terrakota** hisoblanadi (terrakota–italyancha so‘z bo‘lib «pishirilgan loy» ma’nosini bildiradi). Terrakota keng ma’nodan loydan yasilib, pechda pishirilgan haykaltaroshlik asarlaridir.

Haykaltaroshlikda insonning faqat tashqi ko‘rinishi tinch turgan yoki harakatdagi holatini aks ettirish bilan uning imkoniyati tugamaydi. Uning ichki kechinmalari, hayajon va g‘amginligi, kelajakka intilishi ham o‘z ifodasini topadi. Haykaltaroshlik asarida tevarak-atrofga bo‘lgan munosabat, qalbidagi iztirob ham ishonarli talqin etilishi mumkin. Bunda, albatta, eng avvalo haykaltaroshning o‘ta ziyrakligi, odam gavdasi va mimik o‘zgarishlarini to‘g‘ri ifodalashi muhim o‘rinni egallaydi. To‘g‘ri topilgan harakat, yuzdagi mimik holat – bular uning ta’sirli bo‘lishiga zamin tayyorlaydi.

Eynulla Aliyev, Abdumo‘min Boymatov, Ulug‘bek Mardiyev, Ilhom Jabborov kabi haykaltaroshlar shu sohada samarali ijod qilishmoqda.

Tasviriy san’at janrlari

Portret janri. Insonning ichki ruhiy olami bilan bog‘langan holda aniq bir obraz yaratilishi portret san’ati deb yuritiladi. Portretda insonning to‘la gavdasi, yarmi yoki yuz qiyofasining faqat o‘zi ham bo‘lishi mumkin. Portret yaratish o‘ziga xos murakkab jarayon bo‘lib, insonning anatomik tuzilishidan tortib ichki ruhiy, ma’naviy, shuningdek, tashqi ko‘rinishidagi barcha jihatlarini aks ettirishi bilan san’at darajasidagi asar bo‘lishi mumkin. Portretchi rassom odamlarga xos turli harakatlarni his qila bilmog‘i, ayniqsa, odamning qiyofasidagi

samimiylilik yoki soxta jihatlarini tasvirlay bilish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

O'zbekiston xalq rassosini akademik M.Nabiyev buyuk siymolar obrazini o'ziga xos talqin eta olgan iste'dodli mo'yqalam sohibidir.



M.Nabiyev. Beruniy portreti.

Uning «Amir Temur» portreti fikrimiz dalilidir. Buyuk Sarkardaning, taxtda o'ychan qilichga qo'llarini qo'yib o'tirgan holati mohirona tasvirlangan. Uning yurt tinchligi, xalq farovonligini o'ta ziyraklik bilan mushohada etayotganligi ishonarli ko'rsatilgan. Boshidagi shoxlik toji barvasta qomatlariga juda mos tushgan. Uning nihoyatda qattiq qo'lligi, dovyurak va abjirligi, o'ta zakovatligi yuzidagi qiyofada o'z ifodasini topgan.

Inson obrazini yaratish – tasviriy san'atda eng murakkab jarayon hisoblanadi.

Tasviriy san'atning portret janri insonning ma'naviy qiyofasini o'zida ifodalashi bilan san'atning boshqa turlaridan birnuncha farq qiladi. Portret orqali inson obrazini mohirona ko'rsata olgan buyuk rassomlar qatoriga Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinchi, Rembrandt, shuningdek, o'zbek rassomlaridan Abdulhaq Abdullayev, Rahim Ahmedov, Chingiz Ahmarov, Malik Nabyiev va boshqa bir qancha rassomlarni kiritish mumkin.

Natyurmort – fransuzcha «jonsiz tabiat» degan ma'noni beradi. Odamlar hayotida ishlatiladigan, ko'pincha turmushda zarur bo'lgan turli buyumlar, mehnat qurollari, sabzavot va mevalar, gullar, parranda va mayda hayvonlar tasvirlanadi, ya'ni natyurmort san'atida insonning maishiy hayoti aks ettiriladi.

Natyurmort XVI asrning oxirlariga kelib, mustaqil janr sifatida shakllandi. XVII asrga kelib, Gollandiya va Flandiya, XVIII asrda esa Fransiya tasviriy san'atida keng tarqaldi.

Ma'lumki, har bir rassom tasviriy san'at sirlarini o'rganishni natyurmort ishlashdan boshlaydi. Natyurmort asarlarini diqqat va

sinchkovlik bilan o'rgangan kishi ularda ma'lum davr ijtimoiy hayotining aksini ko'radi va shu davrda yashagan odamlarning turmush tarzi haqida tasavvurga ega bo'ladi.




M.Nuriddinov. Natyurmort.

Vaholanki, natyurmort janrida barakali ijod etish uchun ham tinmay o'qish, o'rganish va izlanish zarur. Tasviriy san'atning gullab yashnashida Piter Klass, Jan-Batist-Simeon Sharden, Frans Snayders, I. Xrutskiy, P.Konchalovskiy, I.Mashkov, N.Kashina, Rahim Ahmedov, G'ofur Abdurahmanov, Akmal Ikromjonovlarning o'z o'rnini bor.

Natyurmort janrida asar yaratish rassom xayolida uzoq vaqt davom etadigan kuzatishlar natijasida yoki to'satdan paydo bo'lishi ham mumkin.

Manzara janri – go'zal ona tabiatning turli ko'rimishlarini tasviriy san'atda aks ettirilishidir. Qadimgi Xitoy san'atida rassomlar tabiatni ham mahorat bilan aks ettirganlar. Yevropada manzara XVI–XVII asrlarda taraqqiy etdi.



G'.Abdurahmonov. Oydin kecha.

XIX asrning ikkinchi yarmidagi rus realistik san'atida manzara janri beqiyos o'sdi. Bu janrning novatorlaridan biri A.K.Savrasovdir. Tog', o'rmon, dengiz, shahar va qishloq manzaralarining tasvirlanishi manzara janriga tegishlidir. Manzaraning mohir ustalari Klod Loren, I.Shishkin, I.Levitan, O'. Tansiqboyev, N.Karaxan, G'.Abdurahmonov va boshqa mashhur rassomlar ijodini bu borada misol keltirish mumkin.

Tarixiy janrda – uzoq o'tmishda bo'lib o'tgan voqea-hodisalar, tarixiy shaxslar, xalqlarning turmush madamiyati tasvirlanadi. U Uyg'omish davrida vujudga kelib, XIX asr rus san'atida keng rivojlangan.

Rus san'atida bu janrning ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri V.I.Surikov edi. U qator ajoyib «O'qchilar qatl etilgan tong» kabi asarlarni yaratdi. Rassomning tarixiy janrda ilgari surgan asosiy maqsadi xalqning o'tmishda boshidan kechirganlarini ko'rsatish edi. Tarixiy mavzudagi asarlarga taniqli musavvir M.Nabiyevning «Eski maktab» asari misol bo'la oladi. Rassom bu asarida Sho'ro zamoni davridagi eski maktab hayotidagi voqealardan birini tasvirlab, xalqimizni o'ta savodli qilgan eski maktablar, masjid va madrasalar ekanligini, «Qur'oni Karimni» o'qiy olmagan bolalar nihoyatda kam bo'lganligini ko'rsatgan.

Asarni sinchiklab kuzatar ekanmiz, e'tiborimiz bolalar boshidagi o'zbek do'ppisiga, hatto salla o'ragan bolani ham ko'rish mumkin. Bolalardagi sabr-toqat, axloq, odob, ilm olishga moyillik, fikri teranlik, andisha kabi sharqona xislatlarni sezish mumkin. Domladagi aql-farosat, zakovat, salobat, ilmliigi donishmandlarga xos fikrlashi, lavh ustidagi kitob, kuzatuvchimi o'ziga maftun etadi.

Batal janr – «batal» fransuzcha so'z bo'lib, «jang», «urush» ma'nosini bildiradi. Tarixiy urush voqealarini, harbiy yurish manzaralarini aks ettiruvchi janr. Batal janr mavzusi jihatidan tarixiy janrga yaqin turadi. Jang bilan bevosita bog'liq bo'lgan tarixiy voqealarni ham ko'rsatadi.

Musavvirlardan M.Grekov, G.Savitskiy, A.Deyneka, R.Rizamuhamedov (Muqanna qo'zg'oloni), T.Sodiqov (To'marisning qasosi), M.Nabiyevlarning (Spitamen qo'zg'oloni) asarlari bunga yorqin dalil bo'la oladi.

Eramizdan avvalgi IV asrda Yunon bosqinchilariga qarshi kurashgan adolatparvar, mard xalq qahramoni Spitamen taniqli ijodkor M.Nabiyev mo'yqalamiga mansubdir. U o'zining «Spitamen qo'zg'oloni» asarida Spitamenning yorqin qiyofasini o'z askarlari va yunon bosqinchilarining qonli janglar fonida mohirona aks ettirgan.

Asardagi har bir epizod, kishilar yuzidagi qahr-g'azab, dushmanga bo'lgan nafrat, ranglar jozibasi nihoyatda o'z yechimini topgan.

Maishiy janr – tasviriy san'atda kishilarning kundalik maishiy hayotini, turli voqealarni o'zida mujassamlashtiradi. Rangtasvirda aks etuvchi maishiy janr ilk bor XVII asrda ijod etgan Golland rassomlari – Piter de Xox, Ostade, Sten, Terborx, Vermef kabilar ijodida namoyon bo'ladi. Rus realist rassomlaridan P.Fedotov, V.Perov, V.Maksimov, K.Savitskiy, I. Repin kabilar maishiy janrning rivojlanishiga ham katta hissa qo'shdilar.

O'zbek rassomlaridan R.Ahmedov, M.Saidov, Z.Inog'omov, R.Choriyev, F.Abdurahmonovlar ham ushbu janrda barakali ijod etmoqdalar.



Z.Inog'omov. Qiyom payti.

Animalistik janr o'zgacha tasviriy san'at turidir. U lotincha «anima» - hayvonot olami degan ma'noni bildiradi. Animalist – rassom hayvonot dunyosiga zo'r qiziqish, sevgi va mahorat bilan yondashadi.

Hayvonot dunyosi ibtidoiy odamlar hayotida katta ahamiyatga ega bo'lgan. O'sha davrda ular g'orlarning devorlarida kiyik, qo'tos, mamontlarning suratlarini chizganlar.

Qadimgi Yaponiyada va Xitoyda hayvonlarning tasvirlari dekorativ naqshlar tuzishda hamda monumental kompozitsiyalar yaratishda asosiy hisoblangan. XVII asrga kelib, hayvonot olami anatomiyasini buyuk musavvirlar Leonardo da Vinchi va A. Dyurerlar ishlab chiqdilar.

Rossiyada birinchi animalist–rassom I.Groot edi. Keksa haykaltarosh va grafik musavvir V.A.Vatagin o'zining asarlarida to'rt oyoqli do'stlarini haqqoniy va ishonchli tasvirlaydi. O'rta Osiyodagi

dastlabki haykaltaroshlik yodgorliklari knyaz Romanov saroyi (Toshkent) oldiga o'rnatilgan hayvonlar haykali (it, kiyik), Mohi - Xosa (Buxoro) eshigi oldidagi sherlar haykal hisoblanadi. 1886-yili Toshkentdagi ko'rgazmada usta To'xta Sodiq Xo'jayev alebasterdan yasagan ot va kiyik haykalchasini namoyish etganligi ma'lum.



P.Mordvinsev. Jimlik.

O'zbek xalq amaliy san'ati va ularning turlari

San'atning keng tarqalgan turlaridan biri dekorativ amaliy san'atdir. Bu san'at hayotda ishiatiladigan buyumlar idish-tovoq, kiyim-kechak, mebel, gilam, o'yinchoqlar va boshqa shu kabilarni bezatishni o'z ichiga oladi.

Dekorativ amaliy san'at asarlari odamlarning kundalik turmush ehtiyojlarini qondirish, tevarakatrofga, xiyobonlar, uylarning tashqi va ichki ko'rinishiga go'zallik kiritish kabi vazifalarga xizmat qiladi. Bu san'at dastgohli san'atdan o'zining bevosita xalq ehtiyojiga moslanganligi bilan farq qiladi va



Do'ppilar.

inson hayotida ishlatiladigan buyumlarning mazmunidan kelib chiqadi va shunga bo'ysunadi.

Dekorativ-amaliy san'at juda qadim zamonlarda paydo bo'lib xalq hunarmandligi tarzida rivojlandi. O'zbekistonda dekorativ-amaliy san'at tasviriy san'atning eng qadimdan rivoj topgan yagona va barhayot turi bo'lib keldi.

Amaliy san'atning ko'p tarqalgan va eng ommaviy turi **kashtachilik** bo'lib, u qadimiy an'analarga ega, o'zbek kashtachiligida guldastani, majnuntolni, quyoshni ba'zan daraxt shoxlariga qo'ngan qushlar, hayvon va odam tasvirlarini ham uchratamiz.

O'zbekistonning eng qadimiy madaniyat o'chog'lari hisoblangan Buxoro va Samarqand so'zanalari o'zining serrangligi, shakllarining turli-tumanligi va ularning nihoyatda nozik tikilishi bilan farqlanadi. Shahrisabzlik ayollar tikkan kashtachilik buyumlari esa ko'proq gilamni eslatadi.

O'zbek oilalarida uyning ichki devorlarining tekis qismiga aylantirib olib qo'yiladigan dorpechdan bezak maqsadida foydalaniladi. Ularning past qismida shokila-shokila bo'lib osilib turgan kokillari bo'ladi. Dorpechlardagi bir shakl qayta takrorlanaveradi. Bu gulli daraxt yoki guldastani qator qilib safga tizib qo'ygandagidek manzarani beradi.

O'zbek kashtachiligida **do'ppi** alohida o'rinni egallaydi. Shahrisabzning gilam do'ppisi, Buxoroning zar do'ppisi, Farg'onaning chust do'ppisi, iroqi, duxoba va boshqa do'ppilar O'rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan. Do'ppi nusxalari ichida eng mashhuri chust do'ppilaridir. Qora atlas (yoki satin) ustiga ipak bilan tikilgan bodom guli (yoki qalampir), kizzaka tushirilgan gullar do'ppiga nafislik baxsh etadi.

Kashtachilik san'atidagi belbog', dastro'mol, sandalpech, bo'g'macha va turli to'rvachalar ham nafis bezatiladi.

O'zbek kashtachiligining an'analari hozirgi kunda ham muvaffaqiyatli ravishda rivojlanmoqda. Kashtachilik san'atida kishilar portretini aks ettirish ham paydo bo'ldi.


Namshoxi gazlamalar – beqasam, banoras va adras, atlaslar xalqimiz tomonidan e'zozlanadi. O'zbek xalqi ipak yetishtirishda mohir bo'libgina qolmay, balki shohi atlaslarni to'qigan, uni nihoyatda yuqori badiiy did bilan bo'yay olgan. Nuqul ipakdan tikilgan to'rt, sakkiz, o'n ikki tepkili atlaslar jahonga dong taratgan.

Atlas gazmollar kompozitsiya jihatdan turli-tumandir. Hozirgi kunda uning yuzdan ortiq bezash turli bo'ladi. Bular, asosan, turli geometrik

shakllar o'simliklarning gul va barglari, uy-ro'zg'or buyumlari va hokazolardan iboratdir.

O'zbek kashtachilik san'atida zardo'zlik buyumlari, yorqin va lo'nda gulli gilamlar, jundan tikilgan bejirim jihozlar ham keng tarqalgan, bular xalqning hayotida turli maqsadlarda hamon foydalanilmoqda.

Ganchkorlik – O'zbekistonda amaliy san'atning eng sevimli va qadimiy turlardan biridir. Amaliy san'atning bu turida Buxoro va toshkentlik ustalar samarali mehnat qilganlar.



Ganchkorlik.

likdan keng foydalanilmoqda.

O'zbek ganchkorligining ajoyib sahifasini Buxoro yaqinidagi Sitorai-mohi hosadagi «Oq uyda», Toshkentdagi Navoiy nomli katta opera va balet teatrida ko'rishimiz mumkin. San'atning bu ajoyib va murakkab turida ustalardan Usta Shirin Murodov, Toshpo'lat Arslonqulovlar dong taratganlar.

Amaliy san'atning **yog'och o'ymakorligi** turi qadimdan mavjud bo'lib, o'zining boy an'alariga ega. Yog'och o'ymakorligi asarlari eshik, deraza, quti, xontaxta, kitob tokchalari, qutichalar, qanddon, ustunlar, o'yinchoqlarda o'z aksini topgan.

Avvallari devorlar o'yma gulli pannolar bilan bezatilar, taxmonlar qirrasiga naqshlar o'yilardi. Tokchalar bo'lsa o'ymakor yoki jimjima tabaqalar bilan yasatilar, xonaga nur va havo kirib turishi uchun deraza va eshik ustidan tuynuk qo'yib unga ganch va yog'ochdan panjara o'rnatilar edi. Hozirda qandil, navo, ship kabi me'morchilik detallari ganchlardan tayyorlanmoqda. Shuningdek, madaniyat saroylari, klublar, teatr va uy-joy binolarining ichki va tashqi qismini qurishda ganchkor-



Lavh.

O'zbekistonning xalq san'atida yog'och o'ymakorligi salmoqli o'rinni egallaydi. Bu borada Xiva ustalarining ishlari maqtovga loyiqdir. Ular ishlagan asarlar o'simliksimon elementlarning ko'pligi va bo'rttirib ishlanganligi bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. Toshkent ustalari esa ko'proq «giri» usulida geometrik ornamentlar yaratmoqda.

Yog'och o'ymakorligi san'atida musiqa asboblari bezash ham alohida o'rinni egallaydi. Dutor va tanburlarga, tor va changlarga suyak va sadaflardan qadalgan chiroyli naqshlar kishini hayratda qoldiradi. Bu san'at hozirgi vaqtda Toshkentda keng rivojlangan.



Mis choynak va piyolalar.

O'ymakorlik san'atining ajoyib turlaridan biri bu – **misgarlikdir**. O'zbek misgarligi san'ati juda qadimdan shuhrat qozonib keldi. Sariq va qizil misdan ishlangan turli xil xo'jalik va uy-ro'zg'or buyumlari juda nozik shakllar bilan bezatiladi.

Bezatilgan mis asboblari Buxoro, Qo'qon, Samarqand,

Qarshi va Xiva shaharlarida ko'proq yasaladi. Misgarlikda bu shahar ustalarining o'ziga xos ishlash uslubi bor. Lagan, patnis, choy idish, oftoba va obdastalar misgarlik buyumlari ichida eng ko'p tarqalgan buyumlardir.


Suyak o'ymakorligi san'ati mamlakatning shimolida, ayniqsa, Xolmogorsk, Tobolsk va Chukotkada keng rivojlangan. O'rta Osiyoda suyak o'ymakorligi geografik sharoiti tufayli rivojlanmagan. Ammo xalq amaliy san'atining boshqa turlarida (pichoqchilikda) qo'llanilgan. Bular oddiy suyaklardan (qoramol, echki shoxlaridan) ishlangan. Suyak o'ymakorligi O'zbekistonda san'atning eng yosh turi bo'lib, buyumlarining o'ziga xos tayyorlanish uslubi bor. Bunda ish avvalo zarur materialni topishdan boshlanadi. Keyin materialning notekis joylari egov bilan, mayda jilvir qog'ozdan tekislab chiqiladi. So'ngra unga tasvir ishlanib, lak surtiladi va naqsh o'yib ishlanadi. Tayyor ishga keyin pardoz beriladi. Tayyor buyum bo'r va spirt bilan artib chiqiladi. O'zbek o'ymakorlari orasida Ortiq Fayzullayev birinchi bo'lib, bu san'atni chuqur o'rgandi. Suyak o'ymakorligida, - deydi u, - mamont, morj, fil, mol, ot suyaklaridan samarali foydalaniladi.

Parma, arracha, egov va boshqalar suyak o'ymakorligida qo'llanadigan asboblardir. Suyak o'ymakorligi ustalari ota-bobolarining eng yaxshi an'analarini davom ettirib, ajoyib qutichalar, trubkalar, kichik hajmdagi haykallarni yaratmoqdalar.

Ota-bobolarimiz **naqqoshlik san'ati** bilan ham shug'ullanib shuhrat qozongan.

Respublikamizda amaliy san'atning bu turi qadimdan rivojlangan bo'lib, O'zbek ustalari faqat uy-ro'zg'or buyumlarini emas, balki uy-joy va jamoat binolarining devor va shiplarini ham mohirona bezab kelgan.

San'atning bu turida har bir xalq o'zicha ijod qiladi. Masalan, rus amaliy san'atida tekislangan yog'ochga usta o'simliksimon naqsh rasmni tushiradi, keyin unga maxsus bo'yoqlar beradi. U hir oz quriganidan so'ng bo'yog'i uchib ketmasligi uchun ustidan bir necha bor tiniq lak surtiladi. O'zbek ustalarining ish uslubi boshqacharoq. U eskiz asosida duradgor tayyorlagan yog'och qutichaga yelim surtadi. Jilvir qog'oz bilan yelim tozalangach materialga bronza rang beriladi. Bronza ustidan ulgi asosida kompozitsiya tasviri tushiriladi. Uning ustiga qora bo'yoq surtib naqsh ishlanadi. Naqshlarning o'chlib ketmasligi uchun bir necha bor toza lak surtiladi.



Naqqoshlik.

Xalq ustalari tajribasida naqshning quyidagi turlari ko'proq qo'llaniladi: *islimi* – egri chizikli o'simlik elementlaridan iborat naqsh; *girihi* – to'g'ri chizikli elementlardan geometrik shakl hosil qiluvchi naqsh; *murakkab naqsh* – bu avvalgi ikki guruhdagi naqsh (islimi va girihi) elementlarining yig'indisidan iborat.

Islimi turidagi asosiy elementlar novda, yaproq, gul, g'uncha, kurtak, qalampir, meva, poya kabilar hisoblanadi. Poya va novda – turli naqshlarning eng ko'p uchraydigan elementlari hisoblanadi, ular naqsh hoshiyalarida qo'llaniladi.

Girihlar esa to'rsimon va yulduzsimon bo'lib, yulduz nurlarining soni 5 tadan 16 tagacha boradi.

Naqshning uchinchi turi hisoblangan murakkab naqshda esa naqsh geometrik va o'simlik elementlarining birga qo'shib ishlatilishi natijasida hosil bo'ladi. Bunda geometrik element doimo naqsh o'rtasida joylashadi.

Naqqosh ustalardan A.Qosimjonov, Yo.Raufov, T.To'xtaxo'jayev, A.Boltayev, S.Norqo'ziyev va J.Hakimovlar san'atning bu turida samarali mehnat qilib shuhrat qozongan.

Tabiiy loydan turli idishlar yasash va ularni ranglarda bo'yash – bu **kulolchilikka** mansubdir. U juda qadim zamondan rivojlangan. Kulolchilik san'atiga lagan, tovoq, choynak, piyola, sopol va chinni idishlr, shuningdek, loydan ishlangan o'yinchoqlar kiradi.

Kulolchilik san'atida bezatishning turli usullari qo'llaniladi. Shunday usullardan biri «qalami» usulidir. Bu usullarda bezak idishlarga naqshning rasmini chizib olmasdan to'g'ridan-to'g'ri mo'yqalam bilan ishlanaveradi. Bu usulda ko'proq Rishton va g'ijduvon ustalari ishlashadi. Ba'zi joylarda ustalar gilvata orqali gul chizib, keyin bo'yoq beriladigan «chizma» usulidan foydalanadilar. Bu usul toshkentliklar orasida ko'p tarqalgan.

O'zbek kulolchilik buyumlari bezak kompozitsiyalarida o'simliksimon va geometrik elementlarning boyligi, xilma-xilligi, bo'yoqlar gammasining yorqinligi bilan ajralib turadi. Ularda feruza rang baxt keltiruvchi belgi sifatida ko'p ishlatiladi.

Kulolchilik O'zbekiston me'morchiligida ham keng qo'llanilgan. Madrasa, machit, karvonsaroy, hammomlarning peshtoqlarida xona ichlaridagi devor bezaklarida kulolchilik san'atining nainunalari o'z aksini topgan. Hozirda kulolchilikdan jamoat, turar-joy binolarini bezatishda keng qo'lianilmoqda.

O'zbekiston kulolchilik san'atini rivojlantirishda kulollardan U.Jo'raqulov, M.Rahimov, U.Usmonov, I.Nazruliayev va boshqa qator ustalar o'zlarining salmoqli ulushlarini qo'shmoqdalar.

Kulolchilik boshqa xalqlar orasida ham keng rivojlangan. O'tgan asrlarda kulolchilik Moskva guberniyasining Gjelsk shaharchasida keng shuhrat qozondi. Gjelsk kulolchilik korxonasida o'tmishda



ganch, loydan kichik-kichik kompozitsiyalar yaratilib, ularning syujetiga portretlar, turmushda uchraydigan har xil voqealar, hayvonlarni tasvirlovchi o'yinchoqlar asos qilib olinar edi.

O'rta Osiyo xalqlari qadimdan o'zlarining zardo'zlik san'atlari bilan faxrlanadilar. Zardo'zlik uchun asosiy material zar iplar, baxmal kabilardir. Ustalar zar tikishning ikki turini qo'llashadi. Birinchisi fonni zar bilan tikib to'ldirish va ikkinchisi naqshiarni zar bilan tikib to'ldirish. Chevarlar ornamental va syujetli kompozitsiyalarda ko'pincha o'simliklarni tasvirlashadi, gullar, barglar, bodom tuplari, paxta shular jumlasidandir. Keyingi vaqtlarda zargarlik buyumlarida jonli narsalar tasvirlanadigan bo'ldi. Qadimdan zardo'zlik Buxoro va Samarqand shaharlarida keng rivojlangan. So'nggi davrda zardo'zlik ustalarining sharoiti yaxshilamishi natijasida ishlari ijodiy yo'nalish oldi. Natijada har xil sovg'a va ommaviy zardo'zlik buyumlari yaratila boshlandi. Hozirgi kunda zardo'zlik buyumlari Buxorodagi zardo'zlik maxsus fabrikasida ko'plab chiqarilmoqda.

Qadimgi tasviriy san'at (Zarautsoy, Varaxsha, Afrosiyob va O'rta Osiyo xalqlari san'ati. Eramizdan avvalgi o'n besh - o'ninchi ming yilliklarda ishlanib, keyingi vaqtlarda Surxondaryo viloyatidan topilgan qoyaga o'yilgan rasmlar, Dalvarzintepa yodgorliklari O'rta Osiyoda, xususan, O'zbekistonda san'at qadimdan rivojlanib kelganligidan darak beradi.

Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan O'zbekistonda aniiq davr va ilk o'rta asrlar madaniyati me'morchilik, haykaltaroshlik va rassomlikning uyg'unlashgan namunasi bo'lgan Xorazmdagi «Tuproqqal'a» (III asr), Buxoro yaqinidagi Varaxsha saroyi (IV asr), Termez yaqinidagi Bolaliktapa (V—VI asr) kabi yodgorliklar buni isbotlaydi.

O'rta Osiyo xalqlari IX—XV asrlarda dunyo madaniyati taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan xalqlar darajasiga ko'tarila oldi.

O'rta asr fani va madaniyati Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino, Jomiy, A.Navoiy, K.Behzod kabi ulug' siymolarning nomlari bilan birga tilga olinadi. Bu mutafakkir olimlar, shoirlar, san'atkorlar yashagan davr tarixda Uyg'onish davri deb yuritiladi. Bu davrda O'rta Osiyo xalqlarining madaniyati, ilm-fani, san'ati ravnaq topdi. Sharq Renessansi qadimgi Sharq va Gretsiya madaniyati bilan Yevropadagi Uyg'onish va yangi davr madaniyatini bir-biriga bog'lovchi davr bo'lib xizmat qildi. Tasviriy san'at sohasida bu davr unutilmas iz qoldirgan: nafis va go'zal

miniatyuralar, hashamatli, ko'rkam, hanuzgacha kishini hayratda qoldiradigan me'morchilik yodgorliklari yaratildi.

Sharq Uyg'onish davrining yutuqlaridan biri XIV – XV asrlarda butun Sharqqa mashhur bo'lgan Behzod miniatyura maktabidir.

Kamoliddin Behzod 1455-yilda Hirotida hunarmand kosib oilasida dunyoga keldi. Naqqoshlik va musavvirlikka bo'lgan qiziqish unda juda erta uyg'ondi. Saroy naqqoshi va musavviri Mirak naqqosh Behzodning iste'dodini payqab, uni o'z tarbiyasiga oldi va san'at sirlarini o'rgatdi. Mirak naqqosh, Pir Said Ahmad, Alisher Navoiy, Sulton Husayn Mirzo singari ma'rifatparvar olimlar va san'atkorlar davrasida tarbiyalangan Behzod tezda mohir san'atkor bo'lib yetishdi.

Behzod miniatyuralarining mazmunini nafis, nozik bo'yoq va chiziqlarda tasvirlangan tabiat, hayvonot olami, inson va uning hayotiy munosabatlari tashkil etadi.

Behzod o'z zamonasining mo'jaz portret sohasini yuksak pog'onaga ko'tara olgan rassom edi. U yaratgan Sulton Husayn Boyqaro, Shayboniyxon miniatyura - portretlarida insonning ichki dunyosini ochib bera olgan.

Kamoliddin Behzodning shogirdi **Mahmud Muzaxxib**, o'z zamondoshi, san'atkorlar homiysi ustod A. Navoiy portretini yaratdi. Unda buyuk mutafakkir keksayib qolgan vaqtda tasvirlangan. Uning sodda, lekin nafis kiyimi, nuroniy yuzidagi yengil tabassumi, sal chimrilgan qoshlari orqali rassom A. Navoiydagi shoirona ruhni ifodalagan.

Miniatyura /lotin. Minium-kinovar qizil bo'yoq/ – nafis ishlangan kichik hajmli tasviriy san'at asarlari: qo'l yozma kitoblarga ishlangan surat, manzara, grafik tasvirlar; emal, guash, akvarel va boshqa bilan ishlangan kichik portret, suratlar. Markziy Osiyo, jumladan O'zbekiston hududida ham qo'lyozma kitoblarga ishlangan tasvirlar qadimdan bor. Miniatyura san'ati X–XI asrlarda rivoj topgan. Sharafiddin ali Yazdiyning «Zafarnoma»si hamda «Shayboniyнома», «Fatixnoma», «Tarixi Abulhayron» kabi tarixiy asarlar katta mahorat bilan miniatyurada bezatilgan. Hirot miniatyura maktabi, Tabriz miniatyura maktabi, Isfaxon miniatyura maktabi, Buxoro miniatyura maktabi, Hindiston miniatyura maktablari mavjud bo'lgan. Rossiyada Mstera, Palex, Fedoskino, Xoluy miniatyura maktablari vujudga kelgan.

Tarixiy obidalar. O'zbek xalqi o'zining qadimiy yuksak madaniyati va san'ati bilan faxrlansa arziydi. Buni O'zbekiston hududida olib borilgan arxeologik qazilma ishlari yaqqol isbotlaydi.

Xususan, Varaxsha (Buxoro), Afrosiyob (Samarqand), Xalchayon (Surxondaryo), Tuproqqal'a (Xorazm), Bolaliktepa (Surxondaryo), Ayritom (Termiz), Dalvarzintepa (Surxondaryo), Qo'yqirilgan qal'a (Xorazm), Ajinatepa, Teshikqal'a va boshqa bir qator qadimiy shahar, qal'a, ibodatxonalaridan topilgan yuksak badiiy saviyada yaratilgan me'morlik obidalari, devoriy rasm, haykaltaroshlik asarlari, amaliy san'at buyumlari fikrimizning yaqqol dalilidir.

Bu noyob qazilmalarni izlab topishda L.I. Rempel, G.A. Pugachenkova, L.I. Albaum, V.A. Bulatov, B.P. Denike, M.E. Masson, Z.A. Nilsen, V.A. Shishkin, A. Asqarov, Ya. G'ulomov, S.P. Tolstoy kabi arxeolog va san'atshunos olimlar samarali mehnat qildilar.

Qo'yqirilgan qal'a miloddan avvalgi IV–III asrlarga oid yodgorlik. U To'rtko'l shahridan 22 km uzoqlikda joylashgan.

Ibodatxona binosi ikki qavatli bo'lib, diametri 44,4 m, balandligi 9,5 m ni tashkil etadi. Devorga loy olingan joy suv bilan to'lg'azilib, xandaqqa aylantirilgan. Devorda o'q otishga mo'ljallangan tuynuklar bor. Bino ichida 8 ta gumbazli xona bo'lib, ularning devorlarida rasmlar, shuningdek, zo'r mahorat bilan ishlangan idish-tovoq, tobut, haykalchalar, devoriy naqshlar bo'lgan.

Bino devorlaridagi arfa chalayotgan ayol va qo'sh baraban chalayotgan erkak kishi, shuningdek, qisiq ko'zli, qulog'iga sirg'a taqqan, gulli ko'ylak kiygan ayol rasmlari alohida e'tiborga loyiqdir.

Saroy zallarida devoriy rasmlar bilan bir qatorda, ganchdan tayyorlangan releflar, haykallar uchraydi, shu o'rinda, qal'a xonalarining biridan topilgan «Erkak boshi haykali» diqqatga sazovordir. G'alaba zalidagi bir gorelefdan shoh va uning atrofida ayollar aks ettirilgan, boshqa xonadagi releflarda kiyik, anor, uzum daraxtlari o'z ifodasini topgan.

Tuproqqal'a O'rta Osiyoda nodir yodgorliklardan biri hisoblanadi, 12 m. balandlikka ega bo'lgan sun'iy tepalik ustiga qurilgan, to'rtburchak shaklida bo'lib, 500-350 m maydonni egallaydi. Qal'aning shimoli-g'arbidagi burchak tomonida Xorazm shohlarining saroylari joylashgan. Saroyning uch minorasi butun qal'a ko'rinishiga salobatlik baxsh etgan. Saroy xonalari haykaltaroshlik va rangtasvir bilan bezatilgan. Loydan yasalgan haykallar devor bo'ylab yasalgan supachalarga o'rnatilgan. O'tirgan holda tasvirlangan podshohlar (natural o'lchamdan ikki marta katta), yon tomondan turgan holda tasvirlangan erkak, ayol va bolalarning haykallari qo'yilgan. «Suvoriylar (jangchilar)

zali» deb nomlangan xona devori oldida esa qo'lida qurol ushlab turgan jangchilar haykali o'rnatilgan. «Qayiqlar zali» deb nomlangan xonada o'simliklar, pastroq tomonda natural kattalikda kiyiklarning bo'rtma tasviri — barelefi ishlangan. Kichik xonalardan birining devoriga ishlangan arfa chaluvchi qiz surati birmuncha yaxshi saqlangan.

Varaxsha — Buxoro shahridan 40 km g'arbda joylashgan qal'a xarobasi. Hozirda bu joy cho'lga aylangan. Arxeologik qazilmalar shuni ko'rsatadiki, bu yerda miloddan avvalgi ming yil davomida odamlar yashagan va tasviriy san'at yaxshi rivojlangan. Varaxshadagi eng katta bino 9 gektarni egallagan, balandligi 10 m. Bu binoda hukmdorlar saroyi va ibodatxona, askarxona, aslahaxonalar mavjud bo'lgan. Ular devoriy rangtasvir asarlari, haykallar va har xil rasmlar bilan bezatilgan. Devoriy rasmlardan birida fil mingan o'rta yoshli kishi bir oyog'i uzangida, bir oyog'i esa buklangan holda ikkinchi oyog'ining ustida tasvirlangan. Bundan tashqari rasmda bahaybat arslonga o'xshash hayvonning filga hamla qilgan holatidagi tasviri ham aks ettirilgan. Shuningdek, Varaxshaning boshqa devoriy rangli suratlarida podshoning qabul marosimiga bag'ishlangan hashamatli ko'rinishlari o'rin olgan.

Saroydagi xonalardan biri qizil xona hisoblangan. Undagi qizil rangli devorda rangtasvir ko'rinishlar bo'lib, ov inanzarasi aks ettirilgan. Rassom bu tasvirda qizg'ish-kulrang, sariq ranglardan ko'proq foydalangan. Mazkur rangtasvirning ayrim namunalari Sankt-Peterburgdagi Ermitaj muzeyida saqlanmoqda.

Ayritom — Termiz shahridan 18 km uzoqlikda, Amudaryo qirg'og'ida joylashgan qadimiy shahar bo'lib, u 1932-yilda aniqlangan. Karniz tarzida akanf barglari orasida yarim beligacha tasvirlangan arfa (chiltor), qo'shnay, ud, nog'ora chalayotgan sozandalar, qo'llarida hadya, gulchambar, meva va idishlar ko'targan ayollar va erkaklar tasvirlangan. Bu frizlar ishlanish uslubi va kompozitsiyasi jihatidan Shimoliy Hindiston haykaltaroshligiga juda o'xshab ketadi. Bu I-II asrlarda Buddha dinining O'rta Osiyoga kirib kelishi va tarqalishi bilan bog'lanadi.

1938-yilda Ayritomda I-II asrlarga oid budda dini ibodatxonasi ham topildi. U yerda maxsus hujralar, budda haykallari ham bo'lgan. Bu haykallarning ishlanish prinsiplari Hindistonda yaratilgan kanonlarga asoslangan. «Zurmalaqal'a» deb nom olgan me'morlik qoldig'i shu o'rinda muhimdir. Minoraning qozon shaklidagi tepa va silindr shaklidagi asosiy ustun qismi chegarasi karniz bilan ajratilgan. Minoraning tagi oq, tepadagi yarim aylana shaklidagi qismi qizil tosh

plitalari bilan, asosiy ustun qismi esa pishiq g'isht bilan pardozlangan bo'lishi ehtimoli bor.

Dalvarzintepa – Surxondaryo viloyatidagi Dalvarzin qishlog'ining chekka qismida joylashgan turar-joy xarobasi hisoblanib, u 1952-yilda aniqlangan. Yer osti qazilganda u yerdan bronza quyish ustaxonasi, tosh yotqizilgan ko'chalar, g'alla omborxonalari, turli uy jihozlari, sopol buyumlar, naqshli idishlar va odam haykallari topilgan. Topilmalar ichida ganchdan yasalgan ayol boshi eramizning II asrida yaratilgan, deb taxmin qilinadi. Dalvarzintepada qadimda qishloq xo'jaligi, metall bilan ishlash, tasviriy va amaliy san'at ham rivojlangan.

Bolaliktepa – Termiz yaqinida topilgan yodgorlik. Hashamatli saroy devorlarining to'rttala tomonida odamlarning o'tirgan holatdagi ko'rinishlari aks ettirilgan. Gilamchalarga o'xshash to'shamchalar ustida sharqona tiz cho'kib, chordona qurib, hatto yonboshlagan holda juft-juft bo'lib o'tirgan erkak va ayollarning obrazlari tasvirlangan. Odamlarning chehralari, liboslari, har xil buyum va shakllarning turli bo'yoqlarda aks ettirilishi ajdodlarimizning rangtasvir san'atini mukammal egallaganliklarini ko'rsatadi. Bolaliktepadan topilgan suratlar VI asrga mansub bo'lib, eftaliylar davrida ishlangan. Bu haqda atoqli tarixchi olim A. Muhammadjonov shunday dalillarni hikoya qiladi: «...Bolaliktepa qasri devorlarida tasvirlangan ayollarning tashqi qiyofasi VI asrda eftaliylar hukmdori huzurida bo'lgan budda kohinini hayratga solgan. Ular saroy zodagon ayollarini eslatadi. Kohinning ta'riflashicha, o'sha vaqtlarda eftaliy malikalari juda qimmatbaho matodan tikilgan, orqa etagi uch quloch va undan ham uzunroq bo'lgan serbezak ko'ylaklar kiyganlar, ularning etagini maxsus joriyalar ko'tarib yurganlar».

Afrosiyob – Samarqand shahri yonbag'ridagi xaroba. Uning bunyod etilishi miloddan avvalgi VI–V asrlarga to'g'ri keladi. Afrosiyobni qazish ishlari XX asr boshlarida boshlanib, hozirda ham davom etmoqda. Qazilma ishlari natijasida u yerda qal'a-saroy borligi aniqlanib, uning qadimiy ko'rinishi rekonstruksiya qilindi.

Bu binoda bir necha xonalar mavjud bo'lib, ulardan biri mehmonxona ekanligi aniqlandi. Mehmonxonaning to'rt tomoniga turli devoriy rasmlar ishlangan. Ular miloddan avvalgi VII – V asrlarga oid rasmlar deb topildi. Mehmonxona devorlaridagi rasmlardan birida bir erkak bilan bir ayolning suhbatlashib o'tirgani aks ettirilgan.

Umuman, mehmonxonaning devorlarida to'y safari, daryoda cho'milish, elchilarni qabul qilish marosimi, ov kabi ko'rinishlar tasvirlangan.

To'y safari aks etgan rasmga oq rangdagi filda malika, saman ot mingan shoh - kuyov aks etgan. «Katta zal devorining sharqiy qismida shartli tarzda chap tomonga, qasrga qarab borayotgan tantanali yurish marosimi ko'rsatilgan. Oldingi qatorda zeb berib bezatilgan chakmon kiygan to'rt erkak kishi tasvirlangan. Surat to'la saqlanmagan: figuralarning belidan biroq pastki qismi buzilgan. Asta-sekin qadam tashiyotgan oq fil tantanali yurishni boshlab bormoqda». Shuningdek, malikani kuzatib ketayotgan kanizaklar ham tasvirlangan. Rasmdagi bir ayol qizil rangdagi ko'yalak, och kulrang ro'mol, sariq lozim, qora etik, qo'lida bilaguzuk bilan mohirona tasvirlangan. Bu rasmda saroy xodimlaridan ikkitasi tuyalarga minib, ularni kuzatib kelayotganliklari ko'rsatilgan. Ulardan biri chol, ikkinchisi undan yoshroq kishi. Ikkovlari ham serbezak kiyimda tasvirlangan. Ularning bellarida kichik xanjar va qilich osilgan, qo'llarida hassa.

Bu ularning saroy amaldorlari ekanligidan dalolat beradi. Ularning orqasidan oq rangli parrandalar ergashib kelmoqda. Bulardan tashqari oq kiyimli ikki kishi ham tasvirlangan. Kishilarlan biri qora rangli otni yuganidan tortib kelmoqda, ikkinchisi orqaroqda, qushlar yonida (u ot mingan holda bo'lishi mumkin) tasvirlangan.

Me'morlik san'ati. Me'morlik san'ati qurilish ishlari bilan bog'liq bo'lgan san'atning bir turidir. U ham san'atning boshqa turlari kabi katta ahamiyat kasb etadi. Me'morlar va quruvchilar mehnati natijasida turli-tuman binolar, shahar va qishloqlar yaratiladi. Me'morchilik mahsuloti jamiyat moddiy madaniyatining bir qismi hisoblanadi.

Me'morlik asarlarida amaliy xizmat, go'zallik, moddiy-texnikaviy asos, nafosatning o'zaro qo'shiluvi muhim xususiyatlardandir. Me'morlik asarlari me'morlar, muhandis-binokor va ishchilar hamkorligida bunyod etiladi. Ularni qurishda binokor-quruvchilar bilan me'morlar bir maqsadda ish olib boradilar, lekin ular bu maqsadni turli yo'llar bilan hal qiladilar. Binokor-muhandis imorat qurganda uning faqat foydali amaliy vazifalarini hal qiladi, ko'proq binoning vazifasi, materiallarning xususiyati, chidamliligi kabilarni nazarda tutib ish olib boradi. Tejamkorlikka, binoning yashash uchun qulay bo'lishiga harakat qiladi. Me'morlar esa bu vazifalarni badiiy vositalar bilan yechadilar. Ular binoning vazifasi, qulayligi, foydasi, tejamkorligidan tashqari uning go'zal bo'lishi, odamlarda ma'lum his-tuyg'ularni, kayfiyatni uyg'otishi

haqida fikr yuritadilar. Me'morlik haqida gap ketganda, me'mor uning san'atning bir turi ekanligi, uning o'ziga xos xususiyatlari, binolarning turlari odamzod paydo bo'lgan davrdan boshlab mavjudligi haqida fikr yuritiladi. Uning eng birinchi ko'rinishlari chayla, o'tov, g'or shaklida paydo bo'lgan. Quldorlik jamiyati davrida, ayniqsa, qadimgi Misr, Mesopotamiyada piramida shaklida yodgorliklar, diniy binolar, saroylar qurildi. Qadimgi Yunonistonda, O'rta Osiyo hududida ko'plab maktab, teatr, karvonsaroy, madrasa, tomoshaxona, ibodatxonalar qurilganligi ma'lum.

O'zbek xalq me'morligida uylar, asosan, qo'rg'on ichiga qurilib, ular qo'rg'onning uch tomonini egallar edi. Bu uylar ovqatlanish, uxlash, mehmon kutishga mo'ljallangan xonalar bilan bir qatorda, oshxona, hujra, otxona, darvozaxona kabi qismlardan tashkil topgan. Qurilgan uylar bir va ikki qavatli bo'lgan. Ikki qavatli uylarning ikkinchi qavatida ko'pincha boloxona (mehmonxona) va ayvon bo'lgan. Shuningdek, qo'rg'on ichida tuproqdan yasalgan supa ham bo'lib, u ko'pincha daraxt tagiga qurilgan. Uylarning tomi, asosan, loy yoki tunuka bilan yopilgan.

O'zbekistonda me'morlikning yuksak namunalari sifatida Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasi, Kalon minorasi, Abdulazizxon madrasasi, Samarqanddagi Shohizinda ansambli, Bibixonim masjidi, Registon (Sherdor, Tillakori, Ulug'bek madrasalari), Amir Temur maqbarasi, Urganchdagi Jarqo'rg'on, Faxriddin Roziy va To'rabekxonim yodgorliklari, Xivadagi Ichan qal'a, Toshkentdagi Ko'kaldosh madrasasi kabi me'moriy obidalarni sanab o'tish mumkin. O'zbekistondagi hozirgi zamon me'moriy inshootlariga Toshkentdagi Alisher Navoiy nomli teatr, «Chorsu», «O'zbekiston» mehmonxonalari, «Xalqlar do'stligi» saroyi, Sirk binosi, «Turkiston» saroyi, Temuriylar tarixi Davlat muzeyi, «Sheraton» va «Interkontinental» mehmonxonalari kabilarni ko'rsatish mumkin.

Amir Temur maqbarasi XV asr boshlarida qurilgan. Uni qurishga usta Muhammad ibn Mahmud Isfaxoniy rahbarlik qilgan. Maqbaraning ichki ko'rinishi to'rtburchak, tashqi tomoni sakkiz qirrali prizma shaklida bo'lib, prizma ustiga silindr shaklidagi devor va ko'p qovurg'ali gumbaz o'rnatilgan. Maqbara devorlari zangori, havorang, oq sirli koshinlar, naqshlar bilan bezatilgan. Gumbaz osti qismining diametri 15, balandligi 12,5 metrni tashkil etadi. Maqbara ichiga to'rt tomondan rangdor oynali va panjarali darchadan yorug'lik tushib turadi. Maqbara ichiga Ulug'bek tomonidan qurdirilgan usti berk yo'lak orqali

kiriladi. Maqbarada Amir Temur, uning ikki nabirasi Muhammad Saiton va Ulugʻbek, ikki oʻgʻli Shohruh va Mironshohning sagʻanalari bor. Maqbara oʻzining aniqligi, shaklining oddiyligi, badiiy bezaklarga boyligi, nafisligi va ulugʻvorligi bilan dunyodagi eng mashhur meʼmoriy obidalar qatoridan oʻrin oigan.

Milliy meʼmorlik tarixida shuhrat qozongan meʼmorlardan Ustod Baqo (Buxorodagi «Minorayi Kalon»), Muhammad Yusuf (Shahrisabzdagi «Oq saroy»), Usto Abdujabbor (Samarqanddagi «Sherdor»), Shamsiddin va Zayniddin Buxoriylar (Samarqanddagi «Shohizinda» ansambli), Ota Muhammad, Usta Shirin Murodov (Buxorodagi «Sitorai Mohi Xosa»)larni eslab oʻtish joizdir.

Oʻzbekistonning qadimiy meʼmorlik sanʼati azaldan mashhur. Oʻzbekiston hududida mingdan ortiq meʼmoriy obidalar mavjud. Ular aymiqsa, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Namangan, Surxondaryo kabi viloyatlarda koʻp. Shunday obidalardan biri Buxorodagi **Ismoil Somoniy** maqbarasidir.

Maqbara deb mashhur shaxs qabri ustiga qurilgan maxsus binoga aytiladi. Bunday maqbaralar Samarqandda Amir Temurga, Buxoroda Ismoil Somoniyga, Toshkentda Zayniddin boboga, Xivada Pahlavon Mahmudga, Qashqadaryoda Xalil Sultonga oʻrnatilgan.

Avvalo shuni qayd qilish lozimki, X asrda Ismoil Somoniy meʼmorlik moʻjizasiga teng keladigan va oʻxshash birorta yodgorlik nafaqat Oʻrta Osiyoda, balki boshqa musulmon mamlakatlarida ham yaratilgani maʼlum emas. U IX–X asrlarda Oʻrta Osiyoda ilm-fan va madaniyat boshqa mamlakatlarga qaraganda oldingi qatorda rivojlangan bir davrga toʻgʻri keladi.

Bu maqbarada IX–X asrlardagi Sharq matematikasining yutuqlari ham oʻz aksini topgan.

Yodgorlik xalq orasida va ilmiy adabiyotlarda Somoniylar sulolasining eng yirik namoyandalaridan biri, Buxoroda 892—907-yillarda hukmronlik qilgan Ismoil Somoniy nomi bilan ataladi. Maqbaraning umumiy koʻrinishi kub shaklini eslatadi. Maqbara oddiy boʻlib, asosan, ikkita boʻlimdan, yarimshar shaklidagi quʼba va kubsimon asosiy qismdan tashkil topgan. Binoning toʻrt tomoni bir xil koʻrinishga ega.

Maqbara devorining yuqori qismida ravoqlar, uning burehaklarida esa qisman devorga tutash ustunlar bor. Bino ichiga toʻrt tomonidan bir xil qilib ishlangan ravoqsimon peshtoq orqali kiriladi.

Peshtoq – hashamatli binolarning kirish qismida baland qilib quriladigan serhasham qism. Peshtoqda uchta ravoq bo‘lib, ularning har biri rombga tutashib ketgan.

Maqbaraning ichkari qismidagi dekorativ bezaklar katta mahorat bilan ishlangan.

Maqbaraning devorlari va yuqori qismlariga mayda yupqa g‘isht, poydevoriga esa yirik g‘isht, ayrim bezaklarda shakl qilib yo‘nilgan g‘ishtlarning ishlatilishi uning chiroyini ochgan, xushmanzarali bo‘lishiga olib kelgan. Binoning naqshlari kishini hayratda qoldiradigan darajada xilma-xil bo‘lib, binoga moslab ishlangan.

Afsuski, Ismoil Somoniy maqbarasini yaratgan me‘morning nomi shu vaqtgacha ma‘lum emas. Bino mahobatli, hashamatli binolar yaratishda me‘morlar uchun namuna bo‘ldi. Undan ko‘pgina Sharq mamlakatlaridagi qurilishlarda foydalanildi.

Registon ansambl me‘morlik obidasi. Registon qadim Samarqandning asosiy maydoni (Registon – «qumloq joy» degan ma‘noni bildiradi). Ulug‘bek, Sherdor va Tillakori madrasalaridan tashkil topgan ansambl dan iborat.

Qadimda diniy oliy o‘quv yurtlari madrasa nomi bilan yuritilgan. **Me‘morlikda bir necha yonma-yon va o‘zaro uyg‘un qurilgan binolar majmuasiga ansambl deyiladi.** Shu tarixiy joy Sharqning bir qator yirik olim va domishmandlarining nomlari bilan bog‘liqdir. Ular Mirzo Ulug‘bek, G‘iyosiddin Koshiy, Qozizoda Rumiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqalardir. Registon madrasalarining balandligi 35 metrdan ham oshadi. Peshtoqlari, gumbaz va minoralari, naqshdor koshinlari nafis ishlanganligi bilan kishini hayratga soladi.

Gumbaz – qubba shaklidagi tom. U yarimshar, to‘g‘ri to‘rtburchak, kub, prizma, konus, piramida shaklida bo‘lishi mumkin.

Minora baland, g‘o‘la shaklidagi inshoot, odatda, undan atrofini kuzatish, masjidlarda azon aytish uchun foydalanilgan.

Ulug‘bek madrasasi 1412–1422-yillar davomida qurilgan bo‘lib, me‘morlar boshlig‘i G‘iyosiddin Koshiydir. U Ulug‘bekning ko‘rsatmasi va homiyligida qurilgan. Bu madrasa O‘rta Osiyoda eng yirik diniy o‘quv yurti bo‘lib, unda dindan tashqari falsafa, matematika va astronomiyadan ma‘ruzalar o‘qilgan. Uning hovlisi kvadrat shakliga ega. Hovlining to‘rt tomonida hujra va peshtoqli ayvonlar bor. Asosiy old tomonda ulkan peshtoqlar guruhi, markaziy peshtoq va yonlama xonalar hovliga tutashtirib solingan.

Ulug'bek madrasasining tashqi burchaklari bir tekis, minoralar bilan tutashgan bo'lib, hovliga qaratib ishlangan. Hujralar uch xonadan iborat bo'lgan.

Madrasaning bezagi – tojibarglar, gullar va geometrik shakllar uning sirkor bezagini uyg'unlashtirgan. Devorlarga sirlangan zangori ko'k sopol koshinlar terib ishlangan, panjarasimon naqshlar nihoyatda sodda va nafisdir. Asosiy ravoq, tepasidagi hashamatli besh va o'n qirrali naqshindor yulduzlar charaqlab turgan somonga o'xshaydi. Naqsh to'qimalarining cheksiz xilma-xilligi, girix chiziqlarining qat'iy va dinamikligi, monumental yozuvlar ranglarining boy va sermazmunligi, binoning hamma bo'lak va detallaridagi o'zaro uyg'unlik kishiga zavq bag'ishlaydi.

Sherdor madrasasi Ulug'bek madrasasidan deyarli 200 yil keyin Samarqand hokimi Yalangto'sh Bahodir tomonidan qurdirilgan. Uni yaratgan shaxs me'mor Abdujabbodir.

Ulug'bek va Sherdor madrasalarining rejasi bir xil bo'lsa-da, ularning detallarida farq bor. Sherdor madrasasi peshtoqidagi bezaklar Ulug'bek madrasasini kidan farq qilib, unda sher ohuni quvib ketayotganligi tasvirlangan. Tasvirdagi ikki sher orqasidan quyosh nur sochib turibdi. Bu kompozitsiyada feruza va zarhal bo'yoqlar bilan tasvirlangan novdalar va oq rangli gullar bog'ni eslatadi. Peshtoq tepasidagi sher tasviri madrasaning Sherdor deb nomlanishiga sabab bo'lgan.

Tillakori madrasasi. Registon maydonining yuqori qismida Tillakori madrasasi joylashgan bo'lib, u 1646–1651-yillarda shahar hokimi Yalangto'sh Bahodir tomonidan qurdirilgan. Unda ham madrasa, ham masjid bo'lgan. Binoning ichki qismiga ko'p tillahal berib ishlanganligi uchun Tillakori deb atalgan. Tillakorining qurilishi Registonning ansambl shakliga va mukammallashuviga sababchi bo'lgan.

Asosiy fasadning, ikki qavatli qilib ishlanganligi ulkan va hashamatli Ulug'bek va Sherdor madrasalarini muvozanatga keltiradi. Asosiy peshtoq maydon tomonga qaratib ishlangan. Uning ikki eshigidan bir qavatli hujralar bilan o'ralgan katta hovliga kiriladi. Hovlining chap va o'ng, shuningdek, yuqori tomonlarining o'rtasida shinam peshtoqlar qurilgan. Kiraverishdagi – chap tomondagi peshtoqdan masjidga o'tiladi. Masjidning asosiy xonasi bo'rtma naqshlarga zarhal berib bezatilgan.

Xiva me'morligi yodgorliklari orasida Olloqulixon madrasasi alohida diqqatga sazovordir. U 1834-yili bunyod etilgan bo'lib, Xivadagi Ichon qal'aning yaxlit ansambl bo'lib qurilishi bilan bog'liq.

U qarshisidagi Xo'jamberdiboy madrasasiga o'xshatib ishlangan. Natijada O'rta Osiyo me'morligida keng tarqalgan usul –qo'sh madrasa hosil bo'lgan. Madrasa taxminan 3 m balandlikdagi sun'iy tepalik ustiga qurilgan. Madrasa rejasi va fasadining tuzilishi odatdagi madrasalardek bo'lsa-da, ba'zi joylarida o'ziga xos tomonlar bor, ya'ni bino trapetsiya shaklida qurilgan. Madrasadagi qishki, yozgi masjid va darsxonalarning usti yarim aylana shaklidagi pastak gumbaz bilan yopilgan. Madrasada 99 ta hujra bo'lib, ularning har birida bittadan eshik va bittadan panjarali darcha bor. Hujra poliga chorsi g'ishtlar terilgan, devorlari ganch bilan suvalgan. Madrasa tashqi bezagiga faqat an'anaviy koshinlar, naqshlar ishlatilgan. Koshinlarning tuzilishi, naqshlar shakli rang-barang va xilma-xildir. Rasmlarning shakli, ranglarning och-to'qligi ustalik bilan tanlangan. Peshtoqdagi o'simliksimon nafis naqshlar ravoqlarning geometrik shaklini jonlantirib turadi. Bino hovlisidagi qishki masjid peshtoqi halqasimon naqshlar bilan bezatilgan. Bu peshtoqdan yozgi masjidga o'tiladi. Peshtoqning orqa konstruksiyasi ham har jihatdan e'tiborga loyiq. Bu yerdagi rang-barang sirli koshinlardan tashkil topgan bezaklar yangicha ko'rinish kashf etadi.

Asosiy fasadning, ikki qavatli qilib ishlanganligi ulkan va hashamatli Ulug'bek va Sherdor madrasalarini muvozanatga keltiradi. Asosiy peshtoq maydon tomonga qaratib ishlangan. Uning ikki eshigidan bir qavatli hujralar bilan o'ralgan katta hovliga kiriladi. Hovlining chap va o'ng, shuningdek, yuqori tomonlarining o'rtasida shinam peshtoqlar qurilgan. Kiraverishdagi – chap tomondagi peshtoqdan masjidga o'tiladi. Masjidning asosiy xonasi bo'rtma naqshlarga zarhal berib bezatilgan.

O'rta Osiyo me'moriy yodgorliklari orasida **Toshkentdagi Ko'kaldosh madrasasi** alohida o'rin tutadi. U XVI asr oxirlarida qurilgan. Uning gumbaz va peshtoqlari bo'yi bilan 20 metrga yetadi. Peshtoqlari ikki qavatli qilib qurilgan. Bino tepalik joyga qurilganligi uchun pastdan ancha salobatli ko'rinadi. U 45x45 m tomonlarga ega. U o'z tuzilishiga ko'ra XVI asrda qurilgan madrasalardan farq qiladi. Uning ichkarisida chorsi hovlisi bo'lib, atrofida hujralar va yozgi ayvonlar bor. Darvozadan kirishda chapda masjid, o'ngda darsxona joylashgan. Me'morlar asosiy e'tiborni binoning fasadiga qaratishgan. U geometrik naqshli sirli koshinlar bilan bezatilgan. Kirish peshtoqining ikki yoniga ikki qavatli ravoqlar ishlangan. Peshtoqning ikki tomonida feruza rangli koshinlar bilan qoplangan baland gumbazlari bo'lgan. Gumbaz yumaloq gardish asosga o'rnatilgan. Madrasaning old tomonidagi to'sib turgan ganch panjaralari binoning husnini yanada

oshirgan. Bino ichida saqlanib qolgan ba'zi naqsh parchalari uning ichki qismi ham did bilan bezatilganligidan darak beradi.

O'zbekistonning qadimgi me'moriy obidalari o'zbek xalqlarining madaniyati va san'ati qadimdan nihoyatda rivoj topganligidan darak beradi. Ular xalqimiz me'morlariga namuna bo'lib, go'zallik hislarini, Vatanga muhabbatni, milliy g'ururni tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Mustaqillik yillarida me'morlik san'ati. O'zbek xalq me'moriy san'ati chin ma'noda mavqeyi, mohiyati va e'tibori jihatidan buyuk bunyodkorlik san'atidir. Mustaqillik yillarida ko'hna Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlarining 2500 yilligiga bag'ishiangan tantanalarda xalqimiz me'moriy salohiyatining mahsuli bo'lmish sharqning beqiyos jamoli, faxri butun jahonga yana bir bor namoyish etildi. Xalq dahosi yaratgan me'moriy san'at durdonalari jahon madaniyati xazinasidan munosib o'rin olgani namoyon bo'ldi.

Istiqlol davrida shahar me'morchiligi yanada takomillashdi.

Yangi qurilishlar silsilasida O'zbekistonning me'moriy amaliy shakllangan ikki asosiy tamoyili ko'zga tashlanadi. Ulardan biri – Temuriylar muzeyi, Oliy Majlis binosi va Toshkent shahar hokimiyati binolarida yorqin aks etgan sharqona me'morchilikning an'anaviy qonun-qoidalariga rioya etish bo'lsa, ikkinchisi, O'zbekiston jahon hamjamiyatidan o'rin olishga bo'lgan intilishini namoyish etuvchi jahon me'morchiligim eng yangi yutuqlaridan foydalanishda namoyon bo'ldi. Bunga «Interkontinental», «Sheraton» mehmonxonalari binolari misol bo'la oladi.




Interkontinental mehmonxonasi. Toshkent.
(Me'mor A.To'xtayev).

O'zbekiston Respublikasining mustaqil davlat sifatidagi faoliyati milliy me'morlik va shaharsozlik sohalarida yangi ufoqlarni ochib berdi. O'tgan 15 yil ichida mustaqil O'zbekistonning birinchi yirik ijtimoiy binosi sifatida Anhor bo'yida joylashgan «Turkiston» saroyini e'tirof etish joiz. Ushbu saroy me'mor Yu. Xaldayev loyihasi bo'yicha 1989–1992-yillarda qurib bitkazildi. Bu binoning drama teatriga mo'ljallab qurilgan vazmin va uzunasiga ketgan me'moriy shakllari har tomonlama yirik va umumlashtirilgan muqarnas tasmalar bilan yaxlit bir ko'rinishga keltirilgan. Me'mor F. Tursunov loyihasi asosida bino intereri yuqori darajada fazoviy mukammallashtirilgan va bezatilgan. Zalning yuksak mahorat bilan ishlangan aylanasimon ganchli qopqog'i (plafoni) havorang va oltin bo'yoqlar yuritilgan an'anaviy kundal usulida bajarilgan. Saroy foyesining tasmaimon derazalaridan shahar manzaralari yaqqol ko'rinadi. Foye o'rtasi va chap qanotidagi ikki qavatga teng bezakli devoriy kompozitsiyalarga yuqori derazalar orqali tabiiy yorug'lik berilgan. Vestibul o'rtasidagi devor yuzasiga bo'rtma bezak ishlangan. Turkiy gilamlarni eslatuvchi bu buyurtma bezakning oq sirti qabariq bo'lib, unda Humo qushi ramzi tasvirlangan. Uning tepasi va chetlarida moviy va sariq ranglarda ishlangan devoriy tasvirlar mavjud. Tasvirlarda Turkistonning qadimiy shahar va obidalarining manzarasi aks etgan. Foye chap qanotining oxiridagi bezakli devor yirik qizil marmarsimon toshlardan qoplab chiqilgan va suv havzasi, sopol idishlar, o'simliklar bilan shinamgina dam olish joyiga aylantirilgan. O'ng tomondagi devorda musavvir Bahodir Jalolovning «Umar Hayyom tushlari» deb nomlangan mahobatli devoriy tasviri joylashgan

Navoiy ko'chasi oxirini «Chorsu» mehmonxonasi yakunlaganidek, O'zbekiston shoh ko'chasi davomida Banklararo markazning osmono'par binosi qad ko'tardi. Bu markazni O'zbekiston Respublikasi Banklar uyushmasi buyurtmasi bo'yicha yugoslaviyalik quruvchilar 2000-yilning mart oyigacha barpo etishdi. Ushbu imoratda moliyaviy tashkilotlarga hizing, sug'urta, axborot, huquqiy va boshqa xizmatlar ko'rsatiladi. Bu markazda ikkita konferenzsal, muzokaralar xonalari, matbuot markazi, ikkita restoran mavjud. Bunday markazlar Toshkentning O'rta Osiyoning moliyaviy poytaxtiga aylanishida muhim omil bo'ladi.


1995-yil haykaltarosh A. Turdiyev loyihasi asosida Amir Temur uyubonining shimoli-g'arbida **Temuriylar tarixi Davlat muzeyi** qad ko'tardi. Binoning gumbazi va qamrab turuvchi 20 ustunli ayvoni anchagina kengayganligi bilan ajralib turadi. Gumbazning balandligi 30

metr, diametri 24 metrni tashkil qiladi. Muzey gumbazining ichki qismiga Samarqandning Registon maydonidagi Tillakori madrasasi singari kundal uslubidagi moviy va tillaranglarga bo‘yalgan ganchkor islamiy naqshlar berilgan. Ularni gumbaz ostidagi og‘ir vaznli qandil yoritib turadi. Muзей zali va ikkinchi qavatdagi galereya sayqallangan oq va och kulrang marmarlar bilan qoplab chiqilgan. Muzeyga kiraverishdagi devor sathida Amir Temur va uning davlatini ulug‘lovchi uch qismli miniatyura uslubidagi mahobatli devoriy tasvir muzeyning bezaklari yuqori mahorat bilan bajarilganligidan dalolat berib, viloyatlardagi xalq ustalarining milliy uslubdagi imoratlarini esga soladi.



Temuriylar tarixi Davlat muzeyi (A. Turdiyev loyihasi).

Sohibqiron Amir Temurning faoliyati va hayotini yoritib beruvchi ushbu muzey sharqona arxitektura uslubi bo‘yicha qad ko‘targan bo‘lsa, **me‘mor F. Tursunov** tomonidan 1997-yilda ishlanib chiqilgan **shahar hokimligi** binosi, shuningdek, **me‘mor V. Akapdjanyan** tomonidan loyihalashtirilgan **O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi** binosida klassik uslubdan unumli foydalanilgan. Ushbu ikki bino oppoq ustunlar bilan qamrab olingan. Oq ustunlarning kapitellariga barglar guldastasi ishlab chiqilgan. Hokimiyat binosining markaziy peshtoqi har ikki tomondan to‘qqizta ustundan tashkil topgan bo‘lsa, Oliy Majlis binosining har ikki tomoniga o‘ntadan ustunlar joylashtirilgan. Oliy Majlis binosining asosiy yuza qismini egallagan tillarang yaxlit oynalar tepasidan pastga tushguncha uch marta ichkariga kiritilgan. Lekin shuni aytib o‘tish lozimki, Oliy Majlis binosining arxitekturasida ham milliy uslublardan foydalanilgan, uning milliyligi feruzarang gumbaz va uning ustidagi an’anaviy tojsimon oynaband tuynuk bilan ifoda etilgan.



O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining binosi. Toshkent. (Me‘mor V.Akopdjanyan).

Hokimiyat binosi «Buxoro» ko‘chasi manzarasiga o‘zgacha qiyofa baxsh etib, markaziy gumbazli bino me‘moriy kompozitsiyasiga tugallik baxsh etgan. Hokimiyat binosi istirohat bog‘i atrofidagi ko‘cha bilan bog‘ga chegaradosli kinoteatr, kafe va boshqa eski binolar o‘rni barpo etilgan. Hokimiyat binosining rejasi «T» shaklida tuzilgan. Ko‘cha yuzida ikkita ma‘muriy bino va ularning o‘rtasidagi kirish bog‘ga qaratilgan ijtimoiy binoga olib boradi. Kirish rejasi aylana va uch qavatga ko‘tarilgan atrium, ya‘ni tomi bor ichki hovlidan iborat. To‘rtinchi qavatda esa binoning markaziy gumbazi ostida foye joylashgan. Kirish qismidagi beshta zina va ikkita lift qavatlarni bir-biriga bog‘lab turadi. Bino ichkarisining pollari va devorlari Italiya va Ural marmarlari bilan, ustunlarning tag kursilari esa Janubiy Afrikadan keltirilgan to‘q-qizil marmarlar bilan qoplab chiqilgan. Binoning barcha gumbazlari metall shakllardan qurilgan bo‘lib, ularga haykaltaroshlik va naqqoshlik ishlariga qulay bo‘lishi uchun ingichka simlardan to‘qilgan to‘rlar tortilgan. Kiraverishdagi atrium gumbaz nihoyatda jozibali oq moviy va tillarangli islamiy naqshlari orasiga yorug‘lik manbai kuchli bo‘lgan mitti chiroqlar o‘rnatilgan. Ularning «Samarqand yulduzlari» deb atalishi bejiz emas. Gumbazning ichki sirti sarg‘ish-jigarrang, to‘q sariq ranglar va oltin bo‘yoqlar yuritilgan naqshlar bilan bezatilgan.

Endi 1995-yil me‘mor A. To‘xtayev tomonidan loyihalashtirilgan O‘zbekistonning eng yirik mehmonxonalari sirasiga kiradigan «Interkontinental» mehmonxonasi binosiga e‘tiborni qaratsak. Bu inshoot o‘ziga xos hajmiy plastik hal qilinganligi bilan shahar aholisi va mehmonlarning diqqat-e‘tiborini darhol o‘ziga jalb etadi.

Mehmonxonaning mahobatli binosi (umumiy maydoni - 2,2 ga, balandligi - 53 m ga yaqin) navqiron Respublika barqarorligining o'ziga xos ramzi bo'lib, u O'zbekiston Milliy banki binosi, yaqin atrofdagi past qavatli imoratlar, sun'iy ko'l yastangan xiyobonni o'z ichiga oladigan mehmonxona majmuining uzviy markazi hisoblanadi. Mehmonxona me'morchiligida bino qiyofasi to'g'risidagi tasavvurlarni o'zgartirib yuboradigan erkin rejalashtirish tamoyiliga ahamiyat berilgan.

Binoga turli nuqtalardan nazar tashlaganda, u har safar yangicha shaklda namoyon bo'ladi, uning rang-barang va o'ziga xos ko'rinishi kishida betakror his-tuyg'ular uyg'otadi.

Mazkur inshoot Respublika me'morlik amaliyotida birinchi marta ranglar uyg'unligi binoning tashqi ko'rinishini shakllantirishda alohida o'rin egalladi. «Interkontinental» binosi ko'lamining ko'p bosqichliligi bilan va taassurotni kuchaytiruvchi bezak unsurlarining to'q ranglari orqali tomoshabin diqqatini o'ziga tortadi. Matbuot markazi devorlaridagi yorqin – to'q-sariq hoshiyalar va jigarrang o'rammalar binoning asosiy kulrang va zangori rangidan keskin farq qilib turadi.

Mehmonxonani barpo etishda 47 ta xorijiy firma ishtirok etgani ma'lum. Interer dizayni Amerikaning «Grexand» kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lsa-da, mehmonxona Toshkent uchun «dengiz ortidan» olib kelingan bir «mehmonsifat imorat» bo'lgani yo'q. Uning intererlarida zamonaviy dizaynlik ishlanmalari sharq turmush tarzi uchun odatiy bo'lgan unsurlar bilan uyg'unlikda qo'llanilgan.

Ko'plab vazifalarni bajarishga mo'ljallangan zallardan biri bobokalonimiz Amir Temur nomida bo'lib, bu yerda ham sharqiy me'morlik unsurlarga ikkinchi hayot bag'ishlangan. Undagi jihozlar klassik jihatdan qat'iy va oddiy qilib ishlangan. Zal devorlari balandligi bo'ylab ikki qismga ajratilib, yog'och ustunlarga milliy naqshlar o'yilgan ravoqlar ularni birlashtiruvchi unsur bo'lib xizmat qiladi.

«Interkontinental» mehmonxonasi o'z davrining yuksak ma'naviy va madaniy qadriyatlarini o'zida aks ettirgan. Bu inshootda qurilish va dizayn sohasidagi eng yangi jahon texnologiyalarining Markaziy Osiyo me'morchiligi uchun an'anaviy, o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari uyg'unlashgan bo'lib, u O'zbekiston me'morchiligi istiqbolini belgilab berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

1999-yilning oxirida «Sheraton» mehmonxonasi Toshkentning Amir Temur va Alisher Navoiy chorrahasida Belgiyaning «Bunt» korporatsiyasi tomonidan qurib topshirildi. «U» harfiga o'xshash shaklda barpo qilingan mehmonxona 70 qavatli qirrasimon oq kulrang

betonli bino ko‘rinishida bajarilgan. Ushbu qirralarning ko‘kimtir oynali derazalaridan shiaharga 250 o‘rinli xonalar qaratilgan. Ular ichida ikki xonali «maks»lar ham mavjud.

Mehmonxona vestibuly, «Interkontinental» mehmonxonasidek, oyna bilan qoplangan qiya metall formalari bilan yopilgan. Vestibuldagi oyna devorli yo‘lak ziyofatlar rotondasi, ya‘ni kichik aylana zalning oldidan o‘tib, Amir Temur shohko‘chasi tomonida joylashgan Majlislar zaliga olib boradi. Yo‘lak va zal shoyi matosiga kattalashtirilib solingan Uzoq Sharq va O‘rta Osiyo miniatyuralari bilan bezalgan. Ziyofatlar rotondasi oyna gumbaz bilan qoplangan va uning halqa poyiga naqshu nigorlar solingan. Zal o‘rtasiga kichik favvora joylashtirilgan, parda tortilgan derazalar esa zalga ixchamlik bag‘ishlab turadi. Osmono‘par binoning birinchi qavat xonalari vestibuldan naqshlangan ravoqlar orqali ochilgan.

Vestibyulga ikkala tomonlama manzarali rasmlar solingan va shakllari Samarqand minoralarini eslatuvchi binolar maketi o‘rnatilgan. Ulardan chapdaxisiga ikkinchi qavatga olib chiqadigan aylana zina o‘rnatilgan. Vestibyulning markaziy devori yonida ham shinamgina favvora mavjud. Mehmonxona qavatlari nihoyatda zich rejalashtirilgan. Liftlar oldidagi maydonchadan ikki tomonga moviy gilamli va yog‘och devorli yo‘laklar ketgan, devor lampalarining chiroqlari zamonaviy rassomlarning tarixiy mavzularga bag‘ishlangan miniatyuralarini yoritib turadi.

Shaharlarimizning shohko‘chalarida joylashgan bozorlarimiz tubdan o‘zgardi. Viloyatlarda ularni qurish jarayonlarida xalq ustalari faol qatnashdilar. Ular ichida Termiz bozorining ikki qavatli savdo do‘konlari favvora va g‘ishtdan terilgan ravoqli ko‘rinishdagi bezakli devori keng maydonga qaratilgan. Qo‘qon dehqon bozori imoratlari yevropacha uslubda bezatilgan. Toshkentdagi Eski shahar bozorining yirik temir-beton gumbazlari rang-barang sopol naqshlar bilan qoplab chiqilgan. Gumbazlar ostida savdo zallari, do‘konlar va xalq hunarmandlarining «Usto» birlashmasi ustaxonalari joylashgan. Oloy bozorining tomi ravoq shaklli metallardan qurilgan va kun yorug‘ini o‘tkazish uchun oynasimon ko‘kimtir leksan varaqlari bilan yopilgan. Shu qatorda, zont, qat-qat shaklli, oraliqlari keng, yorug‘ tomlar Mirobod va Parkent bozorlari ustida ham qurildi. Shuningdek, Chilonzor buyum bozorida ham bir nechta yangi savdo qatorlari qurilib foydalanishga topshirildi.

Toshkentda tennis bo'yicha Prezident kubogi uchun o'tkazilayotgan xalqaro musobaqalar shu sport turining bizda ommaviylashishiga olib keldi, tennis maydonchalari – kortlar Andijon, Namangan, Qarshi va boshqa viloyat markazlarida qurildi. Toshkent shahrida esa Yunusobod korti mavjud. Ochiq kortlar balandligi 375 metr bo'lgan uch oyoqlik televizion minora tagida joylashgan. Kortlar orqasida 3000 o'rinli usti yopiq universal kort binosi qurilgan. Ushbu bino 1996-yil me'mor V. Akapdjyan tomonidan loyihalashtirilgan. Bino tomining konstruksiyalari yorug' o'tkazadigan leksanli ulkan temir-beton ravoqlar bilan bajarilgan. Bunday tom va kortni o'rab olgan ikkinchi qavat galereyasining aylana derazalari binoga mos va boy ko'rinishni yuzaga keltirgan.

Shuningdek, 1999-yil Buxoro shahrida «Humo» nomli tennis majmuasi ochildi. Unda 250 o'rinli usti yopiq zal, 500 o'rinli ochiq stadion, trenajyorlik zali, massaj xonalari, sog'liqni saqlash xizmati va fitobarlar mavjud. Zallar devorlarining ichki ko'rinishidagi yirik zamonaviy metall konstruksiyalari odatdagicha bekutilmasdan ochiq qoldirilgan. Sababi, ular o'ziga xos estetik fazilatga ega.

9-may Xotira va Qadrlash kumi deb e'lon qilinishi munosabati bilan Toshkent shahrida «Ona» nomli yangi majmua shakllandi. Abadiy alanga Mustaqillik maydonining shimolidagi xiyobonda joylashgan bo'lib, maydon kengligini davom ettirib turadi. Abadiy alanganing g'arbiga haykaltarosh I. Jabborov tomonidan yaratilgan «Motamsaro ona» haykali o'rnatilgan. Shuni aytib o'tish kerakki, ushbu haykal qiyofasini yaratgan haykaltarosh - rassom Rahim Ahmedov asarlaridagi o'zbek onasining siymosidan foydalangan. Xiyobonning uzunligi 60 metr bo'lib, shimoliy va janubiy ayvonlarda II jahon urushida halok bo'lgan o'zbekistonlik askarlarning ism-shariflari keltirilgan. Bu majmuani barpo etishda respublikaning barcha xalq ustalari qatnashib, shunga o'xshash me'moriy yodgorliklar viloyatlar markazlarida ham ochildi.

Toshkentda qad ko'targan me'moriy obidalardan biri Bo'zsuvo kanali bo'yidagi qatag'on qurbonlariga bag'ishlangan **Shahidlar xotirasi me'moriy yodgorligi**dir. Uning gul chainanlari bilan obodonlashtirilgan tepaliklaridan birida feruza rangli an'anaviy qovurg'asimon gumbaz qad ko'tardi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishishi va milliy taraqqiyot yo'liga dadil qadamlar bilan kirib borishi me'morlardan shaharsozlikda, xalq me'morlik merosining mahalliy sharoitga mosligi kabi qator

xususiyatlarini zamonaviy me'morlikka tatbiq etish kabi ijodiy masalalarni hal qilishni taqozo etadi.

O'zbekiston rassomlari va haykaltaroshlari. O'zbekistonda tasviriy san'at, ayniqsa, mo'yqalam san'atining shakllanishida Yevropaning ilg'or tasviriy san'ati an'analari, rus va boshqa xalqlar rassomlarining ta'siri katta. Yevropa davlatlarida ancha ilg'orlab ketgan uch o'lchamlilik qonuniyatlari asosida rivojlangan tasviriy san'at aynan o'sha davrlarda bizning o'lkamizda deyarli mavjud emas edi. Ajdodlarimizning san'atga ixlosmand vakillari ko'proq xalq amaliy bezak san'ati bilan mashg'ul bo'lganlar.

Asta-sekin mahalliy an'analar bilan uyg'unlikda rivojlangan tasviriy san'atimizning yanada ravnaq topishi va milliy kadrlarni tayyorlashga M. Novikov, I.S. Kazakov, P.P. Benkov, N.V. Rozanov, T.N. Nikitin, L. Bure kabi rassomlar katta hissa qo'shishdi.

XX asrning 20–30-yillariga kelib, O'zbekiston tasviriy san'ati o'ziga xos shakl-shamoyiliga ega bo'la boshladi. Bunda A. Volkov, P. Kuznesov, M. Kurzin, S. Finkelshteyn, N. Karaxan, V. Ufimsev, Usta Mo'min (A. Nikolayev), N. Kashina, O. Tatevosyan, P. Benkov, S. Kovalevskaya, I. Ikromov, O'. Tansiqboyev, Ch. Ahmarov, E. Abdulloyev kabi mo'yqalam ustalarining ijodiy namunalari e'tiborga molik bo'ldi.

Toshkentda 1919-yilda o'lka badiiy maktabi – Turkiston xalq maktabi tashkil qilindi. Unda S. Yudin, I. Kazakov, A. Isupov, I. Golovin, A. Volkov va boshqa rassomlar o'qituvchilik qildilar. 1921-yilda maktab tarqatildi; 1921–1923-yillarda Toshkentda badiiy texnikum ishlab turdi. O'zbek kitob grafikasining asoschilaridan biri, rassom Iskandar Ikromov shu bilim yurtida ta'lim olgan. O'zbekiston xalq rassomi Iskandar Ikromov kitob grafikasi sohasida sermazmun ijod qildi. U o'z faoliyatida o'zbek naqqoshlik san'atining boy merosidan unumli foydalanib, bir qancha kitoblarni bezadi. U Navoiy lirikasi, Ibn Sino va Beruniyning ilmiy to'plamlari, Oybek asarlarining to'rt tomliqi, shuningdek, rus adabiyoti klassiklarining asarlariga illyustratsiyalar ishladi. I. Ikromov 1904-yilda Toshkent shahrida tug'ildi. Yoshlik yillarida rasm ishlashni ishtiyoq bilan o'rgandi va grafika san'atiga bo'lgan qiziqishi yanada ortdi. Uning rasmlari «Bolalar dunyosi» jurnalida, hajviy rasmlari esa «Mushtum»da chop etila boshladi. Rassom tasviriy san'at sirlarini chuqurroq o'rganish uchun Sankt-Peterburgga borib o'qiydi. U Sankt-Peterburgdan «Kitob san'atining texnik rassomi» diplomi bilan qaytadi. Bunday mutaxassis kadr o'z davrida

respublikamizning davlat nashriyoti uchun juda zarur edi. Iskandar Ikromov O'zbekistonning birinchi pollgrafchi-rassomi sifatida tanlla boshladi. Bu borada samarali ijod qilish bilan birga, tasviriy san'atning grafika turiga doir qo'llanmalar yaratdi. 1932-yilda rassomning «Rasmni o'rganish», 1933-yilda «Kitob va jurnallar qanday nashr etiladi» albomi, 1935-yilda «Harflarni yozishni o'rgan» kabi kitoblari chop etildi. Iskandar Ikromov pedagogikaga oid kitoblar yaratish bilan birga, kitob grafikasini yanada puxta o'rganib, o'zbek shoir va yozuvchilarining asarlariga kitob mazmunini ochib bera olgan ko'plab rasmlar ishladi. Ayniqsa, o'zbek adibiari, shoirlari kitoblarining o'ziga xos milliy va an'anaviy bezaklar bilan boyitilishi rassomni tez orada san'at va adabiyot vakillari o'rtasida e'tibor qozonishiga sabab bo'ldi. U yaratgan asarlar kitob, jurnal va gazetalarning mazmunini boyitib, o'quvchilarga manzur bo'ldi.

O'sha davrda Davlat san'at muzeyi qoshida A. Volkov rahbarligida badiiy studiya ishlab turardi. 1924-yildan studiyaga Moskvadan kelgan realist-rassom N. V. Rozanov rahbarlik qildi. I. Repinning shogirdi N. Rozanov badiiy ta'limni realistik yo'nalishda olib bordi. Atoqli manzarachi-rassom O. Tansiqboev, rassomlar A. Toshkenboyev, X. Valiyevlar 1927-yilda tuzilgan badiiy studiyada ta'lim oldilar.

XX asr 20-yillarining oxirida O'zbekistonda paydo bo'lgan turli badiiy guruhlar orasida eng yirigi «Yangi Sharq ustalari» guruhi edi. Bu davrda realist-rassomlar o'z oldilariga ijodiy kuchlarni birlashtirish va milliy kadrlar tayyorlash vazifasini qo'yidilar. Rassomlar hayotni, uni yaratuvchi insonni zo'r ishtiyoq bilan tasvirlashga kirishdilar. Asosiy mavzu – mehnat ahli, uning ijodkorligi, g'ayrati, shijoatini ko'rsatishdan iborat bo'ldi. Rassomlar jamoa xo'jaliklari, qurilishlar, zavod-fabrikalarga borishib, mehnatkashlarning fidokorona mehnatini polotnolarda aks ettirishga harakat qildilar.

Tasviriy san'at ko'rgazmalariga A. Volkov, M. Kurzin, V. Markova, A. Nikolayevlar bilan bir qatorda, mahalliy yoshlarning ham ijodiy ishlari qo'yila boshladi.

1933-yilda Toshkent tasviriy san'at bilim yurtiga mahalliy yoshlarni jalb etishda iste'dodli rassom **Bahrom Hamdamiy** (1910–1942)ning hissi katta bo'ldi. Yoshligidan san'atga qiziqqan B. Hamdamiy avval o'quv-ishlab chiqarish ustaxonalarida, so'ngra Toshkent badiiy bilim yurtida o'qib, tajribali rassomlar A. Volkov, M. Kurzin, O. Tatevosyanlar qo'lida ta'lim oldi. Keyinchalik B. Hamdamiy o'zi ham shu dargohda o'qituvchilik qilib, milliy ijodkor

kadrlar tayyorlashga salmoqli hissa qo'shdi. O'zbek rassomlaridan S. Abdullayev, L. Nasriddinov, M. Nabiyeu, S. Muhamedov, R. Ahmedovlar B. Hamdamiy qo'lida ta'lim olib, undan realistik san'at sirlarini o'rgandilar. B. Hamdamiy o'z asarlarida insonning go'zalligini, uning kuch-qudratini, matonatni aks ettirishga harakat qildi. («Gruppaviy portret», «Muhitdinova portreti»). B. Hamdamiyning 1939-yilda moyli bo'yoqda ishlagan avtoportretida jiddiy, kuch-quvvati, g'ayrati jo'sh urib turgan bug'doyrang yuzli kishi gavdalanadi.

Iste'dodli mo'yqalam sohibi Hamdamiy «Ish tugadi» polotnosida yangi kanalni qurib bitkazgan quruvchilarning o'z mehnatlari samarasini ko'rib zavqlanayotgan paytini tasvirlagan. Suratdagi milliy xarakterlar, ayrim tipajlar mohirona ifodalangan.

Shu davrda zamondoshlarining portretlarini yaratish ustida ish olib borgan rassom V. E. Kaydalov (1907–1985) ksilografiya texnikasida bir qancha portretlar chizdi. Y. Oxunboboyev, G'. G'ulom va S. Ayniy portretlarida rassom ularning ichki dunyosini chuqur ruhiy asosda ochib berishga harakat qildi. Uning «Qirq qiz» eposiga yaratgan illyustratsiyalari respublika badiiy madaniyatining oltin fondidan munosib o'rin olgan.

Shu davrda Nikolay Karaxan (1909–1970) manzara ustasi sifatida ko'zga ko'rindi. Rassom chizgan tabiat manzaralari dekorativligi, ranglarning Sharqqa xos jilvaligi va yorqinligi bilan ajralib turadi. Karaxanning manzaralarida kishilarning ijodiy mehnati yetakchi mavzulardan biri bo'lib qoldi. U kishilarni mehnat jarayonida yoki tabiat qo'ynida hordiq chiqarayotgan paytlarida tasvirladi.

O'zbekiston san'atining ravnaq topishida A. N. Volkov (1896–1957) ning ijodi alohida o'rin egallaydi. Uning ijodiy yo'nalishi ranglarga boyligi, rang orqali shakl yaratish, insonning ichki dunyosini bo'yoqlar vositasida ochib berish bilan bog'liq. Realist-rassom A. Volkov mashaqqatli izlanish yo'lini bosib o'tdi. O'zbekiston unga qadrdon ona yurt bo'lgani uchun (A. Volkov Farg'onada tug'ilgan) milliy san'at an'alarini chuqur o'rgandi, xalqqa tushunarli, uning ruhiyatini ifodalovchi asarlar yaratish ishtiyoqi bilan ijod qildi va o'zbek san'atini o'z asarlari bilan boyitdi.

O'rta Osiyoning boy madaniy merosini sevib, uni yangicha mazmun bilan boyitishga hissa qo'shgan rassomlardan biri A. Nikolayev-Usta Mo'min (1891–1957) ham O'zbekiston tasviriy san'atiga 30-yillarda kirib kelgan. A. Nikolayevni o'zbek xalqining naqshlari maftun etdi. U xalq urf-odatlarini o'rgandi va milliy sharq miniatyurasi uslubida

asarlari yaratdi. Usta Mo‘minning «Bedana tutgan bola», «Oila», «Naychi» kabi asarlari kishida lirik tuyg‘ular uyg‘otadi.

O‘zbek san‘ati ravnaq topayotgan yillarda boshqa rassomlar qatori ajoyib o‘zbek qizi **Shamsiro‘y Hasanova** ham ijod qilgan. Shamsiro‘y 1917-yilda ishchi oilasida tavallud topdi. 1932-yilda o‘rta maktabni tamomlab Toshkent badiiy bilim yurtiga o‘qishga kirdi. Uning ustози A. N. Volkov edi. Bilim yurtini bitirgach, Samarqandda P. P. Benkov rahbarlik qilgan badiiy studiyada tahsilni davom ettirdi.

Uning ijodi o‘zi sevgan va chuqur o‘rgangan sharq miniatyurachiligi va monumental tasviriy san‘ati bilan chambarchas bog‘liqdir.

Shamsiro‘y Sharqning betakror shoirasi Zebunisobegim obrazini yaratish yo‘lida bir qancha polotnolar yaratdi. Podshoh va adib Boburning nevarasi bo‘lmish Zebuniso XVII asrning ikkinchi yarmida Hindistonda yashab ijod qildi. Uning asarlari O‘rta Osiyo, Hindiston, Eron hamda Afg‘onistonda ma‘lum va mashhurdir.



Sh. Hasanova. Shoiri Mutriba.

40-yillarning boshidayoq Shamsiro‘y o‘rta asr Sharq shoiralarining portretlari turkumi ustida ishlashni davom ettirdi. Hozir O‘zbekiston Davlat san‘at muzeyi fondida qo‘qonlik shoira Nodira va Uvaysiyning, samarqandlik shoira Mehrining portretlari saqlanadi.

Uning ilk asarlari milliy ruh bilan sug‘orilgan bo‘lib, an‘anaviy miniatyura uslubida ishlangan. Qisqa, lekin sermazmun ijodi davomida san‘atkor shoira musiqachi ayollar portretlari galereyasini yaratish ustida ish olib bordi. Bular orasida keng

tomoshabinga tanilgani qashqar shoirasi Mutriba portretidir. Portretda shoira va musiqachi ayolning ilhomi jo‘sh urgan payti mohirona tasvirlangan. Asarning tiniq ranglari san‘atkorning nozik lirik obraz yaratishiga imkon bergan.

Sh. Hasanova turli janrlarda ijod qilib, O‘zbekiston tasviriy san‘atiga munosib hissa qo‘shdi.

Toshkent badiiy bilim yurtini tamomlagan rassomlardan biri **Latif Nasriddinov**dir (1913–1943). Rassom xilma-xil janrlarda asarlar

yaratdi. L. Nasriddinovning natyurmort portretlari uning iste'dodli san'atkor ekanligidan darak beradi. Uning «Avtoportret»ida odamiylik, mehnatsevarlik, soddalik kabi olijanob fazilatlar o'z badiiy ifodasini topgan. O'zining qisqa davom etgan ijodi bilan rassom o'zbek san'atida o'chmas iz qoldirdi.

O'zbekistonda tasviriy san'atning tashkil topishi va rivojlanishida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobl **P. P. Benkov** (1879–1949) ning xizmati katta. O'z asarlari bilan o'zbek tasviriy san'atiga salmoqli hissa qo'shgan rassom, shu bilan birga, mohir pedagog, milliy kadrlarning ustози ham edi.

Pavel Petrovich Benkov Qozon rassomchilik maktabida, keyin esa Peterburg Badiiy akademi-yasida o'qidi. Akademiyada Benkov mashhur grafik rassom D. N. Kardovskiy hamda buyuk Repinlarning ijodiy ustaxonasida tahsil ko'rdi.

O'zbekistonga kelganida P. P. Benkov yetuk rassom edi. Serquyosh, serfayz o'lkamizni sevib qolgan rassom bu yerda umrining oxirigacha ijod qildi. U



P. Benkov. Dugonalar.

yaratgan suratlarning har birida jonajon respublikamizning go'zal tabiati, o'zbek xalqining hayoti va mehnati kuylandi.

U 1931-yilda ishlagan «Xivalik qiz» surati bilan o'zbek realistik tasviriy san'atiga asos soldi. Bu suratda hovlining bir chekkasida yerda o'tirgan oddiy o'zbek qizi tasvirlangan. Qizning egnidagi rangdor milliy kiyim, chiroyli do'ppi, atrofdagi buyumlar, charaqlagan quyosh nuri bilan yoritilgan hovli yorqin bo'yoqlarda nihoyatda ishonarli tasvirlangan.

«Uzum uzish» deb atalgan suratda esa P. Benkov ko'pmillatli respublikamizda xalqlar do'stligi g'oyasini yuksak badiiylik bilan ko'rsatgan. Rus qizi o'zbek dugonasinikiga mehmon bo'lib keladi. Qizlar bog'ga chiqib, uzum uzayotgan bog'bon chol va uning nabiralari yordam berishmoqchi. Suratning kompozitsion markazida shu ikki dugona tasvirlangan. Ularning diqqatini quyosh nurida tovlanib turgan katta bir bosh uzum o'ziga tortgan. Uzumning qanday o'sishini birinchi marta ko'rgan rus qizi unga ajablanib qarab turibdi. Quyosh nurida tovlanib turgan keng uzumzor suratning fonini tashkil etadi.

Suratning hamma personajlari – bog‘bon, qizlar, bolalar yor‘in bo‘yoqlar yordamida haqqoniy tarzda tasvirlangan. Benkov asarlarida O‘zbekiston hayotidagi ko‘pgina voqealar tarannum etilgan.

O‘zbek xalqining turmushi va hayoti taniqli rassom **Z.M. Kovalevskaya** (1902–1979) ning ijodida ham o‘z aksini topgan. Uning «O‘zbekistonning xalq ustalari», «Lojada», «G‘alaba bilan qayt», «Yangi oilada», «Bolalar yaradorlar huzurida», «Ona portreti», «Dugonalar» asarlari rassomning yuksak mahoratidan dalolat beradi. Rassomning eng yaxshi asarlaridan biri «Lojada» (1937) suratidir. Unda tasvirlangan bir guruh o‘zbek qizlari teatr lojasida o‘tirib, spektakl tomosha qilyaptilar.

Rassom teatrga birinchi marotaba kelgan yosh o‘zbek qizlarining zo‘r qiziqish bilan spektakl tomosha qilayotganlarini, ularning o‘ziga xos xarakterlarini mohirlik bilan tasvirlagan. Suratning ranglari jozibali va ta’sirchan, sahnadan taralayotgan mayin qizg‘ish-sariq nur uning milliy kiyimlarini, kreslo va baxmal pardalarni yoritib, suratga alohida nafislik baxsh etgan.



Z.Kovalevskaya. Dugonalar.

O‘zbekiston xalq rassomi **N.V. Kashina** (1896–1977) ijodida ham xotin-qizlar mavzusi markaziy o‘rinni egallaydi. Uning «Tushlik» asarida serquyosh o‘lkamizning ozod, baxtiyor ayollari tasvirlangan.

Ayollar dasturxon atrofida porloq kelajaklari haqida suhbatlashib o‘tiribdilar. Nafis ranglarda tasvirlangan maftunkor tabiat, mevalarga boy to‘kin dasturxon, qizlarning milliy kiyimlari suratning mazmunini ochib berishga yordam bergan.

Yurtimizning go‘zal tabiati taniqli rassom **O‘rol Tansiqboyev** (1904–1974) ning ijodida markaziy o‘rin egallaydi. O‘rol Tansiqboyev Toshkentda tug‘ilib, San‘at muzeyi qoshidagi badiiy studiyada, so‘ngra Penza badiiy bilim yurtida o‘qib, professional mahorat sirlarini o‘rgandi. O‘rol Tansiqboyev ijodining dastlabki yillari voqelikni haqqoniy aks ettirish vositalarini izlashga qaratildi. Bu borada rassom portretlar, monumental mo‘yqalam asarlari, teatr dekoratsiyalari ishladi.

O'rol Tansiqboyevning asarlari obrazlarining yaxlitligi, mavzusining jiddyligi bilan ajralib turadi, rassomning ilk asarlaridan biri bo'lgan «O'zbek yigiti» portretida rassom o'z zamondoshi A. Toshkanboyevni tasvirlab, uning o'ziga xos xarakterini ko'rsatib berishga harakat qildi.

II jahon urushi yillarida rassom o'zbek xalqi vakillari bilan bir safda frontda xizmat qildi. Rassom o'z taassurotlarini «Urush yillari» rasmlar seriyasida aks ettirdi. Bu seriyadagi «Partizan qiz», «Ozod qilingan yerda», «Vatan mehmonlari» suratlari, ayniqsa, muvaffaqiyatli chiqqan.

Urushdan keyingi yillarda O'. Tansiqboyevning ijodi, asosan, O'rta Osiyoning go'zal va nafis tabiat manzaralarini mo'yqalam yordamida haqqoniy aks ettirishga qaratildi. Uning «Issiqko'l oqshomi», «O'zbekistonda bahor», «Qayroqqum GESining tongi», «O'rik gullamoqda», «Kuz tongi» kabi ko'plab asarlari rassomning manzaranavishik san'atining mohir ustasi sifatida jahonga tanitdi. O'rol Tansiqboyevning «Jonajon o'lka» asarini ko'rar ekan, tomoshabinning ko'z o'ngida o'zbek diyori, uning dilga orom beruvchi tabiati, kishilarning mehnati bilan bog'bo'stonga aylanayotgan yerlar gavdalanadi.

Rassomning «O'zbekistonda mart» surati ko'p yillik ijodiy izlanishlar samarasi. Bu epik polotnoda so'lim bahor damlarida uyg'onayotgan tabiat ohangdor ranglarda ifodalangan. Birinchi ko'rimishda tog' etagidagi yam-yashil vodiy, nariroqda yoyilib oqayotgan daryo, gullayotgan o'rik daraxtlari, feruza osmon O'zbekiston bahoriga xos nafislikni ochib bergan.



O'.Tansiqboyev. Oqshom pallasi.

O'. Tansiqboyevning asarlari kishida estetik zavq-shavq uyg'otadi, uni to'qinlantirib, jonajon o'lkaning inson mehnati bilan o'zgarayotgan ajoyib tabiatidan faxrlanish tuyg'usini kuchaytiradi, chunki rassom o'z asarlarida Vatanning porloq istiqbolini kuylaydi. O'rol Tansiqboyevning sermahsul ijodiy faoliyati yuksak baholandi.

O'zbekiston xalq rassomi **Chingiz Ahmarov** (1912–1995) monumental devoriy rasmlarning mobir ustasi. O'zbekiston tasviriy san'atida miniaturaga xos ajoyib polotnolar yaratib, milliy san'atimizning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan. Bu rassomning o'z ijodiy yo'li va san'at maktabi mavjud. Chingiz Ahmarov 1912-yilda Rossiyaning Troisk shahrida tavallud topgan. Taqdir taqozosi bilan ularning oilasi O'zbekistonga kelishadi. U yoshlik yillaridayoq Qarshi, Samarqand shaharlaridagi sharqona me'moriy obidalar, amaliy san'at namunalari bilan tanishadi. Chingiz Ahmarov o'zbek xalqining tarixi, uning an'anaviy san'at merosiga qiziqadi. 1930-yilda Perm tasviriy san'at o'quv yurtini, 1942-yilda Moskva Davlat badiiy institutini tugatadi. 1949-yili Ch. Ahmarov shu institut aspiranturasini tamomlab, san'atshunoslik fanlari nomzodi ilmiy darajasini oldi. Rassom Alisher Navoiy nomidagi opera va balet Katta teatriga, Samarqanddagi Ulug'bek muzeyi, Beruniy nomidagi Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutining yangi binosi, Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi devorlariga freskalar ishlagan.

U yaratgan «Tasviriy san'at ramzi», «Raqs», «She'riyat», «Kuy» kabi san'atning ramziy tasvirlari diqqatga sazovordir. «Saddi Iskandariy», «Farhod va Shirin», «Bahrom va Dilorom», «Layli va Majnun» kabi monumental tasvirlar devoriy suratlarda milliy tuyg'u va an'analar gavdalantirilgan. Monumental rassomlik bilan bir qatorda, Ch. Ahmarov dastgoh rassomligi va suratkashligida ham faol ijod qilgan. Rassom o'zbek xalqining tasviriy san'at sohasidagi merosidan unumli foydalanib, uning ilg'or an'alarini hozirgi zamon san'atiga ijodiy singdirgan ijodkorlardandir. U ko'plab o'zbek adiblarining, jumladan, buyuk bobomiz Alisher Navoiy asarlarini o'rganib, o'zbek milliy adabiyoti, she'riyatining ixlosmandiga aylanadi. Uning «Shirin» deb nomlangan asarida Shirinning sharqona chehrasi, liboslari, hatto xatti-harakati bir-biri bilan uyg'unlashib mahorat bilan tasvirlangan. Bu portretida boshi biroz egilgan, nozik qarashlar bilan eshik yonida turgan Shirinning to'liq gavdasi aks ettirilgan.



Ch. Ahmarov. Xorazm raqsi. Buhoro raqsi. Farg'ona raqsi.

Navoiy bobomiz orzu qilgan o'zbek ayollariga xos go'zallik, iffat va nazokatni Chingiz Ahmarov bo'yoqlar orqali jonli tasvirlashga muvaffaq bo'lgan. Musavvirning mo'yoqalamiga xos sharqona obraz va qiyofalar takrorlanmas tarzda yuzaga kela boshlaydi. «Mukarrama Turg'unboyeva» portreti, «Mushoira», Alisher Navoiyning lirik asarlar mazmuniga hamohang rasmlar turkumi, «Shoira Zulfiya» portreti ayniqsa, muvaffaqiyatli chiqqan. Ch. Ahmarov kitob grafikasi sohasida ham unumli ijod qildi. U Oybekning «Navoiy» romanini, «Ravshan» xalq eposini, M. Shayxzodaning «Mirzo Ulug'bek» tragediyasini rasmlar bilan bezadi.

Ch. Ahmarov taniqli rassom bo'lish bilan birga, mohir pedagog hamdir. Uzoq yillar davomida u Toshkent Politehnika institutida rasm va haykaltaroshlik kafedrasini boshqardi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi **Yusuf Elizarov** (1920–1974) respublikaning ko'zga ko'ringan rassomlaridan biridir. Yu. Elizarov tasviriy san'atning ko'p sohalarida ijod qilgan. U yaratgan portret, natyurmort janrlaridagi polotnolar orasida O'zbekistonning tarixini aks ettiruvchi asarlar, ayniqsa, ahamiyatlidir. Yu. Elizarov Samarqanddagi badiiy bilim yurtida P. P. Benkov qo'lida, keyinchalik Surikov nomli Moskva badiiy institutida mohir pedagoglar S. V. Gerasimov va I. E. Grabarlardan badiiy saboq olgan. Yu. Elizarov «Paxtakor qiz», «Qiz va kabutar», «Onalik» kabi dastlabki suratlaridayoq rangni nozik his etuvchi, iste'dodli rassom ekanligini namoyish etdi. Rassom portret janrida unumli ijod qilib, obrazning ruhiy negizini ochib bergan bir qancha suratlar yaratdi. «Sadriddin Ayniy» portretida rassom insonparvar yozuvchining haqqoniy obrazini gavalantirdi.



Yu. Elizarov. Onalik.

Figurasi bilan uyg'unlashgan binafsha baxmal ko'ylak kiygan taniqli xonanda — xalq artisti Halima Nosirova tashkil etadi. Rassom tasvirlagan har bir obraz, ayniqsa, M. Ashrafiy, S. Yudakov, T. Sodiqov kabi bastakorlar, O'. Tansiqboyev, P. Benkov singari musavvirlar, aktyor A. Hidoyatov obrazlari chuqur ruhiy ifodaliligi bilan ajralib turadi. Yu. Elizarov suratni ishlashda yorqin bo'yoqlardan foydalanib, asarni kolorit tuzilishining boy va to'liqlantiruvchan chiqishiga erishgan. Yu. Elizarov keyingi yillarda «Ijodiy hamkorlik», «O'zbekiston paxtakorlari» kabi yirik polotnolar bilan bir qatorda, ranglarining uyg'unligi, koloritining nafisligi, xarakterlarining aniqligi bilan ajralib turadigan bir qancha portretlar yaratdi.

Iste'dodli rassom ijodiy ishini pedagogik faoliyat bilan bog'lab olib bordi. U ko'p yillar mobaynida Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universitetida rassom-o'qituvchi kadrlar tayyorlashda faol qatnashib keldi.

O'zbek tasviriy san'atida salmoqli o'rin egallab, uning rivojiga o'zining munosib hissasini qo'shgan O'zbekiston xalq rassomi **Lutfulla Abdullayev** (1912–2000) Mirzacho'lda tug'ildi. Badliiy ta'limni Samarqand va Toshkent tasviriy san'at bilim yurtlarida P. Benkov, Z. Kovalevskaya, O. Tatevosyan, E. V. Vuchetichlardan olgan rassom mazmunli, kompozitsiyasi puxta, g'oyaviy va murakkab sujetli asarlar yaratdi. Uning «Paxta terimi», «Yosh shoir huzurida» va boshqa

Yu. Elizarovning «Ona portreti», «Ota portreti» kabi suratlari shu davrda yaratilgan asarlari orasida diqqatga sazovordir. 50—60-yillarda rassomning mahorati oshib, katta polotnolar yaratishga kirishdi.

Shunday asarlardan biri «O'zbekiston san'at arboblari» (1958) dir. Bu polotnoda o'zbek san'ati arboblari, atoqli bastakorlar, xonandalar, raqqosalar, aktyorlar va rassomlar tasvirlangan. Suratning kompozitsion markazini yaltiroq qora royal oldida yaqqol ko'rinib turgan oq kiyimli konsertmeyster qiz

dastlabki asarlari orasida xalq hofizi «Mulla To'ychi Toshmuhamedov» portreti alohida o'rin tutadi. Hofizning yuzini, naqshdor to'nini, mayin mo'yna telpagini rassom yuksak mahorat bilan tasvirlagan. Portret umumiy sarg'ish tilia ranglar gammasida ishlangan.

II jahon urushi yillarida L. Abdullayev rassomlar bilan yonma-yon turib, front ortida fidokorona mehnat qilib, g'alabani yaqinlashtirish uchun kurashayotgan paxtakorlarning yorqin obrazlarini yaratdi.

O'zbek xalqining II jahon urushida ko'rsatgan mislsiz qahramonligidan ilhomlangan

rassom «Front va front orti», «Qasam» nomli qator suratlarini ishladi, shu bilan birga, plakat sohasida ham unumli ijod qildi. L. Abdullayevning «Shimoliy Toshkent kanalida konsert» nomli surati juda ta'sircharidir.

1947-yilda L. Abdullayev zaxiraga bo'shatilgan askarlarning ona yurtiga, tinch mehnat quchog'iga qaytib kelishini ifodalovchi «Qahramon bilan uchrashuv» suratini ishiadi. Suratning kompozitsion markazini quchoqlashib ko'rishayotgan ota-bola tashkil etadi. Jangchining boshqa oila a'zolari – onasi, rafiqasi, o'g'li, og'a-inilari, qarindoshiari, qo'shnilari atrofda turishibdi. Ularning chehralaridagi xursandchilik suratning ko'tarinki ruhiga mos tushgan. Surat oltinsimon ranglar gammasida bajarilganligi, yorug'likning ko'pligi uchun tomoshabin voqea serquyosh o'lkada bo'layotganiga ishonch hosil qiladi.

L. Abdullayevning ijodi ko'p qirralidir. Mohir mo'yqalam ustasi kitob suratlashligi, shuningdek, hajviy grafikada ham faol ijod qilgan. A. Qahorning «Sarob», Oybekning «Quyosh qoraymas» va «Bolalik», A. Qodiriyning «O'tkan kunlar», G'. G'ulomning «Shum bola» kabi asarlariga suratlar ishlash bilan birga, L. Abdullayev «Mushtum» hajviy jurnali tahririyatida muvaffaqiyat bilan inehnat qildi.



L. Abdullayev. Xalq hofizi Mulla To'ychi Toshmuhamedov.

O‘z ijodi bilan o‘zbek tasviriy san‘atini ravnaq toptirgan, uni jahonga tanitgan mashhur rassomlarimizdan biri **Abdulhaq Abdullayev** (1918–2002) dir. U Turkiston shahrida tavallud topgan. Portret san‘ati ustasi o‘n uch yoshidan boshlab mo‘yqalamda rasm ishlagan. A. Abdullayev 1931-yilda Samarqand badiiy bilim yurtiga kirib, mashhur rassom-pedagog P. Benkov qo‘hida o‘qidi. 1938–1940-yili mobaynida Surikov nomli Moskva rassomlik institutida bilim olgan rassom, 1941-yilda Toshkentga qaytib keldi. Boshqa rassomlar bilan bir safda turib urush davri qahramonliklari, front va front ortidagi fidokorona kurashlarni tasvirlovchi bir necha polotno va 150 dan ortiq portret yaratdi.

A. Abdullayev o‘zbek xalqining atoqli san‘atkorlari, adiblari, paxtakorlari, naqqoshlari va olimlarining portretlar galereyasini yaratib, chuqur rumiy portret san‘ati ustasi sifatida tanildi. Ayniqsa, mashhur o‘zbek aktyori Abror Hidoyatovning Otello rolidagi portreti e‘tiborga molik. Ma‘lumki, o‘z davrida Abror Hidoyatov Otello roli orqali jahonga tanildi. Ana shu obrazni astoydil kuzatgan, har jihatdan o‘rgangan rassom uni o‘ziga xos tarzda tasvirlashga muvaffaq bo‘ldi. O‘ta ta‘sirchan va to‘laqonli bu portret rassomning mahorat cho‘qqisini egallaganidan dalolat beradi. Bu portret bir qarashdayoq tomoshabin e‘tiborini o‘ziga rom etishiga shak-shubha yo‘q. Umumiy qizg‘ish rang gammasi portretidagi obrazning ichki g‘oyasini ochib berishga xizmat qiladi. Shu tariqa rassom rejissyor Mannon Uyg‘ur, Furqat, Hamid Olimjon, Oybek portretlarini ham katta badiiy kuch, mahorat bilan tasvirladi.

«Artist Sora Eshonto‘rayeva» portretida rassom «o‘zbek sahnasi darudonasi»ni ortiqcha dabdabasiz, oddiy ko‘rinishda tasvirlagan. Stolga suyanib, o‘ychan o‘tirgan aktrisaning boshi sal ko‘tarilgan bo‘lib, uzoqlarga tikilgan ko‘zlarida, ta‘sirchan yuzida ijodiy ilhomlanish sezilib turibdi. A. Abdullayevning o‘sha davrda yaratgan asarlaridan muvaffaqiyat qozonganlari «Xalq ustasi Toshpo‘lat Arslonqulov» (1948) va «Nazarali Niyozov» portretlaridir. Dongdor paxtakor Nazarali ota Niyozov keng paxta maydonida yelkasida ketmoni bilan tasvirlangan. Bu mirishkor dehqon sinchkovlik va diqqat bilan paxta dalalarini ko‘zdan kechirib, egatlarda shildirab oqayotgan suvning tovushiga quloq solmoqda. Suratning koloriti sho‘xchan, jozibali, serquyosh yoz manzarasi zarhal, yorqin bo‘yoqlarda ishlangan.

Rassom «Akademik Qori Niyoziy», yozuvchilardan «Oybek», «Sobir Abdulla» portretlari, «Onam portreti», «Indira Gandi» surati, «Buvi bilan nabira», «Rassom Chingiz Ahmarov» kabi o'nlab bebaho asarlar muallifidir. Abdulhaq Abdullayev yaratgan portretlar O'zbekiston tasviriy san'atining noyob durdonalariga aylanib qolgan.

Rassom ijodining insonparvarlik motivlari «Katta oila» nomli polotnosida o'zining yaqqol ifodasini topgan. II jahon urushi yillarida ota-onasiz qolgan 14 bolani bag'riga olib, tarbiyalab voyaga yetkazgan Shomahmudovlar oilasi ko'pchilikka tanish.

Suratda katta tut daraxti tagidagi so'rda bu ahil oilaning hamma a'zolari to'planishgan. Surat markazida oppoqqina bolani ko'tarib o'tirgan oila boshlig'i, uning rafiqasi Bahri opa, qizlari, kelinlari, nabiralari, nariroqda ish bilan band bo'lgan o'smir bolalar tasvirlangan. Ular xat o'qish bilan band. Tabiat manzarasi, odamlarning rang-barang liboslari yorqin, sho'xchan bo'yoqlar gammasida bajarilgan bo'lib, suratning ko'tarinki ruhiga mos tushgan.

A. Abdullayev ijodida bolalar obrazlari salmoqli o'rin egallaydi. Bular orasida «Shahlo» portreti alohida ahamiyatga ega. Bu portretida tasvirlangan qizchanning charosdek tim qora ko'zlarida bolalarga xos ajablanish va zavqlanish tuyg'ulari yaqqol ifodalangan.

Mutafakkir shoir hazrat Alisher Navoiy obrazini yaratish uchun rassom uzoq yillar davomida tinimsiz izlandi va muvaffaqiyatga erishdi. G'azal mulkingning sultoni A. Navoiy A. Abdullayev yaratgan portretida tinch, osoyishta, nafosat cho'qqisida turganday ifoda etilgan.

Abdulhaq Abdullayevning asarlari mazmundorligi, ruhiy o'tkirligi, koloriti va xarakterlarning aniq ifodalanganligi bilan ajralib turadi. Bu asarlar xalqaro ko'rgazmalarda namoyish qilingan. Ularning anchagina qismi Moskvadagi Sharq madaniyatlar muzeyida, Tretyakov galereyasida, O'zbekiston Davlat muzeyida saqlanmoqda.



A. Abdullayev. Shoir Said Ahmad portreti.

O'zbekiston xalq rassomi, professor, Badiiy akademiyaning faxriy akademigi Malik Nabiyev (1916–2009) Toshkent shahrida tug'ilgan. **Malik Nabiyev** tasviriy san'atning ilk saboqlarini rassom Bahrom Hamdamiydan olgach, ustoz maslahatiga binoan rassomlik bilim yurtiga o'qishga kiradi. 1937-yili Toshkent badiiy texnikumini, so'ngra Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universitetining badiiy-grafika fakultetini tamomlagan. Ijodining ilk davrida M. Nabiyev portretnavis rassom sifatida tanilgan. U turli mavzuda kompozitsiyalar yaratgan. Rassomning «Oilaviy konsert» va boshqa suratlarida hayot hodisalari ko'p tomonlama va mazmundor qilib tasvirlangan. 30-yillarda yaratgan «O'zbek» portreti, «Tikuvchi», «Qo'zg'olon bostirildi» asarlari Nabiyevni muxlislarga iste'dodli yosh rassom sifatida tanitdi. Ijodiy izlanishda davom etgan rassom ustozlari Benkov, Tatevosyanlardan tasvir sirlarini o'rgandi.

M. Nabiyev ko'proq nafis san'atning tarixiy janrida mo'yqalam tebratayotgan rassomlardandir. Yoshligidan tarixiy mavzularga qiziqqan rassom o'qiganlarini suratlarda aks ettirishga harakat qiladi. Uning «Spitamen qo'zg'oloni», «Muqanna qo'zg'oloni», «Hosilning yo'q qilinishi», «Jizzaxdagi 1916-yilgi qo'zg'olon» deb nomlangan suratlari shular jumlasidandir. «Spitamen qo'zg'oloni» suratida xalqning eramizdan oldingi IV asrda yunon bosqinchilariga qarshi olib borgan vatanparvarlik harakati aks ettirilgan. Rassom ozodlik uchun bo'lgan xalq qo'zg'olonlari mohiyatini ochib beradi. Bu borada, rangtasvirchi rassom M. Nabiyev avloddan-avlodga hikoya qilinib kelinayotgan tarixiy voqealarni astoydil o'rganib, ularni jonli ranglarda tasvirlashga muvaffaq bo'lgan. Ana shunday asarlardan birida Iskandar Zulqarnaynga qarshi jang qilgan so'g'diylar qahramoni Spitamen aks etgan. Asar o'zining uslubi, kompozitsion tuzilishi jihatidan boshqa tarixiy asarlardan ajralib turadi. Unda ishlatilgan qizil, sariq, yashil, ko'k bo'yoqlar gammasi rassomga asarning mazmunini, uning g'oyasini ochishga yordam bergan. Qo'zg'olon mavzusida yaratgan manzaralarida xalqning g'alabaga, ozodlikka bo'lgan intilishlarini obrazli tarzda aks ettirishga harakat qiladi.

M. Nabiyev ijodida buyuk siymolar portretlari alobida o'rin tutadi. 1949-yili Abu Rayhon Beruniy vafotining 900 yilligi munosabati bilan ulug' mutafakkir portretini yaratish uchun katta tanlov e'lon qilindi. Unda respublika rassomlari qatori boshqa respublikalar mo'yqalam ustalari ham qatnashib, 80 ga yaqin asar tanlov hay'ati e'tiboriga havola etildi. Nabiyev yaratgan «Beruniy» portreti yuksak baholandi. Rassom

yetuk san'atkorlar qatoridan o'rin oldi. Bu portretni yaratish ijodkor uchun mashaqqatli va sharaflı edi. Chunki Beruniy qiyofasini ifoda etadigan hech qanday ma'lumot va tasviriy material yo'q edi. Abu Rayhon Beruniy o'z zamonasining turli faularini, birinchi navbatda, astronomiya, fizika, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya asoslarini puxta bilgan, bu fanlar taraqqiyotiga muhim hissa qo'shgan buyuk qomusiy olim edi. Uning ko'p qirrali ilmiy va insoniy qiyofasini tasvirlash rassomdan juda katta mehnat va mahoratni talab etardi. M. Nabiyeu ko'p izlandi, sharqshunos olimlarning fikr-mulohazalariga tayanib, fakt va ko'rsatmalar asosida Beruniy yashagan tarixiy davrni o'rgandi. X–XI asrlar Xorazm tangalaridagi shohlar rasmi bilan tanishdi va, nihoyat, Beruniy obrazini suratda aks ettirdi. Nabiyeu shundan keyin ham buyuk olimning qiyofasini yaratishdagi izlanishlarini to'xtatmadi. 1973-yili Beruniy tavalludining 1000 yilligi munosabati bilan yaratgan portretida ulug' siymoning yaxlit obrazini gavdalandirdi. Rassom Abu Rayhon Beruniyni kamtar va sodda kishi sifatida tasvirlaydi. Uning ko'zlarida donolik, idrok va ijodiy g'ayrat ko'rinib turibdi. Bu portret ikkinchi marotaba ham tanlov g'olibi bo'ldi va YuNESKOning «Kurer» jurnali muqovasida, xorijiy mamlakatlarning ko'pgina jurnal, gazetalarida hamda otkritka, marka, plakat tarzida bir necha bor nashrdan chiqarildi.

Musavvirning yutuqlaridan yana biri u yaratgan buyuk shoir, adib, faylasuf va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur obrazidir. Bobur obrazini yaratish uchun rassom Afg'oniston, Hindiston va boshqa bir qancha xorijiy mamlakatlarda bo'ldi. Bobur yashagan, ijod qilgan, jang qilgan joylarni o'z ko'zi bilan ko'rdi. M. Nabiyeu Bobur she'riyati bilan chuqur tanishib, uning hayotini mukammal o'rganib, shoirning navqiron va to'laqonli portretini yaratdi. 1968-yili Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy portretlarini chizib, san'at muxlislari e'tiboriga havola qildi. Bu portretlarning har biri o'ziga xos xarakteri va yaratilish uslubi bilan ajralib turadi.

Keyingi yillarda M. Nabiyeu ijodida tarixiy mavzular bilan bir qatorda, zamonaviy mavzularda portret asarlari ham paydo bo'ldi. Rassom yaratgan «Sut sog'uvchi», «Samarqandlik qiz», «Bog'bon», «**Bobur**» portretlari obrazlarining hayotiyiligi va tasvirning tiniqligi bilan ajralib turadi. Ijodkor AQSh, Marokash, Hindiston, Gretsiya, Italiya, Ispaniya, Fransiya va boshqa bir qancha mamlakatlarga qilgan safarlari natijasida ularning hayotini aks ettiruvchi bir qator asarlar yaratdi.



M. Nabiyev. Bobur.

Tasviriy san'atda tarixiy shaxslar obrazini yaratish borasida rassom Malik Nabiyeving, ayniqsa, sohibqiron Amir Temur obrazi diqqatga sazovordir. Taqdir taqozosi bilan 1941-yil iyun oyida Amir Temur dahmasi, so'ngra Mirzo Ulug'bek va Bibixonim qabrlari ochilganligi ma'lum. Biroz vaqt o'tgandan so'ng qabrdan topilgan ashyolar, jumladan, sohibqironning bosh suyagi ham Toshkentdagi O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyiga olib kelingan.

Bu haqda musavvir shunday hikoya qiladi: «M. Gerasimov muzey binosida

jahongirning bosh suyagi asosida haykal portret ishlashni boshlab yuboradi. Men bu jarayonni o'z ko'zim bilan ko'rganman. O'sha 1941-yildan buyon ulug' sarkarda siymosini yaratish niyati meni bir daqiqa ham tark etgani yo'q». Ellik yildan ortiq vaqt ichida Amir Temur obrazini har tomonlama o'rganish uchun olib borgan tadqiqotlari, izlanishlari haqida quyidagilarni so'zlab berdi:

«Shu davr ichida Amir Temur haqida ko'plab asarlar bilan tanishdim. Mavjud miniatyuralarni, qayerda bo'lmasin, imkoniyat darajasida qidirib topdim. Men Hindistonning Kalkutta, Bombay shaharlaridagi muzeylarda, Eronning Tehron, Isfaxon, Turkiyaning Istanbul, Ko'nyo, Izmir va boshqa shaharlarida, Angliyaning «Britaniya» muzeyida, Fransiya, Ispaniya kabi mamlakatlar muzeylarida saqlanayotgan miniatyuralarning asl nusxalarini ko'rishga muvaffaq bo'ldim. Ularda Amir Temur turlicha tasvirlangan. Hindistonning Bobur miniatyura maktabi, Behzod (Hirot) miniatyura maktabi vakillari chizgan Amir Temur qiyofasi bir-biridan tubdan farq qiladi. Istanbul muzeyidan joy olgan Temur portreti ham butunlay boshqacha...

Xullas, Amir Temur siymosini yaratish uchun bir emas, bir necha miniatyura maktabini o'rganib chiqdim». Haqiqatan ham rassom bu

portret asarini yaratish borasida astoydil izlanishlar olib borgan, yutuqqa yuksak mahorati, mo'yalarning kuchli tufayli erishgan.

San'at ixlosmandlari e'tiborini o'ziga jalb qilgan Amir Temur portretida sohibqiron sarkarda qiyofasida gavdalantirilgan. Boshiga oltin toj kiygan Temurning nigohi bir nuqtaga qaratilgan va jiddiy xayol og'ushida ekanligi chap qovog'ining biroz ko'tarilib, qoshi tepaga chimirilganidan sezilib turadi, ulug'vor fikr bilan bandligidan dalolat beradi. Yuz qiyofasi asosan bug'doyrang tuslar orqali tasvirlangan. Peshana va yuzda paydo bo'lgan chiziq, shuningdek, burun, lab, quloq, soqol, mo'ylovlar holati Temurning yoshi biroz o'tganligini ko'rsatsa-da, uning tetik va baquvvat ekanidan dalolat berib turibdi.

Ayniqsa, bu holat yuzda ko'zga tashianayotgan pishqlik, chayirlikning tasvirlanishida aniq ko'rinadi. Portretda qo'l barmoqlari nihoyatda xa-rakterli tasvirlangan. Sharqona bezatilgan shoh saroyining bir qismi, derazadan Samarqand shahrining manzarasi ko'rinadi. Devordagi fonda naqshin bezaklar, sohibqiron o'tirgan saltanat kursisining jozibali ranglarga boyligi, shuningdek, Amir Temur egnidagi liboslarning o'ziga xos qimmatbaho ko'rinishi tomoshabinga zavq ulashadi.

Xullas, Malik Nabiev sharqona xarakterga ega bo'lgan Amir Temurning uzoq va mashaqqatli jangu jadallardan keyingi holatdagi obrazini muvaffaqiyatli tasvirlashga erishgan.

O'zbekiston xalq rassomi, akademik **Rahim Ahmedov** P. Benkov nomidagi badiiy o'quv yurtini va Leningraddagi I. Repin nomidagi rassomlik, haykaltaroshlik va me'morlik institutini tamomlagan. R. Ahmedov, asosan, portret janrida ijod qiladi. Rassom yaratgan portretlarda zamondoshlarimiz – talaba, artist, rassom, cho'pon, paxtakorlar- mehnatsevar oddiy kishilarning tipik obrazini ko'ramiz. R. Ahmedovning ilk asarlari bo'lmish «Cho'pon yigit», «Xalq sozandasi», «Surxondaryolik qiz» kabi suratlari uni mohir suratlash va kolorit ustasi bo'lib yetishganini ko'rsatadi. Rassom o'z asarlarida qahramonlarning ma'naviy qiyofasini, ruhini, his-tuyg'ularini ta'sirli qilib ifodalagan. Bular «Ona o'ylari», «Bahor» va boshqalardir. R. Ahmedov badiiy jihatdan mukammal janrli suratlar ham yaratgan. «Birinchil maosh», «Tushki dam olish», «Onalik – tong», «Qo'shiq» kabi polotnolari nihoyatda jonli, hayotiy va haqqoniy chiqqan.

R. Ahmedov yaratgan ayollar obrazlari, ayniqsa, jozibali va maftunkordir. Rassomning bu mavzudagi suratlari nazm ruhi bilan sug'orilgan, nozik his-tuyg'ulariga boy. «Onalik - tong» (1963) suratida

rassom zamonaviy o'zbek ayolining tipik obrazini gavdalantirdi. Azaldan san'atkorlarni maftun etib kelgan mavzuni R. Ahmedov sodda va bir vaqtda tantanali ifodalagan. Suratning kompozitsiyasi oddiy, koloriti jozibali va nafis. Suratning umumiy nozik pistoqiya shil rangi, tog' cho'qqilari va adirlarning yashiltob binafsha ranglari hamda daraxtlarning ko'kish tuslari bilan uyg'unlashib ketgan. O'zbek ayollariga xos holatda o'tirgan onaning egnidagi sariq libosi uning bug'doyrang bada-niga uyg'unlashtirib tasvirlangan.



R. Ahmedov. Ustaxonada.

Hamza mukofoti laureati, Toshkent teatr-rassomlik institutining akademigi R. Ahmedov respublika tasviriy san'atining atoqli namoyandalaridan biridir. Uning asarlari xalqaro ko'rgazmalarda namoyish qilingan, manlakatimizning san'at muzeylari va galereyalarida saqlanmoqda.

Respublikada xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, professor, dastgohli rangtasvir san'atining atoqli vakillaridan biri Mannon Saidov (1923–2001) Toshkent shahrida tavallud topdi. Dehqonchilik va savdo ishlari bilan shug'ullangan otasi juda erta dunyodan o'tadi. U paytda Mannon 11 yoshda edi. Beshta farzandni tarbiyalab o'stirish onasi zimmasiga tushadi.

Rassom **Mannon Saidov** 1939-yili o'rta maktabni tugatgandan so'ng respublika badiiy bilim yurtiga o'qishga kirdi. Bilim yurti urush yillarida Samarqand shahriga ko'chirildi. Oilaviy sharoiti og'irligi sababli M. Saidov Samarqandga o'qishga bora olmaydi.

1942–1945-yillarda u zavodda oddiy ishchi bo'lib ishladi. Urush tugagandan so'ng 1945-yildan boshlab o'zi dastlab tahsil ko'rgan badiiy bilim yurtida o'qishni davom ettirdi. Bu yerda A. P. Lunyov va Malik Nabiyevdan ta'lim oldi. Bilim yurtini muvaffaqiyatli tugatib 1947-yilda Sankt-Peterburg shahridagi tasviriy san'at, haykaltaroshlik va arxitektura oliygohida dastlab taniqli rassom Troshev, keyinchalik

mashhur rassom Ioganson ustaxonasida ijod sirlarini o'rgandi va institutni muvaffaqiyatli tugatdi. 1953-yildan boshlab Benkov nomidagi badiiy bilim yurtida pedagogik faoliyatini boshladi. 1956–1959-yillardan Nizomiy nomli Toshkent Davlat pedagogika instituti (bugungi universiteti)ning badiiy grafika fakultetida o'qituvchi bo'lib ishladi. Mana shu yillardan boshlab ko'rgazmalarda rang-barang kompozitsiyalari bilan qatnashib muxlislar hurmatiga sazovor bo'ldi. 1956-yilda rassomlar uyushmasiga a'zo bo'lib kiradi. Rassom ijodiy va pedagogik faoliyatini birga olib borib, tasviriy san'atni targ'ib qildi. 1964–1984-yillarda esa shu institutda rangtasvir kafedrasini boshqarib ko'plab yoshlarga ta'lim berdi, institutning professori sifatida faoliyat ko'rsatdi.

Rassomning «Askiya» mavzusiga bag'ishlangan bir nechta asarlari bo'lib, unda o'zbek xalqiga xos samimiy kulgi ishqibozlarining ma'naviy qiyofasi o'z aksini topgan. 1973-yilda ishlangan mana shunday kartinada choyxonada hazil-mutoyiba qilib o'tirgan yurtdoshlarimizning xatti-harakatlari, sho'x qahqahalari rassom tomonidan ustalik bilan tasvirlanganini ko'ramiz. Mannon Saidov mehnatkash kishilar, tarixiy voqealar, O'zbekiston tabiatini rang-barang ko'rinishlarda tasvirlab muvaffaqiyat qozondi.

Bu o'rinda, ayniqsa, «Oila», «Askiya», «Xumson», «Uzum terishda», «Kattaqo'rg'onlik paxtakorlar», «Tog' manzarasi», «Hosil», «Ustaxonada» kabi o'nlab asarlarini misol qilib keltirish mumkin.

O'zbek rangtasvir san'atining iqtidorli vakillaridan biri, taniqli **rassom G'ofur Abdurahmonov** takrorlanmas ijod namunalariga ega.

G'ofur Abdurahmonov rangtasvir san'atining ko'pgina janrlariga dadil murojaat qila olgan rassom sifatida ajralib turadi. Bu o'rinda uning mavzuli kompozitsiyalar, manzara, natyurmort, portret janrlaridagi faoliyatini ta'kidlab o'tish joiz.

U 1936-yili ishchi oilasida (otalari Muhammadjon aka paxta zavodida ishchi bo'lib ishlaganlar), Toshkent viloyati Toshkent tumami Ko'kterak qishlog'ida dunyoga keldi. Tasviriy san'atga bo'lgan ishtiyoq unda juda erta uyg'onib, dastlab maktabda rasm o'qituvchisi K. P. Chibisovdan ta'lim oldi.

Rasm chizishga bo'lgan ilk qiziqishlarini eslab rassom shunday deydi: «Eski shahar bozorining bir chetida shiddat bilan matoga tasvir tushirayotgan bir rassomning jonli obrazlari ko'z oldimdan hali-hamon ketmaydi. Obrazlar nihoyatda jonli bo'lib, bozordagi harakat yaqqol sezilib turardi. Qop ko'tarib ketayotgan hammol, bozorning orqasidagi

machitga tashrif buyurayotgan chollar tasviri bo'yoqlarda o'z aksini topgan edi. Bu tasvirlarni ko'rib, rasm chizish naqadar zavqli ekanini yana bir bor his qilgan bo'lsam kerak».

Xullas, rasmga bo'lgan qiziqish uni 14 yoshida P. P. Benkov nomidagi respublika badiiy bilim yurtiga o'qishga yetakladi. Muvaffaqiyatli imtihonlardan so'ng H. Rahmonov, M. Nabiyev kabi rassomlar, keyinchalik yuqori kurslarda T. Oganegov, N. Qo'ziboyev singari musavvirlarning qo'lida tasviriy san'at sirlarini o'rgandi. Bilim yurtini tugatar ekan, «Xirmonda» nomli diplom ishini himoya qildi.

Uning talabalik yillaridagi eskiz, etyudlar ustida olib borgan izlanishlari zoe ketmadi. Bilim yurtidan keyin 1956-yili Toshkent shahridagi K. Behzod nomli milliy rassomlik va dizayn institutiga o'qishga kirib ustozlar nazariga tusha boshladi. Birinchi kursdanoq ishiarining rang-barangligi, pishliqligi bilan ajralib turdi. Bu yerda u R. Ahmedov, A. Kirvonos kabi rassomlar qo'lida ta'lim oldi. G'ofur Abdurahmonov talabalikning birinchi yozgi ta'till paytida 100 dan ortiq etyud ishlab, ustozlarining maqtovlariga sazovor bo'ldi. 1960-yili, institutni tugatishiga 1 yil qolganda, diplom himoyasiga chiqdi. Shu yili o'zi o'qib ta'lim olgan P. P. Benkov nomli badiiy bilim yurtiga ishga taklif qilindi. G. Abdurahmonov talabalik yillaridayoq pedagogik faoliyatini boshlab yubordi. Institutni 1961-yili «Shaxtyorlar» nomli diplom himoyasi bilan tugatdi.

G. Abdurahmonov 1961-yillardan boshlab mustaqil yaratilgan ijodiy kompozitsiyalari bilan ko'rgazmalarda faol ishtirok etdi. U 1965-yili O'zbekiston rassomlar uyushmasi a'zozligiga qabul qilindi. Bir necha yillik ustozlik ijodiy izlanishlardan so'ng rassomlar bilim yurtida direktor bo'lib ishlay boshlaydi. Bu rassomning nafaqat ijodiga, shu bilan birga, uning pedagogik faoliyatiga berilgan yuksak baho edi.

Rassom uchun yanada mas'uliyatli davr boshlandi. O'n yilga yaqin direktor, o'n to'rt yillik rassomlik faoliyatida, bilim yurtidagi pedagoglik davrida ko'plab yoshlarga murabbiylik qildi. O'sha paytlarda bilim yurtida ta'lim olgan talabalardan Shuhrat Abdurashidov, Bahodir Jalolov, Javlon Umarbekov, Alisher Mirzayev, Akmal Ikromjonov kabi o'nlab o'zbek xalqining iqtidorli rassomlari yetishib chiqqanini alohida ta'kidlash kerak. Bugungi kunda tasviriy san'atning ko'pgina sohalarida barakali ijod qilayotgan B. Nazarov (kino rassomi), K. Karimov (naqqosh), Sh. Rashidov (san'atshunos) kabi rassom va haykaltaroshlar G'ofur akaning qo'lida ta'lim olishgan.

Rassom yaratgan kompozitsiyalar keng qamrov va rang-barangligi bilan ajralib turadi. Bu, ayniqsa, «To'y», «G'alaba», «Baxmallik qizlar», «Qirq birinchi yildagi kuzatuv», «Hosil bayrami», «Mening oilam» kabi asarlarida yaqqol ko'rinadi.

Rassom G'ofur Abdurahmonov ijodining ajralmas va o'ziga xos tomonlaridan yana biri natyurmort janri bo'lib, u o'z natyurmortlarida ona tabiat saxovatini mahorat bilan tasvirlab beradi.

«Qo'shiq» asarini tomosha qilar ekansiz, inson qalbidagi tuyg'ular tabiatning jozibali ohanglariga hamohang jaranglayotganini his qilasz. Bahor gullari to'shalgan qirlar, qizlarning nafis harakatlari, tog' cho'qqilari, shuningdek, olisdagi bulutlarning bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'yoqlarda tasvirlanishi kishini o'ziga sehrlab qo'yadi. «Baxmalda tong» nomli manzarasida esa tabiatda yangilanayotgan holatning nafis ko'rinishi rassom tomonidan ilg'ab olingan. Tasvirda erta tongdagi jonlanish, borliqning uyg'onayotganligi yaqqol sezilib turadi. Bu asar tomoshabinda yaxshi kayfiyat uyg'otish bilan birga, uning maroqli dam olishiga yordam beradi. Tabiatga nisbatan muhabbat va estetik zavq uyg'otadi. Rassom ijodida manzara janriga bo'lgan qiziqish kurtaklarini uning dastlabki etyudlarida ham ko'rish mumkin. G'ofur Abdurahmonov Fransiya, Polsha, Bolgariya kabi xorijiy mamlakatlarda ijodiy safarlarda bo'lib qaytdi. Xorijda, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining bir qancha shaharlarida o'tkazilgan ko'rgazmalarda rassom asarlari olqish va qiziqish bilan kutib olindi.

Qoraqalpog'iston tasviriy san'ati ravnaqiga hissa qo'shib kelayotgan atoqli haykaltarosh Jo'ldosbek Quttimurodov qoraqalpoq xalqining ma'naviy go'zalligini jonlantirish bilan tomoshabinlar hurmatiga sazovor bo'lib kelmoqda. Haykaltarosh Jo'ldosbek Quttimurodov 1934-yilda Kegayli tumanining Oqtuba qishiog'ida tug'ilgan. Maktabdan so'ng Respublika rassomlik bilim yurtida



G'ofur Abdurahmonov.
Mening oilam.

A. P. Lunyovdan ta'lim oldi. Keyinchalik san'at institutida tasviriy san'at sirlarini astoydil o'rgandi. Shu tarzda Jo'ldosbek Quttimurodov 1960-yillarda haykaltaroshlik san'atiga erkin ijodiy izlanishlar bilan dadil kirib keldi.

J. Quttimurodovning «Orzu», «Arslon», «Bosh kiyimli qiz», «Kelin» kabi bir qancha asarlarida go'zallik, latofat, qoraqalpoq xalqiga xos milliy an'analar mujassamlashganini ko'ramiz. Haykaltaroshning ijodiy kamoloti, ayniqsa, «Iskandar Zulqarnayn», «Shamol», «Nihol», «Beruniy», «Oqqush va qiz» kabi asarlarida yaqqol seziladi. Uyg'un tasvirlanishlar, ya'ni badiiy obrazning jonliligi, butunliligining ta'minlanishi J. Quttimurodov asarlarida har jihatdan o'z ifodasini topgan. Bu o'rinda uning «Baliqlarni qutqarayotgan Anaxita», «Ikkiyuzlamachi ayol», «Farhod», «Guldursun», «O'tirgan qiz» kabi haykallari e'tiborga molik.

Iste'dodli haykaltarosh Jo'ldosbek Quttimurodov tasviriy san'atda o'z yo'li va o'z uslubini topar ekan, bu o'rinda ham jahon madaniyatidagi ilg'or namunalarga tayanib, sharq xalqlarining an'ana va turmush tarziga hurmat-ehtirom bilan qaraydi.

Ilhom Jabborov azal-azaldan amaliy san'at ustalari bilan mashhur bo'lgan Namanganning Chust tumani Olmos qishlog'ida 1945-yili 30-iyunda tavallud topgan. Olmos qishlog'idagi maktabda 8 yillik ma'lumotni olgandan so'ng 1961-yili Toshkentdagi badiiy bilim yurtining teatr bezakchisi bo'limiga o'qishga kiradi. Bilim yurtida unga taniqli rassom Grishchenko ustozlik qilgan. Ana shu yillar Ilhom Jabborov uchun tasviriy san'at sirlarini o'rganishda alohida maktab vazifasini o'tadi. Namangandagi viloyat teatriga ishga boradi. Tasviriy san'atga bo'lgan ishtiyoq bo'lg'usi haykaltaroshni 1966-yilda san'at institutiga yetakladi. Bu yerda u taniqli haykaltarosh Anvar Ahmedovdan saboq oldi.

Ma'lumki, haykaltaroshlikni o'rganishda qalamtasvir alohida ahamiyat kasb etadi. San'at sirlarini o'rganishning keyingi bosqichi ham o'z samarasini bera boshladi. Albatta, ilm va san'atni o'rganish ustozlarning mehru mahoratlariga bog'liq. Ilhom Jabborov bilim yurti va san'at institutida ta'lim olgan yillaridayoq o'zining iqtidori bilan ajralib turar edi. Shuning uchun ham u yaratgan asarlar rang-barangligi, kompozitsiyalarga boyligi bilan ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, uning «Xayol» nomli asari diqqatga sazovordir. Shunday qilib, Ilhom Jabborov o'ta rang-barang haykallar yarata boshladi. Haykaltarosh bir qator allomalar obrazini yaratishga muvaffaq bo'ldi. Ayniqsa, uning «Ibn

Sino», «Forobiy», «Navoiy va Jomiy», «Gʻofur Gʻulom» kabi asarlari eʼtiborga molikdir. Haykaltarosh turli kompozitsiyalar, rang-barang portretlar yaratar ekan, zamonaviy haykaltaroshlikda mahorat egasi ekanligini isbotladi.

Yangilanish, uygʻonish, ijodiy kamolot sari astoydil harakatlar Ilhom Jabborov ijodiga qanot baxsh etdi. U buyuk sarkarda Amir Temur obrazini monumental haykaldagi tikladi. Haykaltarosh Temur obraziga murojaat qilar ekan, u koʻplab sohibqiron haqldagi adabiyotlar, miniatura tasvirlar, rassomlarning badiiy ishiari bilan tanishdi.

— Amir Temur obrazini yaratish orzusi menda ilk bor bundan 25 yilcha avval paydo boʻldi. Oʻshanda Samarqand shahrida boʻlganimda tepamda xuddi ulugʻ bobomiz ruhi uchib yurganday qalbim larzaga kelgan edi. Samarqandga ikkinchi marta borganimda Zarafshon boʻyidagi tepalik ustida shoh ruhi shaharni qoʻriqlab turganday boʻldi. Necha asrdan keyin yetib keldim, uchib keldim, deya otganday... haykalimning gʻoyasi ham shu fikr-oʻy, xayolda tugʻilgan obraz asosida shakllandi. Temur 27 davlatga madaniyat olib borgan. Haykaldagi ot jilovini mahkam ushlab turganining ramziy maʼnosi bor — bunda urining katta bir mamlakatni boshqarib turish holati aksini topgan. Goʻyo mamlakatda osoyishtalik, tinchlik gullab-yashnasin, deb turganday gʻoya ilgari surilgan, deya eʼtirof etadi haykaltarosh.

Darhaqiqat, Ilhom Jabborov bugungi monumental haykaltaroshlikka dadil kirib kelgan va bu sohada oʻzining ajoyib asarlarini yarata olgan yetuk ijodkordir.

XX asrning ikkinchi yarmida Oʻzbekiston haykaltaroshlik sanʼati yanada ravnaq topdi. Bunda Hakimxoʻja Husniddinxoʻjayev, Shapiro Yakov Iosifovich, Abdumoʻmin Boymatov, Eynulla Aliyev, Joʻldosbek Quttimurodov, Anvar Ahmedov, Ilhom Jabborov, Ulugʻbek Mardiyev kabi koʻplab haykaltarosh-rassomlarning hissasi katta boʻldi.

Xalq yoki millatning maʼnaviy qiyofasini oʻziga xos ravishda gavdalantirishda monumental haykallar alohida oʻrinda turadi. Toshkent, Samarqand, Buxoro kabi shaharlarimizni sayr qilsak, koʻplab salobatli haykallarga duch kelamiz. Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur, Beruniy, Ibn Sino, Hamid Olimjon, Gʻofur Gʻulom kabi oʻzbek xalqining sevimli farzandlarining obrazlari muhrlangan monumental haykallar ana shular jumlasidandir.

Monumental haykallarda suronli janglarda halok boʻlgan otabobolarimiz qiyofalari ham mukammal ifodalangan. Afsonaviy xalq qahramonlari, dostonlardagi Alpomish, Farhodu Shirin obrazlari ham

o'zgacha talqin qilingan. Xullas, O'zbekiston haykaltaroshlik san'ati xalqimiz ruhiyatiga mos shaklu shamoyillni topa olgan.

Rangtasvir san'atida ulkan muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritgan O'zbekiston xalq rassomi **Javlon Umarbekov** 1946-yilda Toshkent shahrida tavallud topdi.

U 1961–1966-yillarda P. P. Benkov nomidagi respublika rassomlik bilim yurtida ta'lim oldi. Talabalik yillaridayoq Toshkent shahrida o'tkazilgan ko'rgazmada qatnashib, «Hosil» nomli asari uchun mukofotga sazovor bo'ldi. Rassom Javlon Umarbekov 1966–1972-yillarda sobiq Butunittifoq Davlat kinematografiya institutida tahsil ko'rdi. Mana shu yillari ham bir qator asarlari bilan ko'rgazmalarda ishtirok etib, san'at ixlosmandlari hurmatini qozondi.

San'atkor ijodining dastlabki namunalari dayoq sharqona ruh ko'zga yaqqol tashlanadi. Biz musavvirning sharq an'analarini puxta o'rganganligini ko'ramiz.



J. Umarbekov. Sozandalar.

do'stim» deb nomlangan. Unda muallif rassom do'stiga va kompozitsiyadan o'rin olgan ona siymosiga mehr hamda muhabbatini ifoda

etadi. Javlon Umarbekov ustoz Chingiz Ahmarovdan ta'lim olibgina qolmasdan, san'atga sadoqat, ajdodlar erosisiga hurmat va muhabbatni

J. Umarbekov 1968-yilda «Husayn Boyqaro va Alisher Navoiyning yoshligi» nomli asarida ikki do'stning sharqona obrazini yaratdi va o'zining katta mahorat egasi, shuningdek, rangtasvir san'atining chinakam ustasi ekanini namoyon qila oldi. 1969-yilda ishlangan «Qo'shiq» deb nomlangan kartinasini kuzatar ekanmiz, o'z davridayoq o'ziga xos mo'yqalam yuritishda muvaffaqiyatga erishganiga guvoh bo'lamiz.

Rassomning talabalik yillaridagi diqqatga sazovor ishlaridan yana biri «Mening

ham o'rgandi. «Yoz», «Birinchi qor», «Oltin natyurmort», «Avtoportret», «Suvga kelayotgan ayol», «**Sozandalar**» kabi asarlarida rangtasvir san'atining ilg'or zamonaviy an'alarini mukammal egallay boshlagani aniq ko'zga tashlanadi. J. Umarbekov oliygo'hrni tugatgach, Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyida bosh rassom, keyinchalik (1974-yildan) Toshkent teatr va rassomlik institutida o'qituvchi bo'lib ishladi. 1984-yildan 1987-yilgacha O'zbekiston Rassomlar uyushmasi boshqaruvining raisi sifatida ham samarali xizmat qildi. 1980-yillarga kelib rassomning mazmunan keng qamrovli va kompozitsiya jihatidan yanada murakkab asarlari tasviriy san'at ixlosmandlarining hurmatiga sazovor bo'ldi. Bunday asarlarda tarixiy-falsafiy g'oyalar olg'a surilar ekan, ijodiy izlanishlar bilan bog'liq mehnat samarasi yuzaga chiqqanini ta'kidlash o'rinni. J. Umarbekov doimo ijodiy izlanish va yangilik yaratish ruhi bilan yashab kelayotgan san'at ustalaridandir. Asarlari bir-birini takrorlamaydi. 1990–1995-yillarda yaratilgan «Gullar», «Natyurmort: Gullar va tikanlar», «Meshkob», «Natyurmort: Idish-tovoq», kabi asarlari bu o'rinda fikrimizning yaqqol dalilidir. Haqiqatan rassomning issiq tabiatli sharqona bo'yoqlari qamrovi ichidagi rangin asarlarini kuzatar ekansiz, o'zbekona ruhni ilg'aysiz. San'atkor rang-barang kompozitsiyalar, portretlar, boy mazmunli manzara va natyurmortlar muallifidir. Uning ijod namunalari san'at qiyomiga yetkaziladi, professional tugallik o'z o'rnini topadi.

Javlon Umarbekov asarlarida tarixiy shaxslar qiyofasi to'laqonli kompozitsiyalar qamrovida gavdalanadi. Bu o'rinda, ayniqsa, al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Amir Temur kabi tarixiy shaxslar obrazlarining to'laqonli gavdalanishi diqqatga sazovordir. Keyingi yillardagi asarlarida rassom milliy merosimizga, jumladan, amaliy bezak san'atidagi an'analarga e'tiborini kuchaytirdi. U xalq amaliy san'atidagi ramziy belgilar kalitini topish, o'sha siru asrorlarni bo'yoqlar orqali jonlantirish borasida izlanishlar olib bormoqda.

Bahodir Jalolov – O'zbekiston xalq rassomi, Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofotining sovrindori, zamonaviy rangtasvir san'ati rivojiga munosib hissa qo'shib kelayotgan iste'dodli rassomlardan biridir.

Bahodir Jalolov 1948-yilda Toshkent shahrida tavallud topdi. 1968-yili P. P. Benkov nomidagi respublika rassomlik bilim yurtini tugatdi. 1974-yilda esa I. E. Repin nomidagi Sankt-Peterburg rassomlik, haykaltaroshlik va me'morlik institutining bezatish monumental fakultetini tamomladi. Yoshlik yillarida portret san'atining ustasi

Abdulhaq Abdullayevdan ta'lim oldi. Rassom ijodiy faoliyatining dastlabki namunalarida milliy histuyg'ular turli xil ranglarda o'z ifodasini topdi. B. Jalolov tasviriy san'at borasidagi tahsilni davom ettirib, keyinchalik Chingiz Ahmarov, Ro'zi Choriyev, Melnikov, Korolyovlardan tasviriy san'at sirlarini o'rgandi. Shu sababli u yaratgan portretlarda mahorat ko'zga yaqqol tashlanadi. Uning ijodidagi tuyg'ular uyg'unligi tomoshabinni o'ziga



B. Jalolov. Nurli tong.

mahiyato etib qo'yadi. Darhaqiqat, «Raqsnig tug'ilishi» kompozitsiyasi o'zbek raqqosalarini ulug'labgina qolmasdan, ularga bo'lgan samimiy hurmat va muhabbatni ham ifodalaydi.

Bahodir Jalolov portret san'atida ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritdi. Uning to'laqonli asarlarida o'zbek xalqining sevimli farzandlari siymolari o'z ifodasini topgan. Bular: akademik rassom O'rol Tansiqboyev, akademik Vohid Zohidov, san'atning mashhur darg'alari Komil Yormatov, Malik Qayumov, Muhitdin Rahimov, Hamro Rahimova, Akrom Toshkanboyev, Damir Ro'ziboyevlardir. Rassom inson shaxsini doimo o'rganishga, uni har tomonlama his qilishga intiladi. Bahodir Jalolov ijodiy faoliyatining asosiy yo'nalishi insonlar obrazi, ya'ni portretlar yaratishga qaratilganidir. U o'z rangin olamini yangidan-yangi jilolar bilan tobora boyitib kelmoqda.

Bahodir Jalolov erishgan yetuklikning yana bir jihati shundaki, u Sharq va G'arb an'alarini o'zlashtirib, ana shu an'alardagi mushtaraklikni topib, uni yuzaga chiqarishga muvaffaq bo'lganidir. Shuning uchun ham rassom asarlari xorijiy davlatlarning san'at ixlosmandlari nazariga tushgan. Rassom o'zining monumental pannolari bilan dunyoning ilg'or davlatlari hashamatli saroy va binolarini bezatib kelmoqda. Darhaqiqat, rassom keng tafakkurli ijodkor sifatida odam, olam, koinot sirlarini o'rganishga intiladi.

Bahodir Jalolov ijodida olam sirlari o'zgacha talqin etiladi. Bu o'rinda uning «Gul va Rayhon afsorasi», «Nido», «Baxt qushi»,

«Abadiy va navqiron Hindiston», «XXI asr madonnasi» kabi ko'plab asarlarini misol keltirish mumkin.

Mustaqil O'zbekiston tarixiga bag'ishlangan O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi devoriga ishlangan monumental ko'rinishdagi surat jiddiy va mazmunli tarixiy dalillar orqali salobatli tasvirlanishi bilan har qanday tomoshabin e'tiborini o'ziga jalb qila oladi. Polotnoni kuzatgan tomoshabin buyuk tarixga ega bo'lgan o'zbek xalqining tengsiz kuch va qudratga ega ekaniga yana bir bor ishonch hosil qiladi. Umuman, tasviriy san'at asarlarini bir marta ko'rish bilan to'liq idrok etib bo'lmaydi. Albatta, uni qayta va yana qayta ko'rish, kuzatish, mushohada yuritish tufayli asar kompozitsiyasida ifoda etilgan g'oyalarning yangidan-yangi qirralarini kashf etish mumkin. Bahodir Jalolov ijodiyoti shu jihati bilan qadrlidir. U o'zbek tasviriy san'ati rivojiga astoydil hissa qo'shib kelmoqda.

O'zbekiston xalq rassomi, **rangtasvir ustasi Alisher Mirzayev** 1948-yilda Toshkent shahrida tavallud topdi. U zamonaviy rangtasvir san'atining ilg'or vakillaridan biri, serquyosh O'zbekiston tabiatining rangin olamini tasvirlashda katta yutuqlarni qo'lga kiritib kelayotgan iste'dod egasidir.

Rassom Alisher Mirzayev xalqimiz an'analariga, boy va sermazmun o'tmish tasviriy san'at merosiga hurmat bilan qaraydi. Rassom o'z xalqiga xos ruhiy kechinmalarni chuqur tahlil qila oladi. Shuning uchun ham kartinalarida fikr tiniqligi bo'yoqlar majmuyi bilan uyg'unlashgan. Eng muhimi, rassomning o'z ijodiy izlanishlari bilan buyuk ijodiy parvozlarga astoydil harakat qilayotgani e'tiborga molikdir.

Alisher Mirzayev kimgadir taqlid qilmaydi, o'z izlanishlari uni chinakam san'at bag'riga tortadi. Yetmishinchi yillarning ikkinchi yarmidayoq A. Mirzayev asarlari ixlosmandlar e'tiborini qozona boshlagan. Bu rassom polotnolarining xalqimiz ruhiyati va xarakteriga to'la-to'kis mosligi bilan izohlanadi. Rassom tinimsiz mehnat qilar ekan, har kungi harakatida chinakam ijodiy parvozlarga intiladi.

Alisher Mirzayevning ajoyib xususiyatlaridan biri – o'z ijodiy yutuqlaridan qoniqmaydi, ijod namunalariga tanqidiy ko'z bilan qaray oladi, ana shu tanqidiy nazar san'atkorni yangi ijodiy parvozlari sari yetaklaydi. Rassom asarlari bugungi kunda xalqimiz hurmatini qozonish bilan birga, ko'pgina xorijiy davlatlarda ham ma'lum va mashhurdir. Uning, ayniqsa, Germaniya, Bolgariya, Ruminiya, Italiya, Fransiya kabi xorijiy davlatlarda qo'lga kiritgan muvaffaqiyatlarini ta'kidlamoq kerak.

Rassomning tabiat bag'rida o'zbekona an'analarni, to'ylarni, beg'ubor o'zbek bolalari, lobar qizlari, mushtipar onalari obrazlarini aks ettira olishga muvaffaq bo'ldi. Jumladan, «Toshkent — tinchlik va do'stlik shahri» triptixi, «Boloxonada», «Intizorlik», «Yosh oila haqida qo'shiq», «**Kelinchak**» kabi o'nlab asarlari moybo'yoqlarda o'z aksini topdi. Umuman, rassom tabiat va jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlarni e'tiborsiz qoldirmaydi. Rassom tasvirlarga shunday jon bag'ishlaydiki, ulardagi go'zallik odamlarni ezgulikka yetaklaydi. Tasviriy san'at qudrati, rassom ta'biri bilan aytganda, bezovta yuraklarni tinchlantiradi. Darhaqiqat, Alisher Mirzayev ana shunday tuyg'u va fikrlar bilan o'z qalb qo'rini matolarga jo qilmoqda.

Ma'rifat va go'zallik tarqatish, haqiqiy san'at asarini yaratish rassomning shioridir.

Akmal Ikromjonov — taniqli rangtasvir ustasi, o'z fikr va g'oyalari ega iste'dodli rassomdir. Uning ijodida davr ruhi, kayfiyati, quvonchi-yu tashvishlari namoyon bo'layotganini ko'ramiz. Akmal Ikromjonov 1952-yil Toshkent shahrida tavallud topdi. Sankt-Peterburg shahridagi I.E. Repin nomidagi oliygohda san'at sirlarini o'rgandi. Tez orada Akmal Ikromjonovning asarlari ko'rgazma zallarida namoyish etila boshladi. Ko'rgazmalarga qo'yilgan kartinalarni kuzatib, ularning takrorlanmas va mazmundor kompozitsiyalar bilan boyitilganini ko'ramiz. Rassom ijodining o'ziga xosligi, tasviriy san'at taraqqiyotidagi uslublarni yaxshi bilganligi va zamonga mos kompozitsiyalar yarata olganligi bilan ham izohlanadi. Avvalo, shuni aytish kerakki, bundan bir necha yil muqaddam A. Ikromjonov o'z davrining achchiq qisimatlarini bir necha kompozitsiyalarda mahorat bilan ko'rsata olgan. Ayniqsa, «Orol mening dardim», «Hisor fojiasi», «Chaqmoq» kabi asarlarida davrimizning murakkab muammolarini aks ettiribgina qolmasdan, tabiatga, insoniyatga mehr-shafqat, adolatparvarlik zarurligini ta'kidladi. Bu asarlar kompozitsion yechimining tugalligi, fikrlarning tiniqligi bilan tomoshabinga voqelikni



A. Mirzayev. Kelinchak.

to'la-to'kis anglatadi. Rassomni ona tabiatga bo'lgan mehr-muhabbati tinch qo'ymaydi. U Orol dard-alamlarini aks ettiruvchi qator asarlar yaratdi.

Akmal Ikromjonov bir qator asarlarida avangardchilarga xos an'anani davom ettirib, o'z fikrlari bilan bu yo'nalishni boyitishga harakat qildi. Masalan, «Nigoh» nomli polotnosi bu o'rinda diqqatga sazovordir. Unda Salvador Dali qiyofasi orqali hayot muammolarini o'ziga xos tarzda ochib berishga erisha olgan. Shu bilan birga u Salvador Daliga bo'lgan juda katta hurmatini ham aks ettiradi.

Rassom ijodiga nazar solar ekanmiz, uning serqirra va rang-barangligiga guvoh bo'lamiz. Ayniqsa, bu hol hind xalqi hayoti va tarixiga bag'ishlangan asarlarida ko'zga yaqqol tashlanadi. Akmal Ikromjonov Kalkuttada bo'lgan kezlarida hind xalqlarining tarixi, hayoti, e'tiqodini astoydil kuzata olganligini «Hindiston», «Kamasutra», «Hind qizi», «Rohib», «**Zamin taronasi**» kabi asarlari orqali ko'ramiz. Rassom hayotni, uning sirli olamini o'z ichki kechinmalari bilan yoritib berishga harakat qiladi. Bu o'rinda uning «Darvesh» nomli asarini misol keltirish mumkin.

Akmal Ikromjonov asarlari bir qator xorijiy davlatlarning ko'rgazmalaridan, muzeylaridan o'rin olgan. Jumladan, Amerika, Angliya, Germaniya, Hindiston, Turkiya va boshqa davlatlarda uning ixlosmandlari ko'p. Rassom doimo ijodiy izlanishlar bilan band. Ana shuning uchun ham uning faoliyatida tez-tez yangi-yangi asarlarga duch kelamiz. Bu mehnat va harakatlar zoe ketmadi. Rassom el nazariga tushdi – 1990-yilda Hamza nomidagi Davlat mukofotining sovrindori bo'ldi.

Rassom portret san'ati borasida ham ijod qilib, buyuk bobomiz Mirzo Ulug'bek siymosini to'laqonli gavdalantirishga muvaffaq bo'ldi. Bu portret maxsus tanlovda a'lo baholanib, etalon sifatida qabul qilindi. Rassom turil kompozitsiyalar bilan birgalikda portret san'atining ustasi sifatida ham allaqachon shuhrat qozongan.

Akmal Ikromjonov ijodidan keng o'rin olgan san'at janrlaridan biri natyurmortdir. To'qsoninchi yillarning boshlarida ko'rgazmaga qo'yilgan «Guldonli natyurmort» asari kishi e'tiborini o'ziga tortadi. E'tiborli tomoni shundaki, dorivor o'simliklardan bo'ymadoron gullarining tasvirlanishi, shisha idishiarning material jihatdan xarakteri to'la-to'kis o'z qiyofasini topa olgan. Rassom ishlagan natyurmortlarda predmetning xususiyatlari mohirona berilishi bilan birga, falsafiy mushohadalar ranglarda aks etadi.

Rassom rang-barang natyurmortlarida buyum va narsalar, meva va sabzavotlarning go‘zalligini tasvirlabgina qolmasdan, ona tabiat sirasrorlarini ham talqin qilishga erishadi.

Akmal Ikromjonov tengdosh hamkasblari bilan tez-tez ko‘rgazmalar tashkil etib turadi. Bu borada Muhammadxon Nuriddinov, Sobirjon Rahimetov, Imyar Mansurov kabi ijodkor do‘stlari bilan amalga oshirgan ko‘rgazmalari e‘tiborga molikdir. Bir qaraganda, ularning ijodiy hamkorligida qandaydir uyg‘unlik mavjuddek ko‘rinsa-da, har birining o‘ziga xos yutuqlari bor. Masalan, S. Rahmetovning asarlarida sharqona miniatura xarakteriga xos an‘analar balqib tursa, Muhammadxon Nuriddinovning ijodida portret janri yetakchi o‘rinni egallaydi. 90-yillar tasviriy san‘atining ilg‘or vakillari bo‘lmish bu rassomlar ayni paytda yoshlarga mahorat sirlarini o‘rgatishmoqda.

Xalqimiz tasviriy san‘at merosi an‘analarini o‘zlashtirib, zamona ruhiyatiga, xarakteriga mos ravishda davom ettira olish har qanday nusavvirga ham nasib etavermaydi. Buning uchun, avvalo, tasviriy san‘at tarixining o‘zbek mumtoz adabiyoti bilan chambarchas va uzviy bog‘liqligini rassom chuqur his qilmog‘i lozim.

Mashhur musavvir Chingiz Ahmarovning shogirdlaridan biri **Temur Sa‘dullayev** ham katta ijodiy muvaffaqiyatlarga erisha olgan rassomlar sirasiga kiradi. Temur Sa‘dullayev 1948-yil 20-aprelda Jizzax viloyatining G‘allaorol tumanidagi Qangli qishlog‘ida Sa‘dullaxon ismli diniy ilmlardan yaxshigina xabardor bo‘lgan savodxon kishining oilasida tavallud topdi.

Temur Sa‘dullayev dastlab o‘zi tug‘ilib o‘sgan qishlog‘idagi Alisher Navoiy nomli maktabda ta‘lim oldi. Bu maktabda navoiyxonlik kechalari, turli uchrashuvlar bo‘lib turar edi.

O‘sha anjumanlarda qatnashgan yosh Temur ishlagan rasmlar ko‘pchilikning e‘tiborini



T. Sa‘dullayev. Mening o‘qituvchim portreti.

tortar edi. Shunday qilib, Temur maktabda o'qigan paytidayoq miniatura san'atiga xos tasvirlarni ishtiyoq bilan kuzatar va ulardan ilhomlanar edi. Shuning uchun ham taniqli rassom Chingiz Ahmarov bilan uchrashish, undan maslahatlar olish istagini o'z akasi Amirga bildiradi.

«Eng baxtli kunlarimdan biri, ilk bor 1966-yilda o'zim ishlagan ko'plab suratlarni ko'tarib akam bilan Chingiz Ahmarov huzuriga borgan kunimiz hali-hali yodimda», – deb eslaydi rassom.

T. Sa'dullayev Ch. Ahmarovning maslahati bilan shu yili Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universitetining tasviriy san'at o'qituvchilari tayyorlaydigan fakultetiga o'qishga kirdi. Bu yerda taniqli rassom, professor Malik Nabiyevdan rangtasvir, haykaltarosh Abdumo'min Boymatovdan qalamtasvir sirlarini o'rgandi. Talabalik yillarida Chingiz Ahmarov huzuriga tez-tez borib, u kishiga xos suratlar ishlash Temur Sa'dullayevga juda yoqar edi. Tasviriy san'atdan bilim va malakaga ega bo'lgandan keyin, Navoiy lirikasiga bag'ishlab diplom ishi qilish niyati borligini ustoz Chingiz Ahmarovga bildirdi. Ana shundan so'ng atoqli adabiyotshunos olim Hamid Sulaymonov bilan uchrashish va tanishishga muyassar bo'ldi. Adabiyot va tasviriy san'atning jonkuyar vakillari bilan uchrashib, suhbatlashish Temur Sa'dullayev zimmasiga o'ta mas'uliyatli vazifalarni yukladi. Yosh rassomdagi intilish, qiziqish va iste'dodni ko'rgan Hamid Sulaymonov unga otalarcha g'amxo'rlik qilib, talabalik paytidayoq adabiyot muzeyiga rassom sifatida ishga qabul qildi. Hamid Sulaymonov bu yosh rassom ishlagan rasmlarni ko'zdan kechirib, uning shakllanishiga o'z vaqtida katta imkoniyat yaratgan edi.

Alisher Navoiy asarlariga bo'lgan qiziqish muzeyga ishga kelganidan so'ng rassomda yanada kuchaydi. Natijada asta-sekin musavvirning rang-barang, mushohadaga undaydigan portretlari yuzaga keldi. Uning «Alisher Navoiy va Kamoliddin Behzod» nomli asari e'tiborga molikdir.

Rassom tabiat bag'rida xuddi shu tabiatdek beg'ubor va pok ijod vakillari obrazini tasvirlashga muvaffaq bo'lgan. Temur Sa'dullayev iste'dodining yuzaga chiqishida va san'atkor sifatida shakllanishida, shubhasiz, otaxon ustozlar Chingiz Ahmarov va Hamid Sulaymonovlarning xizmatlari kattadir. Bu insonlarning ishonchini oqlash rassomga juda katta mas'uliyat yukladi.

Shuning uchun ham o'z ustida yanada jiddiyroq ishlar ekan, san'atning nozik va mashaqqatli yo'lini cho'chimasdan bosib o'tishga erishdi. Bu muvaffaqiyatlar 70- yillardagi asarlaridayoq yaqqol ko'zga

tashlangan edi. Ayniqsa, ko'pchilik tomoshabinlar e'tiborini qozongan «Navro'zda qizlar bazmi», «Qiz portreti», «Omon Matjon», «Navoiy va Behzod», «Xosiyat Bobomurodova», «Solih Mutallibov» kabi asarlarini misol keltirish mumkin. Adabiyot va tasviriy san'atning bir-biri bilan chambarchas bog'liqligi rassom ijodining bosh mavzusidir. Temur Sa'dullayev ijodiy faoliyati davomida bu an'anaga sodiq bo'lib kelmoqda.

Saksoninchi yillarga kelib, rassom portret janri borasida yanada sermahsul ijod qildi. U bir qator shoir va adiblarning obrazlarini muvaffaqiyatli tasvirlab berishga erisha oldi. Atoqli olim Hamid Sulaymonov portretini yaratish bilan rassom otaxon ustozga bo'lgan samimiy muhabbat va hurmatini ifodaladi. Rassomning bir qator devoriy suratlari ham e'tiborga molikdir. Bu o'rinda «Afshonada», «Alpomish va Barchinoy», «Behzod» kabi asarlarini sanab o'tish mumkin.

Temur Sa'dullayev doimiy ravishda ko'plab kitoblarga badiiy bezak berish bilan birga, miniatura san'atidagi an'analarni yaxshi o'zlashtirganligi bilan ajralib turadi. U miniatura an'analarni tasviriy san'atning zamonaviy yutuqlari bilan uyg'unlashtirgan, o'z ovozigga ega bo'lgan xalqchil rassomdir.

1990-yillar rangtasvir san'ati rivojiga O'zbekistonda faol ijod qilgan **A. Aliqulov, A. Agaxyan, B. Olimxonov, Sh. Bahriddinov** kabi ijodkorlar o'zlarining ijodiy g'oyalari bilan ta'sir ko'rsatdilar. Bu nafaqat kompozitsiyaning plastik yechimida, balki devoriy suratlarni ishlashda intererning fazoviy makonini kompozitsiyaga mos ravishda mahorat bilan uyg'unlashtirishda ko'zga tashlanadi.

Kompozitsiyalar personajlari, ularning uslubiy ishlanishi, rang va plastik yechimlari B. Jalolovning Qo'qon teatri va «Turkiston» saroyi intererlarida ishlangan «Umar Hayyom tushlari» devoriy suratlari estetikasiga juda yaqin. A. Aliqulov va u bilan hamkorlikdagi mualliflarning keyingi ishlarida ularni o'z plastik tillarini topishga uringanliklari natijasida birmuncha boshqacharoq uslubda ishlanganligi ma'lum. Rassomlar Toshkent Yosh tomoshabinlar teatrining intereri uchun ishlangan «Jahon xalqlari ertaklari» mavzusidagi devoriy suratda yorqin yassi-bezakdorlik tarzida mashhur ertaklar qahramonlari dunyosini gavdalan tiradi. Rassomlar intererning ma'lum me'moriy qismlaridan shunchalar muvaffaqiyatli va unumli foydalanishganki, kirish eshiklari, shuningdek, devorning yassi qismlari kompozitsiyaning mazmuni va plastik jihatlari bilan oqilona uyg'unlashtirilgan. Devoriy rangtasvirning kompozitsiya va rangdagi yechimi yuksak mahorat bilan

bajarilgan bo'lib, interer dizayn yechimining muvaffaqiyatli topilgani devoriy asarni tushunib yetishga xalal bermaydi.



A. Aliqulov. O'zbekistonning sporti.

A. Aliqulov boschiligidagi ijodiy guruh tomonidan Toshkentdagi «Olimpiya shon-shuhrati muzeyi» intererining devoriy surati yechimi o'ziga xos, ya'ni dinamik tarzda yechilgan. Ikki rejali kompozitsiyaning monoxrom siluetidagi antik atletlarga qarama-qarshi holatda sharq polvonlari kurashchilari, kamondozlari va chavandozlari qiyofalari tasvirlangan.

Alisher Aliqulov guruhining O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi uchun ishlangan ishlaridan biri «Xalq qo'zg'olonlari va jadidchilik harakati» devoriy surati fuqarolik va vatanparvarlik tuyg'usi bilan sug'orilgan. Devoriy surat tili keng qamrovli va serma'no bo'lib, unda qarama-qarshi ranglarni uyg'unlashtirish orqali o'sha davrlar muhiti beriladi. Bu ish mavzu va uslubiy jihatdan rangtasvir asariga yaqinligi bilan avvalgi devoriy suratlardan ajralib turadi.

O'zbekistonning ko'hna shaharlari tarixiy obidalari mavzusida ishlangan suratlar sifatida A. Ganning Toshkentdagi «Turkiston» saroyi intereriga ishlagan suratlarini, Yu. Chernishovning Urganchdagi «Jayhun» mehmonxonasi, shuningdek, O. Xabibulning Milliy matbuot-markazi, Baynalmilal madaniyat markazi hamda Uchtepa tumani banki binosi intereriga ishlangan devoriy kompozitsiyalarini sanab o'tish joizdir.

1990-yillar oxirida tasviriy san'atdagi o'ziga xoslik rassomlarning san'atning bir-biriga yaqin janrlariga murojaatlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu vaqtda ko'plab rangtasvirchi rassomlar o'zlarining ijodiy



A. Aliqulov. Tarixiy davri almashtirishi.

qobiliyatlarini mahobatli devoriy suratlarda sinab koʻrdilar. Shu jihatdan samarqandlik rassom **A. Isayev** ijodi eʼtiborga molikdir. 1990-yillar oxirida u tempera texnikasida qator devoriy suratlar yaratdi. 1998-yilda Samarqand Davlat chet tillar institutida «**Buyuk ipak yoʻli**» nomli yirik kompozitsiya intererini yaratdi. Devoriy surat deyarli binoning butun vestibulini egallaydi, uning markaziy qismi Samarqandga bagʻishlanadi, yon tomonlarida Buyuk ipak yoʻli boʻylab joylashgan Hindiston, Xitoy, Misr, Italiya kabi mamlakatlarga bagʻishlangan sahnaviylik oʻz ifodasini topgan. Devoriy surat cheklangan tarzdgagi och-sariq va havorang tuslardan foydalanib amalga oshirilgan. Taxminan xuddi shunday rang-plastik uslubda Samarqand qishloq xoʻjaligi instituti intereriga 1999–2000-yillarda «Ona zamin saxovati» asari yaratildi.

A. Isayevning barcha ishlari, asosan, och-yashil, sariq ranglar gammasiga yoʻgʻrilgan va tasvirning yassi tarzini ifoda etib, musavvir alohida hollardagina zaruriy tasvir muhitini yarata oladi.

Samarqandlik rangtasvirchilar **E. Muhammadiyev va N. Sultonovlarning** 2000–2001-yillarda A. Navoiy nomidagi Samarqand Davlat universiteti intererida ishlangan «**Maʼnaviyat boʻstoni**» nomli yirik hajmli devoriy kompozitsiyasi ham shu uslubda yaratilgan. Beshta alohida kompozitsiyadan iborat bu devoriy surat qadimgi davrdan to hozirgi kungacha boʻlgan Oʻzbekiston madaniyati tarixiga bagʻishlanadi. Ish mahorat bilan bajarilgan, kompozitsiyasining yechimi vertikal maromda, toʻyimgan ranglar gammasida muhim hissiy kayfiyatni hosil qiladi.



N. Sultonov. Avtportret.

1980–1990-yillar oralig'ida Sharq miniatyurasi an'analari tasviriy san'atning turli ko'rinishlarida, jumladan, mahobatli devoriy suratlarda faol tarzda qayta tiklandi. Bu jarayon dastlab 1947-yil Toshkentdagi A. Navoiy nomidagi opera va balet teatri intererini devoriy miniatyura suratlari bilan bezagan rassom Ch. Ahmarov ijodida ko'ringan edi. 1970–1980-yillar oxiriga kelib, «Usto» xalq ustalari birlashmasining ijodiy laboratoriyasi faoliyati tashabbusi bilan Ch. Ahmarov rahbarligida hamda N. Xolmatov va Sh. Muhammadjonovlar ishtirokida miniatyura an'analari qayta tiklash yangidan avj oldi. Lekin

laboratoriya miniatyura rangtasvirini, asosan, amaliy san'at buyumlarida qayta tiklashni yo'lga qo'ydi. Keyinroq, rangtasvir va mahobatli rangtasvir asarlarini miniatyura uslubida yaratishga urinishlar yuzaga kela boshladi. Birinchi marotaba 1980-yillar oxiriga kelib, miniatyura san'ati uslubida yirik mahobatli devoriy suratlar yaratishni «Sanoyi nafis» guruhining barcha a'zolari – T. Boltayev, X. Nazirov, F. Kamolov va S. Qoraboyevlar lokli miniatyurada boshlaganlar.

XX asr o'zbek me'morchiligining o'ziga xos betakror namunalaridan biri, shubhasiz, Temuriylar tarixi Davlat muzeyi hisoblanadi. Sohibquron Amir Temurning 660 yillik to'yi munosabati bilan Prezidentimizning taklif va tashabbusiga binoan qisqa davrda bunyod bo'lgan muzey bugungi kunda yurtimiz hamda dunyoning turli mamlakatlaridan kelayotgan mehmonlarning gavjum ziyoratgohiga aylandi va madaniy merosimizga ko'rk bo'lib qo'shildi.

Muzeyga kirishingiz bilan ro'paradagi ulkan devorga ishlangan mahobatli suratga ko'zingiz tushadi. Ushbu mahobatli surat «**Buyuk sohibqiron – buyuk bunyodkor**» deb nomlangan. Asar uch qismdan iborat bo'lib, «Tug'ilish», «Yuksalish», «Faxrlanish» deb ataladi. Uning umumiy maydoni 200 kvadrat metrni tashkil qiladi. Asar ijodkorlari «Sanoyi nafis» ijodiy guruhining iqtidorli musavvirlari – **Xurshid Nazirov, Toyir Boltaboyev, Sodiq Qoraboyev, Gayrat Ifonifovlar**dir. «Usto» xalq san'ati birlashmasi 1986-yildan mahobatli rassomlik,

miniatyura va lok miniatyurasi bo'yicha samarali faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

«Sanoyi nafis» ijodiy guruhi tomonidan so'nggi o'n yil ichida miniatyura devoriy surat uslubida qator ishlar amalga oshirildi. Moskvadagi «O'zbekiston» restorani, Tojikistondagi «Zumrad» sihatgohining mehmonxonasi, Urganchdagi Marosimlar uyi, Yangi Angren GRESi «Baxt» restorani, Olmaliq shahridagi dam olish hududi va boshqalar shular jumlasidandir.

Tasviriy san'atning eng murakkab va jozibador turlaridan biri – bu grafika san'atidir. Grafika san'atining rivoji so'nggi o'n yil mobaynida turlicha kechdi. 1980–1990-yillar boshida bosma mahsulotlar hajmining kamayib ketishi mashhur grafik-rassomlar **M. Kagarov, Q. Basharov, M. Sodiqov, F. Qambarova, G'. Boymatov**lar ijodiy yo'nalishlarining o'zgarishi, hatto, ularning rangtasvir bilan shug'ullanishlariga olib keldi.

Shunga qaramasdan dastgohlik grafika san'ati rivoji ilgari gi ko'lamda bo'lmasa-da, har holda davom etmoqda. Rassomlar suvbo'yoq, chizmatasvir, linogravyura, ofort texnikasida ishladilar. Ularning ko'pchiligi badiiy ko'rgazmalarda o'z asarlari bilan ishtirok etdilar.

1990-yillar oxiriga kelib, O'zbekiston grafika san'atida sezilarli ijodiy yuksalishlar ro'y berganligi ta'kidlanadi. Badiiy ko'rgazmalar jarayoni, shuningdek, grafik asarlarga nisbatan tomoshabinlarning qiziqishlari bundan dalolat beradi. San'atning bu turini jadal rivojlanishi ko'rgazmalarda tez-tez ishtirok etishlar bilangina emas, rassomlarning grafikaga butunlay boshqacha tarzda yondashishlari bilan ham bog'liqdir. Undan tashqari grafikaning o'ziga xos imkoniyatlari ham bu o'rinda katta ahamiyat kasb etdi, deyish mumkin. Grafika san'ati haqidagi odatdagi tasavvurlarni rad etgan holda butunlay yangi shakl va badiiy uslublar vujudga keldi. Bunga misol qilib M. Kagarov ijodini keltirsak bo'ladi. Rassom so'nggi o'n yil davomida moybo'yoq texnikasida klassik realistik grafikadan uzoqlashib, «monogriniy» texnikasida kollaj yoki applikatsiyani eslatuvchi «Ibodatxonaga yo'l» (1997), «Qayta tirilgan Orol» (1999) kompozitsiyalarini yaratdi. Bu mavhum kompozitsiyalarda grafik chiziqlar emas, balki rangtasvirga xos yondashish ustunlik qiladi.

G'. Boymatov 1990-yillarda suvbo'yoq texnikasida faol va sernahsul ijod qildi. Uning asarlari noan'anaviy suvbo'yoq texnikasida ishlanishi, zaruriy ahamiyatli yangi texnik yechimlarni qidirishga undashi bilan uning asarlari kishi diqqatini jalb qiladi. Bunday asarlar

sirasiga «O'rta Osiyoning qadimgi tangalari» (1997), «Urgutda to'y» (1996), «Ming bir kecha» (1997) kompozitsiyalarini kiritish mumkin.

Taniqli grafik rassom **L. Ibragimov** 90-yillarda grafik va rangtasvir asarlarida o'zbek va uyg'ur folkloridagi epik va lirik obrazli kompozitsiyalar yaratishni davom ettirdi. Afsonalar, termalar, aytishuvlar olami uning tafakkuri va ijodida yanada mustahkamroq o'rin egalladi. Lirik grafik asarlaridagi intilishi tez-tez Osiyo mavzusini ifodalovchi kuchli jarangdor she'riy matnlar bilan uyg'unlashib ketdi. Rassom o'z ijodida birmuncha katta hajmli va tasvir till lo'nda bo'lgan obrazlar timsolini yaratishga intildi. L. Ibragimov asarlaridagi o'ziga xoslik va yetuklik Uzoq Sharq tasviriy san'ati an'analarini mujassam etishda ko'zga tashlanadi. («Osiyo okeani» turkumidagi grafik va rangtasvir kompozitsiyasi, «Bahor», «Kuz» turkumidagi manzara janrli kompozitsiyalari. (1999-y)).



**O'zbekiston Davlat gerbi.
A. Mamajonov.**

Grafika san'ati ustasi **A. Mamajonov** «birinchi ma'lumoti bo'yicha rassom - kulol» o'z xalqi hayoti va qiyofasini yaxshi bilgan holda grafik chizig'i nafis va o'ziga xos kompozitsiyalarni yaratdi. Uning asarlari bizga xalq bayramlari va sayillari, shuningdek, mahalliy yashash tarzi haqida hikoya qiladi. Muntazam ravishda tush bilan peroda ishlagan rassom A. Mamajonov o'z ijodida realistik uslubni qo'llaydi. Mahalliy xalq vakillarining xususiyatlarini ko'rsatish,

hajmlilik, mutanosiblik, naturalistlarga xos ortiqcha unsurlardan cheklanish va hazilga moyillik rassom grafikasiga xosdir. Bu borada u mashhur grafikachi va miniaturachi rassom Telman Muhamedovning an'analarini davom ettirdi. Bunda A. Mamajonovga naqqoshlik sohasida orttirgan tajribalari qo'l keldi. O'z kompozitsiyalarini u o'ng qo'lida qanday ishlasa, chap qo'lida ham qayta ishlov bermagan holatda aynan o'xshatib ishlashga harakat qiladi. Uning ijodidan «Kurash» va «Eski shahardagi bozor» (1998-y.) kompozitsiyalarini alohida eslab o'tish mumkin. Shu bilan birga davlat ramzlarining muallifidir. Har qanday davlatning o'z ramzi bo'ladi. Uning muqaddas timsollari – gerb, bayroq, madhiya hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi taniqli

grafik rassom Anvar Mamajonov tomonidan yaratilgan va 1997-yil 2-iyulda tasdiqlangan.

Respublikamiz gerbining tuzilishi dumaloq shaklga ega. Uning chap tomonida paxtaning ochilgan chanoqlari, o'ng tomonida esa bug'doy boshloqlari O'zbekiston bayrog'i bilan o'ralgan holda tasvirlangan. Gerbning yuqori qismida sakkiz burchak ichida yarim oy va yulduz tasvirlangan. O'rtada tasvirlangan qanotlarini yozib turgan Xumo qushi xalqimizning tinchlik, totuvlik, farovonlik, baxt-saodatga intilish yo'lidagi orzu umidlarini ifodalaydi.

Tasviriy san'atning ramzilar bilan shug'ullanuvchi sohasi mavjud, ular rangtasvir, grafika, dizayn san'atini o'zida mujassam etgan holda ramziy belgilarni tasvirlaydi.

Ko'pchilikka mashhur avtolitografiya va suvbo'yoq ustasi M.Sodiqov oxirgi o'n yillikda avtolitografiya texnikasidan voz kechib, asosan, suvbo'yoq texnikasida Buxoroning eski shahar ko'chalarini ishlaydi. M. Sodiqov bir necha taniqli rassomlar bilan Oqtosh tog'larida ijodiy safarda bo'lib, ushbu jarayonda ishlagan grafik kompozitsiyalarini hisobot ko'rgazmasida namoyish etdi.

M. Sodiqov suvbo'yoq va pastel kabi texnik vositalardan foydalanib, tuzilishi juda go'zal va maftunkor kompozitsiyalar yaratdi. Ular sirasiga «Tog' manzarasi» (2001-y.) asari kiradi.

Taniqli grafikachi rassomlar M. Kagarov, V. Apuxtin, M. Sodiqov, E. Ishoqov, I. Vasileva va ularning yosh hamkasblari L. Tiora, L. Zufari, T. Ayupov, O. Nikolayeva, Yu. Alagirlar ishtirokida 1998-yili Toshkent shahrida o'tkazilgan grafika va haykaltaroshlik san'ati ko'rgazmasi grafika janrining rivoji uchun muhim voqea bo'lib qoldi. Ushbu ko'rgazma tashkilotchilarining asosiy maqsadlari iqtidorli yoshlar ishlarini tomoshabinlar hukmiga havola etish edi.

Linogravyura, ksilografiya, ofort singari grafikaning aniq turlarida 1990-yillar oxirida vujudga kelgan grafik asarlar avvalgi yaratilganlaridan keskin farqlanadi. Bularning hammasini grafika san'atiga an'anaviy yondashish mahsuli deb qarash mumkin, biroq rassomlar an'anaviy grafika imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda realistik yo'ndashishga tayanadilar.

90-yillarda ofort va suvbo'yoq texnikasida ajoyib asarlar yaratgan **D. Mirsalimov** asta-sekin moybo'yoq texnikasiga o'tdi va uni muvaffaqiyatli o'zlashtirdi.

1999-yil Baynalmilal markaz saroyida **A. Ligayning** shaxsiy ko'rgazmasi bo'lib, unda musavvirning suvbo'yoqda ishiagan qator

ishlari namoyish etildi. Suvbo‘yoq texnikasida manzara turkumlari yaratishda A. Ligay Sharq rangtasviri uchun an’anaviy bo‘lgan nafis mo‘yqalamdan foydalanib, O‘rta Osiyo tabiati nafosati va ruhini chuqur ifodalash bilan o‘z mahoratini namoyish etdi.

1990-yillar boshlarida ko‘pchilik grafikachi rassomlar dastgohli rangtasvirda ijod qilgan bo‘lsalar, 2000-yilga kelib grafika texnikasida yaratilgan asarlari bilan turli ko‘rgazmalarda ishtirok eta boshladilar. Shu o‘rinda B. Jalolov va S. Alibekovning 2001-yil aprel oyida «Ilhom» teatrida bo‘lib o‘tgan grafik asarlari ko‘rgazmasini eslab o‘tish mumkin.

B. Jalolov bu ko‘rgazmada chizmatasvir ustasi ekanligini yana bir bor namoyish etish bilan ko‘pchilikni hayratga solgan bo‘lsa, S. Alibekov o‘zining betakror fantaziyalari bilan rangli qalam imkoniyatlarini namoyish qildi.

Shu bilan birga, respublika badiiy kolleji va K. Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutini bitirgan yosh rassomlar ijodida realistik uslubning saqlanib qolganligi kuzatiladi.

1991–2001-yillar O‘zbekiston dastgohli grafika san’ati rivoji umumra’anaviy vosita sifatida professional rassomlar singari yosh rassomlar ijodida tomoshabinlar estetik qarashlarini ifodalashga intilishning ortganida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng yurtimizning qadimiy tarixini yorituvchi kitob va risolalar ko‘plab nashr etila boshlandi. Ularda O‘rta Osiyoning buyuk shaxslari – Ami Temur, Ahmad Yassaviy, Xo‘ja Ahror, al-Buxoriy, al-Farg‘oniy, Cho‘lpon, Fitrat kabilar haqida ma’lumot berildi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda ko‘plab nashriyotlar faoliyat ko‘rsatmoqda. Badiiy adabiyotlarning asosiy qismi G‘. G‘ulom nomidagi NMIU, «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, Cho‘lpon nomidagi NMIUda chop etilmoqda, desak o‘rinli bo‘ladi. Ushbu nashriyotlarda zamondosh mualliflar bilan bir qatorda ajdodlarimiz, shuningdek, xorijiy mualliflar qalamiga mansub asarlar ham chop etilmoqda.

Hozirgi paytda «O‘qituvchi» NMIUda kompyuter grafikasiga ixtisoslashgan bir guruh yoshlar ishlamoqda. Ular nashriyot kitoblarining muqova va boshqa unsurlarini bezash bilan shug‘ullanmoqdalar. Sh. Mirfayozov, T. Qanoatov, Sh. Xo‘jayev kabi rassomlar kompyuter grafikasini fotomontaj bilan muvofiqlashtirmoqdalar. Sh. Mirfayozov yaratgan muqovalar yorqinligi va hayotiyiligi bilan ajralib turadi. Ichki illyustratsiyalarini u qo‘lda realistik uslubda bajara-

di. Shu nashriyotda ishlagan yana bir rassom E. Nurmonovning grafik ishlari kompozitsiyasining jiddiyligi, simmetrikligi hamda ranglarning vazminligi bilan ajralib turadi. U bajargan muqova va illyustratsiyalarda realistik uslub yaqqol seziladi.

Zamonaviy kitob grafika san'atida A. Bobrov, A. Mamajonov, M. Karpuzas, Yu. Gabzalilov, A. Kiva, A. Ponomaryov, O. Vasixonov, G. Miller, U. Solihov, Sh. Odilov kabi rassomlar ham faol ijod qilib kelmoqdalar.

Xulosa qilib aytganda, 90-yillar oxirida poligrafik kitob chiqarish texnikasini yangilash natijasida kitobning poligrafik sifati o'sib bormoqda. Sohaga kirib kelayotgan iqtidorli yosh rassomlar tajribali ustozlar bilan birga kitob grafikasi san'atini rivojlantirishni muvaffaqiyat bilan davom ettirmoqdalar.

V bob. AMALIY MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH MAZMUNI

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar dasturga muvofiq mavzuli-tasvirli rejalar, dars turlariga ishlanmalar tuzadi, ularga didaktik materiallar tayyorlaydi hamda badiiy bezak san'ati va amaliy grafik ishlar, haykaltaroshlik bilan shug'ullanish nazarda tutilgan.

Amaliy mashg'ulotlarning taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Boshlang'ich ta'lim o'quv dasturini o'rganish va rejalashtirish.

Butun o'quv yiliga mo'ljallangan tasviriy san'at dasturiga mavzuli tasvirli jadval tuzish. O'quv yilining har bir choragiga dars mavzularini metodik jihatdan to'g'ri taqsimot qilishni o'rganish.

– Dasturni o'rganib chiqish va rejalashtirish. Mavzularga oid ko'rsatmalar tayyorlash.

Metodik ko'rsatma.

1. Mashg'ulot mavzularini taqvimiy tasvirli rejalashtirilishi.

Namunaviy dastur asosida tasviriy san'at darslarini rejalashtirish – eng murakkab ishlardan hisoblanib, u mavzularni tasvirli rejalashtirish dasturi deb nomlanadi.

Ta'lim-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish oldidan dasturni chuqur o'rganib chiqish zarur. Dastur asosiy bajariladigan topshiriqlarni va mashqlarni ro'yxatini beradi, ta'limni o'qitish mazmunini, yil davomidagi tartib va ketma-ketligini har bir topshiriqlarga ajratilgan soat hajmini va bajarish materiallarini ko'rsatadi.

Sinfda har bir o'quvchi o'zlashtirish lozim bo'lgan bilim va malakalarni, o'quv choraklari va haftalarga taqsimlanishi kerak. Dastur ta'limni o'quv vazifalarining murakkablashuvini metodik ketma-ketlikda ochib bersa ham, ammo o'qitishning birmuncha xususiy savollariga (muammolariga) taalluqli emas. Ma'lumki, pedagogik jarayon – ijodiy dars san'ati. Shuning uchun ham dastur ma'lum bir yo'nalishga umumiy harakatdir. Dasturda ta'limning asosiy yo'nalishi berilgan xolos, uni amalga oshirilishi, birmuncha xususiy savollarning

javobini yechilishi – o‘quv jarayonini tashkil qiluvchi o‘qituvchining o‘ziga bog‘liq.

Ayrim bo‘lg‘usi o‘qituvchi so‘rashi mumkin, bajarishga imkoniyat bo‘lmaydigan tavsiyanomalar berilgan bo‘lsa dasturni qanday qilib bajarish mumkin. Masalan, tasviriy san‘at asarlari haqida suhbat o‘tkazish darslarida ma‘lum asarlar reproduksiyalari tavsiya qilinadi, lekin ularni har doim ham kitob do‘konlaridan xarid qila olmaysiz. Yoki qalamtasvir bo‘limida natyurmort ma‘lum bir narsalardan tuzilgan bo‘lishi mumkin, lekin qishloq joylarda ular bo‘lmasligi mumkin.

O‘quv dasturlari aynan asliga muvofiq to‘g‘ridan - to‘g‘ri bajarilishini talab qilmayapti. U faqat qanday rassomlar bilan o‘quvchilarni tanishtirish va qaysi asarlari musavvirlarni ijodiy tomonlarini yaqqoliroq ko‘rsatib berayapti. Yetarlicha tushunarli, agarda o‘qituvchi fondida ko‘rsatilgan u yoki bu musavvirni asar reproduksiyasi bo‘lmasa, unda u boshqa rassom asarlari bilan almashtirilishi mumkin. Natyurmortga kerakli bo‘lgan buyumlar ham yo‘q bo‘lsa, narsalarning shaklini murakkablik darajasini hisobga olgan holda shakli shunga o‘xshash buyumlar bilan o‘zgartirish inumkin.

Maktabda shaxsiy ish rejasini tuzishda o‘qituvchi har bir sinf uchun yillik ish rejasini ishlab chiqishi zarur. Bunday yillik ish rejasini yaxshisi tasvirli bajarish maqsadga muvofiqdir. Ular ishlarni barcha kompleksini yaqqol tasvirleydi. Maktabda chorakni so‘nggi darslarini suhbat yoki narsam o‘ziga qarab rasm ishlash bilan tugallaydi. Bunday tuzilgan rejalashtirishni muvaffaqiyatli deb hisobiab bo‘lmaydi. Agarda rejalashtirishda chorakni so‘nggi darsida mavzu asosida yoki bezakli rasm ishlash belgilangan bo‘lsa, bolalarga shu ishni ta‘til vaqtida bayram bilan bog‘lab davom ettirish imkoniyatini yaratib bergan bo‘lamiz.

Mavzularni - tasvirli rejalashtirish dasturi, yutuq va kamchiliklarni yaqqol ko‘rsatib turadi. Bundan tashqari, tasvirli rejada o‘quv qo‘yilmalarni (postanovkalarni) xarakterlarini va ularni metodik yo‘nalishlarini aks ettirish yengil bo‘ladi.

Eng qulay yillik ish rejasi uni jadval tarzida tuzish, chunki uning kataklarida o‘quv materiallari chorak bo‘yicha va alohida darslar bo‘yicha taqsimlanadi. Har bir katakda o‘quv ishlarni turlari, darsning mavzusi va mazmuni yaqqol ko‘rgazmali tasvirlanadi.

Tasvirli – mavzuli reja dasturi o‘ziga xos jadval sifatida to‘rtta qatordan iborat (o‘quv chorakning soniga qarab) bo‘lib, ularni har bir chorakdagi o‘tkaziladigan darslarning soniga qarab yana bir necha

qatorlarga bo'linadi. Bu qatorlar esa o'z navbatida kataklarga bo'linadi. Bular mavzular asosida tasvirlar bilan to'ldiriladi.

1 - jadval

Chorak yoki semestr	t.r	dars-lar	dars turlari	darsning mavzusi	darsning maqsadi	Qo'llanish materiali	soat jami
1 chorak	1	1-2	mavzu asosida rasm ishlash	«Kuz»	Kuz manzarasini kompozitsiyasini tuzish, tabiatni sevish	qalam, akvarel guash	2 soat

Demak, birinchi qator sarlavhasida chorak belgisi, tartib raqami, dars soni, dars turlarining nomi, darsning mavzusi, maqsadlari va vazifalari, berilgan mavzu qanday materiallarda bajarilishi va unga necha soat ajratilgani ko'rsatiladi.

Ushbu jadval to'rtta qatordan iborat bo'ladi, lekin kataklari har bir choraqda bir xil emas, albatta, o'quv chorakni haftasiga bog'liqdir.

Masalan, 1-chorak 1.09 boshlanadi 4.11 tugallanadi - 8-9 hafta

2-chorak 10.11 - 30.12 - 7-8 hafta

3-chorak 12.01 - 23.03 - 10-11 hafta

4-chorak 1.04 - 25.05 - 7-8 hafta

Shunday qilib, maktabda darsning soni jihatidan eng katta va cho'zilgan chorak uchinchi chorakdir. Tasvirlangan kataklarda ham darslarning raqami va rangli belgilar orqali dars turlarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir, masalan,

2-jadval

1	2-3	4	5	6-7	8
1	2	3	4	5	6

1. Qizil rang – mavzu asosida kompozitsiya; 2. yashil rang – bezakli rasm ishlash; 3. Sariq rang – narsaning o'ziga qarab rasm ishlash; 4. Havo ko'k – haykaltaroshlik; 5. Jigarrang – suhbat (idrok).

Vazifani bajarishda o'quv rejasini tuzish bilan bir vaqtda didaktik va metodik materiallar yig'ib boriladi. Bunga esa metodik va maxsus adabiyotlar, ulardan sitata shaklida ko'chirmalar, annotatsiyalar, bezakli

materiallar, har xil metodik qurollar (chizmalar, jadvallar), xalq ijodiy namunalari kiradi.

Qanday shaklda mavzuli-tasvirli rejani bajarilishi talabalar bilan amaliy mashg'ulot o'tkazuvchi kafedra va uning o'qituvchilari hal qiladi.

Amaliy mashg'ulotlar vaqtida o'qituvchi bilan birgalikda bir fikrga kelishilgandan so'ng talabalar tomonidan bajarilgan taxminiy varianti tasdiqlanadi va tamomila belgilagan qog'oz formatida bajariladi.

2. Dars mashg'ulot ishlanmasini tuzilishi

Tasviriy san'atdan dars mashg'ulot ishlanmalari psixologik-pedagogik, ilmiy-metodik o'quv adabiyotlarni chuqur o'rganish asosida va shu bilan birga o'rta maktabning tasviriy san'at dasturlari doirasida va o'quv qo'llanmalari orqali bajariladi.

Dars mashg'ulot ishlanmasida quyidagilar bo'lishi shart:

– darsning turi; – darsning mavzusi; – darsning tipi; – darsning ta'limiy-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari; – darsning tuzilishi (qurilishi);

– og'zaki takrorlash uchun savollar; – o'quv materialini ketma-ketlik bayoni va uning hajmi; – darsning tushuntirish va mustahkamlashga ajratilgan vaqti;

– ijodiy xarakterdagi mashqlarni sifati va bosqichlari; – mustaqil ishlarni mazmuni va bajarish usullari; – texnika vositasi va o'quv ko'rgazmali qurollardan foydalanishi.

Konspekt matnini so'ngida darsga tayyorgarlik ko'rishda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ko'rsatiladi (kitobning muallifi, nomi, nashr etilgan yili, nashriyoti va hajmi).

Dars mashg'ulot ishlanmasi illyustratsiyali bo'lishi mumkin. Unda sinf taxtasidan, sxemalardan, bosqichma-bosqich bajarilgan tasvirlardan, o'quv-buyumlar namunalaridan, o'quvchilarni ijodiy ishlaridan va boshqalardan foydalanish nazarda tutiladi.

Dars mashg'ulot ishlanmasini yozishda iloji boricha qog'oz varog'ini o'ng tomonida ko'proq joy qoldirish maqsadga muvofiqdir. Chunki dars muhokamasi vaqtida bildirilgan mulohazalar va takliflar bilan to'ldirishlar kiritish mumkin.

Dars mashg'ulot ishlanmasi tushunarli yozuv bilan yoziladi yoki yozuv mashinkasida bajariladi. Muqova va titul varaqasi kafedra tomonidan tasdiqlangan sxema bo'yicha jihozlanadi.

Har bir talaba o'z mutaxassisligi bo'yicha har bir darsni yuqori darajada o'gishi uchun dars rejasi va uning ishlanmasini yozishi shart. Shuning uchun talabalarga yordam (eslatma) tariqasida darsning mashg'ulot ishlanmasi namunasini keltiramiz.

1. Dars (mashg'ulot)ning turi:.....

Masalan, a) Borliqni idrok etish va san'atni idrok etish; b) Naturaga qarab tasvirlash: naturadan rasm ishlash va naturadan haykal ishlash; d) Kompozitsiya: rangtasvir kompozitsiyasi, dekorativ kompozitsiya va haykaltaroshlik kompozitsiyasi.

2. Darsning mavzusi:.....

3. Darsning maqsadi:.....

Masalan, a) o'quvchilarga.....haqida (umumiy, to'liq, qisman) ma'lumot berish;

b) berilgan bilimlar asosida o'quvchilarda badiiy estetik dunyoqarashni shakllantirish;

d) o'quvchilarda turli ko'nikma va malakalarni hosil qilish;

e) yoshlarni har tomonlama rivojlantirish, ayniqsa, mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish;

f) o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirish, ularning estetik hislarini rivojlantirish;

g) yosh avlodni kelgusida kasb tanlashga to'g'ri yo'llash va hokazo.

4. Dars o'tishning metodlari va usullari. Perspektiv metodlari:

a) og'zaki (bayon qilish, tushuntirish, ma'ruza, suhbat);

b) ko'rgazmali (illyustratsiya, namoyon qilish);

d) amaliy (tajribalar, mashqlar va h.k.). Mantiqiy (logik) metodlar:

a) induktiv - aniq faktlardan umumiylikka;

b) deduktiv - umumiy tushunchalardan faktlarga;

d) analitik - faktlar asosida mavzuni chuqur o'rganish va h.k.

Gnostik (ilmiy bilish) metodlari:

a) reproduktiv (gapirib berish, namunaga qarab mashq qilish, instruksiya bo'yicha laboratoriya ishlari).

b) qisman izlanish (evristik metod: evristik suhbat, disput va h.k.).

d) problemali o'qitish va hokazo.

Ta'limni boshqarish metodlari:

a) o'qituvchi rahbarligidagi o'quv ishlari;

b) o'quvchilarning mustaqil ishlari (kitob bilan ishlash, ijodiy ishlar, laboratoriya ishlari va h.k.).

O'qishga qiziqishlarini rag'batlantirish metodlari:

- a) bilishga doir o'yinlar;
- b) ta'limiy munozaralar;
- d) qiziqarli vaziyatlar yaratish, yangiliklarni bilishga qiziqtirish va

h.k.;

Og'zaki tekshirish metodlari:

- a) individual so'rash;
- b) frontal so'rash;
- d) og'zaki sinov.

Ma'lumki, o'qitishning har bir metodi o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyatida sodir bo'ladigan ko'pgina usullardan iborat bo'ladi.

Yuqorida ko'rsatilgan dars berish metodlari va usullaridan qaysi birini dars berish davomida (darsning qaysi bosqichida yoki vaziyatda) ishlatilishi lozim deb helgilanganligi haqida shu yerda yoki darsning bosqichlari yozilgan joyida aniq ko'rsatilishi kerak.

5. Darsning jihozlanishi:

O'qituvchi uchun:

- a).....naturasi yoki maketi;
- b).....bosqich rasmlari;

Ko'rish qatori: diapozitiv, slayda, rassom asarlarini reproduksiyalari.

Adabiy qator: yozuvchilar she'rlaridan parchalar.

Musiqqa qatori: qo'shiqlar, kuylar.....

O'quvchilar uchun: albom yoki format qog'ozi, qalam, o'chirg'ich, bo'yoqlar (akvarel, guash), suv idish, mo'yqalamlar, latta va hokazolar.

Sinf taxtasidan foydalanish: o'ng tomonda – tasvir chizilgan plakatlar; o'rtasida – videoproektor ko'rsatish uchun ekran; chap tomonda – material bayon qilishda bo'r yordamida tushuntirish uchun bo'sh qoldiriladi.

6. Darsning tuzilishi:

- 1. Tashkiliy qism -1-2 daqiqa,
- 2. O'tgan mavzuni so'rash - 7-10 daqiqa,
- 3. Yangi mavzuni bayoni - 13-15 daqiqa,
- 4. Mustaqil ishlar - 22-25 daqiqa,
- 5. Dars yakuni va uyga vazifa berish - 3-4 daqiqa.

7. Darsning borishi.

- 1. Tashkiliy qism - 1-2 daqiqa.

Sinfga kirish, salomlashish, ma'lum intizomni vujudga keltirish, davomatni aniqlash va jurnalga belgilash.

2. O'quvchilardan o'tgan mavzuni so'rash - 7- 10 daqiqa.

Savol avval o'rta tashlanadi, keyin qo'lini ko'targan o'quvchilardan bittasini javob berishga sinf taxtasiga chiqariladi.

1 savol.....o'quvchi A. Siz javob beringchi.....

2 savol.....o'quvchi V. Siz aytingchi... ..

Z savol.....va hokazo.

3. O'tgan mavzuni yaqunlash va yangi mavzuga bog'lash - 3 daqiqa.

a) o'tgan mavzuni yakunlash;

b) o'tilgan mavzuni yangi mavzuga bog'lash;

d) yangi darsning mavzusi: «» doskaga yozib qo'yiladi va bu darsning maqsad va vazifalari bayon etiladi.

4. Yangi mavzu materialini o'quvchilarga bayon qilish - 12-15 daqiqa.

- Diqqat qiling.....aytingchi?....

(1 - savol, 2 - savol, 3 - savol va hokazo.).

.....turlicha javob.

- to'g'ri lekin.....

- nima uchun?

- ha, endi e'tibor bering.....materialni tushuntirish davomida yangi terminlar doskaga yozib qo'yiladi, vaqti-vaqti bilan pauza qilinadi.

- barcha o'quvchilarning faolligini oshirish maqsadida muammoli vaziyat yaratiladi, ularning bilib olishi zarur bo'lgan vazifa aytiladi,

- qani kim aytib beradi?.....

- turlicha javoblar.....

Savollarga javobni ma'lum maqsadga yo'naltirishga harakat qilinadi. Bu vazifani turlicha hal qilish mumkin. Ular orasida quyidagilar eng muhim ahamiyatga egadir: Tushuntirilayotgan materialni sermazmun, yangiliklarga tayangan holda ifoda etish, amaliy hayot bilan bog'lash, o'quvchilarning bilim va tajribalariga e'tiboran munozarali masalalarni obrazli hamda jonli ifodalash, ularni faol fikr yuritishga undaydigan, izlanishga majbur etadigan vaziyatlar yaratish va hokazo.

Shunday qilib, yangi material mazmunini oldindan, tayyorlangan konspekt tarzida ko'rgazmali qurollar bilan birgalikda bayon etiladi. Yangi mavzu o'quvchilarga tushunarli bo'lishi uchun ilg'or nazariyalarga, oldindan belgilangan usul va metodlarga asoslangan

holda amalga oshiriladi. Yangi mavzu konspekti to'la yoki tezis tariqasida beriladi.

5. O'quvchilarning amaliy mashg'uloti – 22 - 25 daqiq.

O'quvchilar ijodiy mustaqil ishlaydilar.

O'qituvchi mashg'ulot mobaynida oralab yurib o'quvchilarga individual yondashadi. Agarda yangi mavzuni to'liq tushunmagan yoki e'tiborsiz tinglagan o'quvchilar bo'lsa, savollar o'rtaga tashlanadi. O'quvchilarning javobiari qoniqarsiz bo'lsa, a'lochi o'quvchilar yordamga chaqiriladi. Shu bilan birgalikda yangi dars ham mustahkamlab boriladi.

Darsni yakunlashga qadar o'quvchilarning ishlaridan bir nechtasi olib bir-biriga taqqoslanib, tahlil etiladi va baholanadi.

8. Uyg'a vazifa berish – 3 - 4 daqiq.

a) kelgusi yangi darsga tegishli terminlarni adabiyotlardan topib o'qisiz

b)..... mavzuda rasm chizasiz va h.k.

9. Foydalanilgan adabiyotlar:

Masalan: 1. Azimova B.Z. «Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi. T. «O'qituvchi», 1984

2. Darsliklar.....

3. Ayrim nashrlar, ensiklopediya, maqola va h.k.

Albatta, tasviriy san'at darslarini slaydalar, rangli lavhalar, musiqa, ashula, ertak, afsona, rivoyat va xalq naqlari bilan boyitiladi. Natijada darsni mazmunli tashkil qilish imkoniyatlari yuzaga keladi. O'qituvchi nutqida chiroyli so'zlarni topib, qo'llay bilishi, o'rni kelganda milliy o'zbek xalq maqollaridan foydalana bilishi shart. Darsga bunday yondashish, o'quvchilarni xalq amaliy san'ati an'alariga yaqinlashtiradi, kamolot sari yetaklaydi, o'quvchilarning shaxsiy fikrlashlarini takomillashtiradi.

O'qitish metodikasi – bu nima? Ilmmi yoki san'atmi? O'qitish metodikasini nazariyasi – ilmdir, uning ma'lum mazmunlari va tavsiyalarini samaradorligi ilmiy asoslanib isbotlangan. O'qitishning o'zi esa, o'quv-tarbiyaviy jarayonga ta'sir qilib o'ziga jalb qila olish – bu san'atdir. Nazariy va amaliy tomonlarini farqini bilib, metodikaga bir tomonlama qarashlar bo'lishi mumkin emas.

O'qitish san'ati, dars konspektidagi nazariy bilimlarni ta'lim amaliyotida ijodiy foydalanishni talab etadi. Shuning uchun dars konspektini tuzishda asosiy e'tiborni bayon qilish shakliga emas, balkim o'quv materialini mazmunini yoritilishiga qaratilishi lozimdir.

Tajribadan ma'lumki talabalar amaliy mashg'ulotlar, pedagogik amaliyot natijasida o'zlari xilma-xil yangi va o'zgacha, qiziqarli, original ishlash turlarini yaratadilar.

Hozirgi kunda Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari maktabda pedagogik amaliyot mobaynida va tasviriy san'at o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlarda dars ishlanmalarini tuzishda yuqorida ko'rsatilgan ma'lum bir shakldan foydalanishga qaratilgan.

Tasviriy san'at darsining tahlili

Har bir o'quvchining o'tkazgan amaliy mashg'ulot darslari va o'quv-tarbiya tadbirlari guruhda professor-o'qituvchi ishtirokida tahlil va muhokama qilinadi. Bu muhokama va tahlillar umumdidaktik va metodik tomonlari birlashtirib amalga oshiriladi.

Tahlil jarayonida eng muhimi, o'quvchi o'zini o'qituvchi sifatida tasavvur qilib o'z ishini uddasidan qanchalik chiqa olishini to'g'ri baholay bilishidir. Bo'lg'usi kichik mutaxassislar amaliy mashg'ulotlarda tasviriy san'at darslarini o'quvchilar oldida mashq qilinishi, ularning malakali o'sishiga yordam beradi.

O'quvchilar tomonidan o'tilgan tasviriy san'at darsining yoki tarbiyaviy tadbirlarning guruh tahlili, odatda, o'zini-o'zi baholashdan, o'zining hisobotini tahlil qilishdan, darsdagi holati va pedagogik taktini baholashdan boshlanadi. Bunda bo'lajak ijodkor uchun juda zarur bo'lgan sifatlar shakllanadi.

O'tilgan darslarning tahlil qilinishi dars berishdan ham muhimroqdir. Chunki shu tahlildan keyin ular yana nimalar ustida ishlashi kerakligi yoki qanday muvaffaqiyatga erishganligi aniq va ravshan ko'rinadi.

O'tilgan darslarni tahlil etish quyidagilar asosida amalga oshiriladi:

1. Darsning ta'lim-tarbiyaviy va rivojlantirish maqsadlarini aniqligi va ahamiyati;

2. Darsga tayyorgarlik ko'rishda va uni amalga oshirishda o'quvchilarning yosh xususiyatlari hisobga olinishi;

3. Ta'lim-tarbiya vazifalarining dars tuzilishiga mostligi;

4. Darsni bayon etishning ketma-ketligi va mantiqiyiligi, dars berish nutqining talaffuzi, ritmi, ta'sirchanligi.

5. Yangi materialning tanlanganligi va bayon etilishi. Bilimlar hajmi, material mazmuni dasturiga, o'quvchilarning bilim darajasiga mos kelishi va darslik talablariga muvofiqiligi.

6. Bayon qilinayotgan materialning ilmiy va g'oyaviy yo'nalganligi, hayotlilik, tarbiyalovchilik xarakterdaligi.

7. O'quv materiallarni bayon qilishda, didaktik prinsiplarga amal qilinishi, darsning bosqichlari va davomiyligi.

8. O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirilishi, dars bosqichlarida o'quvchilarning diqqat-e'tiborini saqlab turish usullari. Avval o'tgan mavzular bilan bog'liqligini ta'minlanganligi. Mavzuni idrok qilish va anglab olishlari uchun o'quvchilarni ijodiy ishga jalb qilinishi.

9. Dars o'tish metodlarining optimalligi (suhbat, ko'rgazmali, amaliy induktiv va deduktiv, reproduktiv va izlanish, mustaqil ishiash metodlari, ta'limni sifatini nazorat qilish metodlari). Darsni bayon etish tizimi va ketma-ketligi, obrazlilik, tushunarlilik. O'quvchilarning oldiga muammoli savollar qo'yilishi, mantiqiy masalalarning shakllanishi.

10. Dars o'tish mobaynida ta'lim shakllarini optimal birligi (umumsinfl, guruhli, individualli) va individual yondashishni amalga oshirilish.

11. Darsni o'tish vaziyatida turli ko'rgazmali qurollardan, axborot texnologiyalardan, sinf taxtasidan unumli foydalanganligi.

12. Mavzuni mustahkamlashga berilgan ijodiy mustaqil ishlarning yo'nalishlarini optimalligi.

13. O'quvchilarning darsdagi xulqi, darsga bo'lgan munosabati, faollik darajasi, qiziqishi, intizomining ahvoli, intizom buzilishining sabablari.

14. Uy vazifalarining turlari va hajmi, ularni bajarish to'g'risida o'qituvchining metodik ko'rsatmalari, uy vazifalarining mazmunini o'quvchilarning tushunib olishlari, ba'zilarga qo'shimcha (individual) vazifalar berish.

15. O'tilgan darsga umumiy xulosa yasash.

O'quvchilar tomonidan o'tkaziladigan har bir tasviriy san'at darsi guruhdagi o'quvchilar maxsus tayyorlangan blankada tahlil javoblarini to'ldirib borishadi.

Tahlil varag'i

Taxminiy tavsiya jadvali

O'qituvchi(amaliyotchi f.i.sh.) _____

Bosqich ___ guruh ___ Fan _____

Mashg'ulot mavzusi _____

Mashg'ulotda qatnashgan o'quvchilar soni _____ nafar,

Mashg'ulot o'tkazilgan sana ___ oyi ___ yili _____

Maqsadi va vazifalari _____

Mashg'ulotning borishi va qisqacha mazmuni _____

O'qitishning usuli va imkoniyatlari _____

Yangi mavzuni bayon etish usuli va tahlil etishi _____

Savol-javob usullari _____

Uy vazifasining tahlili _____

O'qituvchi ish tajribasiga qo'yilgan baho _____

Mashg'ulotning yutuqlari _____

Mashg'ulotning kamchiliklari _____

Xulosa va takliflar

Tahlil qiluvchi _____

Tasviriy san'at darslarida ko'rgazmalilik va ularni tayyorlash

Mashg'ulotning asosiy maqsadi o'quvchilar tomonidan tuzilgan dars konspektini mavzulariga ko'rgazmali qurollar tayyorlashni metodik jihatdan o'rgatish. Har bir tayyorlangan ko'rgazmali qurol darsning maqsadini to'liq yoritib berishi kerak. Bo'lajak dars mavzuining yoritilishi mobaynida baravar ko'rgazmali qurolning metodik g'oyasini eskizi chizib borilsa, maqsadga muvofiqdir. Dastlabki ko'rgazmali qurol eskizlari metodist o'qituvchi bilan bir fikrga kelib tasdiqlangandan so'ng, belgilangan bir vatman qog'ozi betiga did bilan rangda ishlanadi (bajariladi).

Ko'rgazmali qurol eskizlarini bajarishda o'quvchi quyidagi talablarni e'tiborga olishi shart:

- maktab dasturidagi tasviriy san'at faniga muvofiqligi;
- didaktik prinsip va qoidalari asoslariga rioya qilgan holda ishlash;
- shaxsning garmonik rivojlanish xususiyatlarini faol shakllantirishga yordam berish.

Ko'rgazmali qurolning badiiy bezagi o'z funksional vazifasiga loyiq bo'lishi kerak. Masalan, o'quv jadvali «bosiq» ranglar bilan bajarilishi lozim. Kompozitsion tuzilishning yechimini o'ylab topish ham muhimdir. Har xil ortiqcha bo'lgan tasvirlar bilan to'ldirishning ham hojati yo'q. O'quv quollarining bosh yozuvlari (sarlavhalari) qisqa bo'lishi, uning asosiy g'oyasini aks ettirishi lozim. Ravon o'qiladigan shrift tanlangan bo'lishi kerak. Ko'rgazmali qurolning sarlavhasi undagi tasvirlarga nisbatan joylashtiriladi.

Ko'rgazmali qurol tayyorlashda tush, guash, ko'mir tayoqchasi, sangina, pastel, rangli bo'r, akvarel kabilardan foydalaniladi. Plakatlarda tasvirlarning bosqichlari, suv bo'yoqda ishlash sirlari, perspektiv

qisqarish sirlari va qonunlari, amaliy ishlarning bosqichma-bosqich bajarilish yo'llari ko'rsatiladi.

Ko'rgazmali qurollar tasviriy san'at darslarining barcha turlari (naturaga qarab tasvirlash, kompozitsiya, dizayn, san'atshunoslik asoslari, haykaltaroshlik)da qo'llaniladi.

Tasviriy san'atdan ko'rgazmali qurollar qo'llanish vazifalariga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi. Darslarda ko'pincha bosqichma-bosqich ko'rsatuvchi plakatlar qo'llaniladi. Bunday ko'rgazmali qurollarni bo'lg'usi kichik mutaxassis naturaga qarab tasvirlash, kompozitsiya, dizayn kabi darslariga mo'ljallab tayyorlashlari lozim.

Mavzuli kompozitsiya ishlash darslarida qo'llaniladigan ko'rgazmali qurollari orqali tasvirlash ketma-ketligi bir necha bosqichlarda ko'rsatiladi:

1. Ma'lum mavzu bo'yicha tasvirlanadigan rasmlarning variantlarining tuzilishlari ko'rsatiladi.

2. Kompozitsiyaning asosiy elementlarini tasvirlash.

3. Katta va kichik o'lchamlardagi ko'rinishlarning aniq tuzilishini tasvirlash.

4. Narsalarning yorug' va soyalarini bo'yoq bilan ishlash usullarini ko'rsatish.

5. To'liq tugallangan kompozitsiya.

Mavzuli kompozitsiya ishlash darslaridagi ko'rgazmalilikning yana bir turi – rangtasvir asoslarini tasvirlash orqali ko'rsatilishidir. Jozibali rang-barang bo'yoqlar bilan rasm ishlashni o'quvchilarga og'zaki tushuntirish mutlaqo mumkin emas. Shuning uchun professor-o'qituvchi alohida planshetga tortilgan qog'oz chetida suvbo'yoqlar bilan ishlash usullarini ko'rsatishiari maqsadga muvofiqdir.

San'atshunoslik asoslari darslarida san'at asarlarini katta o'lchamdagi reproduksiyalaridan ko'rgazmali qurol sifatida qo'llaniladi. Oxirgi paytlarda asarlarni katta o'lchamdagi reproduksiyalarining topilishi amri mahol. Bunday holda reproduksiyalarni skaner orqali kompyuter xotirasiga kiritib videoko'zgu orqali kattalashtirib ekranda ko'rsatiladi va asarlarning badiiylik xususiyatlarini tahlil qiladi.

Tasviriy san'at darslarida bunday ko'rgazmali qurollardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi hamda o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda yordam beradi.

Pedagogik rasmlar ishlash

Ko'rgazmali ta'lim didaktik prinsiplarning asosiylaridan biridir. Grafikali ko'rgazmali qurollar, asosan, matematika, adabiyot, tabiatshunoslik, tasviriy san'at darslarida ko'proq foydalaniladi. Bu esa badiiy asarlar reproduksiyalari, fotorasmlar, diafilmlar, diapozitivlar, kitob illyustratsiyalari kabilardir. Shu bilan birgalikda shuni aytish lozimki, o'qituvchi o'z tajribasida sinf taxtasida rasm ishlash yo'llaridan juda ham kam foydalanadi. Aftidan yo o'qituvchilarda bo'r bilan sinf taxtasida rasm ishlash ko'nikmalari yo'q yoki ular pedagogik rasmga yetarli e'tibor qaratmaydilar.

Pedagogik tasvir – bu o'qituvchining sinf taxtasiga, maxsus planshetlarga va o'quvchi rasm daftarining burchak chetiga tasvirlangan rasmlardir.

Ayrim holda grafik ko'rgazmali qurollar pedagogik rasmlarning o'rnini bosolmaydi. Bularni tushunadigan tajribali o'qituvchilar og'zaki tushuntirish vaqtida namoyish etilgan ko'rgazmali qurollar kerakli bo'lgan tasavvur ko'rinishlarini hosil qilmagandan so'ng pedagogik rasmlardan keng foydalanishadi. Pedagogik tasvirlar tayyor jadvallar, rasmlardan o'zining bir qator afzalliklari bilan farq qiladi. Bu afzailik shundan iboratki, o'qituvchi o'z hikoyasini tasvir orqali ko'rsatishda, o'quvchilarning ko'z o'ngida tasvirni paydo bo'lishi, uning to'ldirilishi va tugallanish ko'rinishlarini dinamik jarayoni(holati)ni yaqqol ko'rsatish imkoniga ega bo'ladi.

Tasvir mustaqil ravishda yoki illyustratsiyalarni to'ldiruvchi bo'lib, ularning bo'lak qismlarini izohlab borishi mumkin. Oddiy, aniq tasvirlar u yoki bu voqeani, narsalarni obrazli, ko'rgazmali qilib ko'rsatadi. Lekin ularni biron-bir maxsus hozirliksiz bajarish mumkin emas. Noto'g'ri, pala-partish rasmlar, narsalar to'g'risida yanglish tasavvurlar beradi va estetik didni shakllanish jarayoniga salbiy ta'sir etadi. Va aksincha, mazmunli va chiroyli bo'r bilan bajarilgan tasvirlar narsalar to'g'risida haqqoniy va aniq tasavvurlar hosil qilishga yordam beradi. Savodli pedagogik rasm grafikali fikrlashni, kuzatuvchanlikni o'stiradi. Pedagogik rasmni chizishga qiziqishi fanning o'ziga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi.

Odatda, og'zaki tushuntirish jarayonida tasvirlar bajarilib borilsa, o'quvchilarning diqqat-e'tiborini tortishi mumkin. O'quvchilarni bir vaqtda eshitish va ko'rish qobiliyatlari orqali olayotgan taassurotlari, o'zgacha yangi materialni chuqur va mustahkam o'zlashtirishida aniq tasavvurlar bo'lishida yordam beradi.

Pedagogik rasmlarni tasvirlashda eng muhimi aniq, sxemali tarzda, narsalarni o'ziga xos xarakterli shaklini, o'lchamlarini, hajmini, ayrim paytda iloji boricha ranglarini ham to'g'ri tasvirlashdir. Ularni har bir shtrixi va chiziqlari ma'noli ishni bajaradi.

Ko'rgazmali qurollar bilan bir qatorda pedagogik rasmlarni ham tarbiyaviy imkoniyatlari juda kattadir. Pedagogik rasmlarning xususiyatlari quyidagilarda o'z aksini topadi:

1. Pedagogik rasmlar o'quvchilarni rasm chizishga bo'lgan qiziqishlarini o'stiradi.

2. Darsga faol ishtirok etishga yordam beradi.

3. O'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolarni o'z vaqtida tuzatishga (yordam beradi) yo'naltiradi.

4. Rasmini qanday qilib chizishga yo'nalish beradi.

5. Tasvirlash bosqichlarini namoyish qilib ko'rsatadi.

Pedagogik tasvirlarning turlari bir nechta. Darsni hikoya qilish va tushuntirishning mazmuni va maqsadlariga ko'ra quyidagi u yoki bu pedagogik tasvirlash turlari qo'llaniladi:

a) chizikli tasvirlash;

b) shtrixli tasvirlash;

d) tonallik (tusli) tasvirlash.

Chizikli tasvir – eng oddiy va keng tarqalgan turi. Bu yerda narsalar yaxlit tutash chiziqlar yordamida yorug'lik manbalarisiz va shakli hajmisiz tasvirlanadi. Chizikli tasvir o'z navbatida tekisli (yassilik) va perspektivali bo'lishi mumkin. Tekisli rasmda narsani faqat uzunligi va eni beriladi. Masalan, barg shaklining rasmi, tog'lar va h.k. Perspektivali chizikli tasvirda narsalar uchta o'lchamdan iboratligini ko'rsatadi - bo'yi, eni va balandligi.

Bunday rasmlarni bajarish mashaqqatli, negaki, perspektiva yordamida tasvirlashning asosiy qonunlarini bilish kerak va sinf taxtasida bo'r bilan ishlash tajribasiga ega bo'lishi kerak. Perspektivada tasvirlangan rasmda narsalar to'g'risida to'liq tasavvur beradi.



Chizikli tasvir.

Shtrixli tasvir – qisqa chiziq shtrixlarning kombinatsiyasini o'z ichiga oladi, odatda, ular chizilgan narsalarni soya tomonlarida joylashadi. Narsalarning hajmini ko'rsatishda tasvirdagi shtrixlar buyum

shakllarining yoʻnalishlari yumaloq va tekislik boʻyicha yuritiladi. Narsaning hajmi koʻrsatil-maguncha shtrixlar bir necha marotaba yurgiziladi. Chiziqli tasvirlashga qaraganda shtrixli tasvir murakkabroq, shu sababli ham undan foydalanishdan oldin muvofiq (tegishli) mashqlar talab qiladi. Narsani faqatgina siluet yoki konturimi emas, balki uning hajmini ham koʻrsatish kerak boʻlgan holda shtrixli tasvirlashdan foydalaniladi.



Shtirli tasvir.


Tonallik (tusli) tasvir – bajarilishi yanada murakkabroq. Bunday usuldan narsani yanada yaxlit va koʻrgazmali koʻrsatishda qoʻllaniladi. Tusli tasvirning bajarilishi quyidagicha: sinf taxtasiga narsaning tashqi koʻrinish chiziqlari bilan tasvirlanadi, unga boʻr surtilgan latta bilan yupqa qatlam yurgiziladi; qorongʻi boʻlgan joylari oʻchiriladi, yorugʻ joylari boʻr bilan yanada kuchaytiriladi; undan keyin chizilgan narsani xarakterli qismlari boʻrttirib chizib qoʻyiladi.



Natyurmort. Boʻr bilan ishlash. Kuchuk yetaklagan qiz. Boʻr.

Tusli rasmlarda ayrim holiarda rangli boʻrlardan ham foydalaniladi. Oʻqituvchiga koʻpincha biron-bir koʻrinishni paydo boʻlishini, harakatini, dinamikasini tushuntirishga toʻgʻri keladi. Ularning shu holatini koʻrsatish va afzal tushunishga **multiplikatsiya** – rasmlar bera oladi (roʻy berayotgan voqeani ketma-ketligini tasvirlovchi rasmlar). Har bir rasm, oʻquvchilarning koʻz oldida paydo boʻladi va tavsiflanadi (izoh beriladi). Agarda, oʻqituvchining sinf taxtasida boʻr bilan ishiash

malakasi bo'shroq bo'lsa, u paytda oldindan qog'ozga 3--4 bosqichda bajarilgan rasmlarni tayyorlab olishi mumkin. Dars vaqtida ularni ketma-ket ko'rsatib tushuntirish olib boriladi.



Multiplikatsiya usulida ishlash.

Mashg'ulotning asosiy maqsadi – o'quvchilarni tasviriy san'atdan pedagogik rasmlarning xususiyatlari va tasvirlanadigan narsalarni boshlang'ich bosqichlarining metodik nozik sirlari bilan tanishtirish.

Pedagogik rasmlar namoyish etishda tasviriy san'atda ishlatiladigan materiallardan rangli bo'rlar, rangli suv bo'yoqlar, ko'mir tayyoqchalar, sangina va boshqalardan keng foydalanmog'i zarur.

Pedagogik rasm chizish borasida quyidagi umumiy eslatmalarga e'tibor qilish shart:

1. Pedagogik rasmni hamma vaqtda o'qituvchi tasvirlash bilan birgalikda og'zaki tushuntirib borishi kerak.

2. Simf taxtasiga va planshetga chizilgan rasm iloji boricha kattaroq va hajmli bo'lishi kerak. Agarda tasvir kichik bo'lsa, oxirida o'tirgan o'quvchilarga yaxshi ko'rinmasligi ham mumkin.

3. Namoyish qilish paytida har bir ishlash uslubiga qisqacha tushuntirish berib borish kerak.

4. O'quvchilarni qog'oz formatining chetiga chizilgan rasmni tushunarli tasvirlash usullarini ko'rsatish yoki o'rgatish maqsadida bo'lishi kerak. Pedagogik rasmlar barcha tasviriy san'at dars turlarida qo'llaniladi. Chizmatasvir mashg'ulotlarida yangi darsni bayon qilishda

qo'llansa, kompozitsiya ishlash darslarida ko'pincha o'quvchilarning mustaqil ishlarida qo'llaniladi.

Maxsus tayyorlangan planshetlarda rasm chizish orqali professor-o'qituvchi o'quvchilarga rangtasvirni qanday ishlash texnikasi to'g'risida tushunchalar bera turib, uni amaliy jihatdan ko'rsatadi. Akvarel bo'yog'i bilan rasm ishlash borasida ikki xil ranglarni aralashtirib uchinchi rangni hosil qilishni ko'rsatadi. Fazodagi rang tuslarini o'zgarishlari to'g'risida, uni akvarel bo'yog'i bilan ishlash texnikasini tushuntirish kerak. Darsda o'quvchilarga «alla-prima», «grizayl», «lessirovka» kabi usullarni shu planshetdan foydalanib tushuntiriladi.

Maxsus rangli qog'ozlarga guash, bo'r bilan rasm ishlashni turlicha texnikalarda ishlash usullarini tahlil qilib ko'rsatadi.


O'quvchilarning mustaqil ishlari jarayonida o'qituvchi tomonidan ayrimlariga individual yondashish lozim. O'quvchilarning qog'oz formatining bir chetiga tasvirlash bosqichlarini, yuborilgan xatolarni tuzatish yo'llarini ko'rsatib, tushunchalar beradi.

San'atshunoslik asoslari mashg'ulotlarida belgili tushunchalarni qonuniyatlarini ko'rsatish maqsadida pedagogik rasmdan foydalaniladi. Masalan, simmetriya, perspektiva va boshqa rasm ishlashda ko'pincha naqshlarning kompozitsiya qonunlarini ko'rsatish uchun pedagogik rasmlardan foydalaniladi.

Pedagogik rasm – o'quvchilarga estetik tarbiya berishda, bilim asoslarini tasvirlash ko'nikmalarini o'stirishda asosiy omildir. Shu bilan birga o'quvchilar olgan bilimlarining hisoboti uchun o'quv dasturlarida ko'rsatilgan dars mavzulari asosida ko'chirma tasvirlar chizilgan albom topshirishi kerak. Bunday albomlarda quyidagi mavzudagi rasmlar bo'lishi mumkin.

1. Bir necha shakldagi daraxtlar ko'rinishi.
2. Uy va yovvoyi hayvonlarning tasvirlari.
3. Uy-ro'zg'or buyumlari.
4. Sport o'yinining jihozlari.
5. Transport vositalari.
6. Qurilish va qishloq xo'jaligida ishlatiladigan vositalar.
7. Ustalik va duradgorlik vositalari.
8. Inson bosh qismining turli holatdagi tasvirlari.
9. Inson gavdasi turli xil harakatlarining ko'rinishlari.

BO'R BILAN RASM ISHLASH



VI bob. AMALIY MASHG‘ULOTLAR BILAN SHUG‘ULLANISHNI TASHKIL ETISH MAZMUNI

Mashg‘ulotlarning asosiy tavsifi shundan iboratki, unda talabalar mustaqil ravishda vazifa bajaradilar. Ilmiy-pedagogik taraqqiyoti sharoitida amaliy ishlar talabaga nazariy bilimlarini qo‘llash mexanizmini chuqur va ko‘rgazmali o‘rganish imkonini beradi. Bu mashg‘ulotlar talabalarda tadqiqot o‘tkazish ko‘nikmalarini shakllantiradi, fanga ijodiy yondashishni ta‘minlaydi, tajribaning umumiy metodikasini egallashga imkon beradi.

Bunday amaliy ishlar talabalarda tasviriy san‘at nazariyasi va amaliy tasvirlash bo‘yicha amaliy ko‘nikma va malaka hosil qiladilar.

Amaliy ishlar bo‘yicha tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Tasviriy san‘at asosi - qalamtasvir

Mazmuni: Qalamtasvir – tasviriy san‘atning asosi, uning maqsad va vazifalari. Rasm chizishda ishlatiladigan qurollar. Rasm chizish mashg‘ulotlarining asosiy turi – narsaning o‘ziga qarab rasm ishlash. Narsalarni kuzatish, tahlil qilish va tasvirlash. Yassi narsalarni tasvirlash va ularni shakli, nisbati, tuzilishini o‘rgatish.

Topshiriq – qalamda daftar, barg, kapalak, naqsh shakllarni o‘ziga qarab chizish.

Qalamtasvir – tasviriy san‘at asosi

Tasviriy san‘atning barcha turlari negizida qalamtasvir asos bo‘lib hisoblanadi. XVIII asrdan boshlab «qalamtasvir» chiziqlar yordamida obraz yaratish sifatida tasvirni belgilovchi termin bo‘lib hisoblangan va barcha san‘at turlaridagi narsaning: shakli, o‘lchami, tuzilishi va karakterini belgilab beruvchi muhim xususiyatlari bilan tanishtiradi.

Tasviriy san‘at turlarining asosi qalamtasviridir. Qalamtasvirning xususiyatlarini chuqurroq o‘rganish uchun shartli ravishda tasvirlashni bir necha turlarga bo‘linadi.



Qalamtasvirning tasvirlash vositalari ishlatilishi bo'yicha chizikli va tusli bo'ladi. Chizikli rasm qoida bo'yicha och, yengil va umumlashtirilgan bo'ladi. Chiziqdar orqali badiiy obraz yaratiladi, jadvallar, shartli chizmalar, simf taxtasida tasvirlar bajariladi.

Tusli tasvirlar muhitdagi narsaning hajmliligi, yorug'ligi, materialligi va fazoviy munosabatlarini to'liq ta'rifini beradi. Bunday rasmlarni yorug'-soyali va tusli deb ataladi.

Qalamtasvir. Apollon.

Ayrim narsalarning sharpasi va tashqi ko'rinishi bilan xarakterli. Shuning uchun bunday ko'rinishlarni tasvirlashda ayrim holda tusli tasvirning oddiy turi tanlanadi – bu esa siluet deb nomlanadi – bir xil tekis tus bilan qoplanib tashqi ko'rinish chizig'i orqali bajariladigan tasvir.

Qalamtasvir bajarish uslubiga ko'ra asl nusxali (original) va bosmali turlariga bo'linadi. Asl nusxali rasm deyilganda rassom tomonidan o'z qo'li bilan bajargan yagona namunasi hisoblanadi. Bosmali esa qog'oz yuzasiga qolipdan tushirilgan rasmdir va u estamp deb yuritiladi. Estampning bir necha ko'rinishi mavjud: gravyura, linogravyura, litografiya.

Qalamtasvir turlari


O'quv



Qisqa vaqtdi



Chizikli



Ijodiy



Tonak



Tusli




Qalamtasvir ishlatilishiga ko'ra akademik va ijodiy tasvirlarga ajraladi. Akademik qalamtasvir – bu uzoq vaqt tasvirlash, turli shakl va belgilarni o'rganish va tasvirlashning usullarini o'zlashtirish maqsadida bajariladigan rasm. Ijodiy tasvir – bu rassomning fikri, hissiyoti va dunyoqarashini obrazli tarzda ifodalovchi tasviriy san'at asaridir.


O'quv va ijodiy ishlarda qoralama, etyud, eskiz iborolari keng qo'llaniladi. Qoralama deb qisqa vaqtli tasvirga aytiladi. Narsani tasviri yoki uning qismlarining mukammal o'rganilishi etyud orqali amalga oshiriladi. Etyud va qoralamalarda chuqur o'rganilib to'plangan borliqdagi haqiqiy materiallar ijodiy rasm yoki asarlar yaratilish mobaynida foydalanishga mo'ljallangan dastlabki chizg'ilarni – eskiz deb yuritiladi.

Tasvirlash jarayonini asosiy qoidalari

Rasm chizishdan avval narsani yaxshilab kuzatish va tahlil qilish zarur. Rasm chizishda birinchi qoida – umumiydan xususiyga. Shuning uchun rasm chizishga kirishilganda narsaning fazoviy holati, o'lchami va xarakterli tomonlarining umumiy ko'rinishini qog'ozga joylashtirishdan boshlanadi. Narsalarning umumiy ko'rinishi eniga nisbatan bo'yi katta bo'lsa, qog'ozni tik holatda, eni katta bo'lsa, qog'ozni gorizontol holatda qo'yiladi. Narsalarning umumiy ko'rinishi yengil chiziqlar bilan qog'ozda belgilangandan so'ng, qo'yilmadagi mayda bo'laklarning shakli, tuzilishi va o'lchamlari aniqlanadi.



Ikkinchi qoida–xususiydan umumiylikka. Tasvirlovchi asosiy e'tiborni shaklning mayda bo'laklariga ishlovlar berishga yo'naltiriladi. Natijada har bir bo'lak alohida ahamiyatga ega bo'ladi. So'nggida tasvirlanayotgan shaklni mayda bo'laklarini umumiy lashtirib bir butun yaxlit holatga keltiriladi.




Narsalarni qog'ozga to'g'ri joylashtirish qoidalari.

Ma'lumki, kuzatish bu narsaga qarab uning shakli, rangi, tuzilishi, o'lchami va bo'laklarning nisbati, ularning fazoviy holati va hokazolarni aniqlay olish tushuniladi.

Narsaning mazmunli obrazi ongimizda his qilish asosida shakllanadi. Bu obrazning negizida kuzatilayotgan narsaning tashqi belgi asoslari bilan ifodalash imkoniyatlari mavjud. Kuzatishning o'ziga xos xususiyatlaridan biri – o'rganish, bilish va tushunishdir. Kuzatish bevosita kishilarning ko'rish qobiliyatiga bog'liq. Rasm chizishda chizuvchi naturani sinchiklab o'rganadi va tahlil qiladi. Uning tuzilishining xarakterli belgilarini aniqlashga harakat qiladi va fikrni tasviriy holda tasvirlanadigan narsalarning tuzilishi, bo'laklarining o'zaro bog'liqligi, fazoviy holatini ko'z oldiga yaxlit keltirib ifodalashini sintez deb ataladi. Demak, narsani chizish jarayoni **kuzatish**, uni atroflicha **tahlil qilish** va **tasvirlashdan** iboratdir. Narsa rasmini to'g'ri va ishonarli tarzda tasvirlash uchun ularni kuzata bilishni o'rganish zarur. Yozish va o'qishni o'rgatgandek, qunt va chidam bilan muntazam mashq qilgan kishi to'g'ri rasm chizishni ham o'rgana oladi.

Kuzatish, borliqni turlicha o'rganish jarayoni va uch o'lchamli hajmli buyumlarni ikki o'lchamli qog'oz betida tasvirlashning murakkabligi fazoviy holat haqidagi tushuncha va tasavvurlarni shakllantiradi. Tasvirlash jarayonini 4 bosqichga ajratish mumkin.

Birinchi bosqichda, narsani tashqi ko'rinishida joylashgan umumiy belgilari - abrisi ko'rsatiladi. Narsalar shakli ba'zi bir chiziqlar yoki geometrik shakllar tarzida belgilanadi. Ikkinchi bosqichda, narsani va unga yaqin bo'lgan obyektlarini ta'riflovchi belgilari ko'rsatiladi, ya'ni o'ziga xos belgilar. Uchinchi bosqichda, faqatgina narsaning o'ziga shaxsan tegishli belgilari ko'rsatiladi. To'rtinchi bosqichda, tasvirlarning yaxlitligi va bo'laklarining o'zaro bog'liqligini umumlashtirishiga qaratiladi. Shunday qilib, narsaning asosiy mazmunini ko'rsatish uchun, umumiy, o'ziga xosligi va o'ziga xos xususiyatli belgilarini va tomonlarini topish lozim ekan. Borliqni har tomonlama o'rganib, chizuvchi barchaga tushunarli tarzda uning obrazini yaratadi.



Geometrik jismlardan iborat natyurmortni bosqichli tasvirlash.

Rasm chizishda qo'llaniladigan qurollar

Tasvirlash uchun maxsus ish qurollaridan qanday foydalana olish kerak. Ish qurollari quyidagilar: qog'oz, turli qattiq va yumshoqlikdagi grafit qalamlar, o'chirg'ich, ko'mir tayoqchalar, akvarel va guash bo'yoqlar, yumshoq dumaloq va yapaloq shakldagi mo'yqalamlar, rasm taxtasi (planshet).

Rasm chizishda qog'oz asosiy material hisoblanadi. Qog'oz, albatta, oppoq, yetarli darajada qalin va pishiq bo'lishi kerak. Ulardan eng yaxshisi «vatman» deb ataluvchi qog'ozdir. Akvarel bo'yog'ida ishlash uchun vatman qalin va yuzasi g'adir-budur bo'lishi kerak, agarda yupqa va bo'sh qog'oz bo'lsa, u suvni tez shimib olib, ivib ketadi, natijada bo'yoq yoyilib ketadi. «Yarim vatman» nomli qog'ozni ham qo'llash mumkin. Hozirgi kunda foydalanayotgan ko'plab qog'oz turlari mavjud. Lekin, qog'oz paydo bo'lgunga qadar odamlar yog'och yaproqlariga, sopol g'ishtlarga va g'orlarning devor toshlariga ham yozishgan. Masalan, Misrda papirus yaproqlariga ham yozishgan.

Qadimgi Pergam davlatida hayvonlar terisi qog'oz vazifasini bajargan. Uni «pergament» deyilgan. Lekin bunday «qog'oz»lar juda ham qimmat bo'lgan, chunki bitta kitob uchun kamida bir necha yuz mol terisi ishlatilgan.

Qog'oz II asrda xitoyliklar tomonidan kashf etilgan. Hozirgi qog'ozlar esa maxsus qog'oz fabrikalarida ishlab chiqariladi.

Oddiy qora qalam. Hozirgi kunda oddiy qora qalamning juda ko'p turlari mavjud. O'rtacha yumshoq qalamlardan tortib juda ham qattiq qalam turlari mavjud. Bular; «T», «2T», «N», «2N», «M», «2M», «3M» yoki V, T, 2T, M, 2M, N, 2N, NV, V, 2V va boshqalar. Tariximizga nazar tashlaydigan ho'lsak, ibtidoiy davrda odamlar g'orlarda, tog'u - toshlarga turli xil tasvirlarni ishlab qoldirishgan. Ular biron-bir qattiqroq narsalar bilan g'orlar devorlarini timab, turli xil shakllarni yasashgan.

Ammo rivojlanish jarayonida tasvirlashda turli xil asbob-uskunalar takomillashib bordi. Oddiy qora qalamlar ham shular jumlasidan. XVI asrda Angliyada grafit konida topilgan tayoqchalar rasm chizishda qo'llanilganda, ular qog'oz yuzasida juda ham nafis va chiroyli chiziqlar tushira olish xususiyatiga ega ekanligi aniqlangan. Shu kundagi qora oddiy qalamlar XVII asrning oxirida fransuz olimi N.Kante tomonidan kashf etilgan bo'lib, ularni yog'och moslamaga yopishtirib ishlatish taklif etilgan.

«T» harfi bilan belgilangan qalamlar «tyordiy» – qattiq degan ma'noni anglatadi. Bunday qalamlar bilan gipsli rozetkalarini tasvirlashda qo'llaniladi. «M» belgisi «myagkiy» yumshoq degan ma'noni bildirib xomaki rasm yoki kompozitsiya eskizlari tayyorlashda foydalaniladi.

O'chirg'ich. Rasm chizishda yordamchi va ortiqcha chiziq hamda shtrixlarni o'chirish uchun yumshoq o'chirg'ichlar ishlatiladi. Yumshoq o'chirg'ichning sifati qog'oz yuzasidagi qalam izlarini ohista o'chirish bilan aniqlanadi. Hozirgi kunda chiqarilayotgan o'chirg'ichlarning turlari ko'p. Tasvir chizganda ko'proq ko'kimtir va oq tusdagi ishlatiladi. Qizg'ish tusdagi o'chirg'ichning tarkibida «qum oyna» parchalari bo'lib qog'ozni titib yuboradi. Keraksiz chiziqlarni o'chirishda o'chirg'ichni qattiq bosmaslik, iloji boricha o'chirg'ichdan kamroq foydalanishga odatlanish lozim. Oq tusdagi o'chirg'ich qattiq bo'lsa, yumshatish uchun uni 2-3 kun mobaynida kerosin yoki benzin ichiga solib qo'yish kerak. So'ng qaynagan issiq suvga solinsa, o'chirg'ich yumshoq holatga ega bo'ladi. Ish jarayonida o'chirg'ichni

doim qo'lda saqlash noto'g'ri, chunki qo'l terlashi oqibatida o'chirg'ich namlanadi va rasmni o'chirishda qog'oz titiladi. Chiziq'larni o'chirishda qog'ozga qattiq bosmaslik va akvarel bo'yoq bilan ishlashga tayyorlashda iloji boricha o'chirg'ichdan kamroq foydalanish maqsadga muvofiq.

Ko'mir tayoqchalar. Ko'mir tayoqchalari xomaki tasvirlar chizishda ko'proq ishlatiladi. Ko'mir tayoqchalarini uy sharoitida ham tayyorlasa bo'ladi. Misol uchun ko'mir tayoqchalarini tayyorlashning oddiy usuli quyidagicha, buning uchun uzum tokini yoki atir gul novdasini qizarib pishgan novdasidan uzunligi 10-12 sm va diametri 5-8 mm bo'lganlari tanlab olinadi va o'choqdagi olovda qizdirib tayyorlanadi. Bu qalamchalar yumshoq, tez sinadigan va uvalanadigan bo'lib qog'oz yuzida yaltiramaydigan qora chiziq izlar qoldiradi. Qora chiziq'larni o'chmasligi uchun ozgina shakarni eritib qog'ozdagi tasvirga yengil puflanadi.

Akvarel bo'yog'i suvda osongina eriydi va uning tarkibiga bo'yoq moddasi (o'simlik yoki minerallarning mayin qilib yanchilgan kukuni) va bog'lovchi modda – olcha yellmi glitserin va ozroq asal kiradi. Qadim zamonlardan akvarel bo'yog'i o'zining nafisligi va ranglarning tiniqligi, yorqin ko'rinishi bilan ajralib turgan. Bir rangning ustidan ikkinchisi surtilganda avvalgi rang sezilib turadi va yangi rang qo'shilishi natijasida u jozibali bo'la boradi.

Guash bo'yoqlari ham suvda yaxshi eriydi, ammo akvarel bo'yog'i singari tiniqlikka ega emas. Guash bo'yoqlari ishlatilganda (bir rangning ustidan boshqasi berilganda) avvalgi surtilgan rang butunlay ko'rinmaydi. Guash bo'yog'i tez qurish xususiyatiga ega, ammo quyoshda ko'proq tursa, uning rangi xiralashib qoladi.

Mo'yqalam. Bo'yoq bilan ishlash uchun mayin mo'ynali yumaloq shakldagi mo'yqalamlardan foydalanish kerak. Ular yumaloq va yassi shaklda bo'lib, olmaxon, bo'rsiq, suvsar, quyon, tuya kabi hayvonlarning mo'ynalaridan tayyorlanadi. Sifatli mo'yqalam ho'llanganda qillari bir joyga yig'ilib, konussimon holatga keladi. Yumaloq mo'yqalamlar bilan akvarel bo'yog'ida foydalaniladi, yassi shakldagilar esa guash bilan ishlashda qo'llaniladi.

Qalam asosan uch barmoq bilan ushlanadi. Uni erkin ushlashga qo'lni o'rgatish kerak. Qalamni qattiq yoki obista bosish orqali har xil chiziq'larni chizish mumkin. Tasvir chizganda qalamni yengil ushlash kerak. Qalam uchi tasvir chizishga tayyorlanganda, uning grafit qismi 5-

6 mm, yog'och qismimi esa 15-20 mm qilib yo'nish lozim. Bu esa tasvir chizayotganda chiziqlarning aniq ravshan ko'rinishiga yordam beradi.

Rasm chizishni dastlabki mashqlari

Dastlabki amaliy mashqlar rasm chizish malakalarini hosil qilish maqsadida bajariladi. To'g'ri chiziqlar yurgizish boshlovchi rassomga bir oz qiyin kechadi. Bunday mashqlar orqali qo'lning tekis harakat qilishiga intilmoq zarur. Savodli rasm chizish uchun nazariy bilimlar, malaka va ko'nikmalarni egallab borish bilan birga qisqa vaqtli mashqlarni tez-tez bajarib turish talabalarida o'ziga ishonch hosil qiladi.


Birinchi mashq – gorizontal yo'nalishda to'g'ri chiziqlar yuritish.

Dastlabki to'g'ri chiziqni chizish uchun qo'lning qalamni chapdan o'ngga tekis harakatini o'zlashtirish lozim. Ko'p o'tmay har bir yangi chiziq borgan sari aniq va ravshan bo'lib boradi.

Ikkinchi mashq – tik va og'ma parallel to'g'ri chiziqlar o'tkazish.

Tik va og'ma chiziqlarni chizganda tepadan pastga harakat qilinadi. Bunday mashqlarda qo'lning tekis harakatiga intilish zarur. Bular hammasi ko'z bilan chamalash va nisbatlarni to'g'ri aniqlashni rivojlantirishga qaratilgan. Savodli tasvirlashni o'rganishning asosiy vazifalaridan biri – proporsional munosabatlarni saqlash.

Nisbatlarni to'g'ri aniqlash malakalari to'g'ri chiziqlarni teng bo'laklarga bo'lishda rivojlanadi. Avvalo, chiziqni ikki teng bo'lakka, keyin esa to'rtta teng qismga, sakkizga va ko'p bo'laklarga bo'ladi. Bu mashqlarni bajarish o'quvchilardan katta faollikni talab etadi.



Baliq tasvirini metodik hosqichda tasvirlash.

2. Tasvirlashning perspektiva asoslari

Mazmuni: Perspektiva haqida umumiy ma'lumot. Perspektiva turlari. Narsalarni tasvirlashda perspektivaning qonun-qoidalari va asosiy tushunchalari (ufq chizig'i, kesishish nuqtasi, ko'rish nuqtasi, surat tekisligi). Turli hajmga ega bo'lgan buyumlarni tasvirlashning o'ziga xos xususiyatlari. Narsalarni tasvirlashda perspektiva qoidalariga amal qilinishi.

Topshiriq – qalamda kub, yashik, chelak, to'g'riburchakli, silindrsimon, konussimon buyum kabllarni rasmini chizish.

Kundalik hayotimizda uchraydigan va tevarak-atrofimizni qurshab turgan narsalarga nazar tashlasak, ular uzoqlashgan sari go'yo bir nuqtada uchrashayotgandek tuyuladi. Ko'cha chetlaridagi qator daraxtlar, simyog'ochlar bizdan uzoqlashgan sari kichrayib boradi. Daraxtlarning yam-yashil barglari o'zoqlashgan sari ko'm-ko'k ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Tabiatdagi narsalarning ana shunday ko'rinishini qog'oz yoki biror bir buyum ustida tasvirlash bilan shug'ullanadigan fanni perspektiva deyiladi.


Perspektiva fransuzcha so'z bo'lib, (la perspective) – «uzoqqa qarash», yunonchasiga esa – «oyna orqali to'g'ri va aniq ko'rayapman» degan ma'noni bildiradi.

Perspektiva fani realistlik rasm yaratishda narsalarni ko'z o'ngimizda qanday ko'rsak, shunday tasvirlashga yordam beradi. Ibtidoiy davr odamlari qoya va toshlarga ko'mir bilan turli tasvirlarni tushirib, so'ngra ular ustidan o'tkir toshni yurgizib chiqqanlar, keyin esa tasvirlarni pushti rang bilan bo'yaganlar. Shuni ta'kidlash lozimki, aksariyat tasvirlar afsonaviy va turli marosimlar asosida ishlangan (ritual) suratlar bo'lib, insonlarning o'sha davrdagi dunyoqarashlarining dastlabki ko'rinishlarini o'zida mujassamlashtirgan. Ko'pincha, mamont, bizon va boshqa hayvonlar yakka-yakka qilib tasvirlangan. Sharq miniatyuralarida ikki va undan ko'proq odam va hayvonlar tasvirini uchratish mumkin. Bu tasvirlarda perspektiva qoidalariga amal qilinmagan. Ya'ni narsalarning oldingi qatordagilari kattaroq, keyingi qatordagisi esa kichikroq tasvirlangan. Uzoqdagi narsalar teparoqda, yaqindagisi esa tasvir pastrog'ida, lekin bir xil kattalikda tasvirlangan. U vaqtlarda perspektiva tushunchasi bo'lmagan.

Uygʻonish davrining buyuk siymolar italiyalik mashhur rassomlar Bruneleski, Pero Della Franchesko (1416–1492), Leonardo da Vinchi (1452–1517)lar perspektiva qonuniyatlari bilan shugʻullangan. Nemis rassomi va uymakori Albrext Dyurer birinchi boʻlib perspektiv apparatda tasvirni yasashda koʻrish nuqtasining qoʻzgʻalmas ekanligini isbotladi va bular toʻgʻrisida risola yozgan.

Perspektiva qonunlari koʻp, lekin biz ularning eng asosiylaridan foydalanamiz. Rasm chizishda rassom perspektivaning kuzatish, chiziqli va havoii turlaridan keng foydalanadi. Kuzatish perspektivasi bu kenglikni bevosita kuzatish, chamalash asosida amalga oshiriladi. Chiziqli perspektivaning maʼnosi perspektiv tasvirlanishi chiziqli geometrik qurilish uslubiga asoslanishiga tayanadi. Havoii perspektiva kuzatuvchidan narsalarni uzoqlashgan sari havoii muhit taʼsirida tus va rang oʻzgarishlarini oʻrganadi.

Misol tariqasida, taqqoslab koʻringchi, xonaning fazoviy koʻrinishi qanday idrok etiladi, agarda orqa devorini havo rangga boʻyalsa:



Qizil rangga boʻyalganda esa:

Xonaning qaysi biri kengroq va nima uchun ?

Toʻgʻri-ku, havo rangdagi devor tomoshabindan olisda joylashgandek tuyuladi ?

Aslida xonaning oʻlchami bir xil, faqat ranglari har xil. Demak, ranglar fazoviy xususiyatlarga ega. Ranglarni idrok etishimizda, ayniqsa, zargʻaldoq, qizil, sariq ranglar yorqin, faol, toʻyingan boʻyoqlar boʻlib yaqinlashtiruvchi rolni bajaradi. Sovuq ranglar esa xira, faolsiz ranglar boʻlib uzoqlashtiradi.

Bu nima bilan bogʻliq ? Bu hodisalar **havo perspektivasi** qonuniyati deb ataladi.

Taqqoslash misolida qizil toshlar bilan ikkita shartli manzaraning tasvirini koʻramiz, birida havo perspektivasi qonuni bilan, ikkinchisi esa – bu qonunning buzilishi bilan koʻrsatilgan. Taqqoslab koʻring.



1)

2)

Toping-chi, tasvirni qaysi birida perspektiva qonuniyatiga amal qilinmagan ?

Perspektiv tasvir mohiyatini tushunish uchun perspektivaning asosiy tushunchalarini o'zlashtirish lozim: ufq chizig'i, kesishish nuqtalari, surat tekisligi, ko'rish nuqtasi.

Ufq chizig'i ko'z balandligida joylashgan faraziy tekislik. Surat tekisligi rasm chizayotgan kishi bilan tasvirlanayotgan narsa o'rtasidagi tekislik (rasm ishlanadigan qog'oz yuzasi) tushuniladi. Ko'rish nuqtasi kenglikda joylashgan narsalarni kuzatilayotgan joyiga aytiladi. Ko'rish maydoni tasvirlovchining ko'rish chegaralarini qamrab olgan kenglik qismi.

Kesishish nuqtalari. Chiziqlar yordamida perspektiv tasvirlar quriladi va chiziqlar ufq chizig'ida uchrashadi. Uchrashgan joylari kesishish nuqtalari deb ataladi.

Ufq chizig'ini rasm chizishda to'g'ri belgilash katta ahamiyatga egadir. Talabalar ko'pincha ufq chizig'ini topishda qiynalishadi. Ufq chizig'i har doim bir xil balandlikda bo'lavermaydi. U kishining qayerda turib qarashiga bog'liq. Ufq chizig'i auditoriyada va boshqa joylarda talabalarning turli joyda o'tirganliklari uchun hammaga ham bir xilda ko'rinmaydi. Aslida ufq tekisligi kuzatuvchining bo'yi va (past, baland) holatiga qarab pastda va yuqorida bo'lishi mumkin. Ufq chizig'ini topish uchun rasm daftari yoki qalin qog'ozni gorizontal holatda ushlab ko'z ro'parasiga keltiriladi. Shunda uning old va orqa tomoni bir chiziqqa keladi, demak, ufq chizig'i ana shu chiziq orqali o'tadi. Ufq chizig'i surat tekisligi o'rtasining pastrog'idan o'tsa, narsalar ta'sirli va chiroyli ko'rinadi. Turli haykallar va tarixiy sanalarga bag'ishlangan yodgorliklar ham ufq tekisligidan yuqorida o'rnatiladi. Dala manzarasini tasvirlashda ufq chizig'i yer bilan osmonning «tutashish» joyidan o'tadi. Shahar manzarasida esa ufq chizig'i tramvay izlari, ko'cha chetlari va baland uylarning yoki simyog'ochlarning qisqarib bitta nuqtada

«uchrashish» joyidan o‘tadi. Ufq chizig‘i yuqoriroqdan olinsa, qurilish, dala manzarasi yoki tantana maydoni kengroq tasvirlanadi, ya‘ni sodir bo‘layotgan voqealarni ko‘rinarli aks ettiradi.



G.Moiseyev. Daladagi tushlik.

Ko‘rish nuqtasi hamma vaqt ufq chizig‘i ustida yotadi. Rassomchilik san‘atida bu nuqtaning ahamiyati juda katta. U surat tekisligining markazida, uning o‘ng yoki chap tomonida joylashishi mumkin.

Rassomlar asarini diqqat bilan tomosha qilayotganingizda e‘tiboringizni bitta nuqta beixtiyor o‘ziga jalb qiladi. O‘sha nuqta – bosh nuqta bo‘lib, asar markazi deyiladi.

O‘zbekiston xalq rassomi Abdulhaq Abdullayevning «Katta oila» asarida oila boshlig‘i temirchi Sh.Shomahmudov asarning markaziy nuqtasi hisoblanadi. Bu ajoyib inson, Ikkinchi jahon urushi davrida turli millatga mansub 14 yetim bolani bag‘riga olib, o‘z farzandlaridek tarbiyaladi.

Ko‘rish maydoni tasvir ishi jarayonida shartli ravishda aylana deb qabul qilinadi. Ko‘rish nuqtasi esa konus uchi deb hisoblanadi. Narsalarning o‘ziga qarab rasmini chizishda tasvirlovchi ma‘lum masofada turishi zarur. Kesishish nuqtalari hamma vaqt ufq chizig‘ida

(chap yoki o'ngda) uchrashadi. Uning bosh nuqtadan uzoqligi ko'rish nuqtasidan surat tekisligigacha bo'lgan oraliqqa teng bo'ladi.

Narsalarning tasvirini chizishda perspektivaning quyidagi beshta qoidasini bilish lozim:


– narsa va buyumlar kuzatuvchidan uzoqlashgan sari ko'zga kichrayib ko'rinadi;

– surat tekisligiga parallel joylashgan gorizontal chiziqlar doimo gorizontal holatda chiziladi;

– surat tekisligiga parallel bo'lgan tik (vertikal) chiziqlar har doim tik holatda chiziladi;







– surat tekisligiga parallel bo'lmagan, ammo o'zaro parallel bo'lgan to'g'ri chiziqlar ufq chizig'ining bir nuqtasida uchrashadi;

– aylana shaklni ufq chizig'idan asta-sekin yuqori ko'tara boshlasak, aylana qismi ellips shakliga aylangandek tuyuladi. Uning ustki aylanasi ko'zimiz balandligiga yetganda ellips to'g'ri chiziq bo'lib ko'rinadi. Aylana va ellipsni eni o'lchami perspektivada o'zgar olmaydi.



Turli holatdagi ufq chizig'ining ko'rinishi.

Narsalarni perspektiva asosida tasvirlash



Nuqta, chiziq (chiziqli tasvir) va shtrix

Tasviriy san'atda nuqta, chiziq va shtrix rasm chizishda asosiy vazifani bajaradi.

Nuqta. Qog'oz yuzidagi chiziq nuqtalardan iborat. Agarda bitta nuqta qora dog' sifatida qabul qilinsa, ikkita nuqta orasini tutashtiradigan bo'lsak chiziq yoki biron-bir buyum qirrasini tashkil qiladi. Tekislikdagi bir necha nuqtalarni bir-biri bilan tutashtirsak biron-bir buyumning umumiy shakli paydo bo'ladi.

Tasviriy san'atning, ayniqsa, qalamtasvirda qo'llaniladigan nuqtalar tayanch nuqta deyiladi. Shu tayanch nuqtalar orqali buyumning shakli, konstruktiv tuzilishi quriladi.

Masalan, tasvirda odam boshining tayanch nuqtalarining konstruktiv qurilishida asosiy o'rinni bajarayotgani ko'rsatilgan: engak ko'tarmasi, burun, qosh o'rtasi va peshona nuqtalari umumiy boshning profil chizig'ini tasvirlab, konstruksiyasini qurishda katta yordam beradi. Masalan, ikki yonoq suyagining tayanch nuqtalari bilan engak ko'tarmasi nuqtalari umumiy yuzning old tomoni tekisligini hosil qiladi.

Tayanch nuqtalar qoralama chiziqlar tasvirlashda ham ko'p qo'llaniladi hamda chiziqli tasvirlashni boshlang'ich asosi bo'lib hisoblanadi.

Chiziqli tasvir. Chiziq har bir buyumning shakl chegarasini belgilaydi va buyumlarning tuzilish o'qlari bilan yordamchi chiziqlarida ham bo'ladi.

Tevarak-atrofimizni qurshab turgan tiriklik dunyosi biologiya qonuni bo'yicha kletkadan «nuqtadan» tuziladi. Oldin bitta undan ikkinchisi ajralib harakatlanish paydo bo'ladi. Tasviriy san'atdagi chiziqlarda ham xuddi shunday, nuqta harakatsiz, nuqtadan chiziq'larga tutashtirilganda chiroyli egiluvchan ma'lum bir mazmunli shakl hosil qiladi. Ayrim joyda yo'g'onroq, ayrimida ingichka bo'lib, hattoki ko'rinar-ko'rinmas bo'ladi va yorqin plastik izlar hosil qiladi.



R.Choriyev. Renato Guttuso. Flomaster.

Rasm chizishning ikkita turi mavjud: chiziqli va tusli tasvirlash. Ularning asosiysi – chiziqli tasvirlash. Chunki tusli tasvirlash (shtrixlash yordamida bajariladi) chiziqli tasvirdan keyin bajariladi.

Har bir davrda chiziqli tasvirlashning mohir ustalari bo‘lgan. Ulardan buyuk rassomlar: Leonardo da Vinchi, Rafael Renato Guttuzo, Pablo Pikasso va boshqalar. Ular chiziqli tasvirlash orqali insonning ichki dunyosini, falsafiy fikrini talqin qila olganlar.

Fikrimizning dalili sifatida buyuk rassom Pikassoning «Raqqosalar» asaridir. Rassom yuqori dinamik harakatni, plastik egiluvchanlik, odamlarning ichki ruhiy kayfiyatini mohirona ko‘rsata olgan.

Shtrix. Shtrix bilan chiziq orasida farq bor. Chiziq biron-bir buyum chegarasini belgilasa, shtrix shu buyum yorug‘-soyalari och-to‘qligini ko‘rsatib, uning hajmini yaqqol tasvirlaydi.

Shtrixlashni buyum shakliga qarab qo‘llaniladi.

Shtrixlarni turlari ko‘p, ular quyidagilar: bir yo‘nalishdagi to‘g‘ri shtrixlar, yotiq shtrixlar, aylana shakldagi shtrixlar va boshqalar. Ulardan ko‘proq qo‘llaniladigani – yotiq shtrixlar.

Shtrixlar orqali kenglik, chuqurlikni tasvirlashda ham qo‘llaniladi. Old ko‘rinishdagi shtrixlar aniq bo‘lib olisdagilari esa uzoqlashgan sari bir-biri bilan tutashib fazoviy kenglikni tasvirleydi. Bu tasvirlovchining ko‘proq tajribasi yoki mobirligiga bog‘liqdir.

Quyuc soyalarni bir qavat shtrixlash bilan qoplanmaydi, uning uchun bir necha marta shtrixlar yuritish lozim. Har bir yuritilgan shtrix yo‘nalishi ozgina o‘zgartirilib beriladi. Shtrix chiziqlar oralig‘i bir-biriga yaqin bo‘lgani ma‘qul. Masalan, inson ko‘zi, burni, og‘zi va boshqa qismlarini tasvirlashda qisqacha shtrixlardan foydalaniladi.

Uzunroq shtrixlar asosan hajmli tasvirlar, katta tekisliklar, soyalar yoki qoralama rasmlarni chizishda qo‘llaniladi.



**G. Abdurahmonov.
S. Rahimov portreti.**


3. Yorug‘ va soyalar qonuniyati

Mazmuni: Yorug‘ va soya haqida tushuncha. Narsalarga tabiiy va sun‘iy yorug‘likning ta’siri. Narsalarni tasvirlashda sho‘la, yorug‘lik, soya, yarimsoya. Shtrix. Tus, tuslar munosabati. Narsalarni tus jihatdan aniqlash, refleks, shaxsiy va tushuvchi soyalar haqida ma’lumot. Buyumlarni fazoviy holatini tasvirlash.

Topshiriq – kub, konus, silindr, ko‘za, sopol idishlar, meva va sabzavot kabi narsalarni tasvirlash.

Narsalarning yorug‘-soyalarini to‘g‘ri tasvirlay olish realistik rasm chizishda muhim ahamiyatga ega. Aslida narsalarning yorug‘lik tushayotgan tomoni yorug‘ uning teskari tomoni esa soya bo‘ladi.

Yorug‘lik manbai qanchalik kuchli bo‘lsa, narsaning yorug‘ qismi shunchalik tiniq bo‘ladi. Narsalardagi yorug‘ va soya o‘rtasidagi tekislikka **yarimsoya** deb yuritiladi. Ular narsaning shaklidan kelib chiqqan holda turli xil ko‘rinishga ega bo‘ladi, masalan, shar shaklidagi predmetlarda yarimsoya halqa shaklida bo‘lsa, prizmatik shakldagi narsalarda esa u to‘g‘ri to‘rtburchak yoki trapetsiya shaklida bo‘ladi.




1,3 – yorug‘, 2 – eng yorug‘ shu‘la, 4 – yarimsoya,
5 – shaxsiy soya, 6 – refleks, 7 – tushuvchi soya.

Narsalarning yorug‘ qismi o‘rtasida yaltiroq tekislik mavjud. Bu tekislik **blik** (shu‘la) deb yuritiladi. Narsaning soya qismida ko‘pincha tevarak-atrofdan (masalan, narsa turgan tekislikdan) aks etgan yorug‘ ko‘rinadi. Uni **refleks** deb yuritiladi.


Soyalar ikki xil bo'ladi: shaxsiy va tushuvchi soyalar. **Shaxsiy soya** deb narsaning o'z tanasida joylashgan soyasiga aytilsa, hiron narsadan boshqasiga yoki tekislikka tushgan soyaga – **tushuvchi soya** deb yuritiladi.

Narsalarni qanday yorug'lik manbai yoritayotganini aniqlash muhimdir. Aslida yorug'lik manbai tabiiy va sun'iy bo'ladi.



Yorug'lik manbai turlari.

Tabiiy yorug'lik manbai narsalarga nisbatan juda uzoq bo'lgani uchun uning nurlari narsalarga deyarli parallel yo'nalgan bo'ladi. Shuning uchun rasm chizayotganda bunga rioya qilish muhimdir.




Turli yorug'lik manbaidagi tasvirlar.

Quyosh nurlari tush paytida narsalarga tikroq tushishi natijasida soyalar ancha qisqa, ertalab yoki kechki payt nurlar ogʻanligi uchun ular uzunroq boʻladi. Shuningdek, narsalarga quyosh nurlari chap, oʻng, old va orqa tomonlardan tushishi mumkin. Sunʼiy yorugʻlik nurlari hamma tomonga maʼlum radius boʻylab tarqaladi deb qabul qilingan.

Narsalarning fazoviy holati va hajmini realistik tarzda tasvirlash uchun ularning qay holatda turganligini aniqlash bilan bir qatorda yorugʻ va soya qonunlarini puxta bilish va ularni amalda qoʻllash yuzasidan maʼlum ishlar olib borish kerak boʻladi.

Maʼlumki, narsalar yoritilganda ularning tanasidagi yorugʻ va soyalarning xarakteri narsalarning shakliga koʻra (masalan, silindrik, konussimon va toʻgʻri toʻrtburchak shaklidagi narsalarda) har xil boʻladi. Narsalarning hajmini tasvirlashda ularning tuzilishiga koʻra qalam yuritish maqsadga muvofiq boʻladi.

Shuningdek, narsalarning yorugʻ-soyalarini tasvirlashda qalamni qattiq bosmaslik kerak. Yorugʻ-soya qoidalarini puxta oʻzlashtirish uchun mashqlarni tavsiya etamiz. Tekis yuzani hamda shar, silindr, konus kabi shakldagi yuzalarni shtrixlash yoʻllari koʻrsatiladi va ochdan toʻq tusga oʻtish mashqlari bajariladi.



Bu mashqlardan soʻng, alohida narsalarni har xil holatda qoʻyib yorugʻ va soyalarini tasvirlash mashqlarini bajarishga oʻtiladi. Shu maqsadda toʻgʻri toʻrtburchak shakliga ega boʻlgan kitob, taburetka, quticha kabilarning rasmini chizish foydalidir. Bunday narsalarning rasmini chizishda perspektiva hamda yorugʻ-soya haqidagi nazariy bilimlar amalda sinab koʻriladi va mustahkamlanadi.

Gipsli geometrik jismlarni tasvirlash

Kub. Kubning toʻrt tomoni va burchaklari bir-biriga teng boʻlgan shakldir. Kubning tasvirini chizish uchun gips yoki kartondan ishlangan shaklini olish mumkin. Bundan asosiy maqsad biz bajarayotgan kub tasvirida soya, yorugʻ keskin ajralib turadi, narsa bizga yaqqol koʻrinadi. Kubning tasvirini bajarishdan oldin uning ufq chizigʻidan past yoki yuqorida turganligi aniqlanadi. Vazifa metodik ketma - ketlikda bajariladi.

To'g'ri burchakli narsalarning, masalan: yashik, jomadon, uy, sandiq va televizor kabilarning asosi kubdir. Kubni yon tomon qirralarining qisqarishini ko'ra bilish tasvirni to'g'ri bajara olishga zamindir.

Kub olii kvadratdan tashkil topgan. U kishiga, ikki yoki uch tomoni bilan ko'rinishi mumkin. Agarda kub, kishiga ikki tomoni bilan ko'rinsa, unda u to'g'ri to'rt burchakka o'xshab turadi. Kubning uch tomoni ko'rinsa, uning tomonlarini qisqarishi yaqqol seziladi va perspektiv qonuniyatlar asosida bajariladi.

Kubning rasmini tasvirlashda uning balandligi, katta-kichikligiga qarab ixtiyoriy tik chiziq bilan belgilanadi. Shu tik chiziqning tepa va pastki gorizontal qirralarni aniqlab chiziq bilan belgilanadi. Yon tomonidagi gorizontal parallel qirralar ufq chizig'idagi nuqtada kesishadi. Kubning bizga yaqin qirrasiga solishtirib, balandligi aniqlanadi, chap va o'ng tomonining chekka qirralari belgilanadi.

Kubni konstruktiv qurilishi yana bir bor tekshirib aniqlik kiritiladi, so'ng tus jihatdan yorug'-soyalar tekshiriladi va umumlashtirib yakunlanadi.

Silindr. Silindr tasvirini chizishda uning qog'ozdagi o'lchami aniqlanadi. Tasvirni chizish markaziy o'q chiziqdan boshlanib uning balandligi va eni belgilab olinadi. O'rta chiziqdan o'ng va chap tomonlarida teng joy olinadi, ustki va ostki asoslari tasviri yordamchi chiziqlar orqali chiziladi. Shundan so'ng silindr sirtini chegaralovchi yon chiziqlari chiziladi. Xatolari to'g'rilangach, uning hajmini tasvirlashga kirishiladi. Silindr tanasida yorug'dan soyaga o'tish to'g'ri to'rtburchak shaklidagi kabi keskin emas. Bunday predmetlarda yorug'dan soyaga o'tish asta-sekinlik bilan boradi, shuning uchun chizish jarayonida bunga rioya qilish lozim. Silindrning asosiy tashqi shakllari aniq chizilgandan so'ng, uni bosqichlar yordamida tuslab yakunlanadi.

Konus. Konussimon narsalarning rasmini chizishga ko'p jihatdan o'xshaydi, chunki konussimon narsalar tanasidagi yorug'lik va soya silindsimon narsalar tanasidagi yorug'lik va soyaga yaqin. Konussimon narsalarni chizishda avvalo uning qanday narsaga o'xshashligi aniqlab olinishi kerak. Masalan: gultuvak, chelak ba'zi bir shisha idishiarga o'xshashligi mumkin. Konussimon narsalarning tuzilishi silindrdan farq qiladi. Konusning pastki tomoni yo'g'onlashib, yuqoriga chiqqan sari asta-sekin ingichkalashadi. Konus tasvirini qog'ozda bajarish usuli oldingi kub va silindr turlari kabi bosqichma-bosqich tarzda bajariladi.

Shar. Sharga qaysi tomondan qaralmasin uning shakli aylana. U qirrasiz bo'lib hamma tomoni yunalmoq hajmga egadir. Sharni tasvirlash geometrik jismlarni tasvirlash kabi bajariladi. Sharning hamma qismiga yorug'lik bir xilda tushmaydi. Sharda yaltiroq joyi, yorug'lik, soya, yarim soya va refleks joylarini ko'ramiz. Sharning soya tomoniga ikkinchi tomondan yorug' tushib tursa refleks hosil bo'ladi. Yoritg'ichdan tushayotgan yorug'lik sharga tik tushib turgan joyida sho'la hosil qiladi. Shar sirtidagi soya-yorug'lik mayin tuslar orqali taraladi. Masalan, kesik konus shaklidagi chelak rasmini chizishda uning eni pastga tomon torayib borishiga, shuningdek, chelakning bandi, qulog'i, qismlarining o'lchami va tuzilishiga alohida e'tibor berish lozim. Chelakdagi yorug'lik, soya, yarimsoya va refleks kabilarning och-to'qligi jihatidan bir-biridan farqini his qilgan holda bajariladi.

Ko'za simmetrik shakl hisoblanib, u silindr va shar shakllaridan tashkil topgan. Ko'za rasmini chizish simmetriya o'qini o'tkazish va bu o'qda ko'zaning balandligi hamda enini topishdan boshlanadi. Ko'za ufq chizig'idan bir oz pastroqqa qo'yilganligi uchun uning ustki va ostki asoslari ellips shaklda ko'rinadi. So'ngra ko'zaning bo'yi va enini belgilovchi chiziqlarni tutashtirish orqali uning umumiy shakli topiladi. So'ngra soya va yorug'likni asta-sekin tasvirlashga o'tiladi. Narsalardagi yorug'-soyalarni tasvirlashni puxta o'rganish maqsadida gipsdan ishlangan ornamentlarni chizish juda foydalidir.

4. Rangshunoslik nazariyasi va bo'yoq bilan ishlash usullari

Mazmuni: Ranglarning kishilar hayotidagi o'rni. Tabiatda rang. Rang o'zi nima? Asosiy va qo'shimcha ranglar. Axromatik va xromatik ranglar. Iliq va sovuq ranglar. Bo'yoqlar va ularning tarkibi. Rangtasvir asarlarida rang uyg'unligi, rang kontrasti, tus kabi tushunchalar.

Akvarel, guash, moybo'yoq, flomasterlar. Bo'yoqlar rangini tanlash, aralashtirish orqali yangi ranglarni hosil qilish. Bo'yoq bilan ishlash texnikasi va uning ketma-ketligi. Palitradan foydalanish. Bo'yoqlar bilan ishlash usullari.

Topshiriq – Akvarel bo'yog'ida, yangi ranglar hosil qilish. Meva va sabzavotlar (olma, anor, rediska, limon, baqlajon), uy-ro'zg'or buyumlari (gultuvak, krujka, sopol idish) kabi narsalarni akvarelda tasvirlash.

O'rta Osiyoda qadimdan ranglar haqidagi ta'limot kitob miniatyurasi bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan. Musavvirlik hunari rang tanlash va ularni tayyorlashni bilishni talab etgan. XIV–XV asrlarda rang tayyorlash texnologiyasi haqida qator risolalarda qimmatli fikrlar bayon etilgan.

XVII asrning mashhur olimi Issak Nyuton oq yorug'likni ko'p rangli ekanligini isbotlagan, ya'ni spektr ranglarini hosil qilgan. Buning uchun Nyuton quyoshning oq yorug'ligini derazadagi qora pardaning ingichka tirqishidan o'tkazgan va yo'liga uch qirrali prizma qo'ygan, natijada har xil ranglardan (qizil, zarg'aldoq, sariq, yashil, zangori, ko'k va binafsha) iborat keng yorug'lik dastasi ko'ringan.

San'atshunos I.V.Gyoteni ko'proq ranglarning kishi organizmiga ko'rsatadigan ta'siri qiziqtirgan. Gyote «Ranglar haqidagi ta'limot» nomli asarida ranglarni iliq va sovuq tushlarga ajratib, iliq (sarg'ish qizil) ranglar kishida kayfi chog'liq tuyg'usini, sovuq (havo rang - yashil) ranglar esa ma'yuslik tuyg'usini uyg'otishi haqida yozgan. Umuman, Yevropada oq rang pokizalik, shodiyona, aqllilik, sariq rang esa g'amginlik shodiyonalik hisoblangan. Ko'k, quyuc soya kabi jiddiy, yetuklik qora – alam, qarilik, noma'lumlik sifatida qaralgan. Qizil ta'sirchanlik, yoshlik va insoniylik rangidek qabul qilingan.

Rang muammolarini o'rganishga yapon olimlari hamisha jiddiy qarashgan. Hozir ham dunyoda yagona bo'lgan Tokiodagi Rangshunoslik institutida inson qalbiga ta'sir etuvchi ranglar chuqur o'rganiladi. Hatto, rang asoslari fan sifatida Yaponiya maktablari dasturiga ham kiritilgan. Sharqda ham qadimdan ranglarga katta e'tibor berilgan. Jumladan, A.R.Beruniy o'zining «Kitob al-javohir fi ma'rifat al-javohir» asarida turli minerallar va metallarning 200 dan ortiq rang nomlari, tusini mohirona tasvirlagan.



Ranglar spektri.

Shuningdek, o'z davrida A.Navoiy va Zahiriddin Boburlar rang nomlaridan unumli foydalanishgan.

Atrofimizni o'rab turgan tabiat nihoyatda go'zal va jozibali. Tabiiy yorug'lik manbai quyosh nurlari ostida har bir narsa o'zining muayyan rangiga ega bo'lib, yorqin tushlarda ko'rinadi. Quyoshning oq yorug'ligi aslida murakkab bo'lib, olamni turfa go'zalligi, ya'ni bahorgi maysalar va yaproqlarning yashilligi, osmonning moviyligi, gullarning rang-barangligi hammasi shunga bog'liq.

Olimlar tomonidan aniqlangan yettita rang **spektr ranglari** deb atalib va rangshunoslikda **ranglar doirasi** deb yuritiladi.

Ranglar doirasida qizil, qizg'ish zarg'aldoq (nor-noranji), zarg'aldoq, sarg'ish zarg'aldoq, sariq, sarg'ish yashil, yashil, yashiltob zangori, havorang, ko'kimtir havorang, ko'k, ko'kimtir binafsha, qirmizi ranglarning har xil tushlari ko'rinadi.

Ranglar doirasida rang tushlari juda ko'p bo'lishi mumkin. Ranglarni doira bo'ylab joylanish tartibi muayyan saqlanadi.

Rang doirasi ikki teng bo'lakka bo'linsa, birinchi yarmidagilar iliq ranglar, ikkinchi yarmidagilar esa sovuq ranglardir.

Bunday nomlanishiga sabab – qizil, sariq ranglar olovni, qizigan temimi, cho'g'ni eslatsa, havorang, zangori, yashil, ko'klar esa muzni, suvning rangini eslatadi.



Ranglar hosilasi.

Bo'yoqlarning qo'shilishi bilan spektral ranglarning qo'shilishi orasida farq bor. *Asosiy ranglar* – qizil, sariq va ko'k. Bu rangli bo'yoqlar qo'shilishidan qora rangli bo'yoq hosil bo'ladi. Sariq va ko'k bo'yoqlarni aralashtirish yashil rangdagi bo'yoq hosil bo'ladi. Demak, ikkita rangni optik aralashtirish natijasida rang hosil qiladigan ranglar o'zaro *to'ldiruvchi* (qo'shimcha) hisoblanadi. Masalan, to'q qizil va yashil, zangori va zarg'aldoq, qizil, sariq va ko'k, havorang, sarg'ish yashil va binafshalar o'zaro to'ldiruvchidir.

Tabiatdagi hamma ranglarni shartli ravishda ikkiga: *axromatik* va *xromatik* ranglarga bo'lish mumkin. Oqdan to'q qoragacha bo'lgan (oq, kulrang, qoramtir, qora, to'q qora) ranglar va och-to'qligi tufayli bir-biridan ajraladigan ranglar rassomlikda axromatik (rangsiz) deb yuritiladi. Xromatik ranglar bir-biridan och-to'qligi, rangi bilan ham farqlanadi.

Ranglarning nomini ifodalovchi, ya'ni ularning birini qizil, ikkinchisi ko'k, uchinchisi binafsha deb atalishiga asos bo'lgan belgisi *rang tusi* deyiladi.

Biror xromatik rangga ochroq kulrang qo'shsak nursizlanadi, bu hol rangning kam to'yinganligidan, ya'ni uning tarkibida sof bo'yoqning kamayganligidan darak beradi. Demak, rangning *to'yinganligi* yoki intensivligi deganda, uning kulrangga nisbatan rangdorlik darajasini tozaligini tushunish kerak.

Ranglar ma'lum nom bilan ataladi. Kamalakdagi asosiy sakkiz rangning nomi quyidagicha nomlanishl joizdir: 1-qizil, 2-nor (noranji), 3-sariq, 4-yashil, 5-moviy, 6-ko'k, 7-safsar, 8-shol (qirmizi).

Beruniy ishlab chiqqan terminologiya bo'yicha ranglarni quyidagicha nomlash mumkin: 1- ahmarvash, 2-noranji, 3-asfarvash, 4-axzarvash, 5- azraqvash, 6-nilfom, 7-safsarvash, 8- usfurus.

Har qanday rang ham boshqa ranglar ta'sirida o'zgaradi. Bu hodisa – **ranglarning bir vaqtdagi qarama-qarshiligi** deyiladi. Qo'shni ranglar ta'sirida bironta rangning faqat och-to'qlligi o'zgarsa – **och-to'qlik kontrasti** deb yuritiladi. **Rangli kontrasti** deganda, bitta rangning turli tuslar o'rtasidagi, ya'ni uning bir-biridan nozik farqlanadigan tuslari o'rtasidagi qarama-qarshiliklari ham nazarda tutiladi.

Rang bilan ishlashda ranglar uyg'unligini bilish katta ahamiyatga ega. Ikkita o'zaro mos ranglarni aniqlashda rang doirasidagi bir-biriga qarama-qarshi turgan ikki rang olinadi.

Narsa va tevarak atrofni tasvirlashda moy, tempera, akvarel, guash kabi bo'yoqlar ishlatiladi. Narsalarni bo'yoq yordamida tasvirlash murakkab bo'lib, kishidan ranglarning xususiyatlari va ularni ishlatish usullarini bilishni talab qiladi. Bo'yoqlar yordamida narsaning hajmi, materialligi va fazoviy holatini tasvirlash rangtasvirning asosini tashkil etadi.

Akvarel bo'yoq bilan ishlash uchun hamma sharoit yaratilishi lozim. Akvarel bo'yoq bilan dastlabki mashqlar to'g'ri to'rtburchak yuzasini bir xil rang bilan tekis bo'yashdan boshlanadi. Bu mashqlar bo'yoqdan to'g'ri foydalana bilish malakalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, akvarel bo'yoq bilan och rangni to'q rangga, to'q rangni och rangga aylantirish mashqlarini bajarish zarur.

Berilgan yuzani bir tekis qilib bo'yash uchun avval qorishtiriladigan idishga kerakli miqdorda bo'yoq tayyorlanadi.


Bu quyidagi usulda bajariladi;

Dastlab bo'yoqni eritish uchun ozgina suv quyib qo'yiladi. So'ngra bo'yoq qorishtiriladigan idishga keragicha suv quyiladi. Ho'l mo'yqalam bilan bo'yoq olinib idishda qorishtiriladi, so'ngra uni oq qog'ozga surtib tekshirib ko'riladi. Agarda bo'yoq quyuqroq bo'lib qolgan bo'lsa, mo'yqalam bilan suv tomizib suyultiriladi va aksincha, suyuqroq bo'lib qolgan bo'lsa, ho'l mo'yqalam bilan bo'yoq olib qo'shiladi. Bo'yoq qog'ozda juda ham suyuq qilib ishlatilmog'i lozim. Bo'yashda mo'yqalamni yuqoridan boshlab chapdan o'ngga qarab yurgiziladi.

Mo'yqalanı ko'tarib olingach, darhol idishdan bo'yoq olib chapdan hozirgina bo'yalgan yuzaga mo'yqalamni parallel ravishda surtiladi. Mo'yqalam yurgizib bo'yalgan yuzada bo'yoq tegmagan joy qolmasligi kerak.

Akvarel bilan bo'yalgan qog'oz bir oz qiya holatda tursin. Bu ortiqcha bo'yoqning qiya tomonga oqishi uchun qilinadi. Oqib tushgan bo'yoqlarni olib tashlamasdan keyingi galda ishlatib yuborish kerak bo'ladi. Qog'oz qiyaligi shunday bo'lishi kerakki, unda bo'yoq o'zi oqib ketaversin, mo'yqalam esa uni faqat to'g'rilab bermog'i lozim. Ranglarni asta-sekin kuchsizlantirib borish yoki qatlam rang ustiga ikkinchi qatlamni quyish «yuvish» (*отмывка*) uslubi deb nomlanadi.

Ishning oxirida bo'yaladigan yuzaning pastki chegarasida bo'yoqlar yig'ilib qolsa toza mo'yqalamga shimdirib olinadi.



Ranglar aralashmasi manbaidagi tasvirlar.

bo'yoq eritmasi bilan qoplab chiqiladi. Narsalardagi soya-yorug' va reflekslarning kuchi taqqoslanib ish davom ettiriladi. Talabalar qo'yilgan natyurmortni yaxlit ko'rishi, narsalar va fon (orqa sathi) orasidagi farqlarni sezishi kerak. Ishni ehtiyotkorlik bilan boshlash hamda metodik izchillikda oxiriga yetkazish lozim.

Akvarel bo'yoqlar bilan ishlash usullarini mukammal o'rganishning ishonchli vositalaridan biri – natyurmortlar bilan ishlashdir. Dastlabki natyurmort ishlashda bir-biridan rang jihatidan keskin farqlanadigan aniq rangli narsalardan tanlash kerak. Qo'yilgan natyurmortning barcha talabalarga ko'rinarli bo'lishiga va kerakli miqdorda yoritilishiga e'tibor berish zarur. Ma'lumki, yon tomonidan yoritilgan narsalarning shakli, hajmi, aniq ko'rinadi.

Natyurmort qo'yilmasi qalamda tasvirlangach, narsalarning aniq (lokal) rangida

5. Natyurmort

Mazmuni: Natyurmort haqida umumiy ma'lumot. Natyurmort janrida ijod qilayotgan rassomlar, ularning asarlari tahlili. Natyurmort tuzish qoidalari. Narsalarning shakli, hajmi, nisbatlari va kompozitsiyasi. Natyurmort tasvirlashning metodik bosqichlari. Rang va tus nisbatlari.

Topshiriq – Qalamda, rangda natyurmort tuzish va uni tasvirlash (geometrik jismlardan, uy-ro'zg'or buyumlaridan tuzilgan natyurmort).

Natyurmort – tasviriy san'atning o'ziga xos mustaqil janridir.



«Natyurmort» (nature morte) fransuzcha so'z bo'lib, «jonsiz tabiat» degan ma noni anglatadi va unda ko'pincha mehnat qurollari, sabzavot va mevalar, gullar, parranda va mayda hayvonlar tasvirlanadi, ya'ni natyurmort san'atda insonning maishiy hayotini aks ettiradi.

Natyurmort. Qalam aralashmasi.

Natyurmort XVII asrning boshlarida

Gollandiyada paydo bo'ldi. Ko'plab mamlakatlarga tarqalib, ayniqsa, XVIII asrning o'rtasida tasviriy san'atda keng rivoj topgan mustaqil janr hisoblanadi.

Rangtasvir san'atining nodir ustasi fransiyalik rassom Jan-Batist-Simeon Shardenning «San'at atributlari» mavzuidagi natyurmort asarini kuzatganimizda oddiy narsalarning yuksak badiiy tasvirini ko'ramiz.

O'zbekiston tasviriy san'atida rassomlardan N.Kashina, Z.Kovalevskaya, Yu.Elizarov, R.Ahmedov, G'.Abdurahmonov, N.Ten A.Yunusov, A.Mirzayev kabi ko'plab natyurmort janrining ustalari va umidli yosh rassomlar o'lkamiz noz-ne'matlarini o'zlarining natyurmortlarida mohirona ifodalaganlar. Natyurmort tasviriy san'atning alohida janri bo'lib hisoblanadi.



Natyurmort mustaqil janr bo'lishi bilan birga, mavzuli suratlardagi asarlarning mazmunini ochib berishda ko'maklashuvchi, uni to'ldiruvchi vosita bo'lib ham xizmat qiladi. Taniqli rassom N.D.Ten ishlagan «Natyurmort» asarida turli mevalar va issiq nonlar o'ta jozibali tasvirlangan. Mo'yqalam sohibi asar mazmunini ochishda iliq sarg'ish-qizil ranglarni atrofda ko'k, yashiltob kabi turli-tuman ranglar bilan uyg'unlashtirib tasvirlashi tufayli suratning o'ta ta'sirchanligiga erishgan.

Biror mavzudagi natyurmort asari yaratish fikri rassom xayolida uzoq davom etgan kuzatishlar yoki biror narsadan qattiq ta'sirlanish natijasida to'satdan paydo bo'lishi ham mumkin. Ijodkorning ko'z o'ngida bo'lajak natyurmort yaxlitligicha gavdalanadi va unga mos narsalar tanlab, e'tibor bilan joylashtirish haqida fikr yuritadi, xomaki eskizlar chizadi va shu eskizlar asosida kompozitsiya tuzadi.

Natyurmortni mazmunli tuzish katta ahamiyatga egadir. Natyurmortda tasvirlanadigan narsalarning katta-kichikligi turlicha bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Kichikroq narsalar oldinda, yiriklari orqa ko'rinishda tasvirlanadi. Natyurmort tuzganda uning foniga ahamiyat berish kerak. Qo'yilgan natyurmortning umumiy tusini hisobga olib, oqish natyurmortga - qoramtir fon, qoramtir natyurmortga esa oqish fon tanlanadi. Natyurmort ufq chizig'idan pastroqda joylashtiriladi. Shunda narsalarning fazoviy holati va narsa tekisligi yaxshi ko'rinadi. Natyurmort to'g'ri qo'yilgandan so'ng u sinchiklab kuzatiladi. Natyurmort kompozitsiyasini qog'ozga to'g'ri joylashtirish maqsadida qog'ozdan yasalgan maxsus asbob (videoiskatel)dan foydalanish yaxshi natija beradi. Bu asbob orqali aniqlangan kompozitsiya alohida kichik o'lchamdagi qog'ozda xomaki rasmi chizib ko'riladi. Qo'yilma kompozitsiyasi aniqlangach asosiy ish katta o'lchamdagi qog'ozda bajariladi.

Natyurmort qo'yilmasida hamma narsalarni bir yo'la tasvirlash lozim. Aks holda bir narsaning o'lchami kattaroq va ikkinchisi esa kichikroq bo'lib kompozitsiya buziladi. Narsalarning umumiy balandligi va eni ish qog'ozida yordamchi chiziqlar bilan belgilab olinadi. Natyurmortning kompozitsiyasi belgilangandan keyin quyilmadagi har bir narsaning o'lchami, shakli (tuzilishi, rangi, yorug'-soyasi) aniqlashga o'tiladi, ya'ni qisqasi natyurmort chizishda umumiydan xususiyga va xususiydan yana umumiyga o'tish jarayoniga amal qilinadi. Natyurmortni tasvirlashda bosqichma-bosqichlikka amal qilish kerak. Ikki-uch narsaning tasvirini chizishda buyumlarning o'lchami jihatidan

o'zaro farqini, oraliq masofani, soya va yorug'liklarning farqini ko'z bilan chamalab topiladi. Qalamni bosmagan holda ularning tasvirini o'rni belgilab olinadi. Tasvir shakli, topilgach yorug'lik manbai aniqlanadi. Chunki tasvirning muvozanat holatda turishi undan tushib turgan soyaga ham bog'liqdir. Tushuvchi soya narsalarning fazoviyligi va qanday materialdan ishlanganligini aniqlashga yordam beradi. Narsalarning o'z soyasi, yorug' qismi, o'zidan tushib turgan soya qalamda tuslab chiziladi. Narsalarning perspektiv qisqarishlarini hisobga olib har bir narsadagi yorug' va soya qoidalariga rioya qilgan holda tasvirlanadi. Keyin natura bilan fon o'rtasidagi och-to'qligining farqi belgilanadi.



Naturmortning akvareldagi metodik bosqichi.

Natyurmort kompozitsiyasi

Har qanday san'at asarining negizini kompozitsiya tashkil etadi. «Kompozitsiya» (lat. compositio) – tuzish, ijod qilish demakdir. U asar tuzilishida qismlarning asar g'oyasiga muvofiq joylashtirilishini va o'zaro munosabatini anglatadi.

Tasviriy san'atda kompozitsiyaning simmetriya va asimmetriya, muvozanat va ritm, turg'unlik (statika) va harakat (dinamika), ikkinchi darajali narsalarga (asosiyga) bo'ysunishi, ko'rish markazi va ko'pincha unga mos keladigan kompozision markazni bo'rttirib ko'rsatish kabi qoidalari mavjud.

Kompozitsiyaning asosiy talablari yaxlitlik, simmetriya va ritm. Tasodifan terilib qolgan narsalarni natyurmort deb bo'lmaydi. Natyurmort kompozitsiyasining ma'noli va ta'sirchan chiqishi uchun yagona mavzudagi, bir-biriga munosib va mos narsalar tabiiy bog'lanishda qo'yilishi kerak.




Qo'yilgan natyurmortning asosiy g'oyasini surat tekisligida tasvirlab ko'rsatib berish uchun, ya'ni natura bilan tasvir o'rtasida to'la o'xshashlikka erishish uchun tasviriy san'atning ifoda vositalari bo'lgan kompozitsiya, perspektiva, yorug'-soya va rangshunoslik nazariyalarini puxta bilish va ularni amalda qo'llay olish talab qilinadi. Endi bitta narsani emas, bir necha narsani o'zaro bog'lanishda, qismlari bir-biriga mos bo'lgan yaxlit narsa qilib tasvirlab ko'rsatishdan iborat bo'ladi. Shuning uchun ishning rejasini tuzib olib, ketma-ketlik bosqichlar bilan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.




Natyurmort kompozitsiyasini tuzish.

Natyurmort ishlashda ma'lum izchillikni saqlab, ketma-ket bosqichlar bilan ish olib borish, tasviriy san'at asoslarini o'rganish muhim.

Natyurmortning qalamda chizilgan kompozitsiyasini surat tekisligida tasvirlash xususiyatlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz. Rasm chizuvchi narsalar to'plamiga (natyurmort) ma'lum bir ko'rish nuqtasidan qaraydi va u ko'z qarashiga qat'iy ravishda kuzatish perspektivasi qonuniyatining o'zaro bog'liqligi bilan namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, naturadagi narsalar o'zaro yoritilganligi va bir-biriga bog'langan bo'lib, ular oralig'ida reflekslar, yarim soyalar, soyalar va yorug'liklar taqsimoti ma'lum bir tartibda bo'ladi. Mabodo ko'rish nuqtasi o'zgartirilsa, naturaning o'zaro joylashuvi va yoritilganligi yangi ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ko'rish nuqtasi yorug'likka qarama-qarshi bo'lganda tasvirni siluet tarzida ko'rish mumkin. Natyurmort kompozitsiyasini shunday tuzish kerakki, uni qaysi nuqtadan kuzatganda ham u yaxlit bir butun ko'rinishiga erishmoq zarur. Naturaga nisbatan qiziqarli ko'rish nuqtasini tanlab olgach, qog'oz varog'i qanday o'lchamda bo'lishligini aniqlash zarur. Qog'oz varog'ida ifodalanadigan natyurmort qo'yilmasini naturadan to'g'ri aniqlab tasvirlay olish kerak.





Geometrik jismlardan tuzilgan kompozitsiyaning tasvirlash bosqichi.

Natyurmort kompozitsiyasini qurilishida dastlab qog'oz yuzasida tasvirlanayotgan narsalarni puxta joylashuvi, qog'oz o'lchamiga nisbatan tasvirning katta-kichikligini aniqlashdan iborat. Har bir natura qo'yilmasi muayyan o'lchamdagi qog'ozmi talab qiladi.

Tasvirlanayotgan narsalar ma'lum o'lcham tekisligida «tiqilinch», yoxud juda ham kichik joylashib qolmasligi zarur. Haddan tashqari kichik joylashgan tasvirlar qog'oz tekisligida amiq ko'rinmaydi.

Tasvirda asosiy e'tiborni o'ziga jalb etuvchi buyum – kompozitsiya markazi qolganlari esa unga tobe bo'lib xizmat qiladi.

Tasvirda tomoshabinning nazari ana shu markazga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. O'chamni aniqlab olgach, asosiy ishni boshlashdan oldin kichik o'lchamdagi qog'oz bo'lagida bo'lajak natura qo'yilmasini xomaki variantlari tayyorlanadi, shundan so'ng, asosiy ishga o'tish maqsadga muvofiqdir.

Dastlab oddiy natura qo'yilmalaridan (gipsli geometrik shakllardan), keyin esa geometrik shakllarga yaqin bo'lgan maishiy buyumlardan tuzilgan natyurmortlarni astoydil ishlash, so'ngra, turli rangdagi, materiallardagi buyumlardan tuzilgan qo'yilmalarni tasvirlash mumkin.



Ko'za va meva-sabzavotlardan natyurmort.

Natyurmort qo'yilmasini tasvirlashda ishni alohida-alohida buyumlardan boshlab so'ngra boshqalariga o'tish aslo mumkin emas. Narsalar guruhini qog'ozga to'g'ri joylashtirishda nisbat, oraliq masofalar, fazoviy joylashuvda xatolikka yo'l qo'ymaslik muhimdir. Buning uchun narsalar to'plamini yengil chiziqlar bilan belgilab chiqish zarur. Tasvirlashda narsa va buyumlarning perspektiv qisqarishlarini puxta bajarishi o'ta muhim.

Dastlabki qalamtasvir ishiarini bajarayotganda talabalar narsa va buyumlarning tekislikdagi fazoviy joylashuvi, nisbatlari, hajmi, konstruktiv qurilishi kabi vazifalarni to'liq bajarishmaydi. Ularning diqqat-e'tibori narsalarni kontur chiziqlarini tasvirlashga qaratilgan bo'ladi. Ularning fikricha narsaning sirtqi ko'rinishi chizilsa, shakl ham to'g'ri tasvirlanadi deb hisoblaydilar. Buyumning sirtqi ko'rinishini tasvirlayotib, uning konstruktiv qurilishi, nisbat kabi xususiyatlari nazardan qolib ketishi mumkin.

Narsalarning o'zaro joylashuv., istagan qirrasini yo'nalishi naturada osongina aniqlanadi va naturaning yo'naltiruvchi va vertikal (tik), gorizonta (yotiq) chiziqlari yordamida tasvir qog'ozda yengil quriladi. Uzun qalam yordamida qurilmaming perspektiv burchaklarini, qirra nisbatlarini, stol tekisligida o'zaro turgan joylarini tekshirish mumkin. Buning uchun qalamni cho'zilgan qo'lda vertikal, gorizonta yoki burchak ostida ushlab qirralarni perspektiv yo'nalishini tekshirish mumkin.

Qo'yidagi tasvirda konusning asos qismini kubning yuqori tomonining eniga bo'lgan nisbatini qalam bilan asosini chekka o'ng burchak yoniga qo'yib vertikal bo'yicha tekshirish mumkin. Naturada bu vertikal kubning qoraytirilgan tomonini o'rtasidan kesib o'tadi qalamtasvirda esa bunday bo'lmasligi mumkin. Xatosini aniqlab uni darhol tuzatamiz. Agarda konusning chap tomonini davom ettirsak, u silindrning aylana asosiga zo'rg'a tegadi. Bu yerda ham qalamtasvir aytarli darajada aniq emas. Vazani yuqori qismi orqali gorizontall chiziq o'tkazib uning balandligini konus bo'yiga nisbatan aniqlash mumkin. Yana silindrning ikki tomonini davom ettirsak, qayerga borib taqalishini tekshirib ko'rish mumkin. Naturada kubning oldingi qirrasini konusning markazi bilan ro'para kelmaydi, qalamtasvirda u aynan markazda bo'lib ko'rinishi ham mumkin. Shunday qilib, yana bitta xatosini topamiz. Endi gorizontall joylashgan qalamni naturadagi kubning asosiga keltiramiz va qanchalik silindr asosini pastida bu chiziq o'tishini kuzatamiz. Naturada ikkalasini asosi deyarli bitta gorizontall chiziqda joylashgan. Buni qalamtasvirda tekshirib ko'ramiz.

Narsalarning nisbatlarini aniqlab va ularni perspektivada qurayotib barobar yengil-yelpi soyalarni berish mumkin. Bu esa narsalarning nisbatlarini ham va ularning o'zaro joylashganligini ancha aniq yetkazishda imkon beradi. Stol tekisligidagi narsalar to'plamini joylashtirishda ularning asoslarini qurish juda ham muhim. Har bir narsani joyini aniqlamasdan ular orasidagi kenglikni yetkazish mumkin emas. Ayrim narsalar havoda «muallaq» bo'lishi yoki biri ikkinchisiga «o'yib» kirgandek ko'rinishi mumkin.

Tasvirlash jarayonida alohida narsalarning va ularning qismlarini katta-kichikligini har doim bir-biriga taqqoslab borish zarur.

6. Intererni tasvirlash

Mazmuni: Tasviriy san'atda interer. Intererni ko'rinishlari. Xonaning ichki ko'rinishining tasvirlash usuli.



Topshiriq – o'quv xonasi intererini tasvirlash.

«**Interer**» fransuzcha so'z bo'lib, xona ichkarisining ko'rinishi demakdir. Bu tasviriy san'atning alohida janri hisoblanadi. Mashg'ulotlarni bajarganda uy yoki bo'lmasa koridor va zallar tanlanadi, bu yerda qisqarish yaqqol ko'rinadi. Interer chizish mashg'ulotlarini o'tkazishdan oldin qoidalari bilan tanishish kerak.




Interer asosan ikki usulda tasvirlanadi: 1. Bir tutashish nuqtasiga ega bo'lgan interer. 2. Ikkita tutashish nuqtasiga ega bo'lgan interer. Katta xonalarda ko'pincha bir tutashish nuqtali interer rasmi chiziladi. Xonaning ichi unchalik katta bo'lmasa burchakdan ikki tutashish nuqtasi orqali interer chizish qulay keladi. Masalan, sinf xonasining rasmini chizish uchun: 1. Oldin surat tekisligini, ya'ni qog'ozni aniqlab olinadi. 2. Qalam bilan o'lchab old devorga nisbatan shiftning balandligi va polning chizig'i topiladi. 3. Ikki yon devorning o'lchami va o'rni topiladi. 4. Burchaklarni birlashtirib, yon devorlarning orqaga ketuvchi chiziqlari topiladi. Keyin ularni markaz tomon yo'naltirib o'zaro kesishgan yerda uchrashuv nuqtasi topiladi. 5. O'sha nuqtadan gorizont chizig'i o'tkaziladi. 6. Keyin eshik, oyna, sinf taxtasi aniqlanadi. So'ngra poldagi partalar rasmi chiziladi.

Qalam bilan o'lchash yordamida shift, pol va yon devorlarning o'zaro nisbatlarni yaqin joylar katta ko'rinadi. Biz xonaning to'g'rimizdagi old devoriga qaraganimizda ko'zimiz qaysi nuqtaga tushsa, o'sha nuqtadan ufq chizig'i o'tadi. Bu nuqtani aniq topish uchun bir varroq qog'ozni gorizont holatda ko'zimizning ro'parasiga keltirib qaraymiz. Qog'ozning usti va osti ko'rinmay, bir chiziqqa kelib qoladi va bu chiziq devorda biror nuqtaga to'g'ri keladi. O'sha nuqtani uchrashuv nuqtasi hain deyiladi. Xulosa qilib aytganimizda, o'zaro yondash hamma gorizont chiziqlar surat tekisligidan uzoqlashgan sari ufqda bir nuqtada uchrashadi. Surat tekisligiga tik bo'lgan hamma gorizont chiziqlar ufqdagi markaziy nuqtaga qarab yo'naladi. Musavvirlarning interer asarlarini kuzatib, o'zingiz yashayotgan xonaning ichki ko'rinishlarini chizib mashq qiling. Bunda kesishish nuqtasiga ko'ra narsa va tomonlarning qisqarish, chiziqlarning tutashishiga ahamiyat berib, ishni mazmuniga e'tibor bering.

Rasm chizuvchiga nisbatan frontal holda joylashgan intererning tasviri chizib ko'rsatiladi. Bunda avvalo, ichkariga yo'nalgan yotiq chiziqlardan biri ufq chizig'iga nisbatan qanday burchak hosil qilishi chamalab topiladi. Polning chap tomoni bilan chap devorning ostki tomoni chizig'i davom ettirilganda u R nuqtada ufq chizig'i bilan tutashadi. So'ng devorning bir tomoni rasmda belgilanadi. Shu asosda deraza, divan, kartina va boshqa narsalarning o'rni yengil-yelpi chiziqlar bilan belgilanadi. Intererining asosiy bo'laklari belgilangandan so'ng har bir narsaning o'lchami va o'rni perspektiva qoidasi asosida aniqlashtiriladi. Rasm yorug'-soyalarni tasvirlash bilan oxiriga yetkaziladi.



Frontal joylashgan interer.





Burchakli interer.


Interer chizish malakalarini puxta egallash maqsadida har bir talaba o'zi yashayotgan uyning ichki ko'rinishini bir necha bor chizishni topshirish maqsadga muvofiqdir. Qalamda, shuningdek, akvarel ho'yoqlarda bajarish mumkin.

7. Tabiat manzarasining tasvirini ishlash

Mazmuni: Rassomlar ijodida manzara janri. Manzara janri haqida tushuncha. Tabiatda shakl, tus va rang munosabatlari. Tabiatdagi daraxt va o'simliklarning bargi, guli va mevalarini tasvirlashning o'ziga xos xususiyatlari. Tasvirlashda kuzatuv ramkasidan foydalanish. Manzaraning xomaki tasvirini ishlash va uning metodik bosqichlari.

Topshiriq – Yakka holdagi daraxtlar, o'simliklar, mevalarni alohida-alohida asliga qarab rasmini ishlash. Biror bir ko'rinishdagi manzarani qalamda va rangda tasvirlash.

Tasviriy san'atda tabiat ko'rinishlarini tasvirlaydigan janrlaridan biri manzaradir. Unda asosan tabiat va shahar ko'rinishlari aks ettiriladi. Manzarachi rassom o'z asarlari orqali tabiatga bo'lgan munosabati, his-tuyg'ularini ifodalaydi. Tasviriy san'atda ko'p manzarachi rassomlar: A.Savrasov, I.Shishkin, I.Levitan, S.Chuykov, O'.Tansiqboyev, N.Karaxan, R.Temurov va boshqalarni ko'rsatish mumkin.



Shahar manzarasining ko‘rinishi.

Manzara janrida tabiat ko‘rinishlari orqali jamiyat hayotiga mansub bo‘lgan muhim voqea va hodisalarni aks ettirib, ilgari surmoqchi bo‘lgan g‘oyani aniq tasavvur qilishni talab etadi. Undan tashqari, manzarada tasvirlanadigan narsalar orasidagi masofa, o‘lchov nisbatlari va ranglarning bir-biriga bo‘lgan munosabatlari ko‘rsatiladi. Manzara janri birmuncha murakkab bo‘lganligi sababli dastlab tabiatdagi ba’zi bir narsalarning alohida qismlarini, biror-bir bo‘lagini o‘ziga qarab tasvirlash nihoyatda foydalidir. Masalan, daraxt tanasi, novda, shox-shabba va hokazolarni chizish mumkin. Bunda narsalarning xarakterli belgilari, bo‘laklarning nisbati, yo‘nalishini to‘g‘ri tasvirlashga harakat qilish kerak. Keyinchalik esa biror-bir daraxtni osmondagi bulutlar bilan birgalikda chizish kabi vazifalarni bajarib, asta-sekin butun manzara ko‘rinishini chizishga o‘tiladi. Bunday ishlarni avval qalam, so‘ngra bo‘yoqda bajarishi lozim. Manzara ishlashda yaqin, o‘rta va olisdagi narsalar asosan uchta ko‘rinishga joylashtiriladi. Yaqin ko‘rinishdagi narsalarni aniqroq, olisdagi narsalarni ochroq chiziladi. Bu ko‘rinishlarda to‘g‘ri tasvirlash uchun avvalo manzarani sinchiklab kuzatish va uni tasvirlaganda uzoqdagi narsalarning yaqindagiga nisbatan kichik bo‘lishini hisobga olish kerak va havo perspektivasi qoidasiga ko‘ra uzoqdagi narsalar rang va tus jihatdan yaqindagilarga nisbatan xiraroq va och ko‘rinadi.



Manzarani bosqichli tasvirlash.


Tabiatning biron-bir qismini tasvirlash uchun avvalo ko'rish nuqtasi va ufq chizig'i qayerdan o'tganligini qog'oz betida aniqlab olinadi. Rasm kompozitsiyasini to'g'ri topish uchun chizilayotgan manzarani cheklovchi ramka shaklidagi qurilma (karton yoki qog'ozdan yasalgan maxsus asbob)dan foydalanish mumkin. Kompozitsiyasi topilgandan so'ng uni qog'ozda yengil-yelpi chiziqalar bilan chizishga o'tiladi. Bunda yaqin va uzoqdagi narsalarning joylashuvi, o'lchamlari, xarakterli belgilari, nisbatlari va boshqa xususiyatlariga e'tibor beriladi. Bo'yoqda bajarilish vaqtida asosiy e'tibor tabiatdagi narsa rangining atrofda boshqa narsalar rangiga ta'sir etishiga, kompozitsiya koloritining yaxlitligiga qaratiladi.

8. Qush va hayvonlar tasvirini ishlash

Mazmuni: Animalist rassomlarning ijodi. Qush va hayvonlarni shakli, tuzilishi, bir-biridan farqi, ularning o'ziga xos xususiyatlari. Harakatdagi qushlar tasviri. Qush va hayvonlarning xomaki tasvirlarini ishlash. Qush va hayvonlarni o'ziga qarab tasavvur orqali qalamda va rangda tasvirlash.

Topshiriq – Qotirilgan qush va hayvonlarni o‘ziga qarab qalamda va rangda tasvirlash: Xo‘roz, tovuq, o‘rdak, qarg‘a, bo‘ri, quyon, mol, qo‘y, echki va otlarni tasvirlash. Hayvonot bog‘idagi yovvoyi qush va hayvonlarning tasvirini xomaki ishlash.

Har bir bo‘lg‘usi o‘qituvchi qush va hayvonlar rasmimi tasvirlash borasida kerakli bilim va malakalarga ega bo‘lishini talab etadi. Pedagogik faoliyat jarayonida o‘quvchilar tasviriy san‘at darslarida qush va hayvonlarni rasmini tasvirlashga to‘g‘ri keladi. Qush va hayvonlar tabiatimizning chiroyi, ular biz bilan birgalikda hayot kechiradi. Qushlar va hayvonlar tabiatning har xil sharoitlariga moslashgan bo‘lib, yashash joylari bir-biridan farq qiladi. Masalan, o‘rdak vaqtning ko‘proq qismini suvda suzish bilan o‘tkazadi. Uning gavdasi boshiga nisbatan katta, oyog‘i pardali, bular unga suvda suzishiga yordam beradi. Burgutning esa tumshug‘i qayrilgan, changali kuchli, tirnog‘i o‘tkir va qanoti keng bo‘ladi. Shular kabi ko‘k qarg‘a, chittak, jibljibon, qaldirg‘och va hokazo qushlardir.




Ot va tuyani tasvirlashning ketma-ketligi.

Qush va hayvonlarning rasmini chizishni o‘rganishda avvalo tulumiga qarab turli tomondan tasvirlashni mashq qilish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun hayvon va qushlarni sinchiklab kuzatish va o‘rganish lozim. Keyim esa tulumlarini tez chizishni mashq qilish orqali jonli hayvon va qushlar rasmini tasvirlashga o‘tiladi.

Tirik qushlarning tasvirini ishlash juda qiyin. Chunki ular tinmay harakat qilib turadi. Albatta, tajribasi kam talabalar buni tezda chizib ulgurmaydi.



Qush tasvirining akvarelda bosqichli bajarilishi.



Qushlar tuzilishi.

Birorta qush rasmini ishlashdan oldin uning boshiga nisbatan gavdaning kattaligi, tumshug'i, dumining tuzilishi aniqlab olish kerak. Qushlarning tuzilishini geometrik jismlarga taqqoslasak, tumshug'i konussimon, boshi sharga o'xshaydi. Gavdasi esa tuxum shakliga o'xshab ketadi. Ana shu shakllarga o'xshatib qushning boshi, bo'yni, tumshug'i, gavdasini chizish kerak. Albatta har qaysi bo'lakning o'ziga xos tomonlarini hisobga olib bir-biriga uzviy bog'lash lozim, bo'lmasa boshqa bir qushga o'xshab qoladi.

Qush(turna) rasmini chizish uchun avval sinchiklab kuzatiladi, turnaning gavdasiga nisbatan oyog'i, bo'yni anchagina uzun, tumshug'i esa uzun va uchlidir. Qog'ozga turnaning gavdasi o'rtasidan yo'nalishi bo'yicha qiya chiziq

tortib, ana shu chiziqqa uzunchoq tuxum shaklidagi gavdasi belgilanadi. Keyin bo'yini belgilovchi chiziq, oyoqlarning yo'nalishini ko'rsatuvchi chiziqni, so'ng dumining uzunligi belgilanadi. Chizish jarayonida qushning tumshug'i, boshi, oyog'i, qanoti, dumi kabi bo'laklarining o'lehamlari qayta-qayta solishtirilib aniqlanadi. Ish yorug' va soyalarni asta-sekin tasvirlash bilan nihoyasiga yetkaziladi.

Hayvonlar rasmini chizishda ham qushlar rasmini chizishdagi tartibga rioya qilinadi. Ot, qo'y, sigir, mushuk, quyon va hokazolar shular jumlasidandir. Ularning tasvirini chizish qushlarni chizishga qaraganda birmuncha qiyin. Chunki hayvonlarning tana va suyak tuzilishi murakkabdir. Suyak tuzilishini o'rganish ham tasvir chizishda katta yordam beradi.


Tirik hayvon va qushlarning tasvirini tugal ravishda ishlash qiyin. Shuning uchun tirik hayvon va qushlarning faqat xomaki tasviri chiziladi.

9. Odamning boshi va qomatini tasvirlash (qalam va rangda)

Mazmuni: Portret janri rassomlar ijodida. Inson boshi va qomatining anatomik tuzilishi, gavdaning boshga nisbatan mutanosibliigi. Inson boshi va qomatining fiziologik, psixologik xususiyatlari. Odam qomatini tasvirlashdagi metodik ketma-ketlik.


Topshiriq – Qalamda va akvarelda odam boshi va qomatini anatomik tuzilishini xomaki rasmini tasvirlash. O'quvchini o'ziga qarab yoki tasavvurdan portretini chizish («Do'stim portreti»).

Odam gavdasining tasvirini chizish boshqa narsalarning tasviriga qaraganda ancha murakkabdir. Odam rasmini chizishda avvalo, uning gavda tuzilishi o'rganiladi.



Erkak va ayol boshini tasvirlash nisbatlari.

Ma'lumki, skelet bosh suyak, gavda, qo'l va oyoq suyaklaridan iboratdir. Skeletni o'rganishda kalla suyagining xomaki rasmini chizishning o'rni katta. Uni turli tomondan turli holatda rasmini chizish yaxshi natijalar beradi. Odamning boshi ikki qismga: yuqori va pastki qismga bo'linadi. Bularning chegarasi ko'z qiyig'i, qorachig'i o'rtasidan ikki teng qismga bo'linadi, chiziq pastida burun, og'iz joylashgan, o'shndan burun uzunligigacha bo'lgan oraliq burun uchidan iyakkacha bo'lgan oraliqqa tengdir. Ko'zning eni ikki ko'z oralig'iga teng va burun qanotining kengligi ham bitta ko'z oralig'iga tengdir.



Ayol portreti.


Inson qomatini tasvirlash nisbati.



**Inson boshini jonli tasvirlash
ketma-ketligi – kalla suyagi
– ekorshe – jonli natura.**

Odamlarni yoshiga ko'ra ularning bo'yi, shuningdek, kallasining tanaga bo'lgan nisbati turlicha bo'ladi. Katta yoshdagi odamlarda ularning umumiy bo'yiga nisbatan boshining balandligi 7-8 marta kichik bo'lsa, yosh bolalarda esa bosh gavdaning bo'yiga nisbatan 4-5 marta kichik bo'ladi. Lekin bu qoida hamma odamlarga ham mos kelavermaydi, chunki ba'zi odamlar novcha bo'lsa, boshqalari pakanaroq bo'ladi. Shuning uchun ro'parada turgan odamning rasmi chizilay turganda uni sinchiklab kuzatish, qanday ko'rinsa, uni shunday mutanosiblikda tasvirlash va bo'laklarining o'lchamlarini chamalab qayta-qayta solishtirib aniqlash lozim.

Odam tasvirini xomaki tasvirlaganda gavdani mutanosiblikda to'g'ri topish va uning harakatini ko'rsatishga asosiy e'tiborini qaratish lozim. Mayda qismlari, ya'ni ko'z, burun, og'iz va quloq kabilarni aniq ishlamasdan, balki ularning o'rnini umumiy tarzda belgilab qo'yish kifoyadir.





O'smir bola portretini tasvirlash bosqichlari.

Ma'lum malaka va ko'mikma hosil qilgandan so'ng, ko'chada, bozorda turgan odamlarga qarab xomaki tasvirlar bajarish kerak. Bundan asosiy maqsad har xil harakatlarni tasvirlashga o'rganishdir.

10. Kompozitsiya.

Mazmuni: Kompozitsiya va uning tasviriy san'atdagi ahamiyati. Kompozitsiya haqida umumiy ma'lumot. Kompozitsiyaning asosiy qonunlari. Mazmun va shaklning birligi. Kontrastlar qonuni. Suratning mazmunli-kompozitsion markazi. Yorug'lik badiiy asardagi asosiy narsam bo'rtirib ko'rsatish vositasi. Muvozanat. Simmetriya va asimmetriya. Ritm asarni ifodaliligini oshirish vositasi, format, o'lcham, ufq chizig'i, ko'rish nuqtasi, tus. Rassomlar ijodida mavzuli kompozitsiyalar tuzish va uni tasvirlashdagi metodik ketma-ketlik. Turli mavzularda kompozitsiya tuzish va tasvirlash.

Dekorativ kompozitsiyaning o'ziga xos xususiyatlari.

Haykaltaroshlik kompozitsiyasining o'ziga xos xususiyatlari.

Badiiy asarlarga kompozitsiyalar tuzish. O'zbek xalq ertaklariga illyustratsiyalar ishlash.

Topshiriq – Qalam va rangda «Oltin kuz», «Mehrjon», «Qovun sayli», «Qish etyudlari», «O‘lkamizda bahor», «Tog‘ manzarasi», «Geometrik shakllar», «Mevalar», «Sabzavotlar», «San‘at atributlari» kabi mavzular kompozitsiyasi ustida ishlash.

– Qalamda va rangda O‘zbek xalq eposi «Alpomish», ertaklardan «Uch og‘ayni botirlar», «Zumrad va Qimmat», «Ur to‘qinoq» kabi mavzular asosida kompozitsiyalar tuzish va tasvirlash.

Kompozitsiya tushunchasi keng ma‘noga ega bo‘lib, qalamtasvir, rangtasvir, haykaltaroshlik va amaliy san‘atning har bir turida o‘ziga xos va o‘ziga mos mazmuni tashkil qiladi.

Tasviriy san‘at kompozitsiyasining asosiy ma‘nosi, asarning g‘oyasini aniq va ishonchli tarzda yetkazish bilan bog‘liq. Kompozitsiyada eng muhimi badiiy obrazni yaratish.

Kompozitsiya lotincha *compositio* so‘z bo‘lib, tuzish, birlashtirish-turli bo‘laklarni bir butun yaxlit biror g‘oyaga mos holda birlashtirish ma‘nosini bildiradi. Tasviriy san‘atda kompozitsiya deb badiiy asarning mazmuni, xarakteri va maqsadi bilan bog‘liq holdagi qurilishiga aytiladi.

«Kompozitsiya» so‘zi tasviriy san‘at termini sifatida muntazam ravishda Uyg‘onish davridan boshlab qo‘llana boshlandi. Boshqa paytda kompozitsiya termini tasvirlash savodxonligining asosiy elementlardan birini bildiradi, u orqali san‘at asarlari quriladi va baholanadi.



J.Umarbekov. Olis bolalik.

Rassomlar asrlar davomida kompozitsiyaning ifodalovchi shartli tasvirlarni (uchburchak, piramida, aylana, oval, kvadrat, to‘g‘ri to‘rtburchak va shu kabilar) izlab keladi. Bularni misollarda ko‘rish mumkin: G‘. Abdurahmonov «Kashta tikuvchi qiz», J. Umarbekov «Olis bolalik», M. To‘xtayev «Oila», Inog‘onov «Timchlik bo‘lsin uyingda».

Qandaydir bir harakatsiz, o‘zgarmaydigan obrazni ko‘rsatish uchun tutashirilgan, yopiq, muvozanat (harakatsizlik) kompozitsiya to‘g‘ri keladi. Chiziqni asosiy yo‘nalishi markazga tortiladi. Aylana, kvadrat,

to'g'riburchak shakli simmetriyasini hisobga olgan holdagi qurilishi kerakli yechimini beradi.

Panoramli manzarani tasvirlash uchun, keng dalani ko'rsatish kerak bo'lsa, unda yon atrofini qandaydir daraxtlar yoki binolar bilan yopish kerak emas, yaxshisi chegaradan tashqariga yo'naltirilganligini ko'rsatish terak.

Kompozitsiya ma'lum bir qonuniyatlar asosida quriladi. Uning qonun-qoidalari va usullari o'zaro bog'liqda bo'lib, kompozitsiya tuzishning barcha holatlarida qatnashadi. Buning hammasi ham badiiy asarning yaxlitligi va ifodaliliga erishish uchun yo'naltirilgan.

Kompozitsiyaning qonun-qoidalari, usullari va vositalari badiiy asarning qurilishida asosiy qonuniyatlari hisoblanadi.

Kompozitsiya qonun-qoidalari: harakatlarni tasvirlash (dinamika), tinch holat (statika), oltin kesim (uchdan biri).

Kompozitsiya usullariga: kompozitsiyaning qismlar muvozanati, ritmi, simmetriya va asimmetriyasi, syujetli kompozitsiya markazini ifodalinishi kiradi.

Kompozitsiya vositalariga: format (hajm). fazoviy kenglik, kompozitsiya markazi, muvozanat, ritm, qarama-qarshilik, yorug'-soya, rang, dekorativlik, dinamika va statika, simmetriya va asimmetriya, ochiqlik va yopiqlik, yaxlitliklar kiradi. Shunday qilib, kompozitsiya vositasi – yaratish uchun zarur bo'lgan barchasi, shuningdek, uning usul va qoidalarni o'ziga qamrab oladi. Ular turli-tuman, boshqacha aytganda kompozitsiyaning badiiy ifodalash vositasi deb ataladi.

Kompozitsiya usullari

Ritm, harakat va tinch holatni tasvirlash. Ritm – universal tabiiy xususiyatga ega bo'lib, har doim harakatni anglatadi. San'atdagi va hayotdagi ritm – bu bitta ma'nodagi narsa emas. Tasviriy san'at asarlarida ham, musiqadagi kabi, faollik, keskinlik, maydali ritm yoki silliq, xotirjam, sekinliklarni farqlash mumkin.

Ritm – ma'lum ketma-ketlikdagi element qismlarning takrorlanishi.

Rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik va amaliy san'atda ritm kompozitsiyaning muhim ifodalovchi vositasi kabi bo'lib, tasvirni qurilish mazmuniga ma'lum hissiyotlikni baxsh etadi.

Ritmni chiziqlar, yorug' va soya dog'lari, rang dog'lari bilan berish mumkin. Kompozitsiyaning bir xil elementlarning takrorlanishidan

foydalanish mumkin. Ritm yordami orqali tekislikda harakatlarni ifodalash mumkin.


San'at asaridagi harakat - vaqtni ifodachisidir.

Portret, manzara yoki natyurmort kabi janrlarda haqiqiy rassomlar oddiygina tasvirlamaydi, ularning tasviri dinamika bilan to'ldiradi, harakatdagi uning mohiyatini ifodalaydi, ma'lum davrning vaqti ichida yoki kelajakni taqdim etadi.

Ritm va harakat. Harakat mavjud bo'lgan san'at asarlarini dinamik harakatdagi kabi ta'riflanadi. Nima uchun ritm harakatni ko'rsatadi. Bu esa bizning ko'rish a'zolarimiz xususiyatlari bilan bog'liq. Masalan, to'liqlarni kuzatganimizda, nigohimiz bir to'liqindan boshqasiga ko'chayotganda ularning harakatida illyuziya paydo bo'ladi. Rassomlar o'z asarlarida illyuziya harakat ko'rinishlarini yaratishda uning xarakteriga alohida urg'u beradi. Ba'zi bir ko'rinishlarni ko'rib chiqamiz.

Asarni yaxlit bir butunlikda ko'rganimizda harakat holati tushunarli bo'ladi. Harakatdagi obyekt oldida bo'sh fazoviy kenglik bo'lsa harakatni xayolan davom ettirish uchun imkoniyat tug'diradi, go'yoki u bilan birga harakat qilishga chorlaydi.

Boshqa bir holatda esa ot-arava butunlay to'xtab qolgandek. Qog'oz qirrasiga unga harakat qilishga imkon bermayotganday tuyuladi.



Harakat holatiga misollar.

Harakat holatiga misollar Qalamtasvir chiziq yo'nalishlari yordamida harakatni chizish mumkin. Haykaltarosh «Disk uloqtiruvchi» haykalida qahramon kuchining eng tig'iz holatini aks etgan.


Fondagi vertikal yoki gorizontal chiziqlarni ko'pligi harakatni to'xtatib qo'yishi mumkin. Harakat yo'nalishining o'zgarishi uni tezlashtiradi yoki sekinlashtiradi.

San'at asarlarida harakatsizlikni his etish yuz berishi mumkin. Masalan, K.Korovinning «Qishda» asarida diagonal yo'nalishlariga qaramasdan ot chana bilan tinch turibdi, harakatning yo'qligini his

qilishda quyidagi sabablardir: suratning geometrik va kompozitsiya markazlarini mos kelishi, kompozitsiya muvozanatli hisoblanadi va ot oldidagi fazoviy kenglik daraxtlar bilan to'sib qo'yilgan.

Rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, me'morlik asarlarida kompozitsiya markazi ajratib ko'rsatildi. Masalan, Uyg'onish davri rassomlari kompozitsiya markazi mato markazi bilan mos tushishini afzal ko'rgan. Bosh qahramonlarni shunday joylashtirib, rassomlar ularning muhim o'rnini, syujet uchun ma'noligini ajratganlar.

Rassomlar surat kompozitsiya qurilishining ko'pchilik turlarini kashf etgan, masalan, kompozitsiya markazi asarning syujet maqsadi, agarda talab qilsa, unda matoning geometrik markazidan xohiagan tomonga surilishi mumkin. Bunga Rembrandtning «Adashgan o'g'lining qaytishi» nomli asari kompozitsiyaning klassik namunasi sifatida bo'la oladi, chunki suratning asosiy g'oyasini aniqroq yoritish uchun kompozitsiya markazini o'ng tomonga surib tasvirlagan. Suratda tug'ilib o'sgan ostonada ota-bola uchrashuvi tasvirlangan.



Rembrandt. Adashgan o'g'lining qaytishi. Surat kompozitsiyasining shartli tasviri.

Fazoviy kenglikning chuqurligi vorug'-soya va ranglar qarama-qarshiligi orqali ketma-ketlikda kuchsizlanib borishi bilan ko'rsatilgan. Ko'zi oqiz otasi o'g'lining yelkasiga qo'lini qo'yishi uning kechirayotganlik belgisidir. Rembrandt suratning eng asosiysini yorug'lik bilan ajratadi. Kompozitsiya markazi esa suratning eng chetida joylashgan. Rassom suratning kompozitsiyasini o'ng tomonida turgan katta akasining qomati bilan muvozanatini tenglashtirmoqda. Asosiy

ma'naviy markazi balandlikka nisbatan uchdan bir qismida joylashishi oltin kesim qonuniga mosligini ko'rsatadi, rassomlar o'z ijodlarining ifodaligiga erishish uchun undan qadimgi vaqtdan foydalanib kelishadi. Oltin kesim qoidasi (uchdan bir qismi).

Kompozitsiyada simmetriya va asimmetriya

Turli davrdagi rassomlar suratning simmetrik qurilishidan foydalanishgan. Uyg'onish davrining rangtasvirchilari kompozitsiyalarni tez-tez simmetrik qonuniyatlari asosida qurishardi. Bunday qurilish negizida tinchlik, ulug'vorlik, serhashamlik va voqeani muhimlik taassurotlari namoyon bo'ladi.




Rafael. Sikstin madonnasi.

M.Toshmurodov. Alla. Hasan-Husain.

San'atdagi simmetriya qurilishi haqqoniy voqelikda asoslangan. Masalan, inson qomati, kapalak, qor uchquni va boshqa shu kabilar simmetrik tarzda qurilgan. Simmetrik kompozitsiyalar – statik holatda (mustahkam), o'ng va chap tomonlari tenglashtirilgan bo'ladi.

Asimmetrik kompozitsiyalardagi joylashuvi asarning syujeti bilan ma'nosiga bog'liq holda turficha, o'ng va chap tomonlari tenglashtirilmagan ham bo'lishi mumkin.



a



b

a. Simmetrik kompozitsiyasi

b. Asimmetrik kompozitsiyasi.

Naturmort yoki manzara kompozitsiyasini shartli tasvirda tasavvur qilish juda oson.

Kompozitsiyada muvozanat


Simmetrik kompozitsiyada uning barcha qismi tenglashtirilgan, asimmetrik kompozitsiyada esa tenglashtirilishl yoki tenglashtirilmaligi ham mumkin.

Misol, arg'imchoqdagi o'spirinni tenglashtirish mumkin, agarda ikkinchi tomoniga ikkita kichkina bolalarni o'tqazsa, kichkina bola hattoki katta odam bilan ham uchishi mumkin, agarda u arg'imchoqning chekasiga o'tirmasdan markaziga yaqinroq joylashib olsa. Shu kabi taqqoslashlar suratning o'lchami, tusi va ranglari bo'yicha turli qismlarining monandligiga erishishi uchun tenglashtirish yordam beradi, ya'ni kompozitsiyada muvozanatni topadi.



Tenglashtirilgan kompozitsiya, tenglashtirilmagan kompozitsiya, kompozitsiyada muvozanatni shartli tasviri.

Rasmlardagi kompozitsiyada muvozanat tasvirlangan.



Turli ko'rish nuqtalaridan bitta qo'yilgan natyurmortning kompozitsiyasi ifodali va qiziqarli bo'lishi maqsadida qaralsa, shuni kuzatish mumkinki rakurslarni o'zgarishi natyurmort obrazini yaratishda ko'mak beradi .

Tarixdan ma'lumki, o'tmishning ulug' rassomlari kompozitsiya masalalariga juda jiddiy yondashganlar va o'z asarlarini yaratishda umumqoida bo'lib qolgan prinsiplarga amal qilganlar. Kompozitsiyaning «vertikal», «gorizontal», «doiraviy», «kvadrat», «burchak» va boshqa ko'rinishlarini qo'llab yuksak natijalarga, go'zal ifodaviylikka erishganlar. «Oltin kesim» kompozitsiya usulidan unumli foydalanish har sohada qo'l kelgani ham ma'lum.

Kompozitsiya tuzishga mohir bo'lgan va uni o'z asarlarida mukammal darajaga olib kelgan mo'yqalam ustalari: Leonardo da Vinchi, Mikelandjelo, A.Dyurer, J.D.Engr, P.Rubens, Rafael Santi, A.Ivanov, K.Bryullov, I.E.Repin va boshqalardir. O'zbek rassomlaridan tasviriy san'atning turli tur va janrlarida ijod qilgan va hozirgi paytda ajoyib asarlar yaratib kelayotgan musavvirlardan: O'.Tansiqboyev, I.Ikromov, Z.Inog'omov, Ch.Ahmarov, A.Abdullayev, M.Nabiyev, R.Ahmedov,

R.Choriyev, I.Jabborov, A.Boymatov, J.Umarbekov, Sh.Abdurashidov, G'.Abdurahmonov, A.Mirzayev, S.Abdullayev, A.Ikromjonov, B.Jalolov, A.Nur, O.Qozoqov va boshqa ko'plab ijodkorlarni bemalol kompozitsiya ustalari deb atashimiz, ularning asarlarini ijobiy jihatlarini tahlil qilib, ibrat olishimiz mumkin, bu, albatta, o'quv-mashqlarni bajarishda nazariy asos vazifasini o'taydi.

11. Naqsh kompozitsiyasi ustida ishlash

Mazmuni: Naqqoshlik tarixi. Uning turlari. Naqsh unsurlari – barg, gul, shoxcha, geometrik shakllarni qayta ishlash asosida naqsh unsurlarini yaratish. Naqshlardan namunalar ko'chirish. Ijodiy naqsh kompozitsiyasi ustida ishlash. Naqshda rang xususiyatlari.

Topshiriq – Namunaviy naqsh kompozitsiyasidan nusxa ko'chirish. Yo'l, kvadrat va aylana ichiga naqsh kompozitsiyasi tuzish va tasvirlash.

Naqshlar, asosan, biron-bir buyumni idish-tovoqlarni, kiyim-kechaklarni, gazmol va gilamlarni, bino, xiyobonlarni va boshqa shu singari narsalarni bezatish maqsadida qo'llanadi.

Aytaylik, rassom gilam uchun naqsh chizmoqchi. Dastavval gilam nimaga va qayerga mo'ljallanganini bilib olish kerak. Devorga osiladigan bo'lsa, uning yuqori va pastki tomoni aniqlab olinadi. Bunday gilamda hayvonlar, tabiat manzarasi tasvirlanadi. Bordi-yu, gilam yerga o'shaladigan bo'lsa, u hamma tomondan bir xil ko'rinishi kerak.

Naqqosh A.Qosimjonov, Yo.Raufov, T.To'xtaxo'jayev, J.Hakimov (Toshkent), A.Boltayev (Xiva), S.Norqo'ziyev (Qo'qon) va boshqa ustalar san'atning bu turida mehnat qilib, shuhrat qozonganlar.

Naqshlarning kompozitsiyasi narsaning shakli, vazifasi va uning o'lchamiga bog'liqdir. Masalan, so'zana uchun tayyorlangan chiroyli naqsh devorga chizilsa, xunuk chiqishi mumkin. Shuning uchun naqsh namunasini tayyorlashda, albatta, u nima uchun va qanday materialga chizilishini ham bilib olish kerak.

Naqshlar oddiy va murakkab bo'ladi. Bir xil shaklning ma'lum oraliqda takrorlanishi yoki qaytarilishiga *oddiy naqsh* deyiladi. Takrorlanayotgan naqsh geometrik va o'simlik elementlarining bir-biriga qo'shib ishiatilishi natijasida kichiklashib yoki kattalashib borsa, bunday naqshni *murakkab naqsh* deyiladi. Naqsh chizishda ko'pincha

simmetriya degan soʻz ishlatiladi. Simmetriya grekcha soʻz boʻlib, oʻlchamlarning bir-biriga mos kelishi maʼnosini bildiradi.

Talabalar naqsh namunalari qoʻllaniladigan baʼzi atamalarning maʼnosini yaxshi bilib olishlari kerak.

Madoxili (arabcha)– bir-biriga kirishib turuvchi demakdir. Oʻzbekistonda naqqoshlik amaliy sanʼatining hamma turlarida juda koʻp tarqalgan uslubdir. Asosan madoxili shakli lola gulini stilizatsiyalash- tirib tasvirlashdan kelib chiqqan. Lekin xalq naqqoshlari gul bargini chiroyli koʻrsatishga intilib, ularni madoxili shaklida tasvirlaydilar. Madoxili asosan uch yaproq shaklidan iboratdir.

Islimi (arabcha) – yuguruvchi demakdir. Islimi toʻgʻri yoʻl ichiga ilon izi shaklida egri chiziqli oʻsimlik elementlaridan chiziladigan naqsh. Islimi naqqoshlikda keng tarqalgan uslub boʻlib, faqat yoʻl ichiga ishlanadi. Islimi turdagi asosiy elementlar – novda, yaproq, gul, gʻuncha kurtak, qalampir, meva, poya kabilar hisoblanadi.

Girix (arabcha) – tuguncha demakdir. Bu geometrik shakllardan toʻgʻri chiziqli elementlardan tuzilgan naqsh boʻlib, asosan meʼmorlikda ganch, yogʻochga oʻyib ishlanadi. Girixlar toʻrsimon va yulduzsimon boʻlib, yulduz nurlarining somi 5 tadan 16 tagacha boradi. Qadim vaqtlarda meʼmorlikda deraza oʻrnida, girix uslubida ishlangan panjaralar qoʻyilardi. Bundan tashqari, imoratning devorlarini bezashda girix uslubi qoʻllanilib, kataklari orasiga turli naqshlar ishlangan.

Chorbargi-davra – aylanadagi toʻrt bargli naqsh. Idisniarning tagini bezash uchun qoʻllaniladigan naqsh boʻlagidir.

Naqshlar ishlanish usuliga qarab ikki turga boʻlinadi;

- Tekislikda chiziq yoki boʻyoqlar vositasida bajariladigan tekis naqshlar. Bunday naqshlar binolarning devorlari, kitoblarga, yaʼni tekis yuzaga ega boʻlgan narsa va joylarga ishlanadi;

- Yorugʻ va soya vositasida bajariladigan hajmli naqshlar. Bunday naqshlar shiftlar, karnizlar, ustun, eshik, bezakli vaza va boshqa narsalarni bezatishda ishlatiladi.

Naqshlarni chizishda asosan ikki manbadan, yaʼni tabiatdan va geometrik shakllar (doira, kvadrat, uchburchak va boshqalar)dan foydalaniladi.

Naqsh kompozitsiyasi uchun tabiat manbai boʻlib oʻsimliklar, har xil narsa, hayvonlar va qushlarning tasviri xizmat qiladi. Naqshlarda hatto odamlar tasviri ham ishlanishi mumkin. Bu tasvirlar soddalashtirilgan yoki murakkablashtirilgan holda aks ettiriladi.

O'simlik va hayvonot dunyosidan olingan tasvirlarni chizishda, ma'lum qonun va qoidalarga amal qilinadi.

Boshlang'ich sinflarda naqsh chizishga o'rgatish metodikasi turlichadir. Ularning asosiy turlari quyidagilar;

- Tayyor naqsh namunasidan ko'chirish.
- Mustaqil naqsh tuzish.

Naqsh chizish darslarida qator ta'lim-tarbiyaviy vazifalar amalga oshiriladi.

1. Bezatilgan buyumlardagi naqshning qurilishi, qanday bo'laklardan tuzilgan, ularning o'zaro bog'liqligi, naqsh elementlarining takrorlanishi, naqsh bo'laklarining birligi yoki ularning bir-biridan farqi, naqsh qaysi usulda ishlanganligi hamda naqsh namunasining bo'yalishi va hokazolar. O'quvchilar naqsh namunasidan ko'chirish vaqtida naqsh chizishning o'ziga xos xususiyatlari bilan, ritm, simmetriya va uning naqsh chizishda o'rni, ranglarning nomlari bilan tanishadilar, bo'yoqlar va ularni omuxta qilib ishlatish ustida ish olib borib, naqsh chizishni va rang berish bosqich bilan olib borishni o'rganadilar.

2. Naqsh namunalaridan ko'chirish va mustaqil naqsh chizish darslarida o'quvchilar ko'z bilan chamalashni o'rganadi, qalam, akvarel, mo'yqalam, rangli qog'ozlar ishiash usullari bilan tanishadilar. Bundan tashqari, naqsh namunasi o'lchamiga teng bo'lgan o'lchamda va undan kichiklashtirib yoki kattalashtirib chizishni ham mashq qilib boradilar.

3. Naqsh namunalaridan ko'chirish va mustaqil naqsh chizish, xalq ijodining namunalarini ko'rsatish, ularni ko'chirish va tahlil qilish orqali o'quvchilarning badiiy didi o'stiriladi.

4. Mustaqil ravishda naqsh chizdirish orqali o'quvchilarning ijodiy qobiliyati, fantaziyasi va tafakkuri o'stiriladi.

5. O'quvchilar naqsh chizish darslarida olgan bilim va malakalaridan ijtimoiy foydali mehnat, turmush, devoriy gazeta chiqarish, bayram kiyimlarini tayyorlash va boshqa fan darslarida foydalanadilar.

Dastlabki naqsh chizish darslari oddiy geometrik shakllar va o'simliklar tasvirlarini chizishdan boshlanadi.

Oddiy naqsh chizish uchun yo'l chiziq chizib, uni bir xil kattalikdagi kvadratlarga bo'lish kerak, har bir kvadratning to'rt tomonini teng bo'laklarga bo'lib, nuqta qo'yib chiqiladi, keyin shu nuqtalardan diagonal chiziqlar yordamida yana kvadratlar yasaladi. Bu kvadratlarni oddiy qalam bilan tekis qilib bo'yash mumkin.

Yo'l ichiga olcha va olcha bargi naqshini chizish. O'simlik gullari va barglaridan naqsh chizilganda ularning haqiqiy ko'rinishi va shakli soddalashtirilib, shartli ravishda tasvirlanadi. Naqsh chizayotganda naqsh bo'laklarining faqat miqdoriga katta e'tibor bermasdan, balki bo'laklarning qaysi usulda joylashtirilishi haqida ham o'ylash kerak. O'tgan mashqdagidek yo'l ichiga kvadratchalar chiziladi va uning ichiga bir xil oraliq qoldirib, qiya holda o'ngga va chapga chiziladi va barg uchlarini bir-biriga tutashtiriladi, barg oralig'idagi bo'shliqqa esa olcha mevasi rasmi chiziladi. Barg va olcha mevasi bir xilda takrorlanishidan ritm hosil bo'ladi. Ma'lum tartibda takrorlangan bir yoki bir necha olcha va barglarning shartli rasmlarini ***ritmlashgan naqsh*** deyiladi.

Yo'l ichiga islami uslubida zanjirsimon naqsh chizish.

Bunda xalq naqqoshligida ko'p qo'llaniladigan islami uslubi bilan chizilgan naqshlar bilan tanishgach, shu uslub bilan oddiy naqsh chizish o'rganiladi. Oldin yo'l chizig'i tortiladi va ularni bir necha kvadratlarga bo'lib, kvadratlarni yotiq chiziqlar yordamida teng ikki bo'lakka bo'linadi, kvadratning yarmiga yarim doira chizilib, boshqa yarim doiralari esa bir gal pastga va bir gal yuqoriga qaratib chizilaveradi. Natijada islami uslubidagi zanjirsimon naqsh vujudga keladi.

Lola naqsh chizish. Lola naqsh soddashaklda tasvirlanadi. Yo'l ichiga kvadratlar chizilib uni teng ikkiga bo'linadi, har bir kvadrat ichiga soddalashgan lola rasmi joylashtiriladi, ikki lola oralig'ida pastga qaragan lola rasmi vujudga keladi.

Lola naqshning murakkab varianti xalq naqqoshligida qo'llaniladigan *serbahori*, *tovoncha* uslublari bilan chiziladi. Naqsh rasm daftar varag'ining o'rtasiga joylashtiriladi. Avvalo katta kvadrat chizilib, uni bir necha teng kvadratchalarga bo'lish kerak. So'ngra kichik kvadratlar ichiga lola naqsh chizilib qora qalam bilan chizilgan naqsh akvarel bo'yoq yoki guash bilan bo'yaladi.

Yo'l ichiga paxta naqsh chizish ham oldingi mashqdagidek serbahori, tovoncha uslubida ishlanadi. Yo'l ichiga bir necha kvadratlar chizilib, nuqtalar yordamida kvadrat atroflarini ko'z bilan chamalab teng ikkiga bo'lib chiqiladi. So'ngra nuqtalarni egri chiziqlar yordamida birlashtirilsa, paxta naqsh hosil bo'ladi.

Kvadrat ichiga girix uslubida naqsh chizish. Eng avval kvadrat chizib, uning ichidan yon tomonlarga hoshiya tortiladi. Keyin kvadratning to'rt tomoniga nuqtalar qo'yib, uni 3 ta teng bo'lakka

bo'linadi. U nuqtalarni tik va yotiq chiziqlar bilan birlashtirilganda kvadrat 9 katakka bo'linadi. O'tkazilgan chiziqlar o'q chiziq hisoblanib, ularning ikki yonidan ma'lum o'lchamda yondash chiziqlar tortish bilan naqsh yasaladi. Bu naqsh yasalish jihatidan ancha murakkab bo'lib, talabalardan kvadratlariga bo'lishda ko'z bilan aniq chamalashni talab qiladi. Kvadrat ichidagi chiziqlar biri ikkinchisining ustidan to'g'ri o'tmasdan, bir gal tagidan, so'ng ustidan o'tib, tugun hosil qiladi.

Doira ichiga naqsh chizish. Bular ham o'z xarakteri jihatdan kvadrat ichiga chiziladigan naqshlarga o'xshab ketadi. Doira shaklidagi naqshlarning eng soddasida takrorlanuvchi elementlar uning chekkasida joylashgan bo'lib, o'rtasi bo'sh qoladi. Doira shaklidagi naqshlarning boshqa turida esa uning markazi bezatilib, chekka qismi bo'sh qoldiriladi yoki ingichka hoshiya o'tkaziladi.

Shunday doira shaklidagi naqshlarning turlari ham borki, bunda uning elementlari simmetriya o'qlari bo'ylab markaz atrofida joylashadi. Naqsh elementlari simmetriya o'qlarining soniga qarab to'rtta, oltita, sakkizta bo'lib, ular takrorlanib yoki almashib keladi. Doira chetini hoshiya bilan to'ldirish ham mumkin.

12. Badiiy - bezak grafikasi

Mazmuni: Badiiy bezak grafikasi va uning ahamiyati. Shriftlar va ularning tarixi, turi. Shriftlarni yozish texnikasi. Ta'lim maskanlarini (bino, kabinet, koridor, sinfxona, oshxona) badiiy bezatish.

Topshiriq – Shriftlarni yozish mashqi, badiiy harflarni yozish, devoriy gazeta, albom, kitob muqovasi, tabriknoma eskizlarini ishlash.

Grafika grekcha so'z bo'lib, rasm chizish, xat yozish va muhandislik grafikasi demakdir. Grafika asosan chiziq va shtrixdan foydalanadi. Talabalar tasviriy san'atning bu turi sohasida plakat harflar bilan yozishni, devoriy gazeta chiqarish, diagramma chizish, e'lon yozish va turli stendlar ishlashni bilishiari lozim. Bu tadbirlarni amalga oshiradigan yoki ularga bevosita rahbarlik qiladigan shaxs shrift nazariyasini va yozish malakalarini egallagan bo'lishi kerak.

Jahon yozuvi tarixi asosan to'rtga bo'linadi: 1. Piktografik (surat ko'rinishidagi) shrift - dastlabki odamlar qoyalarga surat shaklida tushirgan yozuvlar. 2. Ideografik (peroglif tarzda)– eramizning dastlabki


paytlaridagi va savdo aloqalari o'rnatilgan davlatlar (Misr, Xitoy) yozuvlari. 3. Bo'g'inli (bir yozuv belgisi- bo'g'in) - Hindistondagi ayrim xalqlarning yozuvi, Yaponiyada bu yozuv turi Xitoyning peroglif tarzidagi yozuvi bilan birga qo'llangan. 4. Harfiy- tovushli (fonetik)- tillarning fonematik tarkibini aks ettiruvchi yozuv.

Harflarning qo'shimcha belgilari, nisbatlaridagi yo'g'onlik chiziqlarning qalinligidan iborat bo'lib, ular quyidagilar: a) harflar enining balandligiga nisbati; b) harflarning balandligi; d) asosiy va birlashtiruvchi chiziqlarning kontrastligi; e) ularning tik yoki og'ma holda bo'lishi; f) kertik, pastga va yonga chiqadigan elementlari va boshqalar.

Badiiy bezak grafikasida ko'proq kesma harflar keng qo'llaniladi. U harflarning asosiy chiziqlarining yo'g'onligi bir xil bo'ladi. Plakat shriftlarining afzalliklari shundaki, ularni yozish aytarli qiyinchilik tug'dirmaydi. Shrift belgilari sodda va tushunarli bo'lgani uchun ulardan tuzilgan matnlar tez va oson o'qiladi. Brusokli harflar kertikli, kesma harflar esa kertiksiz bo'ladi.

Plakat harflar bilan yozish usullari

Plakat, shior va diagrammalar ishlashda ko'pincha plakat harflardan foydalanamiz. Harflarni ma'lum bir qolipga solishda kataklardan foydalanish qulaydir. Harflarning katta yoki kichik bo'lishi kataklarning o'lchamiga bog'liq. Daftarga kvadrat shaklida katta kataklar chizib, harflar yozishni mashq qilib ko'riladi.



Plakat harflarni o'rganish, o'rgatish va eslab qolishni osonlashtirish maqsadida ularni o'zaro teng kataklarga ajratamiz. Harflar balandligini 5 katak, enini 3 katakchada olinadi. Harflar orasida bir katak joy

qoldiriladi. Qo'g'ozga chizg'ich bilan kataklar chizish ko'p vaqt o'adi. Shu sababli katakli daftardan foydalanish ham mumkin. A,B,V,G,D,E,P,S,K,L,U, O',Z,O harflari shakl jihatdan bir xil bo'lganliklari uchun 5XZ yoki 7XZ o'lchamda J,M,Sh,Yu,F harflarining emi va bo'yi bir xil o'lchamda bo'lgani uchun 5X4, 7X6 o'lchamda yozish mumkin.

Alfavitdagi harflar turli konstruktiv tuzilishga: to'rtburchaksimon (N,I,P,Sh), uchburchaksimon (A,G,T,U) va aylanasimon (O,F,Yu) shakllarga ega.

B va **V** harflari oddiy **E** ko'rinishdagi, nisbatlari bir xil bo'lgan harflardir. Bu harflarning o'ng tomonlarini to'g'ri to'rtburchak shaklida jiddiy ko'rinishda tasvirlanadi.

O',E harflarini yasash uchun esa **G** harfiga belbog' qo'yish kifoya. **T** harfi ham xuddi shunday xususiyatga ega.

I harfining tuzilishi **N,P** harflariga o'xshaydi va ular bilan teng qilib yoziladi. O'ng vertikal chizig'ining yuqori qismi bilan chap vertikal chizig'ining pastki qismi tutashtiruvchi chiziqni asosiy chiziq'larga nisbatan biroz ingichkalashtirib olish mumkin.

K harfini yozishning bir necha ko'rinishlari bo'lib, aniq bir ko'rinish alfavitdagi boshqa harflarning konstruktiv tuzilishidan kelib chiqadi. Qolgan harflarning yozilishini ham asosan kataklar orqali o'rganish maqsadga muvofiqdir. Boshqa harflar ko'rinishi raqamlarga ham mos keladi.

Harflarni katak daftarlarda yozib malaka hosil qilgandan so'ng rasm daftari, albom yoki alohida qog'ozga faqat ikki chiziq orasida yozishga o'tiladi. So'ngra, qiyinroq tipdagi harflar yoziladi.

Harf yozishda yetarli malaka hosil qilgandan so'ng plakat pero bilan «Kitob bizning do'stimiz» gapini yozishga kirishamiz. Avvalo har bir so'z necha harfdan tuzilgani aniqlanadi. Masalan, «kitob» so'zi 5 ta, «bizning» so'zi 7 ta, «do'stimiz» so'zi 8 ta harfdan tuzilgan. Harf oralarida bir katakdan joy qoldiramiz. Shuni hisobga olib, birinchi so'zga 19 ta, ikkinchi so'zga 26 ta, uchinchi so'zga 33 ta katak olinadi. So'zlar orasida ikki katakdan joy qoldiramiz. So'zlarni markazdan 2 tomonga barobar joylashtiramiz. Shu tariqa «Kitob bizning do'stimiz» shiori yoziladi. So'ngra akvarel bo'yoq bilan bo'yaladi.

L M N O P
R S T U V

Dekorativ
shrift XIX

B B B B

Shriflarni 4 guruhi mavjud: a) hajmli.
b) fazoviy. d) ikkio'lchamli rangli.
e) biro'lchamli ko'ndalangli.

A B C D E
F G H I K

Gumanist antikva

Yegipet shrift

G H I J K L M N O
c d e f g h i j k l m n

Badiiy bezash ishlarida harflar kompozitsiyasiga alohida e'tibor berish kerak. Bu kompozitsiya turlicha bo'ladi. Ularning eng ko'p tarqalgan harflarni simmetrik holatda joylashtirishdir. Bunday kompozitsiyada qatorlar markazdan ikki tomonda bir xil kenglikda joylashadi. Kompozitsiyalarda mazmun jihatidan bir-birining davomchisi va to'ldiruvchisi bo'lgan so'zlar bir qatorga joylashtiriladi. Masalan, «Toshkent – Sharq mash'ali!» quyidagi ko'rinishda yozilsa, **Toshkent – Sharq mash'ali!** uning so'zlarida mantiqiy bog'lanish bo'lmaydi, mash'ali so'zi ham asossiz alohida yozilgan. Uning to'g'ri joylashtirilishi quyidagicha bo'ladi:

Toshkent – Sharq mash'ali! yoki **Toshkent –
Sharq mash'ali!**

Bu so'zlarning har birini alohida-alohida qatorga yozish ham mumkin.

**T o s h k e n t –
Sharq
mash'ali!**

13. Haykaltaroshlik

Mazmuni: Haykaltaroshlik – tasviriy san’atning turi. Haykaltaroshlar ijodida odam siymosi.

Qush va hayvonlar tasvirimi loy va plastilindan yasash.

Qush va hayvonlar tuzilishi. Qush va hayvonlar ishtirokida mavzull kompozitsiyalar tuzish.

Odam qomatini loy va plastilindan yasash.

Odam qomatining shakli va tuzilishi. Odam qomatini biror kasb kiyimida tasvirlash.

Topshiriq – Loy va plastilindan qush va hayvonlarning shaklini yasash hamda mavzuli kompozitsiyalar tuzish. «Qushlar bizning do‘stimiz», «O‘rmon hayvonlari», «Bo‘ri va tulki» kabilar.

– Loy va plastilindan odam qomatini yasash. Odam ishtirokida mavzuli kompozitsiya tuzish. «Sportchi», «Raqqosa», «Qiziqchi» va boshqalar.

Haykaltaroshlik – tasviriy san’atning bir turi bo‘lib, lotincha «skulpo» so‘zidan olingan bo‘lib, qattiq materiallarga «qirqish, kesish, o‘yish, tarashlash» orqali ishlov berish ma’nosini anglatadi.

Haykaltaroshlik ishlov berish usullari hamda makonda ma’lum hajmga ega bo‘lgan detallar, shakllar orqali tasvirlanadi. Uning «nafis haykaltaroshlik» turi ham mavjud.



A.Boymatov. Sharqning buyuk allomalari.

Bu usul haykaltaroshlikda «maishiy plastika» deb ataladi. Nafis haykaltaroshlik buyumlari o‘zining nafisligi, kichik o‘lchamdligi bilan ajralib turadi. Uni qo‘lga olib ko‘rish mumkin. Nafis haykaltaroshlikda kishining diqqatini o‘ziga tezda jalb qiluvchi materiallardan: chinni, sopol, yog‘och, metall va toshlarning qimmatbaho turlari, fil suyagi va shu kabilardan foydalaniladi.

Haykaltaroshlikning maktab sharoitida keng tarqalgan turlaridan biri, loy yoki plastilin bilan ishlashdir.

Haykaltaroshlikning bu turidan haykaltaroshlar haykal maketini tayyorlashda, xalq amaliy san'ati ustalari o'yinchoqlar va mayda plastika tayyorlashda foydalanadilar.

O'zbekistonda turli o'yinchoqlar ishlaydigan xalq ustalari va kulollardan U.Jo'raqulov, A.Muxtarov (Samarqand), U.Umarov, A.Hazratqulov, M.Nazrullayev (G'ijduvon), B.Boisov, R.Matchonov (Xorazm), K.Turobov, Yu.Ziyomuhamedov, A.Rahmatov, M.Rahimov, R.Orifjonov, A.No'omonov, T.Miraliyev, A.Aminov (Toshkent), T.Tillaxo'jayev (Namangan), A.Xudoynazarov (Kattaqo'rg'on), B.Xalilov (Denov), M.Obloqulov (Urgut), aka-uka Hojimirgovlar (Andijon), X.Rahimova (Buxoro), Sh.Qalandarov (Xo'jayli) va boshqa ustalar katta hissa qo'shganlar.



L.Salimjonova. X.Rahimova.



A.Muxtorov. Xo'ja Nasri'ddin afandi.

Tabiiy loydan turli idishlar yasash va ularni tegishli ranglarda bo'yash O'zbekistonda juda qadim zamondan rivojlangan. Kulolchilik san'ati buyumlariga lagan, tovoq, choynak, piyola, sopol va chinni idishlar, shuningdek, loydan ishlangan o'yinchoqlar kiradi.

Barcha kulolchilik ishlari loy yoki plastilinni yaxlit hajmi bo'lagini, yapaloqlashtirib, egib, cho'zib, silliqilashtirib va hokazo barmoqlar va kaftlar yordamida bajariladi. Badiiy ishlov beriladigan buyumni batartib ishlash uchun maxsus asbob va uskunalardan foydalanadilar, bu – yog'ochdan yasalgan pichoqlar (stek). Yog'och pichoqlar (steklar), odatda qo'l bilan ishlov berib bo'lmaydigan mayda qismlarni tarashlashda, qirqish, kesib olishda qo'llaniladi. Bu yog'och pichoqchalarning shakli turli-tuman bo'lib, ortiqcha loy yoki plastilinlarni sidirish, qirqib olish, o'yib ishlov berishda qo'l keladi.

Loy va plastilinni dumalatib ishlov berish, loymi ishga tayyorlash bosqichlarini bajarishda maxsus fanera taglik kerak bo'ladi. Bu esa ish joyning toza bo'lishiga muhim ahamiyatga ega. Loy yoki plastilin faneraga yopishmasligi uchun u lok yoki alif bilan qoplanadi.

Loy yoki plastilindan o'yinchoqlar yasash usullari


Tayyorlangan yaxlit loy yoki plastilin bo'lagi olinadi. Toychoqning haqiqiy suratiga ko'ra uning o'yinchoq nusxasini yasash uchun qanday qismlar kerak bo'lishini o'quvchilar bilan birgalikda aniqlanadi va ularning o'lchamiga ko'ra loy yoki plastilin bo'lakchalari tayyorlanadi. So'ng har bir ajratilgan bo'lakchaga tanlangan o'yinchoqning qismlariga xos shakllar berib chiqiladi. Shundan keyin yasalayotgan o'yinchoqqa dastlabki shakl beriladi. Bunda tana va umumiy qismlar dastlabki yig'ilish holatiga keltiriladi. Barcha tayyor qismlar o'z o'rniga o'rnatib chiqiladi. Ulangan joylar yaxshilab silliqalanib umumiy tanaga birlashtirib yuboriladi. Keyin tayyor o'yinchoqning sirti suvda namlangan latta yoki barmoq bilan silliqlab chiqiladi. Endi tayyor o'yinchoqqa steklar yordamida badiiy ishlov beriladi.

Agarda o'yinchoq loydan ishlangan bo'lsa, soyada yaxshilab quritilib gaz duxovkasida, mufel pechida yoki o'choqda (qishloq joylarida) pishiriladi. So'ng guash bo'yog'ida badiiy bezak berish mumkin. Odatda pishirilgan sopol o'yinchoqlar sirtiga qo'shimcha badiiy bezak ishlanmaydi. Agarda yasalgan o'yinchoqlar bezalishi lozim bo'lsa, soyada qurigandan so'ng to'g'ridan-to'g'ri guash bo'yog'ida badiiy bezak beriladi.

Boshqa milliy o'yinchoqlar: qo'zichoq, xo'roz, tuya, bo'taloq, ho'kiz, bulbul, to'ti kabilar ham deyarli shu tartibda bajariladi. Faqatgina ayrim bosqichlar bir oz farq qilishi mumkin, bu jihatlarni berilgan rasmlardan oson payqab olish mumkin.

Loy yoki plastilindan odam qomatini yasash

Odam qomatini o'yinga tushayotgan raqqosalar ko'rinishida loydan ishlashni amaliy tartibda ko'rib chiqiladi. Buning uchun loydan tana, qo'l-oyoq, bosh qismlar uchun bo'laklar ajratib olinadi va ularning har biriga kerakli shakl beriladi. So'ng bo'laklar o'z joylariga o'rnatilib, ulangan joylar stekning tekis tomoni bilan silliqalanadi. Keyin o'yinchilarning kiyimlaridagi xarakterli tomonlarini ishlashga o'tish mumkin. Bu o'rinda o'quvchilar ishni bajarishda ijodiy yondashishlari talab etiladi.



Ayol qomatining haykalini yasash.

Buyumning konstruktiv xususiyatlari va nisbatlarining xarakterli shakllarini qurish, o'quvchilarning ko'z bilan chamalash, qo'lining harakatini o'stirishga, vazifani izchillikda bajarish ko'nikmasini tarbiyalashga, materiallar xususiyati to'g'risidagi bilimni egallashga ko'maklashadi. Haykaltaroshlik materiallari – loy va plastilin.

Loy – cho'kindi tog' jinslari. Suv bilan aralashirilganda yumshoq va egiluvchan(qayishqoq) xususiyatlari hosil bo'ladi va turli shaklga kiradi hamda quritilganda shakli saqlanadi. Buyum yasashda ko'proq kulrang loy qo'llaniladi. Loyni quyidagicha tayyorlashadi: quritilgan kesakni mayda bo'laklarga bo'lishadi va ularni plastmassa idishga qatlam bilan joylashtiriladi, har bir qatlam esa suv bilan solinadi. Bir kundan keyin ortiqcha suv olinadi va qolgan loy puxtalik bilan xamirsimon holatigacha aralashtiriladi, agarda qo'lga yopishmasa, demak, loy ishlatish holatiga keltirilganligini bildiradi. Tayyorlangan loyni nam latta bilan yopib salqin joyda saqlanadi.

Ochloq havoda quritilgan loydan yasalgan modelni guash bo'yog'ida xohlagan rangda bo'yash mumkin. Loyni qayishqoqligi, tushunarligi, bo'yash imkoniyati borligi, ayniqsa, bolalar uchun juda ham qiziqarli materiallardan biri. Qotirilgan bo'lsa ham loydan yasalgan buyum mo'rt va tez sinadigan nozik bo'ladi. Shuning uchun ular ancha mustahkam bo'lgan materialga ko'chiriladi yoki 900 gradusli issiqlikda maxsus pechda kuydiriladi.

Plastilin – loy, mum, yog' va boshqa qo'shimchalardan tayyorlangan sun'iy plastik modda. U uzoq qurimaydigan, egiluvchan va yumshoq material. Bir xil rangda yoki rangli buyumlarni yasashga ishlatish uchun har doim tayyor material. Yasalgan buyumlarning shakli buzilmaydi va yorilmaydi, faqat ma'lum darajadagi issiqlikda plastilin yumshaydi va eriydi, sovuqlikda esa – qattiqlashadi.

Dumaloqlash – silliq sharsimon yuzali shaklga keltirish uchun shaklga ega bo'lmagan plastik materialning bo'lagiga ishlovlar berishning oddiy usuli. Bo'lakchani qo'l kaftini o'rtasiga olib, qo'llarni yengil siqib aylanma harakat bilan ishlov beriladi.

Tuxumsimon buyum va silindrli ustunlarni hosil qilish uchun yoyiltirish usuli qo'llaniladi. Qo'l kaftini o'rtasiga joylashtirilgan bo'lakcha, qo'lining to'g'ri chiziqli harakati bilan yoyilganda, cho'zilib silindr shaklini hosil qiladi.

Yalpaytirish – yapaloq shaklni hosil qilishda bo'lakni tekis ezg'ilash usuli. Sharikni kaftlar yoki barmoqlar bilan ezg'ilash orqali disk, yopilgan non shakliga aylantiriladi. Kichik chuqurliklar va egik joylari ezg'ilash(bosish) orqali stek yoki barmoqlar bilan bajariladi.

Mayda bo'laklarini yopishtirishda **chimchilash** usuli qo'llaniladi. Bu usul yaratilayotgan yangi qismning katta hajmining bo'lagi bir chimdimga yig'ilganini barmoqlarni kuchli siqish orqali amalga oshiriladi.

Plastik materialni bir bo'lagini bir chimdimini ushlab olib, keyin yengil qisib tortilsa, buyumning qandaydir bir qismini cho'zilgan materialdan shakllantirish mumkin. Bu usul **cho'zish, uzaytirish** degan nom bilan yuritiladi.

Yassi va tekis yuzalarni tasvirlashda barmoq uchlari, stek va latta bilan bajariladigan silliqlash usulini talab etadi. Tekislikka perpendikular qo'yilgan kurakcha, barmoqlar va steklarning uzunasi bo'yicha qilinayotgan harakat barcha notekislikni tozalaydi va surkab yuboradi. Bu holatni agarda buyum loydan ishlanayotgan bo'lsa, ho'llangan latta bilan ham bajarish mumkin. Silliqlash usulidan bir tekislikdan ikkinchisiga ravon va silliq o'tish joylarini hosil qilishda, turli qismlarni qo'shilish va aylanma joylarida ham qo'llaniladi.

Turli shakl va mazmundagi narsalarni haykalini ishlab chiqamiz. **Pomidor.** Bir bo'lak loydan dumaloq sharik yasaladi. Pomidorning bo'yi va eni taqqoslanadi, shaklni xarakterli belgilari aniqlanadi. Pomidor shaklini konstruktiv xususiyatlarini yetkazish uchun loydan yasalgan sharik ozgina yalpaytiriladi, uning yon tomonlari bosiladi. Ustki qismida katta bo'lmagan chuqurlik ishlanadi va undan kichkina ariqchalar yurgiziladi. So'ngra modelni barcha tekisligi silliqlanadi. Hosil bo'lgan shaklni model bilan o'xshashligini tekshirib ko'riladi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR

Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

1. Abdullayev N. San'at tarixi 2-jildlik, 2/1 tom. –T., 2001.
2. Abdirasilov S.F. Tasviriy san'at metodikasi. –T., «Ilm-Ziyo», 2006.
3. Abdirasilov S.F., Tolipov N.X. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. –T., «Aloqachi», 2007.
4. Boymetov B.B., Abdirasilov S.F. Chizmatasvir. –T., «G'afur G'ulom», 2004.
5. Nabiyev M.N. Rangshunoslik. T., «O'qituvchi», 1995
6. Oripov B. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. –T.: «Ilm-Ziyo», 2006.
7. Tasviriy san'at darsliklari. 1,2,3,4 - sinflar.
8. Hasanov R.X. Maktabda tasviriy san'at o'qitish metodikasi. «FAN», 2004.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Abdirasulov S., Tolipov N., Oripova N. Rangtasvir. –T.: «O'zbekiston», 2006.
2. Qodirxo'jayev P. Badiiy bezak san'ati. –T., «Iqtisod-moliya», 2007.
3. Egamov X. Bo'yoqlar bilan ishlash. – T.: «O'qituvchi», 1981.
4. Кузин В.С. Психология. – М.: «Высшая школа», 1982.
5. Пучков А.С., Триселев А.В. Методика работы над натюрмортом. – М.: «Просвещение», 1982.
6. Ростовцев Н.Н. Методика преподавания изобразительного искусства в школе. – М.: «Просвещение», 2000.
7. Ростовцев Н.Н. Учебный рисунок. – М.: «Просвещение», 1984.
8. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2004.
9. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2008.

MUNDARIJA

Kirish	3
1-bob. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi fanining nazariy mazmuni	
1.1. Tasviriy san'at o'quv fani, uning maqsadi va vazifalari.....	4
1.2. Shaxsning badiiy madaniyati va ma'naviyatini rivojlanishida tasviriy san'atning o'rni.....	9
2 - bob. Tasviriy san'atni o'qitishining qisqacha tarixidan	
2.1. Chet ellarda rasm chizishni o'rgatish tarixidan.....	17
2.2. O'rta Osiyo va O'zbekistonda tasviriy san'atni o'qitilishi.....	30
2.3. Mustaqillik yillaridagi tasviriy san'atni o'qitilishi.....	36
3-bob. Boshlang'ich sinflarda tasviriy san'at ta'limi mazmuni va uni o'qitish metodikasi	
Tasviriy san'at darslarining mazmuni.....	40
Boshlang'ich sinflarda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi.....	56
4 - bob. Tasviriy san'at tarixi	
Tasviriy san'at va uning mohiyati, tur va janrlari.....	69
O'zbek xalq amaliy san'ati va ularning turlari.....	82
Qadimgi tasviriy san'at (Zarautsoy, Varaxsha, Afrosiyob va O'rta Osiyo xalqlari san'ati).....	88
5 - bob. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish mazmuni	
1. Boshlang'ich ta'lim o'quv dasturini o'rganish va rejalashtirish.....	146
2. Dars mashg'ulot ishlanmasini tuzilishi.....	149
3. Tasviriy san'at darsining tahlili.....	154
4. Tasviriy san'at darslarida ko'rgazmalilik va ularni tayyorlash.....	156
5. Pedagogik rasmlar ishlash.....	160
6 - bob. Amaliy mashg'ulotlari bilan shug'ullanishni tashkil etish mazmuni	
1. Tasviriy san'at asosi - qalamtasvir.....	165
2. Tasvirlashning perspektiva asoslari.....	173
3. Yorug' va soyalar qonuniyati.....	181
4. Rangshunoslik nazariyasi va bo'yoq bilan ishlash usullari.....	185
5. Natyurmort.....	191
6. Intererni tasvirlash.....	198
7. Tabiat manzarasining tasvirini ishlash.....	201
8. Qush va hayvonlar tasvirini ishlash.....	203
9. Odamning boshi va qomatini tasvirlash (qalam va rangda).....	206
10. Kompozitsiya.....	209
11. Naqsh kompozitsiyasi ustida ishlash.....	217
12. Badiiy - bezak grafikasi.....	221
13. Haykaltaroshlik.....	225
Foydalanilgan adabiyotlar.....	230

ABDIRASILOV SUNATULLA FAYZULLAYEVICH

TASVIRIY SAN'AT O'QITISH METODIKASI

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2012

Muharrir:	M.Hayitova
Tex. muharrir:	A.Moydinov
Musavvir:	H.G'ulomov
Musahhih:	F.Ismoilova
Kompyuterda sahifalovchi:	Sh.Mirqosimova

**Nashr.lits. AIN№149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi: 03.09.2012.
Bichimi 60x84 ¹/₁₆. «Times Uz» garniturası. Ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 14,0. Nashr bosma tabog'i 14,5.
Tiraji 500. Buyurtma № 79.**

**«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi» da chop etildi.
100066, Toshkent shahri, Olmazor ko'chasi, 171-uy.**